

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“Defektologiya, maxsus psixologiya nazariyasi va
texnologiyalar” kafedrası**

Ijtimoiy psixologiya. Oila psixologiyasi

**fanidan
ma'ruza matni**

Ushbu ma'ruza matni "Defektologiya, maxsus psixologiya nazariyasi va texnologiyalar" kafedrasining 2014 yil 2__08 dagi majlisi tavsiyasiga binoan JDPI Ilmiy-uslubiy Kengashi tomonidan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: o`qit.X.Muzaffarova

Taqrizchi: dots. R.Nurmatov

АННОТАЦИҲА

«Дефектологийа мутахассислигига кириш» қўлёзмаси педагогика олий билимгоҳи дефектолог-бакалавр йўналиши талабалари учун ўқув қўлланмадир.

Ўлёзма Низомий номли Тошкент Давлат педагогика Университети Олигфренопедагогика ва логопедийа кафедрасининг профессори, педогогика фанлари номзоди Рахманова В. С. томонидан Тошкентда 1999 йили чиққан «Махсус педагогика» (Дефектологийа мутахассислигига кириш) дастури асосида тузилган.

«Дефектологийа мутахассислигига кириш» курси 1 курсда, 1 семестрда 18 соат маъруза, соат лаборатор машғулот ҳажмида «Махсус педогогика» курсига берилган соатлар ҳисобидан ўқилади.

Қўлланмада дефектологийа мутахасислиги бўйича таълим- тарбийа жараёнининг мазмуни, асосий шакллари, талабаларнинг ҳуқуқ ва бурчлари, талабаларнинг мустақил таълим олишлари, дефектологийа фанининг мақсад ва вазифалари, махсус ёрдамга мухтож болалар тоифалари, давлатимизда аномал балаларга таълим-тарбийа ишларини ташкил этиш каби масалалар дастурга мувофиқ батафсил ёритилган. Ушбу мавзулар ўқув қўлланмада етти боб ичида параграфларга бўлинган ҳолда жойлаштирилган.

«Махсус педагогика» (Дефектологийа мутахасислигига кириш) ўқув қўлланмаси талабаларни олий билимгоҳ ҳаётига тезроқ одатлантириш, олий мактаб мезонларини ўзлаштириб, унинг хусусиатларини мукамал билиб олиш, ўқитувчи-дефектолог касбининг муҳимлиги, шарафли эканлигини тулароқ тушунишга, англаб олишга ёрдам беради.

1-MAVZU: IJTIMOY PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

Режа:

1. Ijtimoiy psixologiyaning predmeti va vazifalari.
2. Ijtimoiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Ijtimoiy psixologiyaning asosiy bo'limlari.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya, shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy tasavvurlar, muomala, boshqaruv, oila, katta va kichik guruhlar psixologiyasi.

Jamiyat - bu insonlar majmuidir. Uning taraqqiyoti va ma'naviy salohiyati ko'p jihatdan ana shu insonlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarning tabiatiga, ular amalga oshiradigan murakkab ijtimoiy hamkorlik faoliyatining mazmuniga bog'liq. Har bir inson jamiyatda yashar ekan, u unda o'ziga xos o'rin va mustaqil mavqe egallashga intiladi, shuning uchun u o'ziga xos intilish, layoqat va faollik namunalari namoyish etadi. Insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni hamda har bir shaxsning jamiyatdagi o'rnini va uning turlicha ijtimoiy munosabatlari tabiatini o'rganuvchi qator ijtimoiy fanlar mavjud bo'lib, ularning orasida ijtimoiy psixologiya alohida o'rin zagalaydi.

Hozirgi kunda uning predmetini quyidagicha ta'riflash mumkin: ijtimoiy psixologiya - odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fandir. Chunki ko'p vaqt davomida ijtimoiy psixologiya fanining predmeti borasida tortishuvlar kechgandir. Sababi - ijtimoiy psixologiya fani ikki turdagi qonuniyatlar — ijtimoiy taraqqiyot hamda psixik taraqqiyot qonuniyatlari bilan ish olib boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak ijtimoiy psixologiyaning mavzu bahsi va u o'rganadigan sohalar borasida turlicha qarashlar va tortishuvlar mavjudligini kuzatamiz.

Masalan, taniqli nemis olimlari G. Gibsh va M; Forverglar bu fanning predmetiga quyidagicha ta'rif beradilar: "Odamlar uyushmasi kooperatsiyalar — ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning asosidir, uning ob'ekti esa ijtimoiy o'zaro ta'sirdir". Demak har qanday odamlar uyushmasida sodir bo'ladigan o'zaro ta'sir jarayonlari, ularni uyushishga majbur qiladigan shart-sharoitlar hamda motivlar ijtimoiy psixologiya o'rganishi kerak bo'lgan sohalaridir.

Rus sotsiologlari G.P. Predvechniy va Yu.A. Sherkovinlarning "Sotsial psixologiya" kitobida esa uning predmeti "... ob'ektiv borliqning va unda ro'y beradigan hodisalarning psixika tomonidan o'ziga xos tarzda in'ikos etilishidir", — deb hisoblaniladi. Bu mualliflar ijtimoiy psixologiyaning barcha o'rganish ob'ektlarini sharhlar ekanlar, ko'prok sotsiologik yondashish bilan muammolarni echishga harakat qilganlar.

Ijtimoiy psixologiyaning mavzu bahsini ta'riflashga aynan psixologik yondashuv A.V.Petrovskiy va V.V. Shpalinskiylarning «Jamoaning ijtimoiy psixologiyasi» kitoblarida bayon etilgan. Bu mualliflarning fikricha, «Ijtimoiy psixologiya — psixologiya fanining shunday tarmog'iki, u turli uyushgan va uyushmagan guruhlardagi odamlarning muloqati, o'zaro ta'sir va munosabatlaridan kelib chiqadigan psixik hodisalarni o'rganadi."

Shuning uchun ham G.M.Andreeva ijtimoiy psixologiyaning mavzu bahsi xaqidagi hozirgi zamon qarashlarini umumlashtirib, bu o'rinda uch xil yondashish borligini e'tirof etadi. Birinchisi, sotsiologik yondashish bo'lib, uning tarafdorlarining fikricha, ijtimoiy psixologiya asosan ommaviy psixologik jarayonlarni—xalqlar psixologiyasi, ommaviy marosimlar, udumlar, rasm-rusmlarning inson ongiga singishi, ijtimoiy xulq-atvorda namoyon bo'lishini o'rganishi kerak. Ikkinchi—psixologik yondashuv tarafdorlari asosan psixologlar bo'lib, ular asosiy diqqatni shaxsning ijtimoiy psixologik xislatlariga, uning turli guruhlarda tutgan o'rnini, mavqei, ijtimoiy ustanovkalar va hokazolarga qaratmoq lozim, deb hisoblaydilar. Shu bilan birgalikda,

hozirda ham sotsiologik ham psixologik qarashlarni birgalikda mujassamlashtirayotgan olimlar ham borki, ular ham ommaviy jarayonlarni, ham shaxsninig shu jarayonlardagi xulq-atvorlari motivlarini o'rganishni yoqlab tadqiqotlar o'tkazmoqdalar.

Amerika ijtimoiy psixologiyasida ham ijtimoiy psixologiyaning mavzu bahsi borasida uzoq tortishuvlar mavjud bo'lgan. Chunki, shu paytgacha shaxs va jamiyat muammolari sohasida ikki xil yondashuv bo'lib kelgan edi: psixologiya inson tabiatini, uning psixikasini, sotsiologiya esa, jamiyat tabiati, psixikasini o'rganib keldi. Ijtimoiy psixologiya paydo bo'ldiki, u insonning jamiyatga munosabatining psixologik tomonini o'rganmoqda.

Demak, har bir shaxsning jamiyatda yashashi, uning ijtimoiy normalarga rioya qilgan holda o'ziga o'xshash shaxslar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro munosabatlari va ularning ta'sirida hosil bo'ladigan hodisalarning psixologik tabiatini va qonuniyatlarini tushuntirib berish - ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifasidir. Bundan kelib chiqadigan umumiy ta'riflarga binoan, ijtimoiy psixologiya ijtimoiy muloqotning murakkab shakl va mexanizmlarini o'rganuvchi fandir.

Ijtimoiy psixologiya va umuman ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi fanlarning asosiy vazifasi - barkamol avlod tarbiyasini ta'minlovchi barcha ma'naviy, ruhiy va insoniy munosabatlar mohiyatini tahlil qilish, ularni boshqarishning eng samarali usullarini xayotga tadbiq etishdir. Bu o'rinda, ayniqsa ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishini, insonning o'ziga va o'zgalarga ta'sir etishining mexanizmlarini o'rganish eng dolzarb masalalardandir.

Taniqli frantsuz olimi Serj Moskovisi: "Ijtimoiy psixologiyaning vazifalarini bevosita jamiyat belgilaydi", deb yozgan edi. Demak, fan sifatida ijtimoiy psixologiyaning oldida turgan vazifalari, muammolari bevosita jamiyatdan kelib chiqadi.

Ijtimoiy psixologiya boshqa bir qator ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'liq. Ular qatoriga-sotsiologiya, pedagogika, falsafa, umumiy psixologiya fanlarni kiritish mumkin. Sotsiologiya ijtimoiy, guruh va individual qadriyatlar va normalarning tabiati hamda xarakterini o'rganadi. Ijtimoiy psixologiyada esa ular shakllanishining aniq xususiyatlari hamda u yashaydigan makro va mikro muhitning ta'siri hisobga olinadi. Agar sotsiologiya shaxs ijtimoiy faolligining manbalarini tushuntirib bersa, ijtimoiy psixologiya esa bu faollikning namoyon bo'lish qonuniyatlarini va yo'llarini tadqiq etadi. Sotsiologiya turli xil insoniy guruhlar ichidagi shaxslararo aloqalarning ijtimoiy mohiyatini ochibberadi. Ijtimoiy psixologiya esa bu munosabatlar har bir alohida kishining faoliyatida va ayrim guruhlarda qanday namoyon bo'ladi hamda ularning shaxs sifatleri shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri qiziqtiradi.

Pedagogikada qo'lga kiritilgan tajribalardan foydalanar ekan, ijtimoiy psixologiya shaxs va jamoaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish samaradorligini oshirish, ta'lim tarbiya jarayonlarini takomillashtirish yo'llarini ochib beradi. Ijtimoiy psixologiya pedagoglarni jamoalar, ularda shaxslararo munosabatlarni psixologik tahlil qilishning ilmiy usullari bilan qurollantiradi va bu orqali eng muhim masala yangi insonni shakllantirish vazifasini hal qilishga yordamlashadi. Shuningdek, psixologiyaning har bir tarmog'ida bo'lgani singari ijtimoiy psixologiyani o'rganish ham umumiy psixologiyani o'rganishdan boshlanadi, chunki psixikaning umumiy qonuniyatlarini, asosiy tushunchalarini chuqur bilmasdan turib, ijtimoiy psixologiya hal qilishi lozim bo'lgan muammolarni ko'rib chiqish mumkin emas.

Ijtimoiy psixologiya fanining asosiy yo'nalishlari:

1. Kichik guruhlar va jamoalar psixologiyasini o'rganishdan iboratdir.
2. Shaxsni ijtimoiy psixologik o'rganish.
3. Ommaviy ijtimoiy-psixologik hodisalar
4. Oila—ijtimoiy psixologiyaning o'rganish ob'ekti sifatida.

Birinchidan, uning asosiy yo'nalishi kichik guruhlar va jamoalar psixologiyasini o'rganishdan iboratdir. Har bir shaxs hamisha malum ijtimoiy guruhlap doirasida faoliyat ko'rsatadi. Bu uning oilasi, mehnat jamoasi, ko'cha-kuydagi norasmiy guruhdagi do'stlari davrasi, o'quv jamoasi va hokazolardir. Shaxsning yakka va turli guruhlar doirasida o'zini

tutishi, xulq-atvori, mavqei, unga o'ziga xos guruhiiy ta'sirlar, guruhdagi shaxslararo moslik, liderlik, guruhiiy taz'yiqa beriluvchanlik kabi qator hodisalar aslida o'sha guruhlarni boshqarish, o'zaro munosabatlar sharoitini yaratish - bu odamlarni samarali o'zaro muloqotga o'rgatishning zaruriyatidir. Guruhlardagi kishilar o'rtasida o'zaro muloqot, o'zaro bir-biriga ta'sir usullari, odamlarni samarali muloqotga o'rgatish ham guruhlar ijtimoiy psixologiyasining muhim vazifasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, shaxsni ijtimoiy psixologik o'rganish. Shaxsning ijtimoiy psixologik qiyofasi masalasi ham bugungi kundagi o'zgarishlar va manaviy jihatdan poklanish davrida o'ta muhim sohadir. Shaxsni ijtimoiy psixologik o'rganish tadqiqotlarining ob'ekti sifatida qaralganda, avvalo uning xulq-atvori, ijtimoiy motivlari, uning yo'nalishlari, xulq-atvor normalari, shaxsning jamiyatda turli ijtimoiy rollari, mavqei, ijtimoiy qo'shilish omillari-ijtimoiylashuvi; shaxsning o'z-o'ziga bahosi, munosabati, hurmati hamda ijtimoiy, tarixiy va madaniy shart-sharoitlarning shaxs ongiga ta'siri, shaxs tiplari o'rganiladi.

Uchinchidan, Ommaviy ijtimoiy-psixologik hodisalar

Jamiyat miqyosida ro'y beradigan ommaviy hodisalar ijtimoiy psixologiya uchun tadbiiy ahamiyatga ega. Ijtimoiy psixologiyada ommaviy hodisalar deganda turli kishilar guruhida shaxslararo munosabatlar va o'zaro ta'sir jarayonlari; milliy etnopsixologiya hamda sinflar psixologiyasi muammolari; milliy madaniyat, urf-odatlar, an'analar, udumlar, aqidalarning shaxs shakllanishidagi roli; olomon psixologiyasiga oid psixologik qonuniyatlar; turli guruhlarda odamlarning bir-birini idrok qilishlari va tushunishlari, o'zaro ta'sir masalalari tushuniladi.

Chunki alohida shaxs tarbiyasida ommaviy hodisalarning, katta guruhlarning tasirini inkor etish - masalaga bir yoqlama yondashish bilan barobardir. Masalan, shaxs uchun u mansub bo'lgan millat, elat yoki xalqning ruhiyati, uning ongidagi asrlar davomida saqlanib kelayotgan ananalar, rasm-rusumlar, aqidalar, udumlar, faoliyat stereotiplari kabilar o'z muayyan tasir kuchiga ega.

To'rtinchidan, Oila—ijtimoiy psixologiyaning o'rganish ob'ekti sifatida. Oila—ijtimoiy psixologiyaning o'rganish ob'ekti sifatida. Bu erda oilaga xos psixologik jarayonlar, oila a'zolarining bir-birlariga munosabatlari, nikohdagi o'zaro moslik masalalari, oilaviy mojarolarning psixologik omillari, oilada bola tarbiyasining ijtimoiy psixologik metodlari o'rganiladi.

Ajratilgan vazifalardan yana biri shuki, hozirgi davrda ijtimoiy psixologiya o'zi bilan bevosita aloqador bo'lgan boshqa psixologiya tarmoqlari bilan hamkorlikda keskin o'zgarishlar davrida har bir inson ongida nima sodir bo'ladi, u bu o'zgarishlarni qanday idrok qilmoqda, uning hayotiy mavqeini qanday qilib maqsadga muvofiq tarzda faollashtirish mumkin, degan savollarga ilmiy asoslangan javob topib berishdir.

Boshqaruv psixologiyasi, sanoat va ishlab chiqarish psixologiyasi ham shunday guruhiiy jarayonlarning qonun va qoidalarini tadqiq etish tufayli ajralib chiqqan tadbiiy sohalardir.

Ijtimoiy psixologiya o'rganadigan eng asosiy va yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni o'z ichiga olgan masalalardan biri - 6u muomaladir. Psixolog olimlarnng fikricha, bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning predmeti ham va uning doirasida o'tkaziladigan barcha tadqiqotlarning umumiy ob'ekti ham muomaladir. Uning inson hayotida tutgan o'rnini aniqlash turli ijtimoiy faoliyatlar sharoitida samara beradigan muomala turlari va uslublarini yoritish, uning sof psixologik mexanizmlarini tadqiq etish, fanning eng muhim tadbiiy yo'nalishlaridandir. Shuning uchun ham har bir konkret sharoitda shaxslararo muloqot samaradorligini oshirish omillarini o'rganish hozirgi ijtimoiy psixologiyadagi muhim muammolardandir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Ijtimoiy psixologiya fanini o'rganishning ahamiyati.
2. Ijtimoiy psixologiya fani predmeti.
3. Ijtimoiy psixologiya fanining vazifalari.

4. Ijtimoiy psixologiya fanining boshqa fanlar tizimida tutgan o`rni
5. Ijtimoiy psixologiya fanining alohida sohalari.
6. Ijtimoiy psixologiya va pedagogik amaliyot.

Mustaqil ishlar uchun mavzular:

1. Ijtimoiy psixologiya fani predmeti va vazifalari.
2. Ijtimoiy psixologiya fanidagi o`rganiladigan muammolar.
3. Ijtimoiy psixologiya fanini o`rganishning hozirgi davr uchun ahamiyati.
4. Ijtimoiy psixologiya va yangi davr amaliy sohalari.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro`yhati:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori».T., 1997.
2. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risidagi Qonuni”, T., 1997.
3. Karimov I.A. O`zbekistonda demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari.- “Turkiston”, 2002 yil 31 avgust
4. G`oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
5. G`oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
6. G`oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
7. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T., 1994 y.
8. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T., 1999 y.
9. Karimova V. Psixologiya. T., 2002 y.

2 – MAVZU: IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA FANINING YUZAGA KELISHI VA RIVOJLANISHI.

Reja:

- 1. Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida tarkib topishi.**
- 2. Ijtimoiy psixologiyaning vujudga kelish manbalari.**
- 3. Ijtimoiy psixologiyaning Rusiya va sobiq ittifoqda rivojlanishi.**
- 4. O'zbekistonda ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollari.**

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Ijtimoiy psixologiya, metodologiya, shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy tasavvurlar, ilmiy taxmin, oila, katta va kichik guruhlar psixologiyasi.

Ijtimoiy psixologiya juda qadimiy va shuning bilan birga u o'ta navqiron fandır. Uning qadimiyligi insoniyat tarixi, madaniyati va ma'naviyatining qadimiy ildizlari bilan belgilanadi. Ular aslini olib qaraganda, u yoki bu jamiyatda yashagan kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning va tafakkurning xosilasi ekanligi bilan e'tirof etilsa, u - o'z uslubiyoti, predmeti va fanlar tizimida tutgan o'rnining yangiligi insoniyat taraqqiyotining eng yangi davrida shakllanganligi va rivojiga turtki berganligi bilan tavsiflanadi. Darhaqiqat, ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida tan olinishi xususida so'z borar ekan, uning rasman e'tirof etilishi 1908 yil deyiladi. Chunki aynan shu yili ingliz olimi V. Makdugall o'zining "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" kitobini, amerikalik sotsiolog E.Ross esa "Ijtimoiy psixologiya", deb nomlangan kitobini chop ettirgan edi. Bu asarlarda birinchi marta alohida fan - ijtimoiy psixologiyaning mavjudligi tan olindi va uning predmetiga ta'rif berildi. Ikkala muallif ham - biri psixolog, ikkinchisi sotsiolog bo'lishiga qaramay, bu fanning asosiy predmeti ijtimoiy taraqqiyot hamda psixik taraqqiyot qonuniyatlarini uyg'unlikda o'rganishdir, degan umumiy xulosaga kelishgan.

Rus olimasi G.M.Andreeva ta'kidlaganidek, ijtimoiy psixologiya sohasida ishlayotgan mutaxassisning aslida kim ekanligi - psixologmi, faylasufmi yoki sotsiologmi - uning ushbu fan predmetiga yondashuvida o'z aksini topadi, chunki agar u sotsiolog bo'lsa, ijtimoiy qonuniyatlarni avval boshdan jamiyatdagi an'analar va umumiy qoidalar tilida tushuntirishga intilsa, psixolog - konkret olingan shaxe psixologiyasining qonuniyatlarini umumjamiyat qonun-qoidalariga tadbiq etishga harakat qiladi. Shuning uchun ham G.Andreeva ijtimoiy psixologiyaning mavzu bahsi haqidagi hozirgi zamon qarashlarini umumlashtirib, bu o'rinda uch xil yondashish: sotsiologik, psixologik, ham sotsiologik va psixologik mavjud ekanligini asoslaydi. Nima bo'lganda ham, shuni asosli tarzda e'tirof etish zarurki, ijtimoiy psixologiyaning alohida fan bo'lib ajralib chiqishiga sabab bo'lgan ilmiy manbalar ikki fan - psixologiya va sotsiologiya fanlarining erishgan yutuqlari va har qaysisining doirasida ma'lum muammolarning echilishi uchun yana qo'shimcha alohida fanning bo'lishi lozimligini tan olish tufayli yuzaga keldi. Shuning uchun ham uzoq yillar mobaynida ijtimoiy psixologiya sohasida tadqiqotlar olib borayotgan shaxsning kimligiga qarab, izlanishlarning natijalarida u yoki bu yondashuv - psixologik yoki sotsiologik yondashuvning ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlandi. Demak, bu fanning tug'ilishi, o'z predmeti sohasini aniqlab olishiga sabab bo'lgan sotsiologiya va psixologiya fanlaridir va bu fanlar aslida uning "ota-onalaridir"

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq holda rivojlanganligining, ilmiy jihatdan esa, falsafiy qarashlar ta'sirida bo'lib, sof ijtimoiy psixologik nazariyalarning juda oz sonli bo'lganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Insoniyat tarixini o'rganar ekanmiz mutafakkirlar, olimlar, allomalar ijtimoiy psixologik hodisalar bilan juda qiziqqanliklarini kuzatamiz. Lekin ular bu hodisalarni o'z davri ruhida, o'z nazariy va ijtimoiy qarashlari, hattoki, turli oqimlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyaning fan sifatidagi taraqqiyotini o'rganish uchun ijtimoiy

psixologik muammolar yoritilgan asar yoki kashfiyotchining yashagan davri, uning siyosiy qarashlari, jamiyatning taraqqiyot xususiyatlarini ham o'rganish lozim. Ilmiy manbalar ijtimoiy psixologiyaning davlat va huquq nazariyasi, siyosiy iqtisod, etika, falsafa fanlarining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ayniqsa, fan taraqqiyotiga falsafa fani o'zining sezilarli ulushini qo'shgan. Shuning uchun ham amerikalik olim G. Olport ijtimoiy psixologik g'oyalarning yaratilishi va rivojlanishi falsafa bilan, uning ko'zga ko'ringan arboblardan hisoblangan Platon nomi bilan bog'liq deb yozgan edi.

Platon o'zining "Davlat" va "Qonunlar" deb atalgan dialoglarida shaxsning jamiyat bilan aloqalari masalasiga to'xtalib, jamiyat individga nisbatan o'zgarmas bir birlikki, uning taraqqiyoti jamiyat rivojlanishi qonunlariga bo'ysunadi, degan fikrni himoya qilgan. Unga qarama-qarshi fikrni Aristotel bayon etib, individni barcha ijtimoiy o'zgarishlarning sababchisi, chunki unda bunga imkon beruvchi psixologik tizimlar bor, deb yozadi. Ya'ni, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat masalasi Platonda jamiyat foydasiga hal bo'lgan bo'lsa, Aristotelda bu narsa shaxs foydasiga echilgan. Ulardan keyingi — yangi davr faylasuflari — Gobbs, Gelvetsiy, Lokk, Russo, Gegel, Makiavelli, sharq faylasuflaridan Beruniy, Forobiylar ham barcha asarlarida shaxs va jamiyat qarama-qarshiliklarini ilmiy asosda sharhlashga urindilar, lekin hech qaysisi bu muammoni ijtimoiy psixologik muammo darajasiga ko'tara olmadi.

XIX asrning o'rtalariga kelib, kapitalistik munosabatlarning keskinlashuvi, turli davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarning tobora o'sib borishi, turli xalqlarning bir mamlakatdan ikkinchisiga ko'chishi—migratsiya munosabati bilan qator ijtimoiy fanlar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar paydo bo'ldi.

Shu o'rinda ijtimoiy psixologiyaning ilmiy manbalaridan biri bo'lgan sotsiologiya fanining xizmatini ko'rsatmay bo'lmaydi. Sotsiologiyaning asoschilari hisoblangan Ogyust Kont, Gerbert Spenser va boshqalar, masalan, jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarni o'rganish uchun albatta, o'ziga xos, ayrim psixologik xolatlarni o'rganmoq lozim, degan fikrni qat'iy turib isbot qildilar. Ular har bir ijtimoiy voqeada ruhiy hodisalar borligini isbot qilishga urindilar. Masalan, frantsuz sotsiologi G. Tard har bir individda "ijtimoiy fakt" borligini, bu narsa uning miya doirasidagina emas, balki bir qancha miyalar aloqasi tufayli mavjuddir, deb hisoblaydi. Ijtimoiy xulq-atvor modeli, uning fikricha, doimo individlararo munosabatni o'z ichiga olib, bunda bir individ boshqa individga doimo taqlid qiladi, shuning uchun ham shaxsni o'rganish boshqa shaxslarni inkor qilmasligini talab qiladi. Shunday qilib, sotsiologiyada psixologik yo'nalish paydo bo'ldi. Tarddan keyin L. Uord, F. Giddings va boshqalar ijtimoiylik qonunlarini jamoa ruhiy holati bilan uzviy ravishda o'rgana boshladilar. Ularning fikricha, ijtimoiy fakt — bu ijtimoiy aql, tafakkur bo'lib, u "jamiyat psixologiyasi" yoki sotsiologiyaning bahs mavzuidir.

Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan ilmiy-falsafiy, ijtimoiy manbalar, shart-sharoitlar tufayli ijtimoiy-psixologik g'oyalar shakllanib bordi. Bu qarashlar sof psixologiyaga ham o'xshamagan, sotsiologiya doirasidan chiqib ketadigan alohida fanning—ijtimoiy psixologiyaning paydo bo'lishi uchun zamin rolini o'tadi.

XX asr shu bilan xarakterli ediki, u turli fanlar oldiga konkret topshiriqlar qo'ya boshladi. Shuning uchun psixologiya fani oldida tadqiqotlar asosida psixologik qonuniyatlarni asoslash vazifasi turar edi. Ikkinchidan esa, Amerikada ko'pgina psixologlar o'z tadqiqot ob'ektlarini laboratoriyalarda ayrim psixik jarayonlarni o'rganishdan kichik guruhlariga ko'chira boshladilar. Bu davrda psixologiyada shakllanib bo'lgan uch asosiy oqim (psixoanaliz, bixeviorizm va geshtalt psixologiya) ichida ham ijtimoiy xulq-atvorni kichik guruhlar doirasida o'rganish tendentsiyasi paydo bo'ldi. Bunda asosiy diqqat kichik guruhlariga va ularda turlicha eksperimentlar o'tkazishga qaratilgan edi. Bunday holatning paydo bo'lganligi ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishida nihoyatda katta rol o'ynadi.

Geshtald psixologiya yo'nalishi negizida maxsus ijtimoiy psixologik yo'nalishlarning — interaksionizm va kognitivizmning paydo bo'lganligi esa bu fanning eksperimental ekanligini yana bir bor isbot qildi.

Bixeviorizm yo'nalishlari doirasida o'tkazilgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar avvalo amerikalik olimlar K. Xoll va V. Skinnerlar nomi bilan bog'liq. Ular va ularning izdoshlari

hisoblangan K. Miller, D. Dollard, Dj. Ribo, G. Kelli va boshqalar diada — ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xil eksperimental ko'rinishlarini tadqiq qilib, ularda matematik o'yin nazariyasi elementlarini kuzatdilar. Diada sharoitida tajribada o'tkazilgan tadqiqotlarda asosan mustahkamlash g'oyasini isbot qilishga urinildi. Klassik bixeviorizmdan farqli o'laroq ijtimoiy psixologik bixevioristlar hayvonlar o'rniga laboratoriyaga naqd pulga odamlarni taklif eta boshladilar, shuning uchun ham ularning g'oyasida biologizm va mexanizm tarzda ilgari hayvonlarda to'plangan dalillar modelini insonlarda qo'llash hollari kuzatildi.

Psixanaliz doirasida esa ijtimoiy psixologik tadqiqotlar E. Fromm va Dj. Salliven ishlari bilan bog'liq bixevioristlardan farqli o'laroq bu erda eksperimentlar ikki kishi emas, balki ko'pchilik ishtirokida o'tkazila boshladi. Ularning izdoshlari (V. Bayon, V. Bennis, G. Sheparde, V. Shutk) o'tkazgan tadqiqotlar tufayli hozirgi kunda ham katta qiziqish bilan o'rganilayotgan kichik T—guruhlar psixologiyasi yaratildi. Unda guruh sharoitida bir odamning boshqalarga ta'siri, guruhning ayrim individlar fikrlariga ta'siri kabi masalalar ishlab chiqildi va ijtimoiy psixologik treninglar o'tkazishga asos solindi.

Kognitivizm K. Levin nazariyasi asosida paydo bo'lgan psixologik yo'nalish bo'lib, undagi o'rganish obekti munosabatlar tizimidagi kishilar, ularning bilish jarayonlari, ong tizimiga taalluqli bo'lgan kognetiv holatlar bo'ldi. Kognitivizm doirasida shunday mukammal, boshqalarga o'xshamas nazariyalar yaratildiki, ular hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Masalan, F. Xaydarning balanslashtirilgan tizimlar nazariyasi, T. Nyukomning kommunikativ aktlar nazariyasi, Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ulardagi asosiy g'oya shundan iboratki, shaxs o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqotga kirishar ekan, doimo munosabatlarda ruhiy mutanosiblik tenglik bo'lishiga, shu tufayli ziddiyatlardan chiqishga harakat qiladi. Maqsad — turli ijtimoiy sharoitlarda shaxs xulq-atvorining psixologik sabablarini tushuntirish va ziddiyatlarning oldini olish uchun yo'l-yo'riqlar ishlab chiqishdan iborat. Hozirgi davrda ham taniqli ijtimoiy psixologlar Olport, Maslou, K Rodjers va ularning safdoshlari gumanistik psixologiya doirasida bu ishlarni faol davom ettirmoqdalar.

Navbatdagi nazariya interaksionizm bo'lib, bu aslida sotsiologik nazariya bo'lib hisoblanadi. Uning asoschisi Gerbart Mid bo'lib, uning qarashlari ta'sirida T. Sarbinning rollar nazariyasi, G. Xaymen va R. Mertonlarning referent guruhlar nazariyasi, F. Gofmanning ijtimoiy dramaturgiya nazariyalari shakllandi. Ular turli ijtimoiy sharoitlardagi xulq-atvorlarni tushuntirish orqali shaxs ijtimoiy psixologik sifatlarining sabablarini topishga harakat qildilar. Har bir shaxs doimo ijtimoiy o'zaro ta'sir tizimida mavjud bo'ladiki, unda u to'g'ri harakat qilish uchun o'zgalarni tushunishga harakat qilishi, o'zgalar rolini qabul qilishga tayyor bo'lishi lozim. Lekin o'zgalar rolini to'g'ri qabul qilish uchun unda "umumlashtirilgan o'zga" obrazi bo'lishi lozimki, bu obraz shaxslararo muloqot jarayonida, har bir shaxs uchun ibratli bo'lgan kishilar guruhi bilan muloqotda bo'lish jarayonida shakllanadn. Ya'ni shaxs faolligi tan olinadi, bu esa fan tarixida o'ta progressiv hol edi.

Ijtimoiy psixologiyaning uch nazariy manbai

1. Xalqlar psixologiyasi nazariyasi
2. Omma psixologiyasi nazariyasi
3. Ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyasi

19 asrning oxiri va 20 asr boshlarida fanda uch nazariya paydo bo'ldiki, ular haqli ravishda ijtimoiy psixologiyaning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Bu uch nazariyani birlashtirib turgan narsa shu bo'ldiki, ularning har biri mustaqil tarzda shaxs bilan jamiyat munosabatini ilmiy asosda tushuntirishni izlanishlarning asosiy mavzusi deb hisobladilar. Bu uch manba - xalqlar psixologiyasi, omma psixologiyasi va ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyalardir.

Halqlar psixologiyasi nazariyasi ijtimoiy psixologik nazariya sifatida 19 asrning o'rtalarida Germaniyada shakllandi. Undagi asosiy g'oya shu ediki, ayrim individlardan yuqori turadigan ruh mavjud bo'lib, bu ruh o'zidan ham yuqori turadigan ilohiy yaxlitlikka bo'ysunadi. Bu ilohiy yaxlitlik esa xalq yoki millatdir. Ayrim individlar ana shu yaxlitlikning bo'laklari

bo`lib, ular bu ruhga bo`ysunadilar. Ya'ni, shaxs bilan jamiyat o`rtasidagi qarama-qarshilik muammosi jamiyat foydasiga hal qilinadi. Bu nazariyaning tarixiy-mafkuraviy asosi bo`lib Gegel falsafasi va nemis romantizmi xizmat qilgan. «Xalqlar psixologiyasi» iborasi birinchi marta faylasuf M.Latsarus hamda tilshunos G.Shteyntallarning «Xalqlar psixologiyasi to`g`risida kirish so`zi» kitobida ifodalab berilgan: «Tarixni yurgizuvchi asosiy kuch bu xalq yoki shu yaxlitlikning ruhi bo`lib, bu ruh san'atda, dinda, tilda, afsonalarda, an'analarda o`z aksini topadi. Individdning ongi shu yaxlitlikning mahsuli bo`lib, ularning yig`indisi o`z navbatida xalq ongini tashkil etadi. Xalqlar psixologiyasining vazifasi xalq ruhi mohiyatini o`rganish, xalq ruhiyati konunlarini ochish, xalq psixologiyasiga oid bo`lgan o`ziga xos xususiyatlarning paydo bo`lishi va yo`nalishini tushuntirib berishdir».

Ushbu kitobda mualliflar shaxs bilan jamiyat munosabati xususida quyidagi mulohazalarini bayon etadilar: «Odam o`z mohiyati jihatidan ijtimoiy mavjudot bo`lib, u jamiyat hayoti bilan uzviy bog`liq, chunki u o`ziga o`xshashlarga qarab rivojlanadi, boshqalarga taqlid qilib harakat qiladi va ular ta'qibidan qochadi...». Xalqlar psixologiyasining asoschilari faqat nazariy mulohazalar yuritish bilan cheklanadilar, chunki ularda o`z fikrlarini isbot qilish uchun tadqiqot ishlari yo`q edi.

"Psixologiyaning otasi" hisoblangan Vilgelm Vundt esa xuddi ana shu tadqiqotga asoslangan ma'lumotlar to`plashga o`z diqqatini qaratdi. U o`zining "Inson va hayvon ruhi haqida lektsiyalar"i (1863 y) va 1900 yilda bosmadan chiqqan o`n tomli "Xalqlar psixologiyasi" asarlarida asosan o`zi to`plagan empirik ma'lumotlar asosida xalqlar psixologiyasiga bag`ishlangan fikrlari tizimini bayon etdi. Uning fan oldidagi xizmati shundan iborat ediki, empirik ma'lumotlar to`plash usullari, to`plangan manbalarni sharhlash borasida bebaho bilimlar to`pladi. Uning fikricha, psixologiya fani ikki qismdan iborat: fiziologik psixologiya va xalqlar psixologiyasi. Fiziologik psixologiya inson ruhiyatini o`rganuvchi eksperimental fan bo`lib, oliy psixik jarayonlar — tafakkur va nutqdan tashqari barcha narsani tajriba usulida tadqiq etish mumkin. Tajriba usulida o`rganib bo`lmaydigan barcha oliy ruh holatlarini xalqlar psixologiyasi o`rganadi, chunki undagi o`rganish usullari o`ziga xosdir — u madaniy mahsullar hisoblangan til, afsonalar, odatlar, san'at asarlari, inson tafakkurining murakkab tomonlarini ochib beradi.

Shunga qaramay Vundtning qarashlari idealistik asosda bo`lgan, ya'ni u individ bilan jamiyat o`rtasidagi murakkab dialektik munosabatni idealistik asosda turib hal qilgan va jamiyatning rolini absolyut tushunib, shaxsning tarixini yaratishdagi, ijtimoiy jarayonlardagi faol o`rnini ko`ra bilmagan. Uning izdoshlari — Rusiyalik A. Potebni, nemis olimi T. Geyger va boshqalar ham u yo`l qo`ygan mafkuraviy kamchilikni oldini ola olmadilar, lekin ular bir fikrda yakdil edilariki, xalqlar psixologiyasi individual psixologiyadan farq qiladi, shuning uchun ham maxsus fan kerakki, u o`ziga xos usullar yordamida shaxs va jamiyat munosabatlari qonunlarini ochib berishi lozim. Xuddi ana shu xulosalar ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishiga ilmiy asos bo`ldi.

Omma psixologiyasi nazariyasi paydo bo`lishiga tarixiy asos ishchilar sinfining paydo bo`lishi va Evropada ishchilar harakatining ommaviy tus olishi bo`ldi. Ya'ni, XIX asrning ikkinchi yarmida ishchilar harakati shunday keng tus oldiki, tartibsiz harakatlar uyushgan harakat darajasiga ko`tarildi. Shuning uchun ham shu harakatlarning qonunlarini bilish, ularni boshqarish usullarini o`ylab topish zarur edi.

Ommaviy hodisalarni o`rganish natijasida 1890 yilda Gabriel Tardning «Taqlid qilish qonunlari» deb atalgan birinchi kitobi chiqdi. Tard Frantsiyada ro`y berayotgan ommaviy hodisalarni, shu hodisalarda ishtirok etayotganlarning xulq-atvorlarini taqlid qilish orqali tushuntiradi. Bu harakatlar irratsional (ya'ni aqlning ishtirokisiz) tabiatga ega bo`lib, har bir individ ommaga qo`shilgan zahoti unga taqlid qilishga tayyorlik instinkti ustun bo`lib qoladi. Italiyalik huquqshunos S. Sigeli va frantsuz olimi G. Lebon ham Tard ishlarini ma'qullab, uning nazariyasini faktik materiallar bilan, ya'ni 1895 yilda bosilib chiqqan Sigelining «Ommaning jinoyatlari» va Lebonning «Omma psixologiyasi» kitoblari orqali boyitdilar. Bu mualliflarning asarlaridagi asosiy g`oya shundan iborat ediki, ommaviy harakatlarda shaxsning o`z xulq-

atvorlarini ongli va aql bilan boshqarish qobiliyati yo`qoladi. Bunday holatlarda hissiyotlar ustun keladi, ayniqsa, affekt holatlar, shuning uchun ham affekt holatida ro`y bergan jinoyatga aybni yumshatuvchi holat sabab bo`lgan, deb qarash adolatli bo`ladi. Bu qarashlari tufayli Sigeli Italiyaning qonuniga maxsus modda kiritishga ham erishdi.

Sotsiolog Lebon esa asosan diqqatini ommani elitaga — jamiyatdan yuqori turuvchi tanlangan guruhlariga qarshi qo`yishga qaratdi. U ommaning ayrim hollarida, ayniqsa biror hodisa ro`y berganda «qiziqqonlik» xususiyati ustun turishi haqida yozadi. Uning fikricha, bir qancha odamlarning bir erda to`planishi ommani hosil qiladi va bu, odamlar kim bo`lishidan qati nazar — olimmi yoki oddiy insonmi, shu zahotiyoy kuzatuvchanlik va ziyraklikni yo`qotadi. Chunki bu holatda ular holatini instinktlar va hissiyotlar boshqaradi. Lebon shaxsning omma holatidagi belgilariga to`xtalib quyidagilarni ajratadi:

1. Shaxsiy sifatlarning yo`qolishi. Boshqa odamlar ta'sirida individ o`ziga xos sifatlarni yo`qotishi, buning o`rniga impulsiv instinktiv harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi.

2. Hissiyotlarga o`ta beriluvchanlik. Ommada aql, tafakkur, hissiyot, instinktlarga o`z o`rnini bo`shatadi. Shuning uchun ham ommaning ta'sirchanligi o`ta oshib ketadi.

3. Aqliy sifatlarning yo`qolishi. Ommaning «aqli» uni tashkil etuvchilar aqlidan ancha past bo`ladi. Shuning uchun ham ommaning taz'yiqligiga uchramaslik uchun har bir kishi aqlan mulohaza yuritishdan bosh tortishi, munozaradan qochishi lozim.

4. Shaxsiy mas'uliyatning yo`qolishi. Ommaga qo`shilib qolgan shaxs shunchalik hissiyotlarga berilib ketishi mumkinki, u o`z harakatlarini nazorat qilish, o`z ishiga mas'uliyatni esidan chiqaradi. Yakka holda sodir qila olmaydigan ishini, u ommaga qo`shilib qilib qo`yishi mumkin.

Bunday xolatning, ya'ni shaxsning omma orasidagi psixologiyasi to`g`risidagi fikrlarni ayni shunday tarzda Ortegi Gasset va Ernesto Grassilar ham ko`rsatib bergandirlar.

Shunday qilib, omma tartibsiz, u mustaqil ravishda tartib o`rnatish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun ham unga doimo “dohiy” kerak, dohiylar — elita tashqaridan kelib omma o`tasida tartib o`rnatishi mumkin. Bu fikrlarning mafkuraviy ma'nosi tushunarli, chunki omma deganda, ular ishchilar sinfini, dohiylar deganda esa, burjuaziyani nazarda tutishgan. Demak, shaxs va jamiyat ziddiyatlari masalasi omma psixologiyasi tarafdorlari nazariyasida ayrim shaxslar — dohiylar foydasiga hal qilindi. Lekin bu nazariya, nima uchun ommaviy hodisalarda ommaning o`zidan chiqib qoladigan liderlar, ommaning ba'zan tashqaridan hech kimni tan olmay qolishi masalalariga umuman javob topa olmadi, chunki ularning ham fikrlarida ko`proq idealizmga moyillik sezilib turardi.

Ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyasi XX asrning boshida Angliyada shakllandi. Uning asoschisi ingliz psixologi Uilyam Makdugall bo`lib, u o`zining 1908 yilda yozgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" kitobidagi inson xulq-atvorlarining motivi yoki uni harakatga keltiruvchi kuch instinktlardir, - deb yozgan. Keyinchalik u instinkt tushunchasi bilan birga layoqat, intilish iboralarini ham ishlata boshladi. Uning fikricha, xulq-atvorni ta'minlovchi narsa tug`ma, psixofiziologik tayyorlik holati bo`lib, u nasldan-naslga uzatiladi. Makdugall barcha harakatlarni refleksiv holda tushuntirishga intilib, refleksiv yoyga xos bo`lgan barcha qismlar — ya'ni efferent qabul qiluvchi, retseptiv bo`lim, efferent (harakat) va markaziy bo`limdan iborat tizim sifatida tasavvur qiladi. Barcha ijtimoiy harakatlar ham ana shunday refleksiv tabiatga egadir, deb uqtiradi u.

Shunga o`xshash fikrlar E. Ross ("Ijtimoiy psixologiya") va Dj. Bolduin ("Ijtimoiy psixologiya bo`yicha tadqiqotlar") qarashlarida ham rivojlantirilgan. Masalan, Bolduin ikki turli irsiyat xaqida — tabiiy va ijtimoiy irsiyat haqida yozib, ijtimoiy odamlardagi taqlid qilish qobiliyati bilan bog`liq, deb yozadi. Jamiyatda yashayotgan odamlar bir-birlariga ta'sirlarini o`tkazishga moyildirlarki, bu narsa ular o`rtasidagi munosabatlarni boshqarib turadi.

Shunday qilib, bu yo`nalish tarafdorlarining fikricha, barcha ongli harakatlarning boshi — ongsizlikdir, ya'ni instinktlar bo`lib, ular asosan hissiyotlarda namoyon bo`ladi. Hissiyot bilan instinktlar bog`liqligini Makdugall juftliklarda ko`rsatishga harakat qilgan: masalan, kurash instinkti — qo`rquv, g`azab hissi; nasl qoldirish instinkti — rashk ayollardagi tobelik hissi;

o'zlashtirish instinkti — xususiylikka intilish hissi va hokazo. Ijtimoiy hodisalarni tushuntirishda tug'ma instinktlar rolining yuqori qo'yganligi uchun bu nazariya ilmiy taraqqiyot bosqichida salbiy o'rin tutdi, deb aytishimiz mumkin. Lekin uning ayrim hodisalar sabablarini tushuntirishga harakat qilishi fan oldiga ulkan vazifalarni qo'ydi. Ijtimoiy psixologiya fan sifatida ana shu muammolarni tadqiq qilishi lozim edi.

Demak, yuqorida to'xtab o'tilgan uchala nazariyaning ahamiyati shundan iborat ediki, ular yangi tug'ilishi lozim bo'lgan fan — ijtimoiy psixologiya fanining tadqiqot mavzuini ochib berdi. Qolaversa, bu uchchala yo'nalish ham nazariy qarashlarni isbot qilishda ob'ektiv tekshiruv usuli hisoblangan eksperimentdan foydalanish zaruriyatini ko'rsatdi. Bu narsa yana bir bor maxsus fanning kelajak rejalarini aniqlashga yordam berdi.

Ijtimoiy psixologiya fanining Rusiya va sobiq ittifoqda rivojlanishi

Ijtimoiy psixologiya fanining asoschisi deb haqli ravishda V.M. Bexterevni ko'rsatish mumkin. U o'zining refleksologiya nazariyasi doirasidan shaxs xulq-atvorining motivlarini tushuntirishga uringanlardan biridir. Uning fikricha, barcha ongli va ongsiz jarayonlar tashqi xulq-atvorda, harakatlarda ifodalanadi, shuning uchun ham tashqi harakatlarni, qiliqlarni, nutqni, tovushni o'rganish orqali shaxsning o'zini va bu harakatlarning sabablarini o'rganish mumkin. Bexterev asosan sotsiologiyani biologiya bilan, psixologiyani esa fiziologiya bilan aralashtirib yubordi, shuning uchun shaxs va jamiyat taraqqiyotining universal qonunlarini aniqlashda chalkashlikka yo'liqdi.

20-30- yillarda bolalar va o'smirlar ijtimoiy psixologik taraqqiyotini o'rganishga qaratilgan ikki yo'nalish paydo bo'ldiki, ular ham qator kamchiliklardan holi bo'la olmadilar. Masalan, biologik yoki biogenetik nazariya tarafdorlari shaxsning shakllanishida irsiy va biologik nasliy omillar etakchi rol o'ynaydi, deb hisoblashsa, sotsiologik yoki sotsiogenetik nazariyotchilar bu borada ijtimoiy muhit rolini nihoyatda ortiq ekanligini himoya qilib chiqdilar.

30-yillardagi olimlar shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhitning, jamoaning rolini, ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini isbotlashga urindilar. Lekin 40—60- yillar ijtimoiy-psixologiya taraqqiyotida nisbatan sokinlik davri bo'ldi. Chunki psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar ichida ijtimoiy psixologik tadqiqotlar yo'q hisob edi. Bu fan Rusiyada va boshqa sobiq ittifoqdosh jumhuriyatlarda 70- yillardan keyin keskin rivojlana boshladi. Bunda moskvalik va leningradlik (hozirgi Sankt-Peterburg) olimlar maktabi katta rol o'ynadi. Agar Moskva shahrida asosan ijtimoiy psixologiya bo'yicha fundamental nazariy tadqiqotlar ko'plab o'tkazilib, unda hozirgi zamon ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning empirik qonunlari asoslari ishlab chiqilgan bo'lsa, Sankt-Peterburgda ko'proq tadbiiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borildiki, ular birgalikda minglab yosh ijtimoiy psixologlar avlodini tarbiyalab etishtirdilar. Ular esa hayotimizga ilg'or fikrlar va dalil tadqiqotlar bilan kirib kelib, hozirgi kun fanini dunyo miqyosida misli ko'rilmagan darajaga ko'tardilar.

O'zbekistonda ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollari

Ijtimoiy psixologiya fanining sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak shuni ta'kidlash lozimki, u oxirgi o'n yilliklar mobaynida shakllanmoqda, xolos. Ayniqsa bu borada psixolog olimlar M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, E.G'oziev, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov kabilarning bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalarini keltirish mumkin. Lekin tarixan, umuman psixologiya fanining O'zbekiston hududida shakllanishini tahlil qilinsa, uning diniy-falsafiy olimlar va qarashlar tizimida o'ziga xos tarzda shakllanib kelganligini kuzatamiz.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda o'tkazilayotgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan. Bu borada bir qator psixologlardan V.Karimova, G'.Shoumarov boshchiligidagi ilmiy ishlarni keltirish mumkin. Masalan, G.B.Shoumarov boshchiligidagi olimlar tomonidan oilaning ijtimoiy-psixologik vazifalari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, oila negizida yuzaga keladigan hissiy munosabatlar, oila qurish motivlari, oilaning bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillari kabi bir qator jihatlari o'rganildi.

V.Karimova va uning boshchiligidagi ilmiy ishlarida yoshlardagi oila xususidagi tasavvurlar, ularning oila motivlari, oila qurish omillariga munosabatlari, oila turiga ko'ra noto'liq oila muhitidagi shaxs individual-psixologik xususiyatlari, o'z-o'zini baholashi, oila muhitida shaxsda namoyon bo'ladigan feminin va maskulin sifatlar nuqtai nazaridan yondashishlari taxlil etib berilgandir.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri N.Sog'inovning o'zbek oilasiga xos bo'lgan nikoh va oila munosabatlari - nikohdan qoniqish, nikoh motivlari, oila kurishning o'zbeklarga xos bo'lgan yosh xususiyatlari, yosh o'zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini sistematik tarzda o'rgangan ilmiy ishidir.

Lekin O'zbekistonda ijtimoiy psixologlar oldida juda muhim tadqiqot mavzulari mavjudki, ularda hozirgi mustaqillik sharoitida shaxs va turli ijtimoiy guruhlar psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, turli yosh, demografik etnik professional guruhlariga mansub bo'lgan kishilarning ijtimoiy tasavvurlari, ular asosida ijtimoiy xulq-atvorni ilmiy boshqarish asoslari ishlab chiqilmog'i lozim. Ya'ni, ishlab chiqarish ijtimoiy psixologiyasi, boshqarish psixologiyasi, guruhlar psixologiyasi hamda ommaviy psixik jarayonlarning ta'siri masalalari o'zbek psixologlaridan o'z echimini kutmoqdaki, ularda ilg'or fan yutuqlaridan foydalanilgan holda xududning milliy o'ziga xos qirralari ishlab chiqilishi kerak.

Seminar mashg'ulotida muhokama uchun savollar:

1. Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishi.
2. Ijtimoiy psixologiyaning uch nazariy manbai.
3. Ijtimoiy psixologiyaning Rusiya va sobiq ittifoqda rivojlanishi.
4. O'zbekistonda ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollari.
5. Ijtimoiy psixologiyaning metodologik muammolari va tadqiqot usullari.

Mustaqil ishlar uchun mavzular:

1. Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishi.
2. Ijtimoiy psixologiyaning Rusiya va sobiq ittifoqda rivojlanishi.
3. O'zbekistonda ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollari.
4. Ijtimoiy psixologiyaning metodologik muammolar va tadqiqot usullari.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T., 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni», T., 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.- "Turkiston", 2002 yil 31 avgust
4. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 kitob.
5. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
6. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
7. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T., 1999 y.
8. Karimova V. Psixologiya. T., 2002 y

3 – MAVZU: IJTIMOIIY PSIXOLOGIYANING ASOSIIY METODLARI

Reja:

1. Ijtimoiy psixologiyaning metodologik muammolari va tadqiqot usullari
2. Kuzatish metodi va unga qo'yilgan shartlar.
3. Ijtimoiy psixologiyada xujjatlarni o'rganish metodining mohiyati.
4. Ijtimoiy hodisalarni kontent-analiz usuli orqali tekshirish.
5. So'rov metodi.
6. Anketa usuli.

7. Ijtimoiy-psixologik testlar.
8. Ijtimoiy-psixologik eksperiment.

Mavzu yuzasidan tayanch soʻzlar:

Ijtimoiy psixologik eksperiment, soʻrov, anketa, kontent-analiz, kuzatish, ichki kuzatuv, tashqi kuzatuv, test, intervyu.

Ijtimoiy psixologiyaning asosiy metodlari

ASOSIY METODLAR	Asosiy metodlarning variantlari
KUZATISH METODI	Tashqi (ob'ektiv kuzatish) Ichki (sub'ektiv, oʻz-oʻzini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
SOʻROQ METODLARI	Ogʻzaki soʻroq Yozma soʻroq Erkin soʻroq (suhbat) Standartlashtirilgan soʻroq
TESTLAR METODI	Test – soʻrov Test - topshiriq Proektiv test Sotsiometrik test
EKSPERIMENT	Tabiiy eksperiment eksperimenti Laboratoriya
MODELLASHTIRISH	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish modellashtirish Kibernetik

Aniq izlanish predmetiga ega boʻlgan har qanday fan oʻsha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar toʻplash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular fanning metodlari deb yuritiladi. Ijtimoiy psixologiya toʻgʻrisida gapiriladigan boʻlsa, shuni alohida taʼkidlash lozimki, avvalo jamiyatning bu fan oldiga qoʻyayotgan talablari oʻziga xos boʻlib, bu talablar javob berish uchun uning tekshirish uslublari u darajada mukammal emasligidadir. Chunki shu davrgacha ijtimoiy psixologiyada kuzatilgan xodisa shu boʻldiki, bu fandagi nazariy ishlar tadbqiqiy ishlardan ancha koʻpdir. Shuning uchun ham, G.M. Andreeva ijtimoiy psixologiyaning metodologiyasi muamolariga toʻxtalar ekan, uning bu boradagi intilishlari, vazifalari koʻpligini taʼkidlaydi. Metodologik muammolarga qiziqish, — deb yozadi u, — ijtimoiy psixologiyaning kuchsizligi emas, balki uning etilish davriga kirganligining belgisidir.

“Metodologiya” tushunchasining ilmiy mohiyati nimada? Bu tushunchani turli nazariy qarashlardagi olimlar turlicha sharhlaydilar va tushunadilar. Masalan, amerikalik psixologlar metodologiya deganda, tadqiqot jarayonida ishlatiladigan barcha tadqiqot uslublari va texnik jarayonlarni tushunadilar. Lekin “metodologiya” tushunchasi aslida uslublar yigʻindisidan ham kengroq tushunchadir. Yaʼni, “metodologiya” tushunchasi “konkret metodlar” yoki texnik usullar tushunchalaridan kengroqdir.

Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning metodologik muammolariga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, empirik maʼlumotlar muammosi, yaʼni qay turdagi maʼlumotlarni ijtimoiy psixologik maʼlumotlar sifatida qabul qilish mumkin. Chunki bixevioristlar bunday maʼlumotlar sifatida koʻz bilan koʻrib qayd qilinadigan xulq-atvor shakllarini qabul qilishsa, kognitiv psixologiya vakillari faqat ongga taalluqli boʻlgan belgilarni tushunadilar. Demak, har qanday tadqiqotchi ish boshlamay turib, avvalo nimani empirik birlik qilib olishini aniq tasavvur qilishi

va uning nazariy jihatlarini to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak Bundan tashqari, tadqiqot birligi aniqlangan taqdirda, qanday hajmdagi birliklar tadqiqotchini qanoatlantirishi masalasi ham muhimdir. Shuning uchun eksperimental va korrelyatsion tadqiqotlar bor.

Ikkinchi metodologik muammo — bu u yoki bu ijtimoiy psixologik nazariya asosida qonuniyatlar yaratish va ilmiy taxminlar qilish muammosi. Ilmiy tadqiqot boshlashdan oldin tadqiqotchi ma'lum taxminlar yuritadi, lekin shu taxminlarning aniq chiqishi o'sha muammo bo'yicha pishiq - puxta nazariyaning bor-yo'qligiga bevosita bog'liq. Shuning uchun ijtimoiy psixologiyada gipotezalar tuzish va ular asosida kerakli umumiy xulosa chiqarish ishini bilish kerakdir.

Uchinchi muammo — bu ijtimoiy psixologik ma'lumotlarning sifati masalasi, ya'ni qanday ma'lumotni sifatli, ishonarli deb atash mumkinligi masalasidir. O'rganish ob'ekti hajmi yoki soni xususida shuni aytish mumkinki, ko'pincha tekshiriluvchi qanchalik ko'p bo'lsa, ma'lumot shunchalik ishonchli bo'ladi, degan noto'g'ri fikr mavjud. Agar gipotezalar to'g'ri ilgari surilgan bo'lsa, u kichikroq guruhda o'tkazgan eksperimentlarining ma'lumotiga ham ishonishi mumkin.

Leikin tadqiqot uslubini — metodlarini to'g'ri tanlashda pilotaj — sinov tadqiqoti o'tkazishning ahamiyati kattadir. Bunda o'sha gipotezalarning qanchalik asoslilikini ham, metodikaning aynan maqsadga muvofiqiligini ham, tekshiriluvchilar ob'ekti to'g'ri tanlanganligini ham, ma'lumotlarning turg'unligi, ishonchlilikini ham tekshirib olish mumkin. Bundan tashqari, shu bosqichda tadqiqotchi eksperiment yoki anketa o'tkazish uchun qulay vaziyat va vaqtni belgilash, o'z yordamchilarining ishga qanchalik yaroqliklarini ham sinab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Metodologik ishlarga qarashli tadbirlarning sifati va saviyasi tadqiqotchining qanchalik ilmiy savodxon ekanligini belgilovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi va u o'tkazgan ilmiy tadqiqot ishining bahosini belgilaydi.

Kuzatish metodi ijtimoiy psixologiyada o'ziga xos ijtimoiy sharoitlarda, o'ziga xos vaziyatlarda va ma'lum guruhlarda ishlatiladi. Bunda tadqiqotchi eng avvalo nimani kuzataman, qanday yo'l bilan kuzataman, kuzatuv birligi qilib nimani olaman, kuzatuvni qancha vaqt mobaynida davom ettiraman degan qator savollarga javob topgandan keyingina ilmiy tadqiqotini boshlaydi. Demak, kuzatish metodi yordamida aniq ishlab chiqilgan reja asosida kuzatuvchini qiziqtirgan u yoki bu ijtimoiy xulq-atvor shakllari qayd etiladi. Bu uslub qo'llanilganda tadqiqotchi bir qancha qoidalarga rioya qilishi lozim. Chunonchi, kuzatish maqsadining aniq bo'lishi va uning ilmiy maqsadlarga mos kelishi; kuzatish shaklini tanlash va kuzatish natijalarini qayd etish usullarini ishlab chiqish; ma'lum reja — sxema asosida muttasil kuzatuv olib borish; olingan natijalarning asoslilik va ishonchlilikini boshqa usullar yordamida tekshirib ko'rish. Kuzatish kuzatuvchi tomonidan kuzatish ob'ekti bo'lmish odamlar guruhi bilan birga yashab, ularga qo'shilib ish tutib, tabiiy sharoitlarda ma'lumot to'plansa, bunday kuzatish turini "birgalikdagi kuzatuv" deb ataladi. Bunday kuzatishning klassik misoliga amerikalik ijtimoiy psixolog U. Boshqa xollarda esa kuzatuvchi o'z ob'ektini chetdan kuzatadi, shuning uchun ham bunday kuzatuv turi "chetdan kuzatuv" yoki "ob'ektiv kuzatish" deb ataladi.

Ijtimoiy psixologiyada xujjatlarni o'rganish metodining mohiyati

Hujjatlarni o'rganish metodi sotsiologiya fanidan kirib kelgan. Bu metodning qator afzalliklari bor. Ulardan muhimlari shundan iboratki, u faoliyatning mahsulini tekshirishga imkon beradi hamda to'plangan ma'lumotlarning ishonchlilik, matematik qayta ishlash imkoniyatining borligi bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy hodisalarni kontent-analiz usuli orqali tekshirish

Materiallarni ma'naviy jihatdan ham sifat, ham miqdoriy analiz qilinish usuli ijtimoiy psixologiyada kontent-analiz deb ataladi. Kontent-analizning ilmiy mohiyati shuki, uning yordamida biror matnda ma'lum fikr, g'oya yoki tushunchalarning necha marta qaytarilishi qayd etiladi, ya'ni ma'lum mazmun miqdor ko'rinishiga keltiriladi. Bu metodning asoschilari amerikalik sotsiologlar X. Lassuell va B. Berelsonlar bo'lib, ular bu usulni birinchi marta ikkinchi jahon urushi yillarida bir siyosiy gazetaning mazmuni, uning g'oyaviy yo'nalishini

aniqlash maqsadida qo'llagan edilar Kontent-analizni qo'llashda tadqiqotchi oldida turgan asosiy muammo bu tekshiruv birliklari — kategoriyalarni aniqlashdir. Chunki bunday birliklar tadqiqotning maqsadi va tadqiqotchining e'tiqodi va dunyoqarashiga ko'ra har xil bo'lishi mumkin. Masalan, kontent-analizning asoschilari Lassuell va Berelsonlar bunday birlik — ramziy birlik yoki simvollar bo'lishi mumkin, deb hisoblashgan bo'lsalar, boshqa amerikalik tadqiqotchi L. Lovental bunday birlik yaxlit mavzu bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Aslida, bunday birliklar kontent-analizda ilmiy taxmin va tadqiqotchining metodologik asoslari bilan belgilanishi kerak. Shuning uchun ham ko'pgina tadqiqotchilarni umumlashtirib, analiz uchun birliklar quyidagilar bo'lishi mumkin deb hisoblaymiz:

a) alohida iboralar yoki so'zlarda bildirilgan tushunchalar (masalan, demokratiya, faollik tashabbus, hamkorlik va hokazo);

b) yaxlit abzatslar, matnlar, maqolalar va shunga o'xshashlarda ko'tarilgan mavzular (masalan, millatlararo munosabatlar mavzusi, insonlardagi milliy qadriyatlar mavzusi va hokazo);

v) tarixiy allomalar, siyosatshunoslar, taniqli shaxslarning nomlari;

g) ijtimoiy hodisa, rasmiy hujjat, biror aniq fakt, asar (masalan, oilaviy mojarolar, O'zbekiston Konstitutsiyasi muhokamasi, yangi yozilgan asarga o'quvchilarning munosabati va shunga o'xshash).

Yaxshi o'tkazilgan kontent-analiz aslida ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda juda katta ahamiyatga ega. Kontent-analiz tadqiqotchidan kattagina uquvni talab qiladi, chunki bir tomondan, u yoki bu matnni tushunish mahorati bo'lishi kerak, ikkinchi tomondan, tadqiqot so'ngida qo'lga kiritilgan miqdoriy birliklarni yana qayta sifat formasiga keltirish lozim, ya'ni tushuntirib berish kerak.

So'roq metodlari. So'roq metodlari ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi, ayniqsa, anketa so'rovi va intervyu metodlari. Yozma so'roq yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o'z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so'rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo'lsa, shubhasiz, qimmatli birlamchi materiallar to'planadi.

So'roqning ham erkin va standartlashtirilgan shakllari mavjud bo'lib, birinchisida oldindan nimalar so'ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, xattoki, komp'yuterda dasturi ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'roq o'tkazilishi nazarda tutiladi.

Shunday qilib, so'roq metodlari tadqiqotchi bilan tekshiriluvchining bevosita (suhbat, intervyu) yoki bilvosita (anketa) muloqoti tufayli birlamchi ma'lumotlar to'plash usulidir. Odamlar tilidan yozma yoki og'zaki tarzda olingan fikrlar ma'lumotlarning manbai bo'lib xizmat qiladi. Eng yaxshi suhbat yoki intervyu bu bevosita, erkin fikr almashinuvi sharoitida o'zaro fikr almashinuviga qaratilgan muloqotdir. Chunki suhbatdan farqli, intervyu aniq muammo doirasida, qat'iy bir yo'nalishda olib boriladi. Intervyu oluvchi suhbatdoshga nisbatan neytral mavqeda bo'lib, uning fikrlashiga xalaqit bermasligi, ayniqsa, unga taz'yiq o'tkazmasligi lozim. Intervyu o'tkazishga odam maxsus ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak, chunki u odamdan qator muhim sifatlarining bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada "rolli o'yinlar" metodi yordamida psixolog yoki sotsiologlar maxsus tayyorgarlik kursidan o'tadilar.

Anketa usuli

Anketa metodi hammaga tanish bo'lgan usullardan biri. Lekin ko'pincha anketani o'tkazgan odam uning tuzilishi qanchalik qiyinligini yoki olingan ma'lumotlarni qayta ishlab, sharxlash qiyinligini tasavvur qilmaydi. Yuqorida qayd etilganidek, anketaga kiritilgan savollarga ko'ra anketa ochiq va yopiq turlarga bo'linadi. Ochiq anketa respondentdan o'z fikrini bilganicha bayon etishni talab qiladi, yopiq shakldagi anketa savollarining esa javoblari berilgan bo'lib, tekshiriluvchi o'ziga ma'qul bo'lgan, qarashlari, fikrlari bilan mos bo'lgan javobni beradi. Ochiq savollarning kamchiligi respondentlarning har doim ham qo'yilgan vazifaga etarli

darajada mas'uliyat bilan qaramaganligi hamda yozilgan javoblarni statistik ishlov berishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, yopiq anketada respondentga tekshiriluvchi tomonidan o'z fikriga ergashtirishga o'xshash holat yoki har doim ham hamma savolning barcha javob variantlarini topib bo'lmazlikdir. Shunday holatlarda respondent yo umuman javob bermasligi yoki tavakkal bir variantni belgilab berishi mumkin.

Shuning uchun ham oxirgi paytda yarim yopiq savollardan iborat anketalar tuzilmoqdaki, ularda javob variantlaridan tashqari, yana qo'shimcha fikr bildirish uchun qo'shimcha qatorlar qoldiriladi.

Odatdagi anketa tuzilishi jihatdan uch qismga bo'linadi:

1. Kirish qismi yoki "respondenga murojaat" deb ataladi. Bu qismda odatda tadqiqot o'tkazayotgan tashkilot nomi, oddiy tilda tadqiqot maqsadlari va ularning qanday foydasi borligi, tekshiriluvchining shaxsiy ishtiroki nima berishi, olingan ma'lumotlarning umumlantirilgan holda ishlatilishi (anonimlilik), anketani to'ldirish yo'llari va boshqalar yoziladi. Yo'riqnoma — murojaatning qanchalik yaxshi yozilganligi bevosita tekshiriluvchining ishga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir.

2. Asosiy qism. Bunga savollar kiritiladi, lekin savollar tartibiga ham e'tibor berish kerak, chunki boshidan boshlab qiyin savollar berilsa, bu narsa respondentni cho'chitib qo'yishi, hattoki, to'ldirmasdan, anketani qaytarib berishiga majbur qilishi ham mumkin.

3. Yakuniy qism yoki "pasportchka" respondentning shaxsiy sifatidagi ob'ektiv ma'lumotlarni olishga qaratilgan bo'lib, unda shaxsning jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, kasb-kori va boshqalar so'raladi.

Ijtimoiy-psixologik testlar

Testlar psixologiyadan kirib kelgan usuldir, bu qisqa sinov usuli bo'lib, ular yordamida u yoki bu ijtimoiy psixologik hodisa qisqa muddat ichida bir texnik usul — testda tekshiriladi. Testlarni qo'llashning qulaylik tomoni — bir test yordamida bir ob'ektning u yoki bu xususiyatini bir necha marta, takror-takror sinab ko'rish mumkin. Lekin ularni universal deb bo'lmaydi, chunki u yoki bu testni faqat qanday turdagi ob'ektda sinalgan bo'lsa, shunga o'xshash ob'ektlardagina qo'llash mumkin, qolaversa, bunda olingan ma'lumotlar nisbiy xarakterga ega bo'ladi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, testlar, ayniqsa hozirgi kunlarda hayotimizga keng kirib keldi. Shaxs xususiyatlarini tekshiruvchi testlardan tashqari, shaxsning muloqot sistemasidagi o'rnini, undagi muloqot malakalarining bor-yo'qligini sinovchi, shaxs aqliy sifatlarini tekshiruvchi testlar keng qo'llanilmoqda. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, testni tuzish, uni ob'ektlarda sinovdan o'tkazish, xattoki, tayyor testni moslashtirish yuksak bilimlarni, malakani, olimlik odobini talab qiladigan ishdur.

Testlar xususida yana shuni aytish mumkinki, har bir testning o'z "kaliti" bo'ladi va bu kalitning egasida maxsus litsenziyalar, ya'ni kelishuvga ko'ra ishonchli shaxslargagina sotish, berish huquqi bo'ladi. "Kalitsiz" esa maxsus testlarni hech kim ishlata olmaydi.

Test - so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berish so'raladi.

Test - topshiriq odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi ijodiylikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xoxlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreativligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatgich aniqlanadi..

Proektiv testlar. Bu usullar test usullarining bir ko'rinishi bo'lib, unda tekshiriluvchiga aniq tizim yoki ko'rinishga ega bo'lmagan, noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharxlash topshirig'i beriladi. Ya'ni, tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bo'lgan rasmlar, tugatilmagan hikoyalar, biror aniq ko'rinishga ega bo'lmagan buyumlar, yog'ochlar berilishi mumkin, ularga qarab tekshiriluvchi o'zining hissiy dunyosi, qiziqishlari, dunyoqarashi nuqtai nazaridan baho berishi mumkin.

Proektiv usullarga mashhur "Rorshaxning siyoh dog'lari" testini kiritish mumkin (1921 y.). Bu dog'lar ikki tomonlama simmetrik shaklda berilgan 10 xil dog'lardan iborat bo'lib, har bir dog' har xil buyoqli fonda ko'rsatiladi. Tekshiriluvchidan har bir "dog'" ning nimani eslatayotganligini aytish so'raladi. Uning fikridan va so'zlaridan, assotsiatsiyalarga qarab (ularni kontent-analiz qilib) shaxs xususiyatlari haqida xulosa qilinadi.

Yana bir proektiv usul—bu S. Rozentsveygning rasmiy assotsiatsiyalar usulidir. Bunda hayotda tez-tez uchrab turadigan ziddiyatli vaziyatlarni aks ettirgan rasmlar tekshiriluvchiga tavsiya qilinadi. Bu rasmlarda bir tomonda turgan personajlar nimalarnidir gapirayotgan holda gavalantiriladi, unga qarshi tomondagi shaxs esa hali javob qaytarib ulgurmagan, tekshiruvchi tekshiriluvchidan tez, qisqa muddat ichida bo'sh kataklarga berilishi mumkin bo'lgan javobni yozishni so'raydi. Berilgan javoblarga qarab shaxsning yo'nalishni, uning ziddiyatlarga munosabati, agressiya-jaholat hissining xususiyatlari, bu hisning kimlarga qaratilganligi va shunga o'xshash muhim faktlar to'planadi.

Ijtimoiy-psixologik eksperiment

Ijtimoiy psixologik eksperiment—bu ijtimoiy hodisalarni o'rganish maqsadida tekshiruvchi bilan tekshiriluvchi o'rtasidagi maqsadga qaratilgan muloqotdir. Bunday muloqotning bo'lishi uchun eksperimentator, ya'ni tekshiruvchi maxsus sharoit yaratadi va ana shu sharoitda aniq reja asosida faktlar to'playdi. Umumiy psixologiyada bo'lgani kabi, ijtimoiy psixologiyada ham tabiiy va laboratoriya eksperimenti turlari farqlanadi. Tabiiy eksperimentga misol qilib, rus pedagogi A. Makarenkoning jamoaning shakllanishi va uni uyushtirish borasida olib borgan tadqiqotlarini olish mumkin. Amerikalik psixolog M. Sherif esa guruhlararo munosabatlarga taalluqli fenomenlarni tabiiy sharoitlarda maxsus reja asosida tekshirib o'rgangan. Uning asosiy maqsadi vaqtinchalik tuzilgan jamoa — yozgi ta'til lagerlarida kooperatsiya hamda turli ziddiyatlarning paydo bo'lishidagi psixologik sabablarni o'rganishdan iborat edi.

Laboratoriya eksperimenti odatda maxsus sharoitlarda, maxsus xonalarda, kerakli asbob-uskunalar yordamida o'tkaziladi. Birinchi marta laboratoriya sharoitida ijtimoiy psixologik tadqiqotni rus olimi Bexterev o'tkazgan edi. U maxsus asboblarda yordamida idrokning aniqligini, xotiraning sifatini, kuzatuvchanlik xususiyatlarini yakka holda va guruh sharoitida solishtirib o'rgandi va guruhning borligi har bir guruh a'zosi psixik jarayonlariga bevosita ta'sir etishini isbot qildi.

Modellashtirish metodi kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitlarda qo'llaniladi. Bunda o'sha hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Shunday qilib, ijtimoiy psixologiya hozirgi kunda juda ko'p metodlarga ega, biz tanishib chiqqan metodlar ularning asosiylari, bir qismi, xolos. Har bir xolatda o'z tadqiqot ob'ektining xususiyatlari, tadqiqot maqsadi va mavzuiga qarab kerakli uslubni tanlash mumkin. Shuning uchun ham metodlar to'plami bilan to'lig'icha tanishish uchun maxsus adabiyotlarni ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Seminar mashg'ulotida muhokama uchun savollar:

1. Ijtimoiy psixologiyadagi asosiy metodlar va ularning qo'llanish shartlari haqida.
2. Ijtimoiy psixologiya uchun xujjatlarni o'rganish metodining mohiyati.
3. Ijtimoiy hodisalarni kontent-analiz usuli orqali tekshirish.
4. So'rov, anketa va testlar usullari.

Mustaqil ishlar uchun mavzular:

1. Ijtimoiy psixologiyadagi kuzatish metodi va uning turlari haqida.
2. Ijtimoiy psixologiya uchun xujjatlarni o'rganish metodining mohiyati.
3. Ijtimoiy hodisalarni kontent-analiz usuli orqali tekshirish.

4. So`rov, anketa va testlar usullari.
5. Ijtimoiy psixologiya fanidagi asosiy metodlar, ularni qo`llash shart-sharoitlari.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori».T., 1997.
2. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risidagi Qonuni», T., 1997.
3. Karimov I.A. O`zbekistonda demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari.- «Turkiston», 2002 yil 31 avgust
4. G`oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
5. G`oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
6. G`oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
7. Nemov R.S. «Psixologiya». Kn.1. - M., 2003
8. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T.,1999 y.
9. Karimova V. Psixologiya. T., 2002 y.

4 – MAVZU: IJTIMOIIY PSIXOLOGIYADA GURUHLAR VA JAMOA.

Reja:

1. Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi.
2. Katta guruhlar psixologiyasiga xos xususiyatlar va ularni ilmiy tadqiq etish shartlari.
3. Kichik guruhlar psixologiyasi.
4. Kichik guruhlarining klassifikatsiyasi.
5. Guruhlarda rahbarlik va liderlik

Mavzu yuzasidan tayanch so`zlar:

Guruh, rasmiy, norasmiy, real, shartli, katta, kichik, jamoa, shakllangan, referent guruh, qonuniyatlar, negativizm, tashqi, ichki, uyushganlik, shakllanganlik, liderlik, konformlilik, avtoritar, demokratik, liberal, nazariyalar, raxbarlik, liderlik.

Har bir shaxs o`z faoliyatini turli guruhlar sharoitida yoki turli guruhlar ta'sirida amalga oshiradi. Chunki jamiyatdan chetda qolgan yoki insonlar guruhiga umuman qo`shilmaydigan individning o`zi yo`q. Kishi jamiyatda yashar ekan, u doimo turli insonlar bilan muloqotda, o`zaro ta'sirda bo`ladi, bu muloqot jarayonlari esa doimo kishilar guruhida ro`y beradi. Shuning uchun ham guruhlar muammosi, uni o`rganish va guruhlarining shakllanishiga oid ilmiy xulosalar chiqarish ijtimoiy psixologiya asosiy mavzularidan va muammolaridan biridir.

Psixologik ma'noda guruh — bu umumiy belgilar umumiy faoliyat, muloqot hamda umumiy maqsad asosida birlashgan kishilar uyushmasidir. Umuman odamlar guruhi tashkil topishi uchun albatta, qandaydir umumiy maqsad yoki tilaklar, umumiy belgilar bo`lishi shart. Masalan, talabalar guruhi uchun umumiy narsalar ko`p (o`quv faoliyati, bilim olish, yoshlarga xos birliklar (o`spirin, yoshlar, ma'lum o`quv yurtida ta'lim olish istagi va hokazo). Ko`chada biror tasodif ro`y berganligi uchun to`plangan kishilar uchun ham umumiy bo`lgan narsa bor — bu qiziquvchanlik bo`lib o`tgan hodisaga guvohlik, unga umumiy munosabatdir.

Guruhni alohida shaxslar tashkil etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkil etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o`ziga xos qonuniyatlarga bo`ysunadi. Ayni shu qonuniyatlarni bilish esa turli tipli guruhlarini boshqarish va ana shu guruhlarini tashkil etuvchilarni tarbiyalashning asosiy mezonidir.

Guruhlarining turlari ko`p, shuning uchun ham ularni turli olimlar turlicha klassifikatsiya qiladilar. V.M.Karimovning "Ijtimoiy psixologiya asoslari" o`quv qo`llanmasida guruhlarining asosiy turlari keltirilgan. Guruhlar avvalo shartli va real guruhlariga bo`linadi.

Real guruhlar aniq tadqiqot maqsadlarda to`plangan laboratoriya tipidagi hamda tabiiy guruhlariga bo`linadi. Konkret faoliyat va odamlarning tabiiy ehtiyojlari asosida tashkil

bo'ladigan bunday tabiiy guruhlarining o'zi kishilarning soniga qarab katta, kichik guruhlariga bo'linadi. Katta guruhlar uni tashkil etuvchilarning maqsadlari, fazoviy joylashishlari, psixologik xususiyatlarga qarab uyushgan va uyushmagan turlarga, kichiklari esa o'z navbatida, endi shakllanayotgan - diffuz hamda taraqqiyotning yuksak pog'onasiga ko'tarila olgan jamoa turlariga bo'linadi. Guruhlarning ijtimoiy psixologiya uchun ayniqsa, muhim hisoblangan turlariga ta'rif berish va ularning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan holda, bevosita katta guruhlarining ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarini o'rganishga o'tamiz.

Katta guruhlar psixologiyasiga xos xususiyatlar va ularni ilmiy tadqiq etish shartlari

Katta guruhlar kishilarning shunday birlashmalariki, undagi odamlar soni ko'pchilikni tashkil etib, ma'lum sinfiy, ilmiy, irqiy, professional belgilar ularning shu guruhga mansubligini ta'minlaydi. Katta guruhlar tashkil etuvchilar ko'p sonli bo'lganligi va ular xulq-atvorini belgilovchi mexanizmlarning o'ziga xosligi tufayli bo'lsa kerak, ijtimoiy psixologiyada olimlar ko'pincha kichik guruhlarda ish olib borishni afzal ko'radilar. Lekin katta kishilar uyushmasining psixologiyasini bilish juda katta tarbiyaviy va siyosiy-mafkuraviy ahamiyatga ega. Bu sohadagi tadqiqotlarning kamligi bir tomondan, aytib o'tilganidek ko'pchilikni qamrab olishda qiyinchiliklar bo'lsa, ikkinchi tomondan, katta guruhlar psixologiyasini o'rganishga qaratilgan metodik ishlar zahirasining kamligidir. Masalan, ishchilar yoki ziyolilar sinfi psixologiyasi o'rganilishi kerak deylik, avvalo o'sha ishchilarning soni ko'p, qolaversa, ishchilarning o'zi turli ishlab chiqarish sharoitlarida ishlayotgan, turli iqlim sharoitlarida yashayotgan turli millatga mansub kishilardir. Ularning barchasini qamrab oladigan yagona ishonchli usulni topish masalasi juda jiddiy muammo bo'lganligi uchun ham har bir katta guruhga taalluqli bo'lgan asosiy, etakchi sifatni topish va shu asosda uning psixologiyasini o'rganish hozircha ijtimoiy-psixologiyadagi asosiy metodologik yo'llanma bo'lib kelmoqda. Qolaversa, katta guruhlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida shakllangan guruhlar bo'lgani uchun ham har qanday guruhni o'rganishdan oldin, xoh bu sinflar bo'lsin, xoh millatlar yoki xalqlar psixologiyasi bo'lsin, uning hayot tarzi, unga xos bo'lgan odatlar, udumlar, an'analar o'rganiladi. Ijtimoiy-psixologik ma'noda, hayot tarzini o'rganish deganda, u yoki bu guruhga taalluqli bo'lgan kishilar o'rtasida amalga oshiriladigan muloqot tiplari, o'zaro munosabatlarda ustun bo'lgan psixologik omillar, qiziqishlar, qadriyatlar, ehtiyojlar va boshqalar nazarda tutiladi. Ana shularning umumiyliги tufayli har bir shaxsda, ya'ni u yoki bu katta guruhga mansub bo'lgan shaxsda tipik xislatlar shakllanadi.

Ijtimoiy psixologiyada katta guruhlar ichida etnik guruhlar psixologiyasi, ya'ni etnopsixologiya bo'yicha ko'proq tadqiqotlar o'tkazildi. Ayniqsa, hozirgi davrda har bir jumhuriyatlar alohida, mustaqil davlat mavqeini olgan, lekin boshqa tomondan qaraganda, hamdo'stlik mamlakatlari ittifoqi sharoitida millatlar o'rtasida muttasil aloqalar mavjudligidan kelib chiqib, milliy psixologiya masalalari kun tartibida avvalgidan ham muhim masala sifatida qo'yilmoqda.

Kichik guruhlar muammosi ijtimoiy psixologiyada eng yaxshi ishlangan va ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan ob'ektlardandir. Bu muammoni tadqiq etishda olimlar o'z oldiga shunday masalani qo'yganlar, ya'ni, individ yakka holda yaxshi ishlaydimn yoki guruhda yaxshiroq samara beradimi, boshqa odamlarning yonida bo'lishi uning faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday sharoitlarda indvidlarning o'zaro hamkorligi emas, balki ularning bir vaqtda bir erda birga bo'lganligi faktining ta'siri o'rganildi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, boshqalar bilan hamkorlikda bo'lgan individ faoliyatining tezligi oshadi. lekin harakatlar sifati ancha pasayishi aniqlandi. Bunday ma'lumotlar amerikalik N. Triplett, nemis olimi A. Mayer, rus olimi V.M. Bexterev, yana bir nemis olimi V. Myode va boshqalarning tadqiqotlarida ham qayd etildi. Bu psixologik hodisa ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy fastsilitatsiya nomini oldi, uning mohiyati shundan iborat ediki, individning faoliyat mahsullariga uning yonida bo'lgan boshqa indvidlarning bevosita ta'siri bo'lib bu ta'sir avvalo sensor kuchayishlar hamda ish-harakatlarning, fikrlashlarning tezligida namoyon bo'ladi. Lekin ayrim eksperimentlarda teskari effekt ham kuzatildi, ya'ni boshqalar ta'sirida individ

reaktsiyalaridagi tormozlanish faoliyatining susayishi holatlari; bu narsa fanda ingibitsiya deb ataladi.

Kichik guruhlariga xos qonuniyatlar

Birinchidan, kichik guruhlarining hajmi, uni tashkil etuvchi shaxslar soni xususida shunday fikrga kelindiki, kichik guruh "diada" ikki kishidan tortib, to maktab sharoitida 30-40 kishigacha deb qabul qilindi. Ikki kishilik guruh deyilganda, avvalo oila - yangi shakllangan oila ko'proq nazarda tutiladi. Lekin samarali o'zaro ta'sir nazarda tutilganda 7-2 kishi ko'zlanadi. Bunday guruh turli ijtimoiy psixologik tadqiqotlar uchun ham, sotsial psixologik treninglar o'tkazish uchun ham qulay hisoblanadi.

Ikkinchidan, guruhning o'lchami qanchalik katta bo'lsa, uning alohida olingan shaxslar uchun qadrsizlanib borish xavfi kuchayadi. Ya'ni, shaxsning ko'pchilikdan iborat guruhdan o'zini tortish va uning normalarini buzishga moyilliga ortib boradi.

Uchinchidan, guruhning hajmi kichiklashib borgan sari shaxslararo o'zaro munosabatlar taranglashib boradi. Chunki, shaxslarning bir-birlari oldida mas'uliyatlarining oshishi va yaqindan bilishlari ularning o'rtasidagi aloqalarda doimo aniqlik bo'lishini talab qiladi. Munosabatlardagi har qanday disbalanslar, ya'ni nomutanosibliklar ochiq holdagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.


To'rtinchidan, agar guruh a'zolarining soni toq bo'lsa, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar juft bo'lgan holdagidan ancha yaxshi bo'ladi. Shundan bo'lsa kerak, boshqaruv psixologiyasida odamlarni biror nimaga saylashda va umuman rasmiy tanlovlarda guruhdagi odamlar soni toq qilib olinadi.

Beshinchidan, shaxsning guruh taz'iyigiga berilishi va bo'ysunishi ham guruh a'zolarining soniga bog'liq. Guruh soni 4-5 kishi bo'lgunga qadar, uning ta'siri kuchayib boradi, lekin undan ortib ketgach, ta'sirchanlik kamayib boradi. Masalan, ko'chada sodir bo'lgan baxtsiz hodisaning guvohlari soni ortib borgan sari, jabrlanganga yordam berishga intilish, masuliyat hissi pasayib boradi.

Bu qonuniyatlarni bilish, tabiiy guruhlarini boshqarish ishini ancha engillashtiradi.

Kichik guruhlarining klassifikatsiyasi.

R.S.Nemov kichik ijtimoiy guruhlarining quyidagi klassifikatsiyasini taklif etgan.



Tarixan kichik guruhlarni rasmiy va norasmiy turlarga bo'lish qabul qilingan. Bunday bo'linishni amerikalik olim E. Meyo taklif etgan edi. Uning fikricha, rasmiy guruh;ar bir a'zolarining rasmiy rollarga ega ekanligi, ular mavqeining va guruhda tutgan o'rnining aniqligi bilan karakterlanadi. Bunday guruhlarda munosabatlar asosan "vertikal" tarzda ro'y berib, guruhning bir yoki bir necha a'zosida "hokimiyat" bo'lganligi uchun ham, ular boshqalarni boshqarish, ularga buyruq, rasmiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'ladilar. Rasmiy guruhga misol qilib har qanday birgalikdagi faoliyat maqsadlari asosida shakllangan jamoalarni — ishlab chiqarish brigadasi, talabalar guruhi, sinf o'quvchilari, pedagogik jamoa va boshqalarni olish mumkin.

Rasmiy guruhlardan farqli o'laroq norasmiy guruhlar ham mavjud bo'ladiki, ular asosan stixiyali tarzda, aniq maqsadsiz tarkib topadi va ularda a'zolarining aniq mavqelari, rollari oldindan belgilangan bo'lmaydi. Ko'pincha norasmiy guruh rasmiy guruh tarkibida tashkil topadi va ularni boshqarish ham oldindan belgilangan bo'lmay, odamlar ichidan u yoki bu shaxsiy sifatleri tufayli ajralib chiqqan a'zolar norasmiy rahbarlik rolini bajarishlari mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy psixologiyada referent guruh tushunchasi ham bor. Bu tushuncha fanga birinchi marta amerikalik tadqiqotchi G. Xaymen tomonidan 1942 yilda kiritilgan edi. U o'z tadqiqotlarida shuni isbot qildiki, ma'lum bo'lishicha, guruh a'zolari uchun shu guruh ichida yoki boshqa doiralarda shunday shaxslar guruhi mavjud bo'lar ekanki, u o'z hatti-harakatlari, fikrlari va yo'nalishlarida o'sha guruh a'zolariga ergashish, ularning fikrlarini tanqidsiz qabul qilishga moyil hamda tayyor bo'lar ekan. Shunday shaxslar guruhi referent guruh nomini oldi. O'quvchi uchun bunday guruh rolini maktabdagi bir necha o'qituvchilar, otasi yoki onasi, yaqin do'sti yoki qarindoshlaridan kimdir o'ynashi mumkin. Shunisi karakterliki, shaxs doimo shu guruhga ergashadi, uni qadrlaydi, u bilan muloqotda bo'lishga intiladi. Rus psixologlari bu guruhni odatda shaxs uchun mavjud haqiqiy guruh (a'zolik guruhi) tarkibida yoki unga qarshi bo'lgan guruh sifatida qaraydilar. Nima bo'lganda ham ana shunday guruhning mavjudligi shaxs uchun ahamiyatli bo'lib, uning xulq-atvor uchun etalon hisoblanadi. Tadqiqotchi yoki tarbiyachining vazifasi, ana shu guruhni aniqlay olish va aniqlagandan so'ng nima uchun aynan shu guruh referent rolini o'ynaganini bilish muhimdir. Referent guruhga qarab shaxsga baho berish, uning xulq-atvorini bashorat qilish mumkin.

Agar odamlar ko'chada tasodifiy hodisani tomoshabini bo'lib turishgan bo'lsa, ularni psixologiya tilida guruh emas, agregatsiya (olomon) deb atashadi. Haqiqiy guruh uchun o'sha odamlarning barchasiga aloqador umumiy faoliyat va hamkorlik qilish, bir - birlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyati bo'lishi kerak. Amerikalik psixolog Ch. Kuli hamkorlikning darajasi mezoniga ko'ra guruhlarni birlamchi va ikkilamchi turlarga bo'lib o'rganishni taklif etgan edi. Birlamchi guruhda shaxslararo o'zaro ta'sir «yuzma - yuz, bevosita» ro'y beradi. Masalan, oila davrasidagi, sinfdagi, hisobchilar xonasida o'tirganlar birlamchi guruhga misoldir.

Ikkilamchi guruhlarda har doim ham odamlarning bevosita muloqotda bo'lish imkoniyatlari bo'lmaydi. Ular o'rtasidagi munosabat va o'zaro ta'sir bilvosita bo'ladi. Masalan, yirik bir tashkilotdagi tizimlar orqali muloqot, kasaba uyushmasiga birlashgan odamlar, «Vatan» taraqqiyoti partiyasi a'zolarining bog'liqligi ikkilamchi guruhga misol. Ularda ham umumiylik bo'ladi, masalan, o'sha partiyaning oladigan bo'lsak, ular Qashqadaryoda bo'ladimi, Farg'onadami, baribir umumiy g'oya atrofida birlashishadi, a'zolik badallarini vaqtida to'lab turishadi, saylov oldi kompaniyalarida bir - birlarini qo'llab - quvvatlab turadilar.

Turli guruhlar inson hayotida bir necha funktsiyalarni bajaradilar: a) ijtimoiylashtiruvchi funktsiya; b) instrumental, ya'ni, aniq mehnat funktsiyalarni amalga oshirishga imkon beruvchi muhit; v) ekspressiv - odamlarning o'zgalarning tan olishlari, hurmatga sazovor bo'lish, ishonch qozonishini ta'minlash; g) qo'llab - quvvatlash, ya'ni, qiyin paytlarda, muammolar paydo bo'lganda odamlarni birlashtirish funktsiyasi.

Ma'lumki, guruhda to'plangan kishilar o'rtasida doimiy muloqot va munosabatlar mavjud bo'ladiki, ularning mazmuni va yo'nalishiga ko'ra, o'ziga xos sotsial psixologik muhit shakllanadi. Bu muhit guruhning taraqqiyotini ham, undagi turli jarayonlarni ham belgilaydi.

Guruhning dinamik jarayonlari deganda avvalo uning shakllanish jarayoni, liderlik va guruhda turli qarorlarni qabul qilish jarayoni, guruhning har bir shaxsga ta'siri kabilar tushuniladi.

Guruhning shakllanishi, uning paydo bo'lishi haqida gapiriladigan bo'lsa, avvalo shuni ta'kidlash lozimki, guruh jamiyat ehtiyojlari va ijtimoiy talablar asosida paydo bo'ladi. Masalan, sinf jamoasi doimo bolalarning rivojlanishi va ularning maktablarda ta'lim olishlari kerakligi uchun, talabalar guruhi ham shunga o'xshash oliy ma'lumotli shaxslar kerak bo'lganligi uchun paydo bo'ladi va hokazo. Lekin bu masalaning ijtimoiy tomoni. Uning sof psixologik tomoni ham borki, u odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo'lishi bilan bog'liq. Chunki har bir normal insonda muloqotga bo'lgan ehtiyoj hamda turli hayotiy vaziyatlarda o'zini ijtimoiy himoyada sezish ehtiyoji borki, bu narsa turli kichik jamoalarda ularning bo'lishini taqozo qiladi. Lekin guruhga a'zo bo'lish bilan birgalikda har bir individ qator guruhij jarayonlarning guvohi bo'ladi.

Birinchidan, guruh o'z a'zolariga ma'lum tarzda psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu hodisa psixologiyada konformizm deb ataladi (o'zbek tilida "moslashish" ma'nosini bildiradi). Bu hodisaning mohiyati shundan iboratki, u individning guruhda qabul qilinadigan normalar, fikrlar, xulq-atvor standartlarini qanchalik qabul qilishi yoki qabul qilmasligi bilan bog'liq. Guruh fikrini qanchalik tez qabul qilish uning ta'siriga berilish individ bilan guruhning ziddiyatlarini oldini olishi mumkin. Shuning uchun ham individ ana shunday hatti-harakat qilishga intiladi. Lekin ana shunday guruh fikriga, harakatiga qo'shilish turli shakllarda bo'lishi mumkin: tashqi konformlilik — individ guruh fikriga nomigagina ko'shiladi, aslida ruhan u guruhga qarshi turadi; ichki konformlilik — individ guruh fikriga to'lig'icha qo'shiladi va ruhan qabul qiladi. Ana shunday hollarda individ bilan boshqalar o'rtasida ziddiyat yoki konfliktlar paydo bo'lmaydi. Bu o'rinda yana bir tushuncha ham bor, u ham bo'lsa "negativizm" tushunchasidir, bu individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishidir. Bu tabiiy individ uchun noqulay, lekin mustaqil fikr, odil harakatlar doimo hurmat qilinadigan jamoalarda negativizm hodisasi yomon illat sifatida qabul qilinmaydn.

Guruhlardan yana bir jarayon-bu guruhning uyushqoqligi muammosidir. Guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy printsiplari, qadriyatlarini yaxshi tasavvur qilishlari bunday uyushqoqlikning birinchi omilidir. Ikkinchi va asosiy omil — bu o'sha guruhni birlashtirib turgan faoliyat maqsadlarini, uning yo'nalishi va mazmunini bilishdagi g'oyaviy birlikdir. Umuman, eksperimental tadqiqotlarda qayd etilgan guruhga oid fikrlardagi umumiylik uyushqoqlikka ijobiy zamin hisoblanadi.

Guruhning avtonomligi darajasi ham ma'lum ahamiyatga ega omil, chunki har bir a'zo umumiy maqsad asosida birlashgan bo'lsa ham, ularning har birining o'z burch va vazifalari bor va shu nuqtai nazardan har odam o'z imkoniyatlarini o'zicha ishga solib, o'zaro munosabatlarga sabab bo'ladi.

Guruhning psixologik tizimga ta'sir etuvchi omillarga yana ularning jinsiy, yosh jihatdan, ma'lumoti va malakasi nuqtai nazaridan farq qiluvchi, uyg'unlikni tashkil etuvchi omillar ham kiradi.

Guruhlardagi liderlik va umumiy qarorlarga kelish ham dinamik jarayonlarga kiradi.

Guruhlarda rahbarlik va liderlik

Guruhlardagi o'zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo'lib, guruh a'zolarining konkret mavqelari, boshliq bilan bo'ssunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu borada "lider" va "boshliq" tushunchalari o'rtasidagi farqlar hakida gapirish lozim. B.D. Parigin bu ikki tushunani farqlab shunday yozadi:

1) lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar — shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

2) liderlik kichik guruhlargagina xos bo'lgan hodisa bo'lsa, rahbarlikning haq-xuquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin;

3) agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan hodisadir;

4) liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yunalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi;

5) rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va ragbatlantirish tizimiga ega bo'lib, shu asosda o'z xodimlariga ta'sirini o'tkazishi mumkin;

6) lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko'rsatmalar, tashabbuslarni o'z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo'nalishda ko'plab rasmiy ko'rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketishi kiyin;

7) liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo'lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Lider hech qachon yolg'iz bo'lmaydi, u doimo guruh a'zolari orasida bo'ladi, u shu guruh a'zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider guruh a'zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hokazolarni hammadan ham yaxshi biladi, ular ichida eng tashabbuskoridir. Agar sinf doirasida olib qaraladigan bo'lsa, turli xil lider borligini aniqlash mumkin. Masalan, guruh a'zolari ichida eng bilag'oni, aql o'rgatuvchisi, topqiri, intellektual lideri, bolalar ichida eng hazilkashi, dilkashi, xushchaqchag'i, ko'ngil so'rovchisi, o'zgalarni tushuna oladigan — emotsional lider, guruhni ish faoliyatga chorlay oladigan, dadil, qatiyatli, irodali-irodaviy liderlar bo'lishi mumkin. Ular ayni vaziyatlarda vaziyat talabiga ko'ra paydo bo'ladilar hamda bolalar ongida o'z sifatlariga ko'ra obro' qozonadilar. Lider sifatleri ichida yaxshi va yomonlari ham bo'lishi mumkin, lekin guruh liderga ergashganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va shuning uchun ham barcha ishlariga ergashib, ko'rsatmalariga amal qiladi. Maktabda bolalar yoshida xulqi maktab normalariga to'g'ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular ma'lum guruh ichida so'zsiz obro'ga ega ekanligi ham shu bilan tushuntiriladi. Masalan, lider "ketdik" deb ko'rsatma bersa, unga ergashganlarning darsni ham tashlab keta olishi shu bilan tushuntiriladi.

Shuning uchun ham sinf rahbari o'z sinfidagi rasmiy liderlar bilan ishlash bilan cheklanmaydi, balki norasmiy liderlarni ham aniqlay bilishi, ular bilan hamkorlikda ishlashi zarur. To'g'ri, ba'zi hollarda rasmiy va norasmiy lider bir shaxs bo'lishi ham mumkin. Bu juda qulay, lekin liderlik vaziyatga bog'liq bo'lgani uchun ham ularning o'zgarib turishini hisobga oladigan bo'lsak o'qituvchining boshqarish maxorati yoki san'ati uning norasmiy liderlar bilan samarali ishlash usulidir.

Shunday qilib, har qanday lider obro'ga ega. Obro'lilik shaxsning shunday xususiyatiki, u boshqa shaxslarga ham hissiy-emotsional, ham irodaviy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga egadir. Norasmiy obro'lilik ya'ni shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obro' juda samaralidir. Odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna olish, ishonch va shunga o'xshashlar obro' orttirish mezonlaridandir.

Liderlik uslublari haqida tushuncha

Har bir lider yoki boshliq o'zicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi har bir boshliq o'z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o'ziga xos tarzda tashkil etishidadir.

Ijtimoiy psixologiyada boshqaruv sohasida batafsil o'rganilgan muammolardan biri — turli boshqaruv uslublaridir. Bu sohada nemis olimlari G.Gibsh va M. Forverg, rus olimlari V.D. Parigin, L.N. Umanskiy, M.Yu. Jukov va boshqalarning ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Barcha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda ijtimoiy psixologiyada qabul kilingan uch asosiy boshqarish uslublariga harakteristika berib chiqamiz. Bu uch uslub:

1. Avtoritar;
2. Demokratik;
3. Liberal ish uslublaridir.

Avtoritar uslub

Avtoritar rahbar barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq-ravshan, keskin ohangda xodimlarga etkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga nisbatan do'q-po'pisa, keskin

ta'qiklash kabi qat'iy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri — nima yo'l bilan bo'lsa-da, o'z hukmini o'tkazish.

Avtoritar rahbarda har bir jamoa a'zolarining qobiliyatlari, ishga munosabatlari, mavqelariga ko'ra tutgan o'rinlari haqida tasavvurlar borki, shunga ko'ra u har bir xodimning ish harakatlarini maksimal tarzda dasturlashtirib qo'ygan, unda har qanday cheklashlar uning ochiq g'azabini keltiradi va buning uchun unda jazolashning turli uslublari mavjud. Ya'ni bunday jamoalarda hokimiyat— markazlashtirilgan, jamoa rahbari ushbu markazning yakka hokimi — shuning uchun ham bu erda "mening odamlarim", "mening ishim", "mening fikrim bo'yicha" kabi iboralar tez-tez ishlatiladi.

Demokratik uslub

Demokratik rahbar, aksincha, bo'ysunuvchilarga mustaqillik erk berish tarafdori. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda taqsimlaydi. Bunda u xodimlarning shaxsiy moyilliklarini ham hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriqlar, odatda, taklif ma'nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o'rtoqlarcha, do'stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, uning lavozimini oshirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra ishiga baho berish doimo jamoa a'zolarining fikri bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Tanqid, ko'pincha taklif, istak shaklida qilingan ishlarning mazmuniga baho berish holida "aybdorga" etkaziladi. Har bir yangi ish jamoa maslahatisiz boshlanmaydi. Shuning uchun ham uning fazoviy-ijtimoiy holati "jamoada ichida".

Liberal uslub

Liberal (loqayd) uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda taqiqlash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'rniga ko'pincha ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada hamkorlik yo'q boshliq jamoaning muammolari, ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, go'yoki boshqa "koinotda" yurganga o'xshaydi. Aniq ko'rsatmalar bermaydi, uning o'rniga norasmiy liderlar yoki o'ziga yaqin kishilar orqali qilinishi lozim bo'lgan topshiriqlar bajaruvchilarga etkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida, xodimlar uchun ish sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulot, xom-ashyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnashish va hokazolardan iborat.

Seminar mashg'ulotida muxokama uchun savollar:

1. *Psixologiyada boshqarish muammosi.*
2. *Guruhlarda rahbarlik va liderlik.*
3. *Liderlik usullari haqida tushuncha.*
4. *Rahbarlik sifatleri.*
5. *Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi.*
6. *Etnik guruhlar psixologiyasi.*
7. *Etnopsixologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodlar.*
8. *Kichik guruhlar psixologiyasi.*
9. *Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi.*
10. *Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar.*

Mustaqil ishlar uchun mavzular:

1. *Psixologiyada boshqarish muammosi.*
2. *Guruhlarda rahbarlik va liderlik.*
3. *Liderlik usullari haqida tushuncha.*
4. *Rahbarlik sifatleri.*
5. *Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi.*
6. *Kichik guruhlar psixologiyasi.*
7. *Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi.*
8. *Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar.*

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yi:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T., 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni», T., 1997.
3. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratishtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston», 2005.
4. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T., 1994 y.
5. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T., 1999 y.
6. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 kitob.
8. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
9. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
10. Nemov R.S. «Psixologiya». Kn.1. - M., 2003

5 – MAVZU: IJTIMOY PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI

REJA:

1. Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi.
2. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari.
3. Shaxsga qo'yiladigan ijtimoiy talablar.
4. Shaxs ijtimoiylashuvi.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Ijtimoiy ustanovka, mobil, rigid, introvert, ekstrovert, dominant, tobe, ijtimoiylashuv.

Muloqot jarayonining ham, guruhij jarayonlarning hamda egasi—sub'ekti hamda ob'ekti aslida alohida shaxs, konkret odamdir. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiya alohida shaxs muammosini ham o'rganadiki, uni o'sha turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi degan nuqtai nazardan tekshiradi. Ma'lumki, shaxs muammosi umumiy psixologiyada ham, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyada ham, differentsial, huquqiy psixologiya va psixologiyaning qator maxsus bo'limlarida ham o'rganiladi. Har bir bo'lim yoki tarmoq uni o'z mavzui va vazifalari nuqtai nazaridan shaxsga taalluqli bo'lgan muammolarni yoritadi. Masalan, umumiy psixologiya shaxsni psixologik faoliyatning mahsuli, alohida psixik jarayonlarning egasi deb hisoblasa, sotsiologiya uni ijtimoiy munosabatlarning ob'ekti deb qaraydi.

Shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik yondashishning o'ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan bo'ladigan turli shakldagi o'zaro munosabatlarning oqibati sifatida qaraladi. Ya'ni, ijtimoiy psixologiya avvalo biror guruhning a'zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo'ysunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta'sirlari uning ongida qanday aks topishini o'rganadi. Guruhning shaxs psixologiyasiga ta'siri qay yo'sinda sodir bo'lishi ijtimoiy psixologiyada sotsializatsiya, ya'ni ijtimoiylashuv muammosi bilan uzviy bog'liq bo'lsa, bu ta'sirlarning shaxs hatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bo'lishi ijtimoiy yo'l-yo'riqlar muammosi bilan bog'liqdir. Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli tipdagi shaxslarda namoyon bo'lishini aniqlagan holda, shaxs xulq-atvorini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruhlarini ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Ijtimoiy muhitning ta'siri xulq-atvorda bevosita namoyon bo'ladi. U yoki bu xulq-atvorning sababi uning motividir. Ijtimoiy psixologiya shaxs xulq-atvorining motivlari sifatida ijtimoiy ustanovkalarni o'rganadi.

Rus olimi V.A. Yadov o'zining dispozitsion kontseptsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to'rt bosqich va to'rt tizimli sifatida tasavvur qilgan.

A) elementar ustanovkalar (set) - oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko'p incha ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart - sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o'zgartirish kifoya.

B) ijtimoiy ustanovkalar (attitud) - ijtimoiy vaziyatlar ta'sirida ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun ijtimoiy shart - sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o'zgartirish kerak.

V) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar - ular shaxsning umumiy yo'nalishini belgilaydi va ularni o'zgartirish e'tiqodlar va dunyoqarashlarni o'zgartirish demakdir.

G) qadriyatlar tizimi - ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr - qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahih hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomondan yaratilgan va avloddan avlodga o'z qadrini yo'qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq-atvorining ichki, anglanmagan yoki qisman anglangan motivlariga kiradi. Masalan, bir kishiga badiiy adabiyotdan aynan bir guruh asarlar yoqadi. Lekin nima uchun xuddi shu asarlar guruhi yoki shu adib yoqishini tushunmaydi. O'sha guruhdan yangi bir kitob qo'lga kirganda u albatta yoqishi kerak degan tasavvurda bo'ladi. Shu ma'noda olib qaralganda, ijtimoiy ustanovka shaxsdagi anglanmagan munosabatlarga o'xshaydi. Lekin aslida uning tabiati juda murakkabdir. Chunki ijtimoiy ustanovka tushunchasida munosabatlar ham, shaxsiy ma'no ham, baholar sistemasi ham, bilimlar ham o'z ifodasini topadi. Ya'ni, ijtimoiy ustanovka shaxsning turli ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan munosabat bildirishining ichki mexanizmidir, shu ob'ektlar bilan ishlashga, ularni baholashga hamda ma'lum tarzda idrok qilishga tayyorgarlik holatidir.

Ijtimoiy ustanovka muammosi G'arbda, ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlarida har taraflama chuqur o'rganilgan muammolardan hisoblanadi. Amerikalik olimlar uning shaxsning avvalgi xayotiy tajribasiga, undagi ijtimoiy tasavvurlarga bog'liqligini o'rganib, shaxs xulq-atvorini turli sharoitlarda boshqaruvchi mexanizm ekanligini isbot qildilar. Ular ijtimoiy ustanovkani bir so'z bilan — "attityud" so'zi bilan ifodalaydilar. 1942 yildayok M. Smit attityudning uch komponentli strukturasini ishlab chiqqan. Bunga ko'ra attityudda uch qism bo'lib, bular kognitiv qism, affektiv qism hamda konativ qismlaridir.

Kognitiv qism — bu shaxsdagi attityud ob'ektiga nisbatan bilimlar, uning odam tomonidan anglanishidir. Bunga shaxsdagi bilimlardan tashkari g'oyalar, tasavvurlar, printsiplar va hokazolar kiradi.

Attityudning affektiv qismi — bu o'sha ob'ektni hissiy-emotsional baholash bo'lib, yoqtirish yoki yoqtirmaslik tarzidagi hissiyotlar kiradi. Konativ qism yoki xulq-atvor bilan bog'liq qismga esa shu ob'ektga nisbatan amalga oshiriladigan hatti-harakatlar, aynan xulq-atvor kiradi.

Lekin ba'zi olimlarda ustanovkaning aynan ob'ektga yoki vaziyatga nisbatan bo'lishi mumkinliga haqida ma'lumotlar ham bor edi. Xususan, Laperning 1934 yilda o'tkazgan mashhur eksperimenta bunga misol bo'lishi mumkin. Eksperimentning mazmuni quyidagicha edi. Laper ikkita xitoylik talabalar bilan AQSh buylab sayohatga chiqadi. Ular hammasi bo'lib 252 ta mexmonxonada bo'lishib, ularning deyarli barchasida (bittasidan tashqari) iliq, samimiy munosabatning guvohi bo'lishadi. Ma'lumki, o'sha paytlarda irqiy belgi bo'yicha odamlarga tanlab munosabatda bo'lishar, xitoyliklar ham sariq tanlilar sifatida kamsitilardi. Laper bilan hamroh bo'lgan talabalarga munosabat bilan olimga bo'lgan munosabat o'rtasida deyarli farq sezilmadi. Sayohat tugagach, Laper o'sha barcha mehmonxona egalariga minnatdorchilik xati yozib, yana o'sha talabalar bilan borsa, yana o'shanday iliq kutib olishlari mumkinligini so'radi. Javob faqat 128 ta mexmonxona egalaridan keldi, ularning ham bittasida ijobiy javob, 58 %da rad javobi, qolganlarida turlicha formalarda noaniq javoblar olindi. Bundan Laper shunday xulosaga keldi: demak xitoy millatiga mansub shaxslarga nisbatan ijtimoiy ustanovka bilan

mehmonxona egalarining real xulq-atvorlari o'rtasida farq bo'lib, aslida ustanovka salbiy ekanligi, vaziyatga qarab esa, u boshqacha — ijobiy namoyon bo'lganligi aniqlandi.

Ijtimoiy ustanovkalarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlardan yana biri uning uzoq muddatli xotira bilan bog'liqligidir. Ayni vaziyatlarda shakllangan obrazlar uzoq muddatli xotirada saqlanib, u yoki bu vaziyatda aktuallashadi, ya'ni "jonlanadi". Masalan, ba'zi bir etnik stereotiplar ana shunday xotira obrazlaridandir. Demak, ijtimoiy ustanovka ob'ektga hamda konkret vaziyatga bog'liqdir.

Shakllangan ijtimoiy ustanovkaning hayot mobaynida o'zgarishi mumkinligi muhim ijtimoiy-psixologik ahamiyatga egadir. Amerikalik olim Xovland fikricha, ijtimoiy ustanovka o'rgatish yo'li bilan o'zgarishi mumkin. Ya'ni o'quvchilardagi turli ustanovkalarni o'zgartirish uchun rag'batlantirish yoki jazolash tizimini o'zgartirish lozimdir. Ikki shaxs yoki shaxs bilan guruhning ustanovkalari mos kelmay qolgan sharoitda esa tomonlardan biri ongli ravishda o'z ustanovkalarini o'zgartirishi shartdir. Aks holda nomutanosiblik printsipligiga ko'ra shaxslararo nizo yoki kelishmovchilik paydo bo'lishi muqarrardir.

Ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning eng sodda va qulay yo'li - bu ayni vaziyatlar va ulardagi ta'sirlarni qaytarishdir. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo'lganda, ob'ektivlashadi, ya'ni o'z kuchini va mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, u erda biror g'oyani ongga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o'z siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so'zlar va iboralar, harakatlar bilan qaytaraveradi va shu yo'l bilan ko'p chilikning ma'qullashiga erishadi. Ayniqsa, saylov oldi tadbirlarida ana shu usul keng qo'llaniladi. Shulardan kelib chiqib, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o'zgartirishga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga sotsial-psixologik yondatish uni ma'lum guruhlarining a'zosi, konkret sharoitida o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqotga kirishuvchi konkret odam deb tushunishdir.

Ijtimoiy normalar, sanktsiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq - atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning ahloq - ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z - o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq - atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rni qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hakoza. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'p chilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan harakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Shaxs ijtimoiylashuvi

Har birimizning jamiyatdagi o'rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lgani, jamiyatga qo'shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi.

Demak, sotsializatsiya yoki ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va

ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishi jarayonidir.

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan turlicha sub'ektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10 - 15 ta o'quvchidan iborat akademik litsey o'quvchilarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota - onalarining kutishlari, o'qituvchilarning berayotgan darslari va unda etkazilayotgan ma'lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin baribir ana shu 15 o'quvchining har biri shu ta'sirlarni o'zicha, o'ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o'quv ko'rsatkichlari va iqtidorida aks etadi. Bu o'sha biz yuqorida ta'kidlagan ijtimoiylashuv va individualizatsiya jarayonlarining o'zaro bog'liq va o'zaro qarama - qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi.

Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan shart - sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (boqcha, maktab, maxsus ta'lim o'choqlari, oliygohlar, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi.

Bu institutlar orasida bizning sharoitimizda oila va mahallaning roli o'ziga xosdir. Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, oilaviy munosabatlar tizimida shakllanadi. Shuning uchun ham xalqimizda «qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqol bor. Ya'ni, shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oilada olinadi va bu qolip jamiyatdagi boshqa guruhlar ta'sirida sayqal topib, takomillashib boradi. Bizning o'zbekchilik sharoitimizda oila bilan bir qatorda mahalla ham muhim tarbiyalovchi - ijtimoiylashtiruvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan odamning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya'ni mahalla bilan mahallaning ham farqi bo'lib, bu farq odamlar psixologiyasida o'z aksini topadi. Masalan, bitta mahalladan yaxshi kelin chiqsa, aynan shu mahalladan qiz qidirib qolishadi. Ya'ni, shu mahalladagi ijtimoiy muhit qizlarning iboli, aqlli, sarishtali bo'lib etishishlariga ko'maklashgan. Masalan, ayrim mahallalarda sahar turib ko'cha - eshiklarni supurish odatga aylangan va barcha oilalar shu udumni buzmaydilar. Shunga o'xshash normalar tizimi har bir ko'cha-mahallaning bir-biridan farqi, afzallik va kamchilik tomonlarini belgilaydi, oxirgilar esa shu mahallaga katta bo'layotgan yoshlar ijtimoiylashuvida bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv o'choqlariga maktab va boshqa ta'lim maskanlari kiradi. Aynan shu erda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyqunlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, maktabni biz ta'lim oladigan, bola bilimlar tizimini o'zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Lekin aslida bu er ijtimoiylashuv tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bu erda biz ataylab tashkil etilgan, oxirgi yillarda joriy etilgan «Ma'naviyat darslari», «Etika va psixologiya» kabi tarbiyalovchi fanlarni nazarda tutmayapmiz. Gap har bir darsning, umuman maktabdagi shart-sharoitlar, umumiy muhitning tarbiyalovchi roli haqida. Masalan, dars paytida o'qituvchi butun diqqati bilan yangi darsni tushuntirish bilan ovora deylik. Uning nazarida faqat dars, mavzuning mazmuni va undan ko'zlangan maqsad asosiyday. Lekin aslida ana shu jarayondagi o'qituvchining o'zini qanday tutayotganligi, kiyim - boshi, mavzuga sub'ektiv munosabati va qolaversa, butun sinfdagi o'quvchilarga munosabati hamma narsani belgilovchi, ijtimoiy tajriba uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omildir. Shu nuqtai nazardan o'quvchilar didi, kutishlari va talablariga javob bergan o'qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi, aks holda esa o'qituvchining ta'siri faqat salbiy rezonans beradi. Xuddi shunday har bir sinfdagi shakllangan muhit ham katta rol o'ynaydi. Ba'zi sinflarda o'zaro hamkorlik, o'rtoqchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan, guruhda ijodiy munozaralar va bahslar uchun qulay sharoit bor. Bu muhit tabiiy o'z a'zolari ijtimoiy xulqini faqat ijobiy tomonga yo'naltirib turadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti - bu mehnat jamoalaridir. Bu muhitning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu erga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, ma'lum tajribaga ega bo'lgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. qolaversa, egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo'lib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar harakteriga ta'sir qiladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan, qanday o'zaro munosabatlar muhiti ta'sirida ekanligi uning etuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri - o'sha jamoaning qanday ekanligi, bu erdagi o'zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo'lib, ko'p incha oylik - maosh masalasi ana shulardan keyin o'rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, soqlom ma'naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o'ynaydi.

Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:

1) faoliyat sohasi, ya'ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo'lib, bu jarayonda faoliyatlar jabhasi, sohasi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarini, malaka va ko'nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni qoniqtirish yo'lidagi aktivligi unda o'ziga xos ijtimoi-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

2) muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o'smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi.

3) o'z-o'zini anglash sohasi, ya'ni "Men" obrazining yil sayin o'zgarib borishi jarayoni bo'lib, avval o'zini boshqalardan farqliligini, o'zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so'ngra esa o'z-o'zini baholash, anglash, nazorat qilish- xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir.

Shaxs ijtimoiylashuvining ushbu bosqichlari mavjud. Masalan, birinchi bosqich—mehnat faoliyatigacha bo'lgan bosqich bo'lib, unga bolaning maktabgacha yosh davri hamda o'qish yillari kiradi. Bu davrdagi ijtimoiylashuvning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu davrda asosan tashqi ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'sirlar faol ravishda ongga singdiriladi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich o'tiladi. Ikkinchi bosqich — mehnat faoliyati davri — bu davr odamning etuklik yillari bilan bog'liq bo'lib, avvalgi davrlarda singdirgan ijtimoiy ta'sirlarni bevosita faol faoliyatda, shaxslararo munosabatlar sistemasida namoyon etadi. Kasbga ega bo'lib, aniq hayot yo'lini tanlagan, turmush qurib, kelgusi avlodni tarbiyalayotgan shaxsda namoyon bo'ladigan barcha ijtimoiy fazilatlar shu davrning mahsulidir. Nihoyat, uchinchi bosqich — mehnat faoliyatidan keyingi davr bo'lib, bunga asosan aktiv mehnat faoliyatidan so'ng qarilik gashtini surayotganlar kiradi. Bu davrda ham shaxs ijtimoiylashuvi davom etaveradi, chunki endi ilgarigi davrlarda orttirilgan tajriba boshqalarga uzatiladi, shunga ko'ra shaxs strukturasida ham xususiy o'zgarishlar ro'y beradi.

Bu jarayon ro'y beradigan sharoitlar — muassasalar xususida gapiriladigan bo'lsa, turli davrlarda oila, bolalar muassasalari, maktab, boshqa dargohlari, mehnat jamoalarining roli nazarda tutiladi.

Seminar mashg'ulotida muhokama uchun savollar:

1. *Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi.*
2. *Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari.*
3. *Shaxs tiplari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi*

Mustaqil ishlar uchun mavzular:

1. Shaxsning ijtimoiy mohiyati.
2. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi.
4. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari.
5. Shaxs tiplari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi.

6. Guruhlarning shaxsga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'siri.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori».T., 1997, 64 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni", T., 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.- "Turkiston", 2002 yil 31 avgust
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: "O'zbekiston", 2005.
5. Nemov R.S. «Psixologiya». Kn.1. - M., 2003.
6. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T.,1994 y.
7. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T.,1999 y.
8. Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya. T., 1992 y.
9. Karimova V. Psixologiya. T., 2002 y

6- MAVZU: IJTIMOIIY PSIXOLOGIYADA MULOQOT MUAMMOSI.

REJA:

1. Muloqot va shaxslararo munosabatlar ijtimoiy psixologiya mavzuidir.
2. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni.
3. Muloqot shakllari va bosqichlari.
4. Muomalaning kommunikativ, interaktiv va pertseptiv tomonlari .
5. Muloqotda psixologik ta'sir masalalari.


Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Kommunikativ, interaktiv, pertseptiv tomonlar, bosqichlar, shakllar, rasmiy va norasmiy muloqot, verbal, noverbal, paralingvistik vositalar, kommunikativ, pertseptiv, interaktiv, kauzal atributsiya, identifikatsiya, stereotipizatsiya, refleksiya, rollar ziddiyati, ijtimoiy rol, ijtimoiy mavqe.

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni — jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F. Parigin shunday yozadi:



Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, xattokini, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funktsiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funktsiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro bir - birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol - ahvol so'raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Uning ikkinchi muhim funktsiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy xolatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin baribir har

qanday yolg'izlik va muloqotning etishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, xadixsirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan erda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g'or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim...»

Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma - yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o'z oldida turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya'ni so'rovnoma asosida bir - birini yoqtirgan va bir - birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi xamda samaradorlikning muhim omillaridandir.

Muloqot jarayoni o'ziga xos ravishda murakkab bo'lib, bunda uch xil bosqich mavjud.

- 1.Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti.
- 2.Boshqalar bilan muloqot.
- 3.Avlodlar o'rtasidagi muloqot.

Dastlabki bosqich — odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. T. Shibutani "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: «Agar odam o'ziga bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi»— deb to'g'ri yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak boshqalar bilan muloqot— muloqotning ikkinchi bosqichidir.

A. N. Leontev o'zining "Psixika taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning uchinchi shakli—avlodlar o'rtasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: «Agar barcha katta avlod o'lib ketganida, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi». Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko'rinishlariga kelsak uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko'rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti va hokazo, norasmiy muloqot — bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-

o'ylari, niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan, do'stlar suhbatdoshi, poezdda uzoq safarga chiqqan yo'lovchilar suhbatlari, tanaffus vaqtida talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi munozaralari. Odamlarning asl tabiatlariga mos bo'lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo odamlarning hayotida ko'proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, odamda ana shunday muloqotga ham qobiliyatlar kerak, ya'ni uning qanchalik sergapligi, ochiq ko'ngilligi, suhbatlashish yo'llarini bilish, til topishish qobiliyati, o'zgalarni tushunishi va boshqa shaxsiy sifatleri kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun hamma odam ham rahbar bo'lolmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qo'l uravermaydi, chunki buning uchun undan ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardorlik talab qilinadi.

Muloqot mavzui va yo'nalishiga ko'ra, uning quyidagi turlari farqlanadi

ijtimoiy	yo'naltirilgan	guruhdagi	predmetga	shaxsiy	muloqot	(bir
(keng	jamoatchilikka	yo'naltirilgan	(o'zaro	shaxsning	boshqa	shaxs
qaratilgan	va jamiyat	hamkorlikdagi	faoliyatni	bilan o'z	muammolarini	
manfaatlaridan	kelib	amalg	oshirish	ochish	maqsadida	
chiqadigan muloqot)		mobaynidagi muloqot —		o'rnatgan munosabatlari);		
		mehnat,	ta'lim	pedagogik	muloqot	
		jarayonidagi yoki konkret	(pedagogik	jarayonda		
		topshiriqni	bajarish	ishtirok	etuvchilar	
		jarayonida	guruh	o'rtasida	amalg	
		a'zolarining muloqoti)		oshiriladigan	murakkab	
				o'zaro ta'sir jarayoni)		

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita «yuzma - yuz» bo'lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; sub'ekt - sub'ekt tipli (dialogik, sheriklik) yoki sub'ekt - ob'ektli (monologik) bo'lishi mumkin. Har bir muloqot turining o'z qonun-qoidalari, ta'sir usullari va yo'l-yo'riqlari borki, ularni bilish har bir kishining, ayniqsa odamlar bilan doimo muloqotda bo'ladiganlarning burchidir.

Muloqot murakkab jarayon bo'lganligi uchun ham ayrim olingan muloqot shaklini analiz qilganimizda, unda juda xilma-xil ko'rinishlar, komponentlar va qismlar borligini aniqlashimiz mumkin.

Psixolog G.M. Andreeva muloqotning quyidagi psixologik tuzilishini taklif etadi:

- 1 Muloqotning kommunikativ tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchilar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi jarayoni).
- 2 Muloqotning interaktiv tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchi tomonlarning xulq-atvorlariga ta'sir jarayoni).
- 3 Muloqotning pertseptiv tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'lik bo'lgan murakkab psixologik jarayon).

Ko'pgina olimlar muloqotning inson hayotidagi ahamiyatiga to'xtalib o'tar ekanlar, uning qator vazifalari, funktsiyalarini ajratadilar.

Taniqli rus olimi B.F. Lomov muloqotning funktsiyalariga quyidagilarni

kiritadi

ma'lumotlar almashinuvi
funktsiyasi;

xulq-atvorni boshqaruv
funktsiyasi;

hissiyotlar almashinuvi.

Bu funktsiyalar aslida G.M. Andreeva ajratgan muloqot qismlariga ham mos keladi, ya'ni har bir muloqot jarayonida B.F.Lomov qayd etgan vazifalarni topish mumkin.

Muloqotning kommunikativ tomoni deyilganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi. Bu jarayonning asosiy vositasi bo'lib til xizmat qiladi. Til shaxslar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, uning yordamida kishilar bilgan ma'lumotlari va hokazolarni bir-birlariga etkazadilar. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan 2 turi farqlanadi: yozma nutq hamda og'zaki nutq. Og'zaki nutqning o'zi dialogik va monologik turlarga bo'linadi.

Dialogik nutqning mazmuni, uning xarakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy qarashlariga, qiziqishlariga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga, maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bilan o'quvchining, hissiy rahbarlarning, diplomatlarning, ko'chada uchrashib qolgan dugonalarning dialogik suhbatlari bir-biridan farq qiladi.

Monologik nutq esa bir kishining boshqa kishiga yoki kishilar guruhiga nisbatan murojaati bo'lib, uning psixologik tuzilishi, fikrlarning mantiqan tugal bo'lishi, gapirayotgan paytda grammatik qonun-qoidalarga rioya qilish kerakligi kabi shartlari mavjud. Masalan, ma'ruzaga tayyorlanayotgan talaba tayyorgarlik paytidan boshlab, ma'ruza qilib bo'lgunga qadar, qator ichki ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradi, unga ko'p kuch va vaqt sarflaydi. Dialogik nutqqa nisbatan bu nutq turi murakkabroq hisoblanadi. Til vositasida olib boriladigan muloqot verbal, ya'ni so'zli deyiladi.

Muloqotning verbal, noverbal, paralingvistik ta'sir vositalari

Odamlar muloqot jarayonida so'zlardan tashqari, ya'ni verbal vositalardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to'xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig'i, ko'z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o'zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo'lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to'ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o'rnini bosadi, bunday vositalarni noverbal vositalar deyiladi.

Muloqotning noverbal vositalarining milliy hamda xududiy xususiyatlari borligini ham alohida ta'kidlab o'tmoq lozim. Masalan, o'zbek xalqining muloqot jarayoni boy, o'zaro munosabatlarining bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko'proq ishlatilishi bilan bog'liq. Bolalarning o'z yig'isi bilan onasiga o'z his-kechinmalari hamda xohishlarini bildirishlari ham bolalarning yosh xususiyatlariga bog'liq. Boshqa millatlar madaniyatiga nazar tashlanadigan bo'lsa, ularda ham ba'zi bir muloqot vositalarining turli millatlarda turli maqsadlarda ishlatilishining guvohi bo'lish mumkin. Bolgarlar agar biron narsa bo'yicha fikrni tasdiqlamoqchi bo'lishsa, boshlarini u yoq-bu yoqqa chayqashar, inkor qilishmoqchi bo'lsa, aksincha, bosh siltashar ekan. Ma'lumki, o'zbeklar, ruslar va bir qator boshqa millatlarda buning aksi.

Noverbal muloqotda suhbatdoshlarning fazoviy joylashuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ayollar ko'proq hissiyotlarga boy bo'lganliklari sababli, suhbatlashayotganlarida bir-birlariga yaqin turib gaplashadilar, erkaklar o'rtasida esa doimo fazoviy masofa bo'ladi. Olimlarning aniqlashlaricha, bolalarni odatdagiday orqama-ketin o'tqazib o'qitgandan ko'ra, ularni yuzma-yuz o'tkazib davra qurib o'qitgan ma'qul emish, chunki bunday sharoitda o'quvchilarda ham javobgarlik hissi yuqoriroq bo'lar ekan hamda emotsiyalar almashinishgani uchun ham guruhdagi psixologik vaziyat ijobiy bo'lib, bolalarning predmetga va bir-birlariga munosabatlari ancha yaxshi bo'lar ekan.

Paralingvistik ta'sir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan

harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib - pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan «Albatta bajaraman!», desa ishonamiz, albatta.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa, nutqqa e'tibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshlik chog'laridanoq nutq madaniyatiga o'rgatish, nutqlarini o'stirish choralari ko'rish zarur. Pedagog esa shunday nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerakki, u avvalo uning faoliyatini to'g'ri tashkil etishni ta'minlasin, qolaversa, bolalarda nutqning o'sishiga imkoniyat bersin.

Muloqotning interaktiv tomoni

Muloqotning bu xususiyati kishilarning muloqot jarayonida birgalikdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan bevosita ta'sir etishlarini ta'minlaydi. Shu tufayli odamlar hamkorlikda ishlash, bir-birlariga yordam berish, bir-birlaridan o'rganish, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarini namoyon etishlari mumkin. Shu tufayli o'qituvchi bola shaxsiga maqsadga yo'nalgan holda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aslini olganda, har qanday muloqot, agar u bema'ni, maqsadsiz, quruq gaplardan iborat bo'lmasa, doimo muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvorlarini, ularning ustanovkalarini o'zgartirish imkoniyatiga ega.

Jamiyat miqyosida oladigan bo'lsak, odamlarning turli sharoitlarda o'zlarini tutishlari, xulq-atvorlarining boshqarilishi ma'lum psixologik qonuniyatlarga bog'liqligini ko'rish mumkin. Bunga sabab jamiyatda qabul qilingan turli normalar, qonun-qoidalaridir. Chunki, o'zaro muloqot va o'zaro ta'sir jarayonlarida shunday hatti-harakatlar obrazlari kishilar ongiga singib boradiki, ularni har bir kishi norma sifatida qabul qiladi. Masalan, o'smir bola, umuman yoshlar jamoat joylarida kattalarga o'rin bo'shatib berishlari kerakligi ham xulq-atvorning bir normasi. Shu normaga amal qilish yoki qilmaslik ijtimoiy nazorat tizimi orqali boshqariladi. Ya'ni, yuqoridagi sharoitda agar o'smir bola avtobusda qariyaga joy bo'shatmasa, jamoatchilik o'sha zahoti uni ijtimoiy tartibga chaqiradi. Turli rollarni bajarayotgan shaxslarning o'zaro muloqotlari kutishlar tizimi orqali boshqariladi. Masalan, xohlaydimi yoki xohlamaydimi, o'qituvchidan ma'lum harakatlarni kutishadiki, ular o'qituvchi roliga zid bo'lmasligi kerak. O'z rollariga mos harakat qilgan, doimo me'yor mezonida ish tutgan kishining harakatlari odobli harakatlar deb ataladi. Masalan, o'qituvchining odobi, o'z kasbini ustasi ekanligi, bolalar qalbini tushuna olishi, ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutishi uning odobga ega ekanligining belgisidir. Odobsiz odam esa buning aksidir.

Demak, o'zaro muloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikkala tomondan ham anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. Ya'ni, ba'zan biz nima uchun bir shaxsning bizga naqadar kuchli ta'sirga ega ekanligini, boshqa biri esa, aksincha, hech qanday ta'sir kuchiga ega emasligini tushunib etmaymiz. Bu esa pedagogikada muhim muammodir. Har bir pedagogning o'z ta'sir uslublari va ta'sir kuchi bo'ladi. O'qituvchi shaxsining bolalarga ta'siri quyidagi eksperimentda juda yaqqol kuzatilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga anchagina o'yinchoqlar berib, shularning ichida faqat bittasiga, qizil yog'och o'yinchoqqa tegmaslik aytilgan. Bolalar yolg'iz qoldirilib, harakatlari pinxona kuzatilgan. Juda ko'p bolalar taqiqlangan o'yinchoqqa baribir tegishgan. Eksperimentning ikkinchi seriyasida esa endi barcha uyinchoqqa tegish mumkin-u, faqat qizil qutichaning qopqog'ini ochish mumkin emas, deb aytilgan. Shu quticha tepasiga esa shu bolalarning o'qituvchisi surati ilib qo'yishgan. Bu seriyada birinchisiga qaraganda "ta'qiqni buzuvchilar" soni keskin kamaygan. Demak, bu narsa o'qituvchi shaxsining bola harakatlariga ta'sirini yaqqol isbotlab turibdi.

Muloqotning pertseptiv tomoni

Muloqot jarayonida odamlar bir-birlari bilan ma'lumotlar almashib, o'zaro ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki bir-birlarini to'g'riroq va aniqroq anglashga, tushunishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Bu tomon shaxsiy idrok va tushunish muammosi bilan bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat jarayonida shaxslarni bir-birlarini to'g'ri tushunishlari na aniq idrok qilishlari muloqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Rus psixologi A.A. Bodalev boshchiligidagi laboratoriya bir-birlarini idrok qilish mexanizmlarini aniqlash borasida qator psixologik qonuniyatlarni kuzatgan. Bunday mexanizmlarga:

identifikatsiya;
refleksiya;
stereotipizatsiya kiradi.

Identifikatsiya shunday psixologik hodisaki, bunda suhbatdoshlar bir-birlarini to'g'riroq idrok qilish uchun o'zlarini bir-birlarining o'rniga qo'yib ko'rishga harakat qiladilar. Ya'ni, o'zidagi bilimlar, tasavvurlar, hislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish, o'zini birov bilan solishtirish (ongli yoki ongsiz) identifikatsiyadir. Masalan, birinchi marta uchrashuvga ketayotgan yigitning ichki holatini uning o'rtog'i yoki akasi tushunishi mumkin.

Refleksiya muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasidan, xolatidan turib, o'zini tasavvur qilishdir, ya'ni refleksiya, boshqa odamning idrokiga taalluqli bo'lib o'ziga bironing ko'zi bilan qarashga intilishdir. Chunki, busiz odam muloqot jarayonida o'zini aniq bilmasligi, noto'g'ri muloqot formalarini tanlashi mumkin.

Stereotipizatsiya odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o'rnashib qolgan ko'nikib qolingani obrazlardan shablon sifatida foydalanish holatidir. Ijtimoiy stereotiplar har bir shaxsda u yoki bu guruhli kishilar haqida shakllangan obrazlardir. A.A. Bodalev va uning shogirdlari bunday stereotiplar ba'zan muloqotni to'g'ri yo'nalganligini ta'minlasa, boshqa hollarda esa undagi xatoliklarning sababi bo'lishi mumkinligini kuzatishgan. Idrok va tushunish borasidagi bunday xatoliklar kauzal atributsiya (lotinchasiga "kauza" — sabab, "atributsio" — bermoq, qo'shib bermoq ma'nosini bildiradi) deb ataladi. Masalan, o'qituvchi bilan hamsuhbat bo'lib qolgan odamda suhbat boshidayoq "hozir odob-ahloqdan dars berishni boshlamasman" degan shubha paydo bo'lishi mumkin. Bu ham stereotip. Bundan tashqari, odamlar birinchi marta ko'rgan odam to'g'risida tasavvurga ega bo'lish maqsadida uning tashqi qiyofasi bilan xarakteri o'rtasida bog'liqliklar o'rnatishga harakat qilarkan, shunday bog'liqliklarni aniqlash maqsadida A.A. Bodalev talabalar guruhiga turlicha qiyofali shaxslarning fotosuratlarini ko'rsatgan. 72 kishidan 9 tasi iyagi katta kishilar kuchli iroda egalari ekanligini, 17 tasi peshonasi keng odamlar aqlli ekanliklarini, 3 kishi sochi qattik odamlarning qaysarroq, qat'iy ekanliklarini, 5 kishi kichik bo'yli odamlar hokimiyatga intilgan, boshqalar ustidan buyruq berishga moyil, chiroyli odamlar yo o'ta o'ziga bino qo'ygan yoki nodon bo'lishligini aytishgan va hokazo.

Shunday qilib, ijtimoiy pertseptsiya yoki odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok etish va tushunish jarayoni muloqotning muhim muammolaridan biridir. Bu jarayon psixologik jihatdan murakkab bo'lib, unda muloqotga kirishayotgan tomonlarning har biri alohida ana shu idrokning ham ob'ekti, ham sub'ekti bo'lib faoliyat ko'rsatadilar. Idrokning ob'ekti sifatida shaxs qaralganda, unda hosil bo'ladigan "boshqa odam obrazi" ning barcha sifatleri va qirralari nazarda tutiladi. Bunday obraz paydo bo'lishiga xizmat qiladigan belgilarga: o'sha odamning tashqi qiyofasi, uning kiyinishi, o'zini tutishi, hissiy holati, ovozi, nutqi, qiliqlari, yurishi va hokazolar kiradi. Lekin shularning ichida odamning yuzi muloqot mobaynida suhbatdoshga eng ko'p ma'lumot beradigan ob'ektdir. Shuning uchun ham telefonda suhbatlashgandan ko'ra yuzma-yuz suhbatlashish ancha oson va axborotlarga boydir.

Odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok etishlari ularning pertseptiv, ya'ni hissiy bilish (idrok sezish) sohasiga aloqador bo'lsa, bir-birlarini tushunishi ularning tafakkur sohalariga bevosita bog'liq murakkab jarayondir. Boshqa odamni to'g'ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga kira olgan hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, unda empatiya — bironlarning his kechinmalarini tushuna olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Yuksak ongli, madaniyatli, "ko'pni ko'rgan" shaxsgina boshqalarni to'g'ri tushunishi, ularning mavqeida tura olishi mumkin.

Muloqotda psixologik ta'sir masalalari

Odamlar bir - birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri - o'zaro bir - birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr - g'oyalariiga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Psixologik ta'sir - bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti - harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

1. Verbal ta'sir
2. Noverbal ta'sir
3. Paralingvistik ta'sir

Verbal ta'sir - bu soʻz va nutqimiz orqali koʻrsatadigan ta'sirimizdir. Bunday asosiy vositalar soʻzlardir. Ma'lumki, nutq - bu soʻzlashuv, oʻzaro muomala jarayoni boʻlib, uning vositasi - soʻzlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam oʻzidagi barcha soʻzlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan soʻzlarni topib, sherigiga ta'sir koʻrsatishni xohlaydi.

Noverbal ta'sirning ma'nosi «nutqsiz»dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir - birlariga nisbatan tutgan oʻrinlari, xolatlari (yaqin, oʻzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir - birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi.

Paralingvistik ta'sir - bu nutqning atrofida nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, toʻxtashlar, duduqlanish, yoʻtal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir - birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida oʻrtogʻingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, «Koʻrganimdan biram xursandman», desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir - birlariga ta'sir koʻrsatmoqchi boʻlishganda, dastavval nima deyish, qanday soʻzlar vositasida ta'sir etishni oʻylar ekan. Aslida esa, oʻsha soʻzlar va ular atrofida harakatlar muhim rol oʻynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga koʻra, birinchi marta koʻrishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy boʻlishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat oʻzgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol toʻgʻri : «Ust - boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi».

Muloqotning qanday kechishi va kimning koʻproq ta'sirga ega boʻlishi sheriklarning rollariga ham bogʻliq. Ta'sirning tashabbuskori - bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir koʻrsatish maqsadi boʻladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydaladi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u oʻrnidan turib kutib oladi, iltifot koʻrsatadi, xol - ahvolni ham quyuqroq soʻraydi va soʻngra gapning asosiy qismiga oʻtadi.

Ta'sirning adresati - ta'sir yoʻnaltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi boʻlmasa, yoki adresat tajribaliroq sherik boʻlsa, u tashabbusni oʻz qoʻliga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin boʻladi.

Shu oʻrinda odamlarni samarali muloqotga oʻrgatish muammosi haqida keltirmoqchimiz. Chunki bugungi kunda bu muammo ijtimoiy psixologiyaning muhim masalalaridandir.

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik oʻzaro mosligi, bir - birini toʻldirishiga bogʻliq ekan. Notoʻgʻri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga oʻrgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan soʻzlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga oʻrgatishadi. Uning ikkinchi tomoni - tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan boʻlishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda boʻladiganlar 35 - 40 % oylik maoshlarini odamlarni «tinglaganlari» uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga koʻproq foyda keltirarkan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer «Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang» deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan o'ralarsa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa - bu bizning o'z fikr - o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida xayolimiz boshqa erda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo'llaymiz: so'zma - so'z qaytarish va boshqacha talqin etish. Birinchisi, suhbatdosh so'zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo'llab - quvvatlashni bildiradi. Ikkinchi usul esa - sherigimiz so'zlarini tinglab, undagi asosiy g'oyani muxtasar, o'zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, xattoki, undagi g'oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bunday tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo'lib, «Yo'q-e?», «Nahotki?», «Qara-ya?», «Yasha!» luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam o'z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs etakchi, u suhbatning mutloq xokimi, degan tasavvur unchalik to'g'ri emas. Yaxshi tinglashda hamshunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug'diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa - bu axborotning o'zi. Tinglayotgan odam ma'nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o'zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan «teskari aloqani» olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri - odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o'rinni foydalanishga o'rgatishdir. Bu borada professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

aktiv xolat. Bu - agar kreslo yoki divan kabi mebel bo'lsa, unga bema'lol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so'ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;

suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish. Bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o'zining har bir so'ziga uni ham ko'ndirishning samarali yo'lidir.

o'ychan jimlik. Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo'li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o'z - o'ziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo'lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo'lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o'rgatishga juda katta e'tibor beriladi. Bu boradagi fanning o'z uslubi bo'lib, uning nomi ijtimoiy psixologik trening (IPT) deb ataladi. IPT - muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

Seminar mashg'ulotida muxokama uchun savollar:

1. Muloqot va shaxslararo munosabatlar ijtimoiy psixologiyaning mavzuidir.
2. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o`rni.
3. Muloqot shakllari va bosqichlari.
4. Muloqotning psixologik tizimi va vazifalari.
5. Muloqotning kommunikativ tomoni - ma'lumotlar almashinuv jarayonidir.
6. Muloqotning verbal, nonverbal, paralingvistik vositalari.
7. Muloqotning interaktiv tomoni va shaxslararo munosabatlardagi uning o`rni.
8. Muloqotning pertseptiv tomoni jihatlari.
9. Stereotiplardan foydalanish shartlari.

Mustaqil ishlar uchun mavzular:

1. Muloqot va shaxslararo munosabatlar ijtimoiy psixologiyaning mavzuidir.
2. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o`rni.
3. Muloqot shakllari va bosqichlari.
4. Muloqotning psixologik tizimi va vazifalari.
5. Muloqotning kommunikativ tomoni - ma'lumotlar almashinuv jarayonidir.
6. Muloqotning verbal, nonverbal, paralingvistik vositalari.
7. Muloqotning interaktiv tomoni va shaxslararo munosabatlardagi uning o`rni.
8. Muloqotning pertseptiv tomoni jihatlari.
9. Stereotiplardan foydalanish shartlari.
10. Muloqotning samarali kechishi yo`llari.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro`yhati:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori».T., 1997.
2. O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risidagi Qonuni», T., 1997.
3. Karimov I.A. O`zbekistonda demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari.- «Turkiston», 2002 yil 31 avgust
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: «O`zbekiston», 2005.-96 b.
5. Godfrua J. Chto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frants. M., Mir, 1992.-496 s.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T., 1994 y.
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T.,1999 y.
8. G`oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
9. G`oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
10. G`oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
11. Nemov R.S. «Psixologiya». Kn.1. - M., 2003
12. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. T., 2006 y

7-MAVZU: IJTIMOY PSIXOLOGIK BILIMDONLIK VA SAMARALI MUOMALAGA O`RGATISH.

REJA:

1. Ijtimoiy psixologik munosabatlarga o`rgatish muammosi.
2. Ijtimoiy psixologik bilimdonlik samarali muomalaning muhim omili.
3. Samarali muomalaning texnologiyasi.

Mavzu yuzasidan tayanch so`zlar:

Ijtimoiy munosabat, psixologik bilimdonlik, samarali muammolar, omil, texnologiya.

Istiqlol tufayli o`z mustaqil taraqqiyoti yo`lida borayotgan respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash davr ruhida tarbiyalash shu kunning eng dolzarab

va ustuvor vazifalaridan biridir. Ijtimoiy psixologik munosabatlarning psixologik tabiatini tahili qilar ekanmiz uning shaxs kamoloti va solohiyatiga ta'siri masalasini alohida to'xtab o'tish joizdir, chunki aynan jamiyatda shaxslararo munosabatlarda shaxsda o'zini o'zi anglash o'zini kamol toptirish jarayonlari tezlashadi samimiy insoniy munosabtlar inson haq-huquqini e'zozlashga asoslangan munosabatlar shaxsning o'zi haqidagi bilimlarini o'z imkoniyatlarini va nasl-nasabini aniqroq beradi. Ikkinchidan aynan to'g'ri ijtimoiy munosabatlar o'zga shaxslar xuquq va erkainliklarini ham anglash ularni hurmat qilishga qaratilgan tasavvurlar majmunning bo'lishiga imkon yaratib insoniy munosabatlarda madaniyat va iltifot tamoyillariga amla qilinishiga sharoitlar yaratadi. Yuqorida qayd etilgan ikki jihat oqibat natijasida inson shaxsini eng oliy qadriyatlar sifatida e'tirof etilishi va unga nisbatan jamiyatdagi yaxlit munosabatlarining o'zgarishi tufayli xuquqiy madaniyat va fuqarolarning siyosiy faolliklarini tobora oshib borishini ta'minlaydi. Bu o'rinda ko'plab tadqiqotchilarni o'ynaltirayotgan masala shuki jamiyatda rivojlanadigan va uning ta'sirida shakllanuvchi shaxs uchun qanday ijtimoiy munosabat muhiti zarur yoki boshqacha qilib aytganda uning barkamolligi uchun maqbul shar-sharoitlarni yaratish mumkinki yoki uning progressiv taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan shaxslararo munosabatlar tizimni yaratish imkoniyati bormi? Bu fikrning paydo bo'lishiga sabab-ayrim tadqiqotchilarda jamiyat ta'siridan ko'ra shaxsning bevosita o'z muhiti, xattosi yolg'izlik ham ijobiy omil bo'lishi mumkin degan yaponlar tarbiya maktabida "maritao" deb nomlanuvchi tizim mavjud ekanki unga ko'ra o'smir yoki o'spirin ma'lum taraqqiyot bosqichida yolg'izlikka mahkum etilar eka. Bunda uni g'orga yoki shunga o'xshash joyga yolg'iz qamb qo'yishar hatto o'zi bilan muloqat qilishi ham ta'qiqlanarkan. G'arb tadqiqotchilari (L.Simyoonova va b.q.) ushbu jarayonning psixologik mohiyatning talqin qilar ekanlar uning ikki jihatiga e'tiborni qaratadi. Bir tomondan bu narsa ijobiy samara berishi mumkin chunki odam o'zini o'zi anglash o'ziga xolis baho berish ijobiy rivoji uchun zarur imkoniyatni o'zidan qildirishga muyassar bo'ladi.

Lekin ikkinchi jihati ham borki unda odam o'zgalarda xuddi oynaga qaraganday o'z aksini ko'radi, shu tufayli u kishilar jamiyati talabi va qoidalariga bo'ysunish o'zini o'zi mukamallashtirish imkoniyatidan maxrum bo'ladi. Mu'lumki so'fiylar ham islom olamida o'ziga xos ruxiy dunyoga ega bo'lishgan ularda ham dunyo g'amlaridan va xurzandchiliklaridan voz kechish o'z hisiy olamida yolg'iz haq yo'lida harakat qilish falsafasiga asoslanishga. Lekin ularning dunyoqarashi va psixologiyasida bir muhim jihat borki unda "O'zini tanigan kishi o'z "Rabbini taniydi" degan xadisiy qoidaga amal qilgan".

Abduxamid G'azzoliy fikricha barcha insonlarga xos bo'lgan sifatlar borki ularning mazmuni quyidagi omillar orqali tushuntiriladi.1) Inson o'zini o'z kamoloti va hayotiga asos bo'ladigan narsalarni sevadi.2) o'ziga yaxshilik qilgan yordam berganlarni sevadi. 3) umuman hammaga yaxshilik qiladigan sahovatli odamlarni sevadi jumladan adolatli shohlar ham sevimli. 4) shuningdek barcha g'hal narsalar, nafosat olami xushbuy xushsurat narsalarni ham sevadi.5) maslak va mazhab yuzasidan ham odamlar bir-birlarini yaxshi ko'radilar bularning barchasi oxir-oqibat insonlarning ruxiy-ma'naviy qarindoshligicha asos bo'ladi. Ko'rib turganimizdek tasavvuf ilmida ham jamiyatdagi mo'g'tadil insoniy munosabatlar bilan individuallik o'rtasida tafovut yo'q. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda yoshlar tarbiyasida ularni yangicha ijtimoiy munosabatlarga o'rgatishning ayrim jihatlari haqida fikr yuritimiz.

Birinchidan ijtimoiy munosabatlar yoshlar tarbiyasining barcha bosqichlar va jabhalarida e'tiborga molik ob'ekiy sifatida qaralmog'i lozim. Ya'ni oilaviy munosabatlardan tartib to mehnat jamoalaridagi munosabatlarda inson shaxsi individualligi betakrorligini masalaga va imkoniyatlarini fanday bo'lsa xuddishundayligicha tabiiy tarz qabul qilish va shu asosda uning rivoji uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan aynan yangicha demokratik munosabatlar yoshlarni kasbga to'g'ri yo'naltirish, o'z iqtidori doirasida kasb tanlash unga to'g'ri munosabatda bo'lish boshqacha qilib aytganda bozor munosabatlari ehtiyojlari va talablariga xos hamda har bir shaxsning layoqatiga va maslagiga mos kasbni tanlashga yo'lantiradi. Uchinchidan, har bir shaxs uchun o'z erkinligini anglash o'ziga munosabatlarning ijobiyligini his qilish muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olar ekanmiz biz aynan demokratik tamoyillarning hayotda barqarorligi sharoitidagina yigit-qizlarda

o'z yaqinlariga oilasiga mehnat yoki ta'lim muassasiga el-yurtiga sadoqat va mehr-muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash mumkin.

Ijtimoiy psixologik bilimdonlik samarali muomalaning muhim omili.

Jimiyatimizning bugungi ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan tub islohatlarning mohiyati haqida fikr yuritilar ekan, eng noyob milliy qadriyatlarni yosh avlod ruxiga va ma'naviy dunyoqarashiga singdirish va undan umuminsoniy manfaatlar yo'lida foydalanishning yagona yo'llaridan biri-bu ularda bilimdonlikni etarli darajada shakllantirishdir. Bu o'rnida e'tiborni biz "bilimdonlik" tushunchasining ijtimoiy-psixologiya mohiyatiga qaratmoqchimiz.

Ma'lumki ilmiy abadiyotlarda "bilimdonlik tushunchasi ko'pincha "aql" "aqllilik" ilmgacha chaqqoqlik tushunchalari bilan bir xil ma'noda ishlatiladi. Aslida psixologik nuqtai nazardan ushbu tushunchalar o'rtasida mohiyatan biroz bo'lsa-da farq bor. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy "aql" tushunchasini bilimdonlikdan kengroq ta'riflab aql so'zining 27 darajasi va 27 sifatini ajratadi. Ushbu sifatlardan eng muhim va ijobiylari bevosita bilimdonlikka aloqadordir. Maslana aql muxandislar-donishmandlar, olimlar bilimdonlarni "aql-teri"-tafakkur ustozlari, farosatli kishilarni "Aql-o'ti" zehn o'tkirligi xushyorlikni aqli quli-eng etuk aql kabi qator sifatlarga insonni atrof-muhitda ro'y beradigan voqea-hodisalarning mohiyatiga etish, ularni tahlil qilish va umumanlashtirish yangilik ochish ijodiy izlanish xislatlarini aks ettiradi. Ibn Sino esa inson faoliyatdagi haqiqatni bilishga olib keluvchi nazariy hamla yaxshi ishlarni bajarishga yo'naltiruvchi amaliy bilimlarni farqlaydi. Demak shaxsning bilimdonligi uning atrof-muhit tarbiyat va jamiyatlarni kishilar o'rtasidagi munosabatlarni anglash baholash o'zi haqida to'g'ri tasovvurga ega bo'lish negizida hayotda, kundalik turmush va ongli faoliyatida namunali ishlarni bajarish, inosiy fazilatlarga amal qilishni taqozo etadi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi oldida turgan eng muhim vazifa ham-kelajagimiz bunyodkorlarida ayana shunday sifatlar majmuani shakllantirishdir. Ijtimoiy psixologiya ham bilimdonlik tushunchasining mohiyatiga o'ziga xos tarzda yondashadi va uning serqirraligini e'tirof etadi. Psixologik nuqtai nazardan olib qaraganda shunday muhim jihat mavjudki u ham bo'lsa aniq ilmlar sohasida bilimlar hamda shaxsning jamiyatda insoniy mafkuraviy huquqiy siyosiy, demokratik munosabatlar to'g'risidagi bilimlarining o'zaro uyg'unligi masalasidir. Psixologik savodxonlik tushunchasining asl mohiyati-bu shaxsning o'zi uning hissiy kechirmalari munosabatlari majmun bilan jamiyat va undagi shaxslararo munosabatlar tizimi qadriyatlar ma'naviyat to'g'risidagi to'la tasavvurlardir. Psixologik nuqtai nazardan bilimdan odam tasavvurlarida ob'ektivlik va xolislik sifatlari mavjud kim shu tufayli u o'z "Meni"ni mukammallashtirish va o'zgalar bilan to'g'ri munosabatlar o'rnatish qobiliyatiga ega.

Psixologik savodxonlik yana shuning uchun ham zarurki ko'pincha inson o'z iqtidori va imkoniyati darajasida aniq tasavvur qilmaydi, bilimgo'h yoki kasb tanlashda o'zgalar ta'siriga nafaqat o'sha shaxs aziyat chekadi, balki jamiyatga zarar keltiradi. Har bir shaxs o'zini o'zi tarbiyalashning malakalariga ega bo'lishi autotrening elementlaridan baxobar bo'lish o'zgalar bilan muloqotga tayyorligi-treninglarda ko'nikmalar hosil qilishi o'zgacha bo'la olish san'ati uning ruhiy barkamolligiga zaminligi tufayli jamiyat sog'lom insoniy munosabatlar ustun turadi. Demak ijtimoiy psixologiya bilimdonlikdan ko'zlangan asosiy maqsad-yoshlarni bo'lg'usi ijtimoiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlash ularda insoniy fazilatlar shakllantirish kommunikativ bilimdonlik va shaxslararo muloqotning murakkab shakllariga muvofiq. Zero, yuksak teran va atroflicha fikr yurita oladigan va ijtimoiy faoliyatidan el yurtga naf etkazadigan insonlargina kamolotga erishishi mumkin. Bu jarayonda ijtimoiy psixologiya o'zining faol metodlari va qonuniyatlari bilan o'z hissasini qo'shadi.

Samarali muomalaning texnikasi va texnologiyasi.

Ma'lumki muloqotning maqsadi va uning qay darajada amalga oshirilishiga ko'ra samaradorligi haqida fikr bildirish mumkin. Ya'ni muloqot ehtiyojlaridan kelib chiqib uning qondirilishi, muammo echilib chiqib uning qondirilishi, muammo echimi bilan bog'liq vazifalarning bajarishiga asoslanib muloqotning samarali yoki samarasizligi to'g'risida xulosa chiqarsa bo'ladi. Shaxslararo munosabat muloqotga kirishuvchilarning o'zaro bir-birlarini tushunishga olib kelsa bunday o'zaro munosabatlar samarali va foydali hisoblanadi.

Muloqotning psixologik tizimidan shu narsa ma'lumki uning uch asosiy qismi ya'ni muomala sub'ektlarning o'zaro bir-birlari bilan axborot hissiy kechinmalar va fikr almashinuvni ta'minlovchi kommunikativ, o'zaro bir-birlarining xulq atvorlariga ta'sirlarini belgilovchi interaktiv va bir-birlarini to'g'riroq aniqroq udrok qilish va baholashlarini ta'minlovchi pertseptiv tomoni mavjud.

Ushbu tizim har bir tomoni muomalaning zaruriy va muhim tarkiblari hisoblanib, uning uchinchi bo'lagi shaxslararo ta'sir o'tkazish uchun juda muhimdir. Chunki muomalaga kirishuvchi shaxslar bir-birlarini yaxshi tushunishlari uchun avvalo suhbatdoshning yuzi hissiy kechinmalarini idrok qilgan holda fikran uning mavqeida tura bilishi, o'zini uning o'rnida his-tuyg'ular doirasida uning holatiga kirishga intilish (identifikatsiya) qolaversa, bu jarayonda individual va ijtimoiy ongda mavjud bo'lgan mutlaq stereotip, ongda o'rnashib qolgan tasavvurlardan foydalanishi (stereotipizatsiya) ushbu jarayon to'g'ri kechishini ta'minlab turadi. Lekin bu jarayonlar shunchalik tez va qisqa fursatda kechadiki shaxs ba'zan o'zidagi ana shunday qiyoslashlarni ongisiz ravishda, hayotiy tajriba orqali o'rnashib qolgan shablonlar-qoliplar asosida amalga oshiradi, shuning uchun ayrim hollarda muloqot samarasiz yoki xato kechishi mumkin. Ana shunday xatoliklarga olib keluvchi jarayon ijtimoiy psixologiyada kauzal atributsiya deb atalib uning mog'iyatini shaxsning ko'pincha sho' xissiy kechinmalari va tasavvurlarida o'rganib qolgan qoliplardan noto'g'ri foydalanish natijasi tashkil qiladi. Masalan, tashki qiyofasi ko'rimsiz talabaning imtihon savollariga javob berayotganligini idrok qilgan professor negadir, uning qoniqarsiz javob berishi, bilim, etarli emasligi haqidagi noto'g'ri tasovvurga ega ekanligi kauzal atributsiyaning aynan o'zidir. Muomala jarayonining samaradorligini ta'minlovchi ijtimoiy psixologik omillar ichida shaxsning muloqot maromini egallash ko'rsatkichi muhim o'rin tutadi. Bu sifat muloqot xislat quyidagi omillarga bog'liq. 1) o'zgalar mavqeida tura olmaslik, ularning hissiy kechinmalari tuyg'ulari va munosabatlariga befarqlik. 2) o'z his tuyg'ulari va munosabatlarini boshqara olmasligi, o'z-o'ziga ma'suliyatning yo'qligi o'z-o'ziga tahlil qilish imkonining zaifligi; 3) so'hbatda har bir inson uchun bir qarashda tabiiy hisoblangan nutq qobiliyatinnig yo'qligi ya'ni fikr-mulohazalardagi mantiq va uzviylikning mavjud emasligi. 4) eshitish qobiliyatining kuchsizligi ya'ni birovga murojaat ma'nosida gapirish qanchalik buyuk fazilat va mas'uliyatli faoliyat bo'lsa, o'zgalarni suhbatdoshni tinglash ham shaxsdan qator sifatlarni talab qiladiki, tinglay olish o'quvi ham suhabatni o'ziga og'dirishning muhim omilidir. Yuqoridagi omillarning kuchiga e'tiborsizlik o'zgalar mavqeida tura olmasilik muomalada sub'ektiv xodisani keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham to'g'ri yo'lga kuyilgan samarali muloqot va uni ta'minlovchi yo'l va vositalar ikkinta asosiy kamchilikni bartaraf etishiga xizmat qiladi.

har bir shaxs tafakkurini muqobil bo'lishi mumkinligini anglashi ya'ni suhbatdosh boshdan o'zgalarda ham o'zining fikriga qarama-qarshi fikr bo'lishi mumkinligini tushunishi va bu narsa bilan xisoblashish zarurligi.

O'z fikrlari va xarakatlarining motivlari ularning asl sabablarini anglash imkoniyati ya'ni xar bir shaxsda o'z shaxsiy tajribasi hayotga sub'ektiv munosabatlari oqibatida "Ego"-ehtiyojlar majmun shakllanib boradiki u boshqalardagi ayni shunday ehtiyojlarga tubdan qarama-qarshi yoki kisman ziddiyatli bo'lishi mumkin. Yuqoridagi ikkin xolatning mavjudligini anglash ijtimoiy vaziyatlarga sodir bo'lishi ehtimoli mavjud. Hatoliklar va atributsiyalarining oldini oladi.

Gap muomalalarning samaradorligi va uning omillari to'g'risida borar ekan shu o'rinda uning etrategiyasi va taktikasi tushunchalariga biroz izoh berish joyiz muomila etrategiyasi deganda uning qanday shaklda o'tishi tushuniladi. Shu nuqtai nazarda olib qaralganda uning quyidagi shakllari farqlanadi: dialog yoki monolog ochiq yoki imtim (sirli yashirin): rolli yoki shaxsiy norasmiy kabilar.

Muomala texnikasi deganda uning samarasini ta'minlovchi psixologik omillar vositalar, usullar tushuniladi. Bu shaxs va yoki guruhning kommuniktiv malakalari va ko'nikmalari yig'indisidan iborat bo'lib eng avvalo nutq qobiliyati yoki eshitish o'quvi ularning jozibali va ta'sirchan chiqishida qo'llaniladigan barcha xissiy emotsional va psixologik xarakteralogik

uslublar kiradi. Bundan tashqari mumilaning texnikasi deganda, ushbu jarayonda bevosita ishtirok etayotgan yoki aniqroq qilib aytganda qo'llaniladigan nutqiy-verbal yoki triqsiz-noverbal vositalar nazarda tutiladi. Ma'lumki odamlar uzaro muloqatga kirishganida eng samarali va tabiiy so'zlashish vositasi bo'lmish nutqdan foydalaniladilar, uning ta'sirchanli kuchi tabiiy usha so'zlovchilarning malakalariga tajribasiga va hayotiy ko'pikmalariga, til boyliklaridan qay darajada omilkorona foydalana olishlari bog'lik.

Lekin ana shu nutqiy muloqat uz navbatida uni hissiy jihatdan tuldiruvchi nutqsiz-noverbal vositalar bilan ham boyitiladiki, unga o'sha suhbatlarning bir-biriga nisbatan fazoviy joylashishlaridan tortib, to'vushlar intinatsiyalar, to'htalishlar oxanglar va motsional qullab-quvatlash mehanizmlari kiradi. Nutqda ishlatiladigan pauza-tuxtalishlar yoki yuz ifodalari-mimikalarning o'rinli ishlatilishi suhbatdoshni ruhan muloqotdosh sherigiga yakinlashtiradi yoki noo'rin ishlatilgan muqomlar ortiqcha harakatlar hissiy kechinishlar uni koniqtirmasligi suhbatdoshini esa zeriktirishi tabiiy holdir. Ko'p mutaxassislar suzlash san'ati (mahorati) ta'sirchanligini hisobga oladilar-da lekin eshitish ukuvi va uning texnikasiga yuzaki qaraydilar.

Zero eshitish yoki tinglashning ham o'ziga xos nozik tomonlari mavjud. Avvalo, eishtish yoki tinglash gapirish uchun mavjut yoki esa-tushunish uchun darkor. Bu ikki holatda tinglovchining yuz ifodasidan tortib to o'zini his qilishlari barchasidan farq qiladi. Tinglovchi suhbatdoshini fikr almashish uchun tinglaganda, uning diqqati shu darajada tarang bo'ladiki natijada u to'biror luqma yoki oshiq bir fikr to'plamaguncha uni tinglayveradi. Ikkinchi holat-axborotni tushunish uchun tinglaganda esa imoutsional kechirmalar yoki luqmalar har bir fikrga aniqlik kiritish, uning moxiyatiga to'liq etib borish uchun ishlatiladi, bunda tinglovchining suhbatdoshga nisbatan movqei oldingizsidan ancha sust kechadi.

Bundan tashqari tinglash texnikasi xaqida gap ketganda, uning ikki bosqichi farqlanadi, ko'plab – quvvatlash bosqichi va sharxlash bosqichi.

Birinchi bosqichning mohiyati asosan suhbatdoshga tashabbusni berish va uning fikrlari oxirigacha bayonn etishiga imkoniyat berish bo'lib bunda quyidagi vositalar qo'llaniladi.

- “aks sado” – har bir jumla yoki fikr oxirida uning oxirgi so'zlarini qaytarib turish.

- ma'qullovchi yoki e'tiroz bildiruvchi luqmalar, qaytariluvchi so'zlar bilan suhbatdosh fikrini xissiy ma'qullash. Masalan “Qarang-a”, “Qoyil”, yo'q – e kabilar.

- chorlash va quvvatlash vositasi ham ayrim luqmalardan iborat bo'lib. Masalan, “Keyin nima bo'ldi?!”, Ya'na-chi, “Yashang”, singarilar.

- aniqlik kirituvchi savollar – masalan Nima demoqchisiz? yoki “Aniq maqsadingiz nima ekan o'zi?” va xokazo.

- “qo'shimcha luqmalar”- bunda gapning mazmunidan kelib chiqib ayrim aniqliklar kiritiladi. Masalan “Men ham eshitganim bor, bu xaqda” Qani qolganini ham eshitaylik-chi.

Bu vositalardan farqli o'laroq sharxlash bosqichida tinglovchi o'z mavqei va munosabatini to'laroq bayon etishga harakat qiladi. Bunda tinglovchi tanqidiy mulohaza ham kiritishi mumkin (yo'g'-e unchalik emasdir?) yoki aniq fikrni ma'qullaydi e'tiroz bildiradi (“Sizni tushundim,... demoqchisiz-da? yoki Albatta shunday...”) Bundan tashqari u tinglash jarayonida suhbatdoshning fikrlarini taxlil qilish (Ha endi sizni tushundim, chunki ...) maslahatlarni bildirish (Sizni o'zingizda men ham...) suhbatdosh fikrlarni o'z so'zlari bilan ko'tarish yoki aytilganlarining yo'nalishini o'zgartirish maqsadida boshqa predmetga ko'chirish, yoki xazilga aylantirishi mumkin. Yuqoridagi xolatlar suhbatning jonli mazmunli va samarali kechishini tabiiy ravishda ta'minlaydi. Ijtimoiy psixologik trening orqali odamlarni muomala tayyorlaganda albatta yuqoridagi omillarning barchasi inobatga olinishi zarur.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori».T., 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risidagi Qonuni”, T., 1997.

3. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.- "Turkiston", 2002 yil 31 avgust
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: "O'zbekiston", 2005.-96 b.
5. Godfrua J. Chto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frants. M., Mir, 1992.-496 s.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T., 1994 y.
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T.,1999 y.
8. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
9. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
10. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
11. Nemov R.S. «Psixologiya». Kn.1. - M., 2003
12. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. T., 2006 y

8-MAVZU: IJTIMOIIY PSIXOLOGIYADA KICHIK GURUHLAR VA ULARDAGI QONUNIYATLAR MUAMMOSI.

REJA:

1. Kichik guruhlar psixologiyasi.
2. Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi.
3. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Guruh, kichik guruhlar, klassifikasiya, dinamik jarayonlar.

Kichik guruhlar psixologiyasi. Kichik guruhlar muammosi ijtimoiy psixologiyada eng yaxshi ishlangan va ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan ob'ektlardandir. Bu muammoni tadqiq etishda olimlar o'z oldiga shunday masalani qo'yganlar, ya'ni, individ yakka holda yaxshi ishlaydimi yoki guruhda yaxshiroq samara beradimi, boshqa odamlarning yonida bo'lishi uning faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday sharoitlarda individlarning o'zaro hamkorligi emas, balki ularning bir vaqtda bir erda birga bo'lganligi faktining ta'siri o'rganildi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, boshqalar bilan hamkorlikda bo'lgan individ faoliyatining tezligi oshadi, lekin harakatlar sifati ancha pasayishi aniqlandi. Bunday ma'lumotlar Amerikalik N. Triplett, nemis olimi A. Mayer, rus olimi V.M.Bexterev, yana bir nemis olimi V. Myode va boshqalarning tadqiqotlarida ham qayd etildi. Bu psixologik hodisa ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy fastsilitatsiya nomini oldi, uning mohiyati shundan iborat ediki, individning faoliyat mahsullariga uning yonida bo'lgan boshqa individlarning bevosita ta'siri bo'lib, bu ta'sir avvalo sensor kuchayishlar hamda ish-harakatlarning, fikrlashlarning tezligida namoyon bo'ladi. Lekin ayrim eksperimentlarda teskari effekt ham ko'zatildi, ya'ni boshqalar ta'sirida individ reaksiyalaridagi tormozlanish faoliyatining susayishi holatlari: bu narsa fanda ingibitsiya deb ataladi.

Birinchidan, kichik guruhlarning hajmi, uni tashkil etuvchi shaxslar soni xususida o'unday fikrga kelindiki, kichik guruh "diada" ikki kishidan tortib, to maktab sharoitida 30-40 kishigacha deb qabul qilindi. Ikki kishilik guruh deyilganda, avvalo oila – yangi shakllangan oila ko'proq nazarda tutiladi. Lekin samarali o'zaro ta'sir nazarda tutilganda 7-2kishi ko'zlanadi. Bunday guruh turli ijtimoiy psixologik tadqiqotlar uchun ham, sotsial psixologik treninglar o'tkazish uchun ham qulay hisoblanadi.

Ikkinchidan, guruhning o'lchami qanchalik katta bo'lsa, uning alohida olingan shaxslar uchun qadrsizlanib borish xavfi kuchayadi. Ya'ni, shaxsning ko'pchilikdan iborat guruhdan o'zini tortish va uning normalarini buzishga moyilliga ortib boradi.

O'chinchidan, guruhning hajmi kichiklashib borgan sari shaxslararo o'zaro munosabatlar taranglashib boradi. Chunki, shaxslarning bir-birlari oldida mas'uliyatlarining oshishi va

yaqindan bilishlari ularning o`rtasidagi aloqalarda doimo aniqlik bo`lishini talabqiladi. Munosabatlardagi har qanlay disbalanslar, ya'ni nomutanosibliklar ochiq holdagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. To`rtinchidan, agar guruh a'zolarining soni toq bo`lsa, ular o`rtasidagi o`zaro munosabatlar juft bo`lgan holdagidan ancha yaxshi bo`ladi. Shundan bo`lsa kerak, boshqaruv psixologiyasida odamlarni biror nimaga savylashda va umuman rasmiy tanlovlarda guruhdagi odamlar soni toq qilib olinadi.

To`rtinchidan, agar guruh a'zolarining soni toq bo`lsa, ular o`rtasidagi o`zaro munosabatlar juft bo`lgan holdagidan ancha yaxshi bo`ladi. Shundan bo`lsa kerak, boshqaruv psixologiyasida odamlarni biror nimaga saylashda va umuman rasmiy tanlovlarda guruhdagi odamlar soni toq qilib olinadi.

Beshinchidan, shaxsning guruh taz'yiqligiga berilishi va bo`ysunishi ham guruh a'zolarining soniga bog`liq. Guruh soni 4-5 kishi bo`lgunga qadar, uning ta'siri kuchayib boradi, lekin undan ortib ketgach, ta'sirchanlik kamayib boradi. Masalan, ko`chada sodir bo`lgan baxtsiz hodisaning guvohlari soni ortib borgan sari, jabrlanganga yordam berishga intilish, mas'uliyat hissi pasayib boradi.

Bu qonuniyatlarni bilish, tabiiy guruhlarni boshkarish ishini ancha engillashtiradi.

Tarixan kichik guruhlarni rasmiy va norasmiy turlari bo`lish qabul qilingan. Bunday bo`linishni amerikalik olim E. Meyo taklif etgan edi. Uning fikricha, rasmiy guruhlar bir a'zolarining rasmiy rollarga ega ekanligi, ular mavqeining va guruhda tutgan o`rnining aniqligi bilan xarakterlanadi. Bunday guruhlarda munosabatlar asosan "vertikal" tarzda ro`y berib, guruhning bir yoki bir necha a'zosida "hokimiyat" bo`lganligi uchun ham, ular boshqalarni boshqarish, ularga buyruq, rasmiy ko`rsatmalar berish huquqiga ega bo`ladilar. Rasmiy guruhga misol qilib har qanday birgalikdagi faoliyat maqsadlari asosida shakllangan jamoalarni – ishlab chiqarish brigadasi, talabalar guruhi, sinf o`quvchilari, pedagogik jamoa va boshqalarni olish mumkin.

Rasmiy guruhlardan farqli o`laroq norasmiy guruhlar ham mavjud bo`ladiki, ular asosan stixiyali tarzda, aniq maqsadsiz tarkib topadi va ularda a'zolarining aniq mavqelari, rollari oldindan belgilangan bo`lmaydi. Ko`pincha norasmiy guruh rasmiy guruh tarkibida tashkil topadi va ularni boshqarish ham oldindan belgilangan bo`lmay, odamlar ichidan u yoki bu shaxsiy sifatleri tufayli ajralib chiqqan a'zolar norasmiy rahbarlik rolini bajarishlari mumkin.

Bundan tashqari ijtimoiy psixologiyada referent guruh tushunchasi ham bor. Bu tushuncha fanga birinchi marta amerikalik tadqiqotchi G. Xaymen tomonidan 1942 yilda kiritilgan edi. U o`z tadqiqotlarida shuni isbot qildiki, ma'lum bo`lishicha, guruh a'zolari uchun shu guruh ichida yoki boshqa doiralarda shunday shaxslar guruhi mavjud bo`lar ekanki, u o`z hatti-harakatlari, fikrlari va yo`nalishlarida o`sha guruh a'zolariga ergashish, ularning fikrlarini tanqidsiz qabul qilishga moyil hamda tayyor bo`lar ekan. Shunday shaxslar guruhi referent guruh nomini oldi. O`quvchi uchun bunday guruh rolini maktabdagi bir necha o`qituvchilar, otasi yoki onasi, yaqin do`sti yoki qarindoshlaridan kimdir o`ynashi mumkin. Shunisi xarakterliki, shaxs doimo shu guruhga ergashadi, uni qadrlaydi, u bilan muloqotda bo`lishga intiladi. Rus psixologlari bu guruhni odatda shaxs uchun mavjud haqiqiy guruh (a'zolik guruhi) tarkibida yoki unga qarshi bo`lgan guruh sifatida qaraydilar. Nima bo`lganda ham ana shunday guruhning mavjudligi shaxs uchun ahamiyatli bo`lib, uning xulq-atvor uchun etalon hisoblanadi. Tadqiqotchi yoki tarbiyachining vazifasi, ana shu guruhni aniqlay olish va aniqlagandan so`ng nima uchun aynan shu guruh referent rolini o`ynaganini bilish muhimdir. Referent guruhga qarab shaxsga baho berish, uning xulq – atvorini bashorat qilish mumkin.

Agar odamlar ko`chada tasodifiy hodisani tomoshabini bshlib turishgan bo`lsa, ularni psixologiya tilida guruh emas, agregatsiya (olomon) deb atashadi, haqiqiy guruh uchun o`sha odamlarning barchasiga aloqador umumiy faoliyat va hamkorlik qilish, bir – birlariga ta'sir ko`rsatish imkoniyati bo`lishi kerak. Amerikalik psixolog Ch. Kuli hamkorlikning darajasi mezoniga ko`ra guruhlarni birlamchi va ikkilamchi turlarga bo`lib o`rganishni taklif etgan edi. Birlamchi guruhda shaxslararo o`zaro ta'sir "yuzma – yuz, bevosita" ro`y beradi. Masalan, oila davrasidagi, sinfdagi, hisobchilar xonasida o`tirganlar birlamchi guruhga misoldir.

Ikkilamchi guruhlarda har doim ham odamlarning bevosita muloqotda bo'lish imkoniyatlari bo'lmaydi. Ular o'rtasidagi munosabat va o'zaro ta'sir bilvosita bo'ladi. Masalan, yirik bir tashkilotdagi tizimlar orqali muloqot, kasaba uyushmasiga birlashgan odamlar, "Vatan" taraqqiyoti partiyasi a'zolarining bog'liqligi ikkilamchi guruhga misol. Ularda ham umumiylik bo'ladi, masalan, o'sha partiyani oladigan bo'lsak, ular Qashqadaryoda bo'ladimi, Farg'onadami, baribir umumiy g'oya atrofida birlashishadi, a'zolik badallarini vaqtida to'lab turishadi, saylov oldi kompaniyalarida bir-birlarini qo'llab-quvvatlab turadilar.

Turli guruhlar inson hayotida bir necha funktsiyalarni bajaradilar : a) ijtimoiylashtiruvchi funktsiya; b) instrumental, ya'ni, aniq mehnat funktsiyalarni amalga oshirishga imkon beruvchi muhit; v) ekspressiv – odamlarning o'zgalarning tan olishlari, hurmatga sazovor bo'lish, ishonch qozonishini ta'minlash; g) qo'llab-quvvatlash, ya'ni, qiyin paytlarda, muammolar paydo bo'lganda odamlarni birlashtirish funktsiyasi.

Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar. Ma'lumki, guruhda to'plangan kishilar o'rtasida doimiy muloqot va munosabatlar mavjud bo'ladiki, ularning mazmuni va yo'nalishiga ko'ra, o'ziga xos sotsial psixologik muhit shakllanadi. Bu muhit guruhning taraqqiyotini ham, undagi turli jarayonlarni ham belgilaydi. Guruhning dinamik jarayonlari deganda avvalo uning shakllanish jarayoni, liderlik va guruhda turli qarorlarni qabul qilish jarayoni, guruhning har bir shaxsiga ta'siri kabilar tushuniladi.

Guruhning shakllanishi, uning paydo bo'lishi haqida gapiriladigan bo'lsa, avvalo shuni ta'kidlash lozimki, guruh jamiyat ehtiyojlari va ijtimoiy talablar asosida paydo bo'ladi. Masalan, sinf jamoasi doimo bolalarning rivojlanishi va ularning maktablarda ta'lim olishlari kerakligi uchun, talabalar guruhi ham shunga o'xshash oliy ma'lumotli shaxslar kerak bo'lganligi uchun paydo bo'ladi va hokazo. Lekin bu masalaning ijtimoiy tomoni, uning sof psixologik tomoni ham borki, u odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo'lishi bilan bog'liq. Chunki har bir normal insonda muloqotga bo'lgan ehtiyoj hamda turli hayotiy vaziyatlarda o'zini ijtimoiy himoyada sezish ehtiyoji borki, bu narsa turli kichik jamoalarda ularning bo'lishini taqozo qiladi. Lekin guruhga a'zo bo'lish bilan birgalikda har bir individ qator guruhiiy jarayonlarning guvohi bo'ladi.

Birinchidan, guruh o'z a'zolariga ma'lum tarzda psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu hodisa psixologiyada konformizm deb ataladi (o'zbek tilida "moslashish" ma'nosini bildiradi). Bu hodisaning mohiyati shundan iboratki, u individning guruhda qabul qilinadigan normalar, fikrlar, xulq-atvor standartlariniqanchalik qabul qilishi yoki qabul qilmasligi bilan bog'liq. Guruh fikrini qanchalik tez qabul qilish uning ta'siriga berilish individ bilan guruhning ziddiyatlarini oldini olishi mumkin. Shuning uchun ham individ ana shunday xatti-harakat qilishga intiladi. Lekin ana shunday guruh fikriga, harakatiga qo'shilish turli shakllarda bo'lishi mumkin: tashqi konformlilik – individ guruh fikriga nomigagina qo'shiladi, aslida ruhan u guruhga qarshi turadi; ichki konformlilik – individ guruh fikriga to'lig'icha qo'shiladi va ruhan qabul qiladi. Ana shunday hollarda individ bilan boshqalar o'rtasida ziddiyat yoki konfliktlar paydo bo'lmaydi. Bu o'rinda yana bir tushuncha ham bor, u ham bo'lsa "negativizm" tushunchasidir, bu individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mastaqil fikr, mavqeini namoyon qilishidir. Bu tabiiy individ uchun noqulay, lekin mustaqil fikr, odil

harakatlar doimo hurmat qilinadigan jamoalarda negativizm hodisasi yomon illat sifatida qabul qilinmaydi. Guruhlardan yana bir jarayon-bu guruhning uyushqoqligi muammosidir. Guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshibilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy printsiplari, qadriyatlariniyaxshi tasavvur qilishlari bunday uyushqoqlikning birinchi omilidir. Ikkinchi va asosiy omil-bu o'sha guruhni birlashtirib turgan faoliyat maqsadlarini,uning yo'nalishi va mazmunini bilishdagi g'oyaviy birlikdir.Umuman, eksperimental tadqiqotlarda qayd etilgan guruhga oid fikrlardagi umumiylik uyushqoqlikka ijobiy zamin hisoblanadi.

Guruhning avtonomligi darajasi ham ma'lum ahamiyatga ega omil, chunki har bir a'zo umumiy maqsad asosida birlashgan bo'lsa ham, ularning har birining o'z burch va vazifalari bor va shu nuqtai nazardan har odam o'z imkoniyatlarini o'zicha ishga solib, o'zaro munosabatlarga sabab bo'ladi.

Guruhning psixologik tizimga ta'sir etuvchi omillarga yana ularning jinsiy, yosh jihatdan, ma'lumoti va malakasi nuqtai nazaridan farq qiluvchi, uyg'unlikni tashkil etuvchi omillar ham kiradi.

Guruhdagi liderlik va umumiy qarorlarga kelish ham dinamik jarayonlarga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.1997
2. Akramova F. Ijtimoiy psixologiya. T. 2004
3. Atajanov M. Menejment psixologiyasi. T. 2003.
4. Abdullaev Ya., Baymurodov M. Menejment. 1998
5. Karimova V.A. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T.1994
6. Karimova V.A. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T. 1999
7. Goziev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T.2001
8. Goziev E. Boshkaruv psixologiyasi. T. 2000
9. Musinov S. Raxbar psixologiyasi. T. 2000
10. Goziev E. Muomala psixologiyasi. T. 2001

9-MAVZU: BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI

REJA:

1. Psixologiyada boshqarish muammosi
2. Guruhlarda rahbarlik va liderlik
3. Liderlik usullari haqida tushuncha
4. Rahbarlik sifatleri
5. Boshqaruv fani va boshqaruv psixologiyasining fan sifatida rivojlanishi.

Tayanch tushunchalari: boshqarish psixologiyasi, ob'ekt, sub'ekt, lider, rahbar, avtoritar rahbar, demokratik rahbar, liberal rahbar, “jamoadan chetda”, nazariyalar.

1. Psixologiyada boshqarish muammosi. Oxirgi yillarda inson omiliga e'tiborning ortib borishi munosabati bilan boshqarish psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo'limi - boshqarish psixologiyasi paydo bo'ldi. Boshqarish psixologiyasi psixologiyaning shunday tarmog'iki, u boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini saarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi.

Boshqarish muammolari ham bir qancha fanlar tomonidan o'rganildi, jumladan, falsafa, tarix, iqtisod, huquqshunoslik va psixologiya uning o'ziga xos tomonlarini ochish bilan shug'illanadi. Psixologiya boshqarishni ham ob'ekti, ham sub'ektini o'rganadi. Psixologik tadqiqotlarda o'rganiladigan olimlar jamoasi, alohida shaxs, ularning psixologik holatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalari boshqaruv ob'ekti deb aytiladi. Boshqaruvning sub'ekti o'rganilganda esa odatda boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi.

Psixologiya ko'proq byuoshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslarini o'rganadi va shu asosda bo'ysunuvchilar ishlarini samarali tashkil etish, aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun qanday psixologik holat va jarayonlarni o'zida tarbiyalash lozimligi kabi qator muammolarni echadi. Masalan, konkret hayotiy sharoitlarda agar boshliq majlis olib borayotgan bo'lsa, har bir so'ga chiquvchilarning fikrlari, ma'ruzalari va hokazolar orqali ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqariladi, qabul qilingan qarorlarga ko'ra boshliqning va hodimlarning har biriga alohida ilmiy ko'rsatmalar va maslahatlar beriladi.

Boshqaruv psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish, uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko'ra

boshliq darajasiga ko'tarildi, ishni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanayapti, hodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u qanday ta'sir uslublarini qullayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil, chunki kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga beriladi, kim uchundir unga berilajak huquqlarni afzal ko'rish xos, kimgadir yuksak mas'uliyatlarni buyiniga olish ma'qul keladi. Shaxslarning boshliq funktsiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma – xil bo'lmasin, boshliqdan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obruga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olish kabi ko'plab sifatlarning mujassam bo'lishi talab qilinadi.

Ayniqsa boshliq uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boshliq uchun bir vaqtningo'zida bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning xarakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar tug'diradi, chunki o'sha guruhlarini tashkil etgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi, boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm – farosatning va sabr-qanoatning bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham kundalik hayotimizda, ham ilmiy adabiyotlarda tez-tez yonma-yon ishlatiladigan “lider” va “boshliq” tushunchalarining psixologik mazmunlarini analiz qilib chiqish maqsadga muvofiqdir.

2. Guruhlarda rahbarlik va liderlik. Guruhlardagi o'zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo'lib, guruh a'zolarining konkret mavqelari, boshliq bilan buysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu borada “lider” va “boshliq” tushunchalari o'rtasidagi farqlar hakida gapirish lozim.

B.D. Parigin bu ikki tushunchani farqlab shunday yozadi :

Lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar – shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

Liderlik kichik guruhlargagina xos bo'lgan hodisa bo'lsa, rahbarlikning haq-xuquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin;

Agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan hodisadir;

Liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yo'nalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi;

Rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va rag'batlantirish tizimiga ega bo'lib, shu asosda o'z xodimlariga ta'sirini o'tkazishi mumkin;

Lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko'rsatmalar, tashabbuslarni o'z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo'nalishda ko'plab rasmiy ko'rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketishi qiyin;

Liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo'lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Lider hech qachon yolg'iz bo'lmaydi, u doimo guruh a'zolari orasida bo'ladi, u shu guruh a'zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider guruh a'zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, qiziqishlari va hokazolarni hammadan ham yaxshi biladi, ular ichida eng tashabbuskoridir. Agar sinf doirasida olib qaraladigan bo'lsa, turli xil lider borligini aniqlash mumkin. Masalan, guruh a'zolari ichida eng bilag'oni, aql o'rgatuvchisi, topqiri, intellektual lideri, bolalar ichida eng hazilkashi, dilkashi, xushchaqchagi, ko'ngil so'rovchisi, o'zgalarni tushuna oladigan – emotsional lider, guruhni ish faoliyatiga chorlay oladigan, qat'iyatli, irodali – irodaviy liderlar bo'lishi mumkin. Ular ayni vaziyatlarda vaziyat talabiga ko'ra paydo bo'ladilar hamda bolalar ongida o'z sifatlariga ko'ra obro' qozonadilar. Lider sifatlari ichida yaxshi va yomonlari ham bo'lishi mumkin, lekin guruh liderga ergashganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va shuning uchun ham barcha ishlariga ergashib, ko'rsatmalariga amal qiladi. Maktabda bolalar yoshida xulqi maktab normalariga to'g'ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular ma'lum guruh ichida so'zsiz obro'ga ega ekanligi ham shu bilan tushuntiriladi. Masalan,

lider “ketdik” deb koʻrsatma bersa, unga ergashganlarning darsni ham tashlab keta olishi shu bilan tushuntiriladi.

Shuning uchun ham sinf rahbari oʻz sinfidagi rasmiy liderlar bilan ishlash bilan cheklanmaydi, balki norasmiy liderlarni ham aniqlay bilishi, ular bilan hamkorlikda ishlashi zarur. Toʻgʻri, baʼzi hollarda rasmiy va norasmiy lider bir shaxs boʻlishi ham mumkin. Bu juda qulay, lekin liderlik vaziyatga bogʻliq boʻlgani uchun ham ularning oʻzgarib turishini hisobga oladigan boʻlsak oʻqituvchining boshqarish maxorati yoki sanʼati uning norasmiy liderlar bilan samarali ishlash usulidir.

Shunday qilib, har qanday lider obroʻga ega. Obroʻlilik shaxsning shunday xususiyatiki, u boshqa shaxslarga ham hissiy – emotsional, ham irodaviy taʼsir koʻrsata olish qobiliyatiga egadir. Norasmiy obroʻlilik yaʼni shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obroʻ juda samaralidir. Odamlar koʻngliga yoʻl topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna olish, ishonch va shunga oʻxshashlar obroʻ orttirish mezonlaridandir.

Liderlik hodisasi toʻgʻrisida gap ketar ekan, liderlik nazariyalari xaqida ham qisqacha toʻxtalib oʻtish oʻrinlidir. Hozirgi kunga qadar liderlik toʻgʻrisida asosan uchta nazariya mavjud.

Birinchisi “liderlik sifatleri nazariyasi”dir yoki xarizmatik nazariya. Uning mohiyati shuki, hamma ham lider boʻla olmaydi, ayrim shaxslarda shunday sifatlar yigʻindisi tugʻma mavjud boʻlib, ular uning guruhda lider boʻlishini taʼminlaydi. Masalan, 1940 yilda amerikalik K.Berd 79 sifatdan iborat boʻlgan liderlik qirralari roʻyxatini tuzdi. Bu roʻyxatda jumladan tashabbuskorlik muloqatga kirisha olish, yumor hissi, oʻziga ishonch, tez va aniq qarorlar qabul qila olish, tashkilotchilik kabi sifatlar bor edi. Lekin bu nazariyaning xatoligi shunda ediki, irinchidan, u yuqoridagi sifatlar qanday qilib namoyon boʻladi-yu, qanday shakllanishini tushuntirib bera olmadi, ikkinchidan, soʻroqlar mobaynida birorta sifat ham mutlaq koʻp marta qayd etilmadi.

Ikkinchi nazariya liderlikning vaziyatga bogʻliqligi nazariyasidir. Bu erdagi asosiy gʻoya – lider vaziyatning mahsuli degan gʻoyadir, har bir odamda liderlik sifatlaribor, lekin ayrim vaziyatlar ayrim shaxslarning oʻzlarini koʻrsatishlari, lider boʻlishlari uchun qulay hisoblanadi.

Yuqoridagi ikki nazariyani tanqid qilish natijasida paydo boʻlgan uchinchi nazariya liderlikning sintetik nazariyasidir. Bu nazariya liderni guruhliy munosabatlarning bevosita mahsuli deb qaraydi, liderning ruyobga chiqishida guruhning birlamchi rolini ilgari suradi.

Psixolog A.N. Leontevning faoliyat kontseptsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normalar va ijtimoiy kutishlarga kim koʻproq javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin. Ijtimoiy kutishlar nazariyasi hozirda koʻpchilik tomonidan maʼqul yondashishlardan biri deb qabul qilinmoqda.

3. Liderlik usullari haqida tushuncha. Har bir lider yoki boshliq oʻzicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi har bir boshliq oʻz ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini oʻziga xos tarzda tashkil etishidadir. Ijtimoiy psixologiyada boshqaruv sohasida batafsil oʻrganilgan muammolardan biri – turli boshqaruv uslublaridir. Bu sohada nemis olimlari G.Gibsh va M.Forverg, rus olimlari V.D.Parigin, L.N.Umanskiy, M. Yu. Jukov va boshqalarning ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Barcha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda ijtimoiy psixologiyada qabul qilingan uch asosiy boshqarish uslublariga xarakteristika berib chiqamiz. Bu uch uslub – avtoritar, demokratik va liberal ish uslublaridir.

Avtoritar rahbar barcha koʻrsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq – ravshan, keskin ohangda xodimlarga etkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga nisbatan doʻq – poʻpisa, keskin taʼqidlash kabi qatʼiy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri – nima yoʻl bilan boʻlsa –da, oʻz hukmini oʻtkazish. Uning nutqi ham aniq va ravon doimo jiddiy tusda boʻladi. Biror ish yuzasidan xodimlarni maqtash yoki ularga jazo berish, tanqid qilish sof subʼektiv boʻlib, bu narsa boshliqning kayfiyatiga va oʻsha shaxslarga nisbatan shaxsiy munosabatiga bogʻliq. Jamoa aʼzolarining tilak – istaklari, ularning fikrlari va maslahatlari juda kam xollardagina inobatga olinadi, aksariyat xollarda bunday istaklar yoki koʻrsatmalar toʻgʻridan – toʻgʻri doʻq-poʻpisa, kamsitish yoki maʼnaviy jazolash yoʻli bilan cheklanadi yoki

qoniqtirilmaydi. Bunday rahbar o'z ish uslublari, kelajak rejalari, biror aniq ishni, operatsiyani qanday amalga oshirmoqchiligini odatda, jamoadan sir tutadi, uning fikricha, bu uning obro'yiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Guruhdagi ijtimoiy-fazoviy munosabatlardagi o'zni jihatidan, u "jamoadan chetda", avtonomdir.

Avtoritar rahbarda har bir jamoa a'zolarining qobiliyatlari, ishga munosabatlari, mavqelariga ko'ra tutgan o'rinlari haqida tasavvurlar borki, shunga ko'ra u har bir xodimning ish harakatlarini maksimal tarzda dasturlashtirib qo'ygan, unda har qanday cheklashlar uning ochiq g'azabini keltiradi va buning uchun unda jazolashning turli uslublari mavjud. Ya'ni bunday jamoalarda hokimiyat – markazlashtirilgan, jamoa rahbari ushbu markazning yakka hokimi – shuning uchun ham bu erda "mening odamlarim", "mening ishim", "mening fikrim bo'yicha" kabi iboralar tez-tez ishlatiladi. Bunday rahbarlarda ishiga nisbatan shunday fidoiylik borki, ular o'zlarini shu ishsiz tasavvur qila olmaydilar, ya'ni ish uning "butun vujudini qamrab olgan". Shu sabab bo'lsa kerak bunday rahbar har bir odamni, uning kundalik ish faoliyatini, uning natijalarini juda yaxshi biladi. Lekin, aslida, uni ishning mazmunidan ko'ra, uning o'sha erdagi etakchilik roli, boshliqligi ko'proq qiziqtiradi va o'ziga o'sha sifatlariga qarab baho beradi. Bu sifat, tabiiyki, ishning sifatiga ham ta'sir qilgani uchun jamoa oldiga qo'yilgan barcha topshiriqlar bajarilmay qolmaydi ("temir rahbar"). Bunday jamoalarda tanqid ishi juda sust, chunki u o'zini ham tanqid qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Tanqid qilishga, uning fikricha, faqat boshliq haqli, yig'ilishlarda so'zni o'zi boshlab, tashabbusni oxirigacha boshqalarga bermaydi, odamlarning takliflari, ularning hissiyotlari e'tiborga olinmaydi.

G. Gibsh va M. Forverglarning tahlil qilishlaricha, avtoritar lider bosh bo'lgan jamoada ishlarning samaradorligi ancha yuqori bo'lib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lar ekan. Lekin jamoadagi ruhiy – ma'naviy muhit og'ir, tang bo'lib, bu narsa odamlarning jamoadan, ishdan qoniqmasliklariga olib keladi. Bunday rahbarlar boshchilik qilgan mehnat jamoalarida ishlaydigan odamlar o'z kasblari, ish joylarini osonlikcha almashtirishlari mumkin.

Demokratik rahbar, aksincha, bo'ysunuvchilarga mustaqillik erk berish tarafdori. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda taqsimlaydi. Bunda u xodimlarning shaxsiy moyilliklarini ham hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriqlar, odatda, taklif ma'nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o'rtoqlarcha, do'stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, uning lovozimini oshirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra ishiga baho berish doimo jamoa a'zolarining fikri bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Tanqid, ko'pincha taklif, istak shaklida qilingan ishlarning mazmuniga baho berish holida "aybdorga" etkaziladi, har bir yangi ish jamoa maslahatisiz boshlanmaydi. Shuning uchun ham uning fazoviy – ijtimoiy holati "jamoada ichida".

Jamoada tanqid va o'z-o'zini tanqid shunday yo'lga qo'yilganki, uning oqibatidan hech kim aziyat chekmaydi. Chunki ko'proq boshliq emas, balki jamoaning boshqa faollari – norasmiy liderlar tanqid qiladilar. Boshliq yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarni jamoatchilik oldida bo'yniga olishdan qo'rqmaydi. Chunki undagi mas'uliyat hissi nafaqat yuqori boshqaruv tashkilotlari a'zolari bilan muloqot paytida, balki, xodimlar bilan muloqotda ham sezilib turadi va qo'yilgan topshiriq yuzasidan mas'uliyatni boshqalarga ham bo'lib berishni yaxshi ko'radi. Boshliqning xodimlaridan siri yo'q, shuning uchun ham majlislarda ko'proq u emas, balki barcha xodimlar gapiradilar, oxirgi qaror chiqarish va so'zlarni yakunlash, umumlashtirish huquqidan u to'liq foydalanadi.

Gibsh va Forverglarning tahlillariga ko'ra, bunday boshliq rahbarlik qilgan jamoalarda ma'naviy – ruhiy muhit juda yaxshi, ishchilar jamoadan, ishdan qoniqish hosil qilganlar, ishdan ketish hollari kam bo'ladi, lekin ishlab chiqarish zo'rg'a norma holatida bo'lar ekan.

Liberal (loqayd) uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda taqiqlash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'rniga ko'pincha ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada hamkorlik yo'q boshliq jamoaning muammolari, ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, g'o'yoki boshqa "koinotda" yurganga o'xshaydi. Aniq ko'rsatmalar bermaydi, uning o'rniga norasmiy liderlar yoki o'ziga yaqin kishilar orqali qilinishi lozim bo'lgan topshiriqlar

bajaruvchilarga etkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida, xodimlar uchun ish sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulot, xom-ashyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnashish va hokazolardan iborat.

Xodimlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri kelganda, u doimo xushmuomala bo'lib, odob, ahloq normalarini buzmaslikka harakat qiladi, lekin xech qachon ular bilan tortishmaydi. Majlislarda agar biror muammo munozarani keltirib chiqarsa, u bevosita jarayonga aralashmay, oxirgi so'zni o'ziga qoldiradi. Shunday qilib, xodimlarga fikrlash va hatti-harakatlar erkinligi berib qo'yilgan, bular yuzasidan boshliqning fikri so'ralgan taqdirda ham, undan aniq gap chiqmaydi, chunki u xodimlarni yaxshi bilmaydi, qolaversa, ularni xafa qilib qo'yishdan qo'rqadi. Uning fazoviy – psixologik holati “guruh tashqarisida”.

Olimlar fikricha, bunday rahbar ishni olib borgan jamoalarda barcha ko'rsatkichlar doimo orqada, qo'nim ham yo'q. Liberal rahbar ishda o'zboshimchalikka yo'l qo'yib, ko'p turmay, boshqa erdan ish qidirishga harakat qiladi.

Yuqorida baho berilgan boshqarish uslublari ko'proq liderlikka emas, balki rahbarlikka taalluqli, lekin ilmiy adabiyotlarda bu ikkala ibora, ko'pincha sinonimday ishlatiladi. Aslida, eng yaxshi rahbar o'zida barcha liderlik sifatlarini ham mujassamlashtirgan bo'ladi. Chunki sof ijtimoiy psixologik ma'nodagi liderning turlari turli sharoitlarda o'zida ko'proq namoyon etadigan shaxsiy sifatlariga ko'ra tabaqalanadi. Masalan, lider – tashkilotchi, lider – tashabbuskor, lider – erudit, jamoa hissiy-emotsional holatni boshqaruvchi lider, lider – bilag'on va hokazo. Yaxshi rahbar ana shu lider sifatlarini bilgan holda, ularni o'zida tarbiyalashi va jamoasidan liderlar bilan hamkorlikda ishlay olishi kerak. Oxirgi yillarda Moskva va boshqa yirik ilmiy markazlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, aslida hayotda sof demokrat yoki sof avtoritar rahbarni uchratish qiyin, lekin uchragan paytda ham ular bir jamoani uzoq muddat boshqara olmasligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ham ular vaziyatga bog'liq, konkret jamoa, unda 3abul qilingan hatti – harakat normalari, shaxslararo munosabatlar tipi liderning ham, rahbarning ham ish taktikasi va uslubini belgilaydi, degan g'oya qabul qilinmoqda. Lekin bu rahbarlik uslublarining psixologik mazmun va mohiyatini bilishning amaliy ahamiyati shundaki, har bir uslubda o'ziga xos ijobiy tomon bor, mohir rahbar o'zini – o'zi tarbiyalalar ekan, o'shalarining eng ma'quli, ayniqsa o'zi rahbarlik qilayotgan jamoaga moslarini tarbiyalashi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida aytib o'tilganidek, rahbarda tug'ma qobiliyat bo'ladi deb ham aytib bo'lmaydi, ikkinchi tomondan, rahbar vaziyatga qarab stixiyali tarzda tarbiyalanib ketaveradi deb ham bo'lmaydi. Minglab shaxs sifatleri ichida ko'plari rahbarlik uchun qulay va ma'quldir. A.V. Petrovskiy ana shunday ijobiy sifatlardan bir yarim mingini sanab chiqqan. Lekin ularning barchasini umumlashtiradigan, albatta bo'lishi lozim bo'lgan ayrim sifat, qobiliyatlar borki, ular haqida qisqacha to'xtalib o'tmoq lozim.

Avvalo, har qanday rahbarda intellekt – aql – zakovatning ma'lum normasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxshi rahbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir, chunki geniy darajasidagi intellektga ega bo'lgan rahbar bilan ishlash xodimlar uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarishini, bunday aql – zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik to'siq bo'lishini amaliyot va hayot ko'rsatdi. Rahbardagi o'rtadan yuqori intellektni qoplab ketadigan yana boshqa muhim sifatlari borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik, tashabbuskorlik sifatlari. Chunki, ayrim hollarda xato qilsa ham, rahbar original fikrlar aytib, yo'l – yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur.

Chunki mustaqillik shaxs qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir. Rahbarda mustaqillik bo'lsa, unda o'ziga ishonch ham bo'ladi, bu esa o'z navbatida rahbardagi sub'ektiv talablar darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'pincha, rahbarning boshqalarga talabchanligi haqida gapiriladi, lekin yaxshi rahbar avvalo o'z – o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. O'z – o'zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan munosabatlar tizimini ishlab chiqishi muhim bir omildir.

Har qanday rahbar uchun universal, kerak bo'lgan hislatlardan yana biri tom ma'noda "ziyoli" bo'lish, yoki boshqacha qilib aytganda, madaniyatli bo'lishdir. Boshliq o'zidagi madaniyatni avvalo muomalada, odamlar bilan bo'ladigan kundalik muloqotlarda namoyon etmog'i lozim. Muomala madaniyati – bu o'rinli, aniq, qisqa, samimiy gapirish san'ati va ikkinchi tomondan, suhbatdoshni tinglash qobiliyatidir. Chunki, boshliq bilan xodimlar o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlarning asosida yo tinglay olmaslik yoki gapni to'g'ri yo'sinda gapira olmaslik yotadi. O'zganing o'rniga tura olish, uning his – kechinmalariga sherik bo'lish, empatiya hissining borligi, dialoglarda sabr – toqatlilik va boshqalar muloqot madaniyatining muhim tomonlaridir.

Jamoa faoliyatini va o'z faoliyatini rejalashtirishqobiliyati rahbar uchun muhim bo'lgan talablardan biridir. Chunki rejalashtirish asosida o'z – o'zini boshqara olish va boshqalarni tashqi faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda boshqara olishini ta'minlovchi muhim psixologik xususiyat yotadi. Rejalashtirish – bu o'ziga xos kelajakni ko'ra olish qobiliyati, kelajak obrazi bo'lib, bu narsa shaxsning qanchalik kamol topganligi va maqsadga intiluvchanligining muhim belgisidir. Bu juda murakkab psixologik jarayon bo'lib, u shaxsning o'z diqqatini qanchalik oqilona tarzda boshqarishi, uni faqat muhim narsalarga qarata olishi, vaqtdan tez foydalana olish, ortiqcha ishlardan o'zini tiyish, qo'l ostidagilarga, imkoni boricha, ularning qobiliyatlariga qarab ish buyura olish va nihoyat, buyurgan ishni o'z vaqtida nazorat qilib, so'rab olish imkoniyati bilan bog'liq. O'z ishini puxta rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan rahbar realistik tafakkurga ega bo'lmog'i, ya'ni har qanday sharoitlarda ham usha muammo yoki ishga taalluqli barcha alternativ variantlardan eng to'g'risi va maqsadga muvofiqini tanlay oladigan, ishni to'g'ri tashkil eta bilgan, ya'ni eng kam kuch va vaqt sarflab ishni uddalay olgan, noaniq yoki tasodifiy vaziyatlarda ham ish taktikasini to'g'ri yo'lga yo'naltira oladigan odam bo'lishi kerak. Bundan tashqari, yaxshi rahbar uchun oldida turgan ishning har bir alohida detallarigacha tasavvur qilib, uni amalga oshirishning barcha bosqichlari va vositalarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati ham zarur. Shunday taqdirdagina u ishga dadil kirishishi, o'zgalarni o'z ortidan ergashtirishi va ishlab chiqarishda yuksak ko'rsatkichlarga erishishi mumkin.

4. Rahbarlik sifatlari. Yuqorida aytib o'tilgan rahbarlik sifatlari ichida eng muhimi, tabiiyki, psixologik mahoratni talab etgani – odamlar bilan ishlash mahoratidir. Jamoa a'zolari bilan samarali ishlash uchun esa boshliq ularning psixologiyasini, har bir a'zo psixologiyasini va guruh psixologiyasini yaxshi bilishi zarur. Chunki "o'zgalar psixologiyasini bilish ular ustidan hukmronlikning yagona yo'lidir" – deb yozgan edi ingliz olimlari. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada ham yaxshi vositasi – ijtimoiy psixologik trening uslubi borki, uning yordamida odamlar bilan ishlovchilar jamoani boshqarishning turli usullariga muvafaqqiyatli tarzda tayyorlanm qdalar.

5. Ijtimoiy boshqaruv – bu boshqaruv sub'ektini ob'ektga nisbatan informatsion, rejalashtirilgan va maqsadga yo'naltirilgan ta'siridir.

Ishlab chiqarishni boshqarishning kasb sifatida tan olinishi, boshqaruv mahoratini egallash, texnika va texnologiyasini chuqur o'rganish hozirgi zamon madaniyatidan mustahkam o'rin olib kelmoqda. Ilmiy boshqaruv ta'limi XX asrning 80-90 yillarida paydo bo'lgan. Uning asoschisi amerikalik muhandis F. Teylor bo'lib, u "Boshqaruvni ilmiy tashqil etish usuli va printsiplari" nomli kitoblarida boshqarishga ilmiy yondashish zarurligini ko'rsatib berdi. Teylor nazariyasining mohiyati qo'yidagi printsiplarga asoslangan.

- Ishning har bir qismini bajarishga ilmiy yondashish.
- Ishni tanlashga, o'qitishga o'rganishga va tajribani egallashga ilmiy yondashish.
- Ishchilar jamoasini tashkil etish.
- Menejerlar va ishchilar o'rtasida natijaga oid mas'uliyatni taqsimlash.
- Teylorning fikriga ko'ra har qanday ishni bajarishda eng yaxshi yoki qulay uslubi bor, undan foydalanish ishni sifatli va kam mexnat sarflab bajarish imkoniyatini beradi.

Teylor korxonada faolicht ko'rsatayotgan ishchilar bajaradigan ishlarni xronometraj qiladi va uni chuqur tahlil qilib, unimli ishlashni ta'miynlaydigan qoidalar majmuini yaratadi.

Teylorning ilmiy menejment taraqqiyotidagi eng yuksak xizmati – u taklif etgan yangi boshqaruv tizimi bo'ldi. U mehnatni ikki turga bo'ladi : birinchilar – bajaruvchilar, ikkinchisi – boshqaruvchilar.

Teylor fikriga ko'ra har bir hodim o'z vazifasini bajarishi lozim. Xususan, ma'muriy boshqaruvchi vasifasiga ish rejalarini tuzish, har bir bajaradigan ish yoki operatsiya uchun eng qulay bajarish usulini tanlash, ishchilarni tanlov asosida ishga qabul qilish, o'qitish va boshqalar kiradi.

Teylor nazariyasining yana bir muhim tomoni shundoki, u ma'muriy boshqarish xodimlari va ishchilar o'rtasidagi munosabatlarning o'yg'unligini ta'minlashga qaratilgan.

Boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil etishga munosib hissa qo'shgan olimlardan biri G. Emerson hisoblanadi. U boshqaruv mehnatini tashkil etishga tizimli yondoshishga ishlab chiqdi. Uning ishlab chiqarish unimdorligining 12 printsipli nomli kitobida tizimli yondoshish mohiyati ochib berilgan. G. Emerson taklif etgan printsiplar quyidagilardan iborat:

- Maqsadning aniqligi;
- Mantiqning izchilligi;
- Foydali maslahat;
- Intizom;
- Insoniy munosabatlar;
- Tezkor, ishonchli, to'la, aniq va doimiy hisob-kitob;
- Dispetcherlik faoliyati;
- Me'yoriy ko'rsatkichlar va jadvallarning mavjudligi;
- Ish sharoitlarining mavjudligi;
- Ish turlarini bajarish yoki operatsiyalarni bajarish uchun aniq vaqtning belgilari;
- Yozma ravishda standart ko'rsatmalarning mavjudligi;
- Unimli mehnatni rag'batlantirish.

Boshqaruv ob'ekti – karxonalar, tashkilotlar va muassasalar personalidir. Ob'ekt sifatida ayrim xodim emas balki faqat mehnat jamoasi qaralishi kerak, chunki jamoagina tugal mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan va umuman tizimning xatti-harakatlarini belgilab beradigan qonunlar va qoidalar majmuiga bo'ysinadi. Shundan kelib chiqib, boshqaruv ob'ekti brigada, sex, uchastka, bo'lim jamoasi bo'la oladi. Tizim ob'ektlari bir-birlari bilan doimiy aloqada bo'ladi, buning natijasida karxona ichida ham, undan tashqarida ham kadrlar harakatining turli jarayonlari sodir bo'ladi. Bunday jarayonlarga lavozimdan – lavozimga, jamoadan – jamoaga, bo'linmadan – bo'linmaga, karxonadan – karxonaga o'tish, malakaning oshishi, hodimlarning mansabga ko'tarilishi kiradi. Shu bilan bir qatorda, hodimlar kasb – malakasining o'zgarishi, tashkiliy tuzulmaning takomillashuvi, jamoada ruhiy vaziyat yaxshilanishi va boshqa ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni ham aytib o'tish kerak.

Xulq – atvor shaxsning atrof- muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishish shakllaridan iborat bo'lib, ular bir qator omillarga bog'liq bo'ladi. Shaxsni va uning xulq – atvorini tavsiflab beradigan asosiy omillarga quyidagilar kiradi :

- shaxsning tabiiy xususiyatlari, uning o'ziga xos psixologik xususiyatlari;
- ehtiyojlari, sabablari, qiziqishlari tizimi ;
- shaxsni boshqarish tizimi, uning “ish – obrazi”

Foydalanilgan adabiyotlar:

11. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.1997
12. Akramova F. Ijtimoiy psixologiya. T. 2004
13. Atajanov M. Menejment psixologiyasi. T. 2003.
14. Abdullaev Ya., Baymurodov M. Menejment. 1998
15. Karimova V.A. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T.1994
16. Karimova V.A. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T. 1999
17. Goziev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T.2001

18. Goziev E. Boshkaruv psixologiyasi. T. 2000
19. Musinov S. Raxbar psixologiyasi. T. 2000
20. Goziev E. Muomala psixologiyasi. T. 2001

10- MAVZU: OILAVIY O`ZARO MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI.

REJA:

- 1. Oilaning umumiy ijtimoiy psixologik xususiyatlari.**
- 2. Oila a'zolarining o`zaro munosabatlari.**
- 3. Oilaning turlari.**
- 4. Hozirgi zamon oilasining bajaradigan asosiy vazifalari.**

Mavzu yuzasidan tayanch so`zlar:

Oiladagi o`zaro munosabatlar nikoh shartnomasi, nuklear oilalar, demokratik, liberal aralash tipdagi oilalar, reproduktiv, kommunikativ, rekreativ, regulativ, relaksatsiya.

Oila jamiyatning boshlang`ich ijtimoiy bo`g`inidir. U o`zida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayillari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi. Shaxsning taraqqiyoti dastavval oilada amalga oshadi. Ota onalarning o`z hayotlari, turmush tarzlari bola shaxsida ilmiy dunyoqarash asoslari ma'naviy ahloqi, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko`rsatish jarayoniga oilaviy tarbiya deyiladi. Oilalar Respublikamiz shahar va qishloqlarining yagona ijtimoiy iqtisodiy umumiyligi asosida rivojlanadi. Ayni paytda oilaviy hayot va oilaviy tarbiya o`zining milliy xususiyatlariga ham egadir. Oila tarbiyasi o`z milliy va demografik xususiyatlari bilan bir biridan o`zaro farqlanadi. Oilaviy tarbiyada oilaning moddiy farovonligi, ma'daniy- ma'naviy saviyasi, osoyishtaligi, oila a'zolarining soni, tarkibi ham alohida ahamiyatga ega. Oilaviy tarbiyaning o`ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-ona, qon- qardoshlik, avlod ajdod xislatlarini uzatadi, uning davomiyligini saqlaydi, farzandini shaxs sifatida shakllantiradi, hayotga tayyorlaydi. Oila inson shaxsi asosiy xususiyatlarini shakllantiruvchi eng asosiy muhit hisoblanadi. Oila bu avvalom bor o`zaro yaqin odamlarning ma'naviy jihatdan birligi hamda o`zaro tushunishi garovi, inson hayoti mazmunining muhim tomoni bo`lgan ijobiy emotsional intim munosabatlar manbai.

Ma'lumki, nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas'uliyat, o`zaro xurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyligi bilan bog`langan kichik ijtimoiy guruhni oila deyiladi.

Oila boshqa turdagi kichik guruhlardan o`zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi: birinchidan, oila ko`p muddatga, ya'ni bir necha o`n yillar va kup yillarda mavjud bo`ladi; ikkinchidan, oilada shaxslararo munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi, ya'ni milliy mafkuramizga oid ilk tushunchalar, avvalo oila muhitiga singadi va bu jarayon bobolar ugiti, ota ibrat, ona mehri orqali amalga oshadi. Bunda oilaviy munosabatlarda tarbiyaviy, psixologik, hissiy, moliyaviy va boshqa vazifalarning amalga oshirilishi kuzatiladi; uchinchidan, oiladagi barcha munosabatlar zaminida salbiy yoki ijobiy holatlar yuzaga keladi, ya'ni oila a'zolaridan kimningdir kimgadir ta'siri oqibatida shaxs yoki yaxshi shakllanishi va komil inson darajasiga etishi yoki tarbiyasi og`ir, xulqi buzuk odam bo`lib tarbiyalanishi mumkin. Demak, jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblangan ota-ona va bola, er va xotin, oila a'zolarining o`zaro munosabatlari bilan bog`liq bo`lgan muammolar aynan oila negizida yuzaga keladi. Shuning uchun ham qadim zamonlardan boshlab oila, undagi munosabatlar masalalari har bir davrning donishmand, olim, mutafakkirlari tomonidan o`rganilib kelingan.


Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko`ra quyidagicha farqlanadi

1. To`liqligiga ko`ra: To`liq, noto`liq va qayta tuzilgan oilalar.
2. Bo`g`inlar soniga ko`ra: nuklear (ota-ona va bolalardan iborat) va ko`p

- bo'g'inli (ikki va undan ortiq iborat bo'lgan avloddan iborat oila a'zolari birga yashovchi) oilalar.
- 3 Farzandlardan soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolalik, 3-4, yoki ko'p bolalik
 - 4 Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra: ishchi, dehqon, xizmatchi, ziyoli oilali, aralash turdagi oila.
 - 5 Er-xotin ma'lumot saviyasiga ko'ra oliy ma'lumotlar, o'rta maxsus va aralash tipdagi.
 - 6 Oilaning yoshiga ko'ra: yosh oila, o'rta yoshdagi oila, etuk yoshdagi oila.
 - 7 Regional jihatlariga ko'ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oila.
 - 8 Oilada ayol yoki erkak etakchiligiga ko'ra: er etakchi bo'lgan oila, xotin etakchi bo'lgan oila, er etakchi bo'lgan oila er va xotin etakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila.
 - 9 Oiladagi er-xotin orasidagi munosabatlarga ko'ra: avtoritar. demokratik, liberal, aralash tip.
 - 10 Er-xotinning millatiga ko'ra: bir millatli, yoki baynalmilal oilalar.
 - 11 Yuridik rasmiylashtirganligiga ko'ra: sinovdagi oila, rasmiylashtirish arafasidagi oila, nikoxdagi oila, nikohdan tashqaridagi oila.

Hozirgi zamon oilasining asosiy funktsiyalari


Har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funktsiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy funktsiyalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rni, oilaning hal qiladigan ijtimoiy funktsiyalarini hisobga olish lozim. Oila qo'yidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:



Oilaning iqtisodiy funktsiyasi uning asosiy funktsiyalaridan biri hisoblanadi. Oila iqtisodi, byudjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik xarajatga, zarur buyumlarga pul ajratish, bir necha yildan so'ng olinadigan narsalarga mablag' yig'ish, tejamli ro'zg'or yuritish oilaning iqtisodiy funktsiyasidir.


**Oila o'zining iqtisodiy vazifasi orqali jamiyatga, davlatga
katta foyda keltiradi**

Oilaning iqtisodiy vazifa




Oilaning muhim bo`lgan funktsiyalaridan yana biri –bu reproduktiv(jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga ketirish) funktsiyasidir. Bu funktsiyaning asosiy mohiyati inson naslini davom ettirishdan iborat. Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, insoniyat paydo bo`lgandan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va ma'daniy yutuqlari bilan tanishtirgan holda, ularning salomatligin saqlab turishdan ham iboratdir. Oilaning reproduktiv funktsiyasi va uning bajarilishi deyilganda, aholi sonining qayta tiklanish uchun har bir oilada nechtadan farzand bo`lishi lozimligi nazarda tutiladi. Statistik ma'lumotlarga ko`ra, agar har bir oilada bittadan farzand bo`ladigan bo`lsa bo`lsa, bunday xalq sakkizinchi avloddan keyin yo`q bo`lib ketishi mumkin. Demograflarning ta'kidlashlaricha, oila o`zining reproduktiv fuktsiyasini bajarishi uchun xar bir oilaga o`rtacha 2,6 farzand to`g`ri kelishi kerak. Albatta, faqat oilagagina jamiyat oldidagi fuktsiyalarini bajarib qolmasdan, balki jamiyat ham oilalarga fuktsiyalarini muvaffaqiyatli uddalashlari uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim. Bu o`rinda hukumatimiz tomonidan yuritilayotgan demografik siyosat, iqtisodiy, ijtimoiy va xuquqiy tadbirlar bunga yaqqol misol bo`la oladi. Bunday siyosatning asosiy yo`nalishlari onalik va bolalikni muhofaza qilish, ko`p bolali va kam ta'minlangan oilalarning moddiy ahvolini yaxshilash, yosh oilalarga, onalarga yaratilayotgan imtiyozlar va shu kabilardan iborat.

Oilaning reproduktiv vazifalari



Oilaning reproduktiv vazifasining mohiyati inson turini davom ettirish, ularni ilmiy va madaniy yutuqlar bilan tanishtirish, salomatligini saqlab turishdan iborat.




Oilaning tarbiyaviy funksiyasi.

Bolaning aqliy, jismoniy, ahloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi.

Oilaning tarbiyaviy vazifasi

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi, oila haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, tarbiya omili va muhitidir.



Oilaning kommunikativ funktsiyali oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojining qondirishiga xizmat qiladi.



Oilaning rekreativ funksiyasining oʻzaro jismoniy, moddiy ma'naviy va psixologik yordam koʻrsatish, bir-birlarining salomatligini mustahkamlash, oila aʼzolarining dam olishini tashkil etishdan iborat.

Oilaning felitsitologik funksiyasi.

Hozirgi zamon oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funktsiyalardan biri uning felitsitologik funktsiyadir. (italyancha felitsiti baxt degani).

Oilaning regulativ funktsiyasi oila aʼzolari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarini boshqarish tizimini, shuningdek birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obruni amalga oshirishini ifodalaydi. Bundan kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma'naviy tomondan qoʻllat-quvvatlash nazarda tutiladi.

Oilaning relaksatsiya funktsiyasi.

Hozirgi zamon oilasining eng asosiy funktsiyalaridan boʻlib, oila aʼzolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir. Ish kuni davomida koʻtarinkilik kuchli zoʻriqish bilan ishlagan xodim ishdan soʻng oʻz uyida oila aʼzolari qurshovida boshqa tashvishlarini unitib, unga koʻrsatiladigan mehr oqibatdan bahraman boʻlgan holda ular bilan boʻladigan oʻzaro muloqot ular tomonidan boʻladigan emotsional qoʻllab-quvvatlash, beriladigan daldalardan ruhiy quvvat olib, ertangi kun mehnat faoliyatiga oʻzini qayta tiklab olish lozim.

Seminar mashg'ulotida muxokama uchun savollar:

1. Oila jamiyatning bir bo'lagi sifatida.
2. Oilaviy munosabatlarning ijtimoiy ahamiyati.
3. Oilada ma'naviy muhitni ta'minlash omillari.
4. Oila va uning turlari.
5. Hozirgi zamon oilasining bajaradigan asosiy vazifalari.
6. Yoshlarni turmush qurishga tayyorlashning ijtimoiy ahamiyati.

Mustaqil ishlar uchun mavzular:

1. O'rta asrda mutafakkirlarining oila haqidagi fikrlari.
2. Chet el olimlarining oilani mustahkamlash to'g'risidagi qarashlari.
3. O'zbekistonda oila muammolarining o'rganilishi.
4. "Avesto" da oila va er xotin munosabatlari.
5. Oila tabiati va mohiyatini ochib berishda buyuk mutafakkirlarning fikrlari.
6. Oilaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997 y.
2. Karimov I.A. Miliy istiqloq mafkurasi- xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., 2000 y.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 1992 y.
4. Oila kodeksi. T., 2008 y.
5. Karimova V. Psixologiya. T., 2002 y.
6. Karimova V, Akramova F. Psixologiya. T., 2000 y.
7. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T., 1999 y.
8. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T., 1994 y.
9. G'oziev E.G'. Muomala psixologiyasi. T., 2001 y.
10. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. T., 2001 y.
12. Safarov O, M Maxmudov. "Oila ma'naviyati" T., 1998y.
13. To'raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. T., 1990 y

11-mavzu: Oila va nikoh

1.1. Insoniyat tarixida oila va nikoh institutining rivojlanishi tarixi

Tarixan oila va nikoh masalalarining qanday bo'lganligi, ushbu qadriyatlarga olimlar va allomalarning munosabatlari qanday bo'lganligi o'ta muhim va amaliy ahamiyatli hisoblangan.

Guruhiy nikohdan juftlik nikohigacha

Oilaviy munosabatlar tizimining rivojlanishi nikohga kiruvchilar sonining kamayishi va nikoh uchun sherik tanlash tartiblarining qat'iy belgilanishi yo'nalishida ro'y bergan. Insoniyat ijtimoiy tashkil topishining eng qadimiy shakli bu urug'-qabila bo'lib, u bir ayol urug'idan tarqagan, matriarxat zotidan kelib chiqadigan (uning qizlari, qizlarning farzandlari va ularning avlodlari) barcha odamlarni o'zida birlashtirgan. Shu tariqa urug' – mohiyatan matriarxal oila bo'lib, onaning zotidan tarqalgan barcha avlodni bir-biriga chatishtirib boravergan. Bunday urug' shaklining saqlanib qolgan andozalaridan biri ruslardagi "matreshka" o'yinchog'i bo'lib, u bizga ona avlodlarining o'zaro bir-birlaridan kelib chiqishini ifodalaydi.

Gruppaviy yoki guruhiy oila – bir necha opa-singillarning boshqa bir toifa erkaklar guruhi bilan nikohga kirishini taqozo etgan. Bunday ayollar yo o'z qavmidan bo'lgan erkakka yoki tamoman boshqa – begona urug'ning vakili bo'lmish erkakka turmushga chiqishi mumkin bo'lgan. Lekin avlodning kelib chiqishi onalik urug'iga bog'langan, otalikni belgilash holatlari inobatga olinmagan. S. Golodning yozishicha (1998 y.), onadan tarqagan avlodlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ham ko'pgina xalqlarda saqlanib kelgan.

Juftlik oila – alohida, bir-biriga unchalik yaqin bo'lmagan yoki mutloq begona ikki kishi o'rtasidagi nikohni nazarda tutgan bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlar har doim ham mustahkam

bo'lmagan va tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra u istalgan vaqtda barbod bo'lishi ham mumkin edi. Hozirda mavjud bo'lgan oilalarda shaklan shu model saqlab qolingan.

Patriarxal oila – bir erkak kishining bir yoki bir nechta ayol o'rtasidagi nikohiga asoslangan bo'lib, bunda erkakning huquqlari xotinnikidan ko'proq bo'lgan, nikohning bu shakli ayni xususiy mulkchilik rivojlangan davrlarda keng tarqalgan. Bunday oilada, tabiiy, erkak huquqlari ustivor bo'lib, uning har qanday oila masalalarini echish va qarorlar qabul qilishdagi mavqei yuqori hisoblangan. Shu sababli avlodlarning kelib chiqishi, urug'ning tarqalishi kabi masalalar erkakning avlodlari shajarasidan boshlangan, mulkka egalik va unga vorislik ham erkaklar tabaqasi orqali yuritilgan.

Monogam oila – bir erkak va bir ayol juftligi o'rtasidagi nikoh munosabatlarini nazarda tutadi. Ularning er-xotinlik munosabatlari ham umrbod hisoblangan (qadimgi grek so'zlaridan olingan: “monos” – bir, yagona, tanho; “gamos” – nikoh ma'nosini bildiradi). Oilaning bunday shakli taxminan uch ming yillar avval paydo bo'lgan. O'z mohiyatiga ko'ra bu – patriarxal oilaning bir ko'rinishi hisoblanib, yaqin yillardan buyon oilaning bu shakli ayollar va ayollarning teng huquqliligi, bolalar tarbiyasidagi muayyan erkinlik, ona va bolaning oila hayotidagi nufuzi ortishi shaklida rivojlanib kelmoqda.

Lekin biz oila va nikoh tushunchalarining allomalar va taniqli olimlar izlanishlarida qanday ifoda etilganiga e'tiborni qaratamiz.

Ana shunday nikoh tarixiga qiziqqan olimlardan biri qadimgi grek faylasufi Platon bo'lgan. Uning fikricha, barcha zamon va makonlarda patriarxal oila ijtimoiy munosabatlarning, jamiyat hayotining asosi bo'ladi, davlat esa ana shu kabi oilalarning birlashuvidan paydo bo'lgan. Lekin Platonning o'zi o'z qarashlarini oxirigacha himoya qilib, fikrlarini yakunlay olmadi. “Ideal davlat” deb nomlangan loyihasida u jamiyatda hamjihatlikni ta'minlash uchun ayollar, bolalar birlashmalari va sarmoyalarning umumiylikiga erishish lozim, degan fikrni ilgari surdi. Lekin ayni shu oxirgi fikr aslida yangi emas edi. Qadimgi grek tarixchi olimi Geradot o'zining mashhur “Tarixlar” deb nomlangan asarida ayollar birlashmalari bir qator qabilalar uchun o'ziga xos xususiyat ekanligini ta'kidlagan edi. Bu kabi ma'lumotlar antik davrga xos bo'lgan qator manbalarda o'z ifodasini topgan.

Aristotel Platonning izdoshi sifatida uning “ideal davlat”ga oid fikrlarini rivojlantirib, ustozining patriarxal, ya'ni, erkak kishi etakchi bo'lgan oila modelini yoqlab fikr bildirgan. Uning fikricha, oilalar birlashib, “turar-joylarni”, “turar-joylar” birlashib, yaxlit davlatni tashkil etadi. Platon va Aristotellarning shu kabi nuqtai nazarlari anchagina davrgacha hukmron bo'ldi va oila jamiyatning bo'lagi sifatida, o'ziga xos bo'linmas patriarxal institut sifatida idrok etildi. Frantsuz ma'rifatparvari Jan-Jak Russo o'z davrida “Oila – eng qadimiy va asli tabiiy bo'lgan jamiyat bo'lagidir. Oila – kerak bo'lsa, jamiyat siyosiy qiyofasini belgilovchi obraz, bunda etakchi, rahbar – go'yoki ota misoli, xalq esa – farzandlar kabidir” deb yozgan edi. Bu aslida insoniyat tarixida uzoq vaqtgacha ustivor bo'lgan paternalizm tamoyilining yaqqol timsolidir (“patern” – ota, otalik, etakchilik ma'nosini bildiradi).

Shunday qilib, antik davrning faylasuflari ham, ulardan keyingi o'rta asr, hattoki, yangi davrga kelib ham ko'plab tadqiqotchilar va allomalar oila institutiga alohida ahamiyat berib, o'z asarlarida ijtimoiy munosabatlarning tabiati va namoyon bo'lishini aynan oilaviy munosabatlarning xarakteridan qidirish lozimligi fikrini yoqlab keldilar. Shu kabi fikrni nemis faylasuflari Kant va Gegelning mutloq g'oyaga aloqador asarlarida ham ko'rish mumkin. Ular avvalo “oila” va “nikoh” tushunchalari o'rtasida bevosita aloqa mavjudligini ta'kidlaydilar. Shu bois bo'lsa kerak, hanuzgacha shu ikki tushuncha ko'pincha sinonimlarday o'zaro bog'liqlikda ishlatiladi. Shunday bo'lsada, oilashunoslar bu ikki tushunchaning o'rtasida nafaqat farq borligini, balki ular aslida tarixan turli davrlarda paydo bo'lganligini ham isbot qila oldilar.

Masalan, rus olimi A.G. Xarchevning kitoblarida bu ikki tushunchani farqlovchi jihatlar aniq belgilangan. Xususan, uning talqinida “nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi tarixan o'zgaruvchan o'zaro munosabatlarni bildirib, shu orqali jamiyat ularning jinsiy hayotlarini tartibga soladi, o'zaro er-xotinlik munosabatlarini hamda farzandlari bilan shakllanadigan munosabatlarni, bu boradagi huquq va majburiyatlarni belgilaydi, yo'naltiradi”. Oila esa nikohga nisbatan murakkabroq tabiatli munosabatlarni ifodalaydi, chunki u nafaqat er va xotinlarning o'zaro munosabatlarini, balki ularning farzandlari, qarindosh-urug'lar, ikkalalari uchun yaqin bo'lgan insonlar munosabatlarini ham qamrab oladi.

Oila va nikoh masalalariga tarixiy yondashuv shveytsariyalik olim I.Baxoven (1815-1887) ishlarida, ayniqsa, uning “Onalik huquqi” kitobida yoritilgan. Undan tashqari, amerikalik tadqiqotchi L.Morgan (1818-1881)ning asarlarida ham oilaga nisbatan evolyutsion qarashlar bayon etilgan bo'lib, “Qadimgi jamiyat” kitobi buning yaqqol namunasi hisoblanadi. Bu asarlarda oila institutining bevosita jamiyat tarqqiyoti bilan bog'liqligi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning takomili oilaning mustahkamligiga bog'liq ekanligi g'oyasi o'z isbotini topgan. Bu o'zgarishlar tarix mobaynida turli jins

vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq tarzda kechishi ham ta'kidlangan.

Shunday qilib, oilani ijtimoiy institut sifatida idrok etish va uni ilmiy jihatdan o'rganish an'analari tarixi XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Ayni shu davrdan boshlab jahonning turli burchaklaridagi taniqli sotsiologlar va antropologlar (L.Morgan, M.Kovalevskiy, B.Malinovkiy, P.Sorokin, keyinchalik A.Xarchev, S.Golod va boshqalar.) oila muammolarini o'zlarining aniq tadqiqot mavzulari sifatida o'rgana boshladilar.

Oilaviy munosabat-lar rivojlanishida yangicha an'analalar

Bir qarashda yangicha tuyulgan monogam oiladagi o'zgarishlar XX asrning boshlaridayoq kuzatila boshlangan. Olimlarning ta'kidlashicha, oila institutining o'zi tabiati nuqtai nazaridan ancha konservativ, ya'ni o'zgarmas, turg'un tizim bo'lgani bois, jamiyat miqyosida ro'y beradigan o'zgarishlar oila doirasida taxminan 10-30-yillardan keyingina aks eta boshlaydi. Bundan tashqari, rus sotsiologi S.Golodning yozishicha, Evropa xalqlari hayotida, oilaviy munosabatlarda kuzatiladigan barcha ijobiy jarayonlar monogam, patriarxal oilaning saqlanib qolingani sababli ro'y bergan bo'lsa, qolgan barcha salbiy holatlar aksincha, oilada ro'y berayotgan salbiy, yomon jarayonlardan kelib chiqadi. Bu kabi talqinlar tabiiyki, ko'plab tadqiqotchilarga oila va uning istiqbolini tushunishga, mazkur yo'nalishda jiddiy tadqiqotlar olib borishga xalaqit beradi.

Shunga qaramay, oila institutida kuzatilayotgan har qanday o'zgarishlari odatda eng avvalo, ayolning – xotin-qizlarning jamiyat va oilada tutgan maqomlarining o'zgarib borayotganligi, ular malakalarining oshib borayotganligi va kasb-hunar, lavozim pog'onalarida erkaklardan qolishmaslikka intilayotganligi bilan izohlanadi. Qayd etilgan holat bevosita oila hayotida ro'y berayotgan turli xil o'zgarishlarga, ham salbiy, ham ijobiy hodisalarga sabab bo'lmoqda.

Ikkala jins vakillari xaq-huquqlarining amalda tenglashib borayotganligi xotin-qizlarning erkaklar – yigitlar oldida o'zini tutishi va o'z navbatida yigitlarning qizlarga, erkaklarning ayoliga bo'lgan munosabatlari, xushomad qilishlarida o'z aksini topmoqda. Ayniqsa, Evropa xalqlarida nikoh oldi sovcilik instituti yo'qolib, uning o'rniga o'z xohishi bilan o'ziga nikoh sheriginini tanlashi an'anasi barqarorlashdi. Lekin ayni holat saqlanib qolgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda oila institutiga munosabat boshqacharoq, ya'ni an'analarga sodiqlik saqlanib qolgan. Sovchilikning ahamiyati shundaki, bunda o'rtada turganlar, kelin-kuyov oilasini tanigan, bilgan, surishtirgan odamlar bo'lgani sababli ham ular yosh oilaning mustahkam bo'lishidan juda manfaatdordirlar, shuning uchun haqiqiy o'zbekona mezonlar, “teng-tengi bilan” tamoyili asosida, sovcilar yordamida qurilgan nikohlar aksariyat holatlarda mustahkam bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, har bir davrda bo'lgani kabi hozir ham yoshlarning o'z ihtiyoiri bilan, bir-birlarini yoqtirib qolishlari oqibatida paydo bo'lgan oilalar mavjud. Yoshlarning ayrimlari o'z ihtiyoiri bilan qalliq tanlashni, yoqtirib, sevib turmush qurishni oldindan niyat qiladi. Shunisi borki, o'z ihtiyoiri bilan turmush o'rtog'i tanlashda ota-ona va oilasi manfaatlari, ularning istak-xohishlari deyarli inobatga olinmaydi. Odatda bu kabi yoshlar nikoh oldidan ota-otasining roziligini olmaydi, shu sababli, ko'pincha, bunday nikoh engil-elpi qarorlar oqibati bo'lib, uzoqqa bormasligi mumkin. Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi 2003 yilda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ajralishib ketgan yosh oilalarning 90 foizidan ortig'i nikoh motivi-sababi sifatida “sevish-sevilish”ni ko'rsatganlar.

Xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi tufayli XX asrga kelib ayolning oila va jamiyatda tutgan o'rnini va maqomi keskin o'zgardi. Oxirgi paytlarda butun dunyoda matriarxat davridagi kabi oilaning etakchisi, boshlig'i roliga ko'pincha ayol da'vogarlik qila boshlashi kuzatildi. Buning oqibatida erkak kishining oiladagi etakchilik roli, oilada resurslarni boshqarish, qarorlar qabul qilish va farzandlarni jamiyat hayotiga jalb etishdagi maqomi sezilarli darajada pastladi.

Ikkinchi tomondan, ayol-onaning oilasi va bola tarbiyasi uchun bo'sh vaqtining kamayib borayotganligi, reproduktiv mas'uliyatning jamiyatda lavozimlar pog'onasida yuqoriroq o'rin egallash istagiga nisbatan pastlab borayotganligi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Shu sababli sanoati rivojlangan mamlakatlarda tug'ilishlar sonining kamayib borayotganligi, oqibatda aholi sonining keskin pasayishi kuzatilmoqda. Afsuski, bunday holatlar O'zbekistonning shahar hududlarida ham kuzatilmoqda.

Oilaning tarbiyalovchi vazifasi oila a'zolaridan tashqari boshqa insonlarga, muassasalarga – enaga va guvernantkalariga, yoki davlat tomonidan to'la muhofazaga olingan tashkilotlar – Mehribonlik uylari, Muruvvat uylari va boshqalar zimmasiga yuklatilmoqda. Sobiq totalitar tuzum davrida ushbu vazifaning davlat zimmasida ekanligi, individual, oilaviy tarbiyaning gruppaviy tarbiya bilan, tarbiyalanuvchi shaxsiga e'tiborning keskin kamayishi bilan o'zgartirildi. Oqibatda hech kimga tegishli bo'lmagan, psixik va aqliy rivojlanishi o'rtamiyona bo'lgan bolalar paydo bo'ldi. Bu ochiq yoki yashirin onalik deprivatsiyasini keltirib chiqardi.

Ya'ni, XX asr o'rtalariga kelib, monogam oilada o'zgacha uyg'unlik kashf etgan, yaxlit guruhday

tasavvur etilgan oilaning vazifalari – nikohga kirish, jinsiy hayotni ta'minlash va o'zidan nasl qoldirish – reproduksiya bir-biri bilan bog'lanmagan vazifalar tarzida ayrocha, alohida funktsiyalarday tasavvur etila boshlandi. Agar XIX asr oxirlarigacha oila paydo bo'lishi bilan unda farzandlar tug'ilishini kutish odatga aylangan bo'lsa, yangi davrga kelib, qachon tashkil bo'lganligiga qaramay, bola tug'ilishini rejalashtirmaydigan oilalar hamda boshqa tomondan, oilasiz, nikohsiz ham tug'iladigan bolalar ko'paydi. Ochiqroq aytadigan bo'lsak, turmushga chiqmasa-da, bola tug'adigan yolg'iz onalar ham paydo bo'ldi. Shu tariqa nikoh bilan oilaning reproduktiv vazifasi o'rtasida tafovut paydo bo'ldi.

Jinsiy hayot borasida sodir bo'lgan o'zgarishlar shuki, agar ilgari bunday munosabat oiladan tashqarida ro'y bersa, jamiyat ham, din ham uni qoralar edi. So'nggi o'n yilliklarda dunyo miqyosida erkaklar ham, ayollar ham erkin jinsiy hayotga oddiy munosabat sifatida qaraydigan bo'lishdi. Ma'naviy inqiroz hisoblanmish bunday munosabatlarga jamiyatning befarqligi ilg'or fikrlovchi insonlarni jiddiy tashvishga solmoqda. Buning asosiy sababi jamiyatda ma'naviy qadriyatlar inqirozga yuz tutgani bo'lsa, ikkinchi tomondan, bunga ayollar o'rtasida kontratseptiv vositalardan foydalanishning urf bo'lishi va ular o'zlariga berilgan ijtimoiy erkinliklarni noto'g'ri idrok etishlari, ommaviy axborot vositalari orqali u yoki bu xalq mentalitetiga mos kelmaydigan axborotlarning keng tarqalishi sabab bo'layotir.

Eng achinarlisi, ayrim yoshlar va ularning ota-onalari uchun “nikoh” va “ajrim” tushunchalari oddiy narsaday, ziddiyatsiz qabul qilinadigan bo'ldi. Ular o'z shaxsiy mas'uliyatini his etmayaptilar. Sanoat rivojlangan mamlakatlarda 51 foizgacha bo'lgan nikohlar muayyan muddatdan so'ng barbod bo'layotganligi odatiy holday qabul qilinadi. Chet el axborot vositalarining ba'zi taniqli shaxs, aktyor yoki millionerning har 3-4 yilda almashinib turiladigan nikohlari to'g'risida yozilayotgan maqolalari eng o'qimishli, qiziqarli axborotday talqin etilmoqda. Tabiiyki, bu ularni o'qiyotgan yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, bunday holatlarda ajrimlarning tashabbuskorlari ko'pincha ayollar bo'lib, bu o'z navbatida oila ajrimlari sonining ortib borishiga, farzandlarning aybsiz aybdorlarday noto'liq oilalarda tarbiyalanishiga olib keladi.

Yangi davr oilasi: tipologiyasi, tur-lari, xususiyatlari

Oilani turlarga bo'lganda, turli olimlar turlicha yondashdilar. Masalan, Sank-Piterburg-lik olim S.I. Golod (1998) faqat er va xotin hamda ularning farzandlaridan iborat oilalarni tasavvur etgan holda ularning oila davrasidagi ijtimoiy nufuzlari va rollari nuqtai nazaridan oilani toifalarga bo'lib o'rganishni taklif etadi. Xususan, u monogam oiladagi munosabatlarni oilaviy tabaqalar nuqtai nazaridan farqlashni taklif etgan. Undan tashqari, Golod o'z kitobida oxirgi yillarda Rossiyada keng tarqab borayotgan o'ziga xos tabaqali oilalarga ham ilmiy jamoatchilikning diqqatini qaratadi.

Patriarxal monogam oila – bu o'z mohiyatiga ko'ra oiladagi erkak kishining nufuzi, etakchilik roli, xotinning unga, farzandlarning ota-onaga tobeligini nazarda tutadi. Bunday oilada o'g'il bolalar otaning oilasini sira tark etmaydi, aksincha, uylangan taqdirda ham turmush o'rtog'ini shu xonadonga olib keladi, qizlar esa kimga turmushga chiqsa, uning familiyasiga o'tib, o'z ota-onasining uyini tark etadi. Bunday oilada urug'ning atalashi (famiya), shajara va mulkka egalik otaning yo'lidan amalga oshiriladi, oilaviy rollar esa erkaklarniki yoki xotinlarniki tarzida aniq tafovutlanadi. Erkaklar oilaning moddiy boyliklari, resurslari, ta'minoti bilan shug'ullansalar, ayollar asosan uy ishlari bilan band bo'ladilar.

Oilaning ijtimoiy nufuzi, obro'si otaning, urning, o'g'ilning iqtisodiy maqomidan kelib chiqadi, ayolniki esa – farzandlar soni bilan belgilanib, uning professional maqomi ko'p hollarda oilaning, turmush o'rtog'ining ijtimoiy maqomiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, farzandlar ko'z o'ngida otaning avtoriteti pastlaganday bo'ladi, ayrim holatlarda urning oila ta'minotidagi ulushi tushib ketishi ham ayolning oila moddiy ta'minotiga bevosita aralashishiga sabab bo'ladi.

Monogam oila – bola manfaatiga yo'nalgan oila (detotsentrik) XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida paydo bo'lgan hodisadir. U xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi rolining ortishi hamda bola huquqlarining oshib borishi bilan izohlanadi. Bunday holatlarda gap ko'proq oilada farzandlar soni haqida emas, balki oilada umuman bola borligining qadrlanishi to'g'risida boradi. Ota-onalar bunday sharoitda ko'proq bolaning kelajakda kim bo'lishi, u egallashi lozim bo'lgan martabalar, uning istiqboli xususida qayg'uradigan, shu bois ham oila byudjetining asosiy qismi uni ta'minlash, unga zarur ta'lim va tarbiyani berish, g'amxo'rlik qilishga sarflanadi. Bolalar bilan bog'liq ehtiyojlarning o'sib borishi oqibatida mamlakatda ham bolalar ta'minoti, ularning ozuqasi, kiyim-kechagi, o'yinchoqlar, bolalarning madaniy-ma'rifiy maskanlarini rivojlantirishga ixtisoslashgan sanoat korxonalari ko'payadi, rivojlanadi. Bolalar va yoshlarning turli ma'rifiy o'choqlarining kengayishi, yangi texnika va texnologiyalarning asosan bolalar manfaatiga bevosita bog'lanishi, yoshlarning kasb ta'limini takomillashtirish ishlari, ular o'qishi va bilim olishi muddatlarining uzaytirilishi ularning mehnat sohasiga kechroq kirib borishiga olib keladi. Ya'ni, ilgarigiga nisbatan bolalar kechroq mustaqil hayotga kirishadi. Buning oqibatida nikoh yoshi ham tobora

kattalashib boradi. Kattalar tomonidan bolaga e'tiborning, shu bilan bir qatorda tashvishlarning ortishi, o'z navbatida bolalarning tug'ilish soni kamayishiga olib keladi. Bolalar erka bo'lib, ular erkinligi ortib boradi, ota-onaning butun diqqat-e'tibori ularga qaratiladi. Bu toifa oiladagi bola manfaati shu qadarki, ba'zan ona faqat bolani o'ylash, unga e'tibor qilishni afzal bilganidan, eridan ham voz kechishi holatlari ham kuzatiladi.

Bola manfaatiga yo'nalgan oilaning ham turli ko'rinishlari bo'lib, ulardan biri avtoritar tipdir. Bunda bola soni bittami yoki ikkitami ota-onaning cheksiz g'amxo'rliqi, ular obro'si bilan parallel tashkil etiladi. Masalan, ko'pgina amaldorlarning oilasi shunday. Ota-ona bola nazarida eng nufuzli, aqli har narsaga etadigan, shuning uchun bola ham xuddi otasi yoki onasiday bo'lib etishish motivatsiyasi kuchli bo'ladi.

Ambivalent detotsentrik oiladagi bola ko'proq ota-onaning hissiy-emotsional g'amxo'rliqi ta'sirida bo'ladi. Masalan, bu agar qiz bo'lsa, u faqat otasi yoki onasi, yoki ikkisinining doimiy erkalashlari og'ushida katta bo'lib, oxir-oqibat shunday holatga ko'nikib ketadi. Oilaviy munosabat faqat shunday bo'lsa kerak, degan fikr ba'zan o'zi mustaqil oila qurganda, uning yangi xonadonga ko'nikishiga jiddiy xalaqit beradi.

Kvaziavtonom detotsentrik oilada bola huquqlari kattalarniki bilan deyarli tenglashtiriladi, ularga kattalar bilan bir qatorda oilaviy yumushlarni bajarish erki, o'z holicha qarorlar qabul qilish huquqlari berilgan bo'ladi. Buning albatta, ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bor.

Er-xotin oilasi XX asrning 60-chi yillarida paydo bo'lib, u ham ayollar, ham bolalar emansipatsiya jarayonlarining oqibati sifatida qaraladi. Bunday oiladagi o'zaro munosabatlar asosan erkak va xotin o'rtasidagi muomalaga, uning qanchalik samimiy, iliqligiga bog'liq bo'ladi. Ayolga o'z xohish-irodasini mumkin qadar namoyon etish, unga ma'lum ma'noda mustaqil erishish imkoniyati yaratiladi. U ko'p holatlarda turmush o'rtog'iga suyuqli, erka va zarur yor rolini o'ynaydi. Golod er-xotinning bir-birlariga yaqin bo'lishlarining 4 xil jihatini farqlaydi: simpatiya (yoqtirish), samimiyat, minnatdorlik va erotik jihatdan bog'liqlik.

Monogam bo'lmagan oila toifasi chin ma'noda nikoh munosabatlariga tayanmaydi. Bundan oilaning uch xil ko'rinishi mavjud:

Ajrimlar tufayli paydo bo'lgan noto'liq oila – XX asrning oxirlarida ko'payib ketgan noto'liq oila turi. Golodning ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyadagi oilalar ajrimi shu qadar ko'paydiki, har 100 ta nikohga 51 ta oila ajrimi to'g'ri keldi. Bunga sabablardan biri ota-onalik rollarining bajarilmasligi, otaning bola tarbiyasidan sovuqqonlik bilan chetlashishidir, chunki ko'pgina otalar ajralishgandan so'ng ma'lum muddat o'tgach, farzandlari bilan umuman yuz ko'rmas bo'lib ketishadi. Afsuski, O'zbekistonda oila va nikoh nechog'li qadrlanmasin, oilaviy ajrimlar ham qayd etiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi yillarda yiliga o'rtacha 14,5 mingdan 15 mingacha oila ajrimlari qayd etiladi, ajrimlarning sudlar orqali rasmiylashtiriladigan turlari FXDY o'rtacha 70 foizi yosh oilalar bo'lib, ularda o'rtacha 2,5 ta bola chala etim bo'lib qoladi. Bu kabi noto'liq oilalarda o'ziga yarasha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar paydo bo'ldaiki, shu bois ham davlatimizning oila siyosatining mazmuni noto'liq oilalar sonini kamaytirishga qaratilganidir. Bunda masalaning moddiy tomonidan ham uning ma'naviy-ahloqiy tomonlari bizni ko'proq tashvishga soladi.

Beva bo'lib qolish, yoki turmush o'rtog'ining vafoti munosabati bilan noto'liq bo'lgan oila ham ko'proq onaning farzandi bilan yolg'iz qolishidir. Bunday oilalardagi ma'naviy muhit ajrim tufayli paydo bo'lgan noto'liq oilanikidan farq qiladi. O'zbek onalari bunday holatlarda otasining ruhi hurmatidan farzandlarida yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashga intiladi. Bunday o'ziga xoslik qator tadqiqotlarda alohida qayd etilgan (G. Yadgarova, 2003).

Nikohdan tashqari oila 90-chi yillarda ko'paygan oila turi, unda asosan yolg'iz qolgan ayol-ona oilani tebratadi. Bunday oilalar o'sha davrda Rossiyada 20-21 foizni, Buyuk Britaniyada va Frantsiyada – 32-35 foizni tashkil etgan bo'lib, ko'proq yoshgina bo'la turib ona bo'lganlar (15-19 yoshlilar) yoki aksincha, reproduktiv yoshdan o'tib qolganlar – 40-44 yoshlilar tashkil etadi. Bu o'rinda ikkala holatda xotin-qizlarning nikohga kirmasdan tug'ish motivlari turlicha bo'ladi.

Rossiyada ota-onalardan bittasigina bo'lgan oilalarda 1989 yilda 4,5 mln. bola yashagan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1994 yilda 5 millonga etdi (A.G.Volkov, E.L.Soroko, 1999). O'zbekiston sharoitida bu kabi holatlar favqulotda holatlar sifatida qaraladi, chunki ayrim udumlar va milliy qadriyatlarimiz farzandning nikohdan tashqari paydo bo'lishini qoralaydi, Shunday bo'lsa-da, turli sabablar va otag'onalarining vaziyatlar qurboni bo'lishi natijasida mamlakatimizda otalikni belgilash holatlari ortib bormoqdaki, unda ham ko'pincha rasman oila nikohsiz oiladay tasavvur etiladi. Sha'riy nikoh o'qilgani bilan rasmiy ravishda nikohning o'z vaqtida qayd etilmasligi mentalitetimizga zid bo'lgan shu toifa oilalarning rasmiylashtirilib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Alternativ oila turlari – kam uchraydigan oila turlari boʻlib, ular ayrim jihatlari bilan boshqalardan farqlanib turadi va oʻz navbatida toifalarga boʻlinadi. Masalan, ulardan biri – fuqarolik nikohi deb atalib, unda erkak va ayol oʻz ixtiyorlari bilan rasmiy nikohni qayd etmay, yashayveradi. Baʼzan bunday qarorga ular kutilmagan homiladorlik paydo boʻlganda ham kelishlari mumkin. Bunday nikoh bizning sharoitimizga, musulmonchilikka sira ham toʻgʻri kelmaydi. Alternativ nikohlar koʻproq gʻarb mamlakatlariga xosdir. Lekin Golodning taʼkidlashicha, hozirda Rossiyada mavjud oilalarning 7% shunday nikoh asosida tashkil topgan. Oilaning muqaddasligini tinimsiz targʻib etishimiz azaliy qadriyatlarni ardoqlab kelayotgan yurtimizda bunday salbiy holatlarning boʻlmasligiga xizmat qiladi.

Alternativ nikohning yana bir koʻrinishi qayta nikohlardir. Odatda bunday nikoh turi beva yoki tul qolgan shaxslarda uchraydi. Aslida ham birinchi qayta nikohlar XVI asrda Angliyada qayd etila boshlagan. Hozirda esa bunday nikohlar odatda beva qolganlar yoki ajrashib ketganlar oʻrtasida qayd etilishi mumkin. Bunday oila turi ham ajrimlar koʻpayishiga mos tarzda ortib bormoqda.

Aralash oilalar yoki begona ota-onalar bilan yashaydiganlar oilasi. Bu – etimlarni boqib olish hisobiga paydo boʻladigan, otalikka olish, oʻgay ota yoki ona bilan yashaydiganlar oilasidir. Ming afsuski, turli hayotiy vaziyatlar tufayli shunday oila ham bor, ular nisbatan koʻp boʻlmasa-da, Oʻzbekistonda ham mavjud.

Godvin – nikohlar, uning asoschisi boʻlgan ingliz sotsial-monarxi U.Godvin (1756-1836) nomi bilan bogʻliq. U bunday oilani ideal deb hisoblagan, chunki bunday oilalar, asosan, ota-onaning xohishi-irodasiga koʻra paydo boʻladi, yoshlarning istaklari bunda inobatga olinmaydi. Bunday nikohlarda jinsiy yaqinlik koʻzda tutilmaganligi sababli, oʻzaro hurmat va bir tom ostida alohida yashashga moʻljallangan boʻladi, er va xotin bir-birlarining oldida faqat maʼnaviy jihatdan majburiyatlarga ega xolos. Toʻgʻri, bir qarashda bunday nikoh bizdagi sovchilik yoʻli bilan quriladigan oilaga oʻhshab ketadi, lekin bizda zurriyod qoldirish, birga yashash talab etiladi. Shuning uchun yigit va qiz bir-birlarini sevmagan boʻlsalar-da, nikoh oʻqilayotganda ularning rizochiliklari soʻraladi, javob ijobiy boʻlgach, ular chimildiqqa kiritiladi. Godvin tipidagi nikohlar koʻpincha Oʻzbekistonda keksalar oʻrtasida rasmiylashtiriladi. Masalan, kampiridan uning qazosi tufayli juda boʻlgan otaxon oʻzaro kelishuv natijasida oʻzga bir beva ayolga uylanadi, ular oʻrtasidagi munosabatlar oʻzaro samimiyat, hurmat, qoʻllab-quvvatlov, keksalikni bezashga yoʻnaltirilgan. Lekin bu oila oʻzidan zurriyod qoldirish kabi haqiqiy oilaga xos funksiyalarning barchasini bajarmaydi. Bunday oila Islom dini arkonlariga ham mos boʻlib, bu ikki keksa odamning bir-birlari umrlarini choʻzishga qaratilgan samimiy munosabatlari majmuidir.

Qoʻshxotinlilik ham alternativ nikoh turlaridan biri boʻlib, bunda bir erkak koʻpincha hufyona oʻz qonuniy nikohidagi ayoldan tashqari yana boshqasi bilan sharʼiy nikohda yashaydi. Qoʻshxotinlilik koʻproq Osiyo va Sharq mamlakatlari aholisiga xos deb hisoblansa-da, hozirda bunday oilalar hattoki, Rossiyada ham kuzatilmoqda. Lekin bunday oila turi qonunman eʼtibor etilgan.

Oilaning jamiyat taraqqiyotida tutgan oʻrni

Xar qanday davrda ham jamiyat va davlat aholi sonining bir maromda oʻsib borishi, muayyan anʼanalar va muqaddas udumlarning saqlanib, avloddan-avlodga etkazilib turilishidan manfaatdor boʻlgan. Buyuk rus psixologi A.N.Leontev avlodlararo muloqotning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyatini oʻrganib, ilk asarlaridan birida agar shunday muloqot boʻlmaganida, taraqqiyotning oʻzi ham mutloq boʻlmas edi, deb taʼkidlagan. Bu vazifani bajarishda jamiyatning muhim boʻlagi boʻlmish oilaning roli kattadir.

Demak, oila ijtimoiy institut sifatida eng avvalo tugʻilish orqali aholining maʼlum miqdorda muttasil oʻsib borishi, odamlar oʻrtasida migratsiya, yaʼni u erdan bu erga koʻchib turish yoki oʻlim okibatida kamayib boradigan miqdorini toʻldirish vazifasini bajaradi. Chunki ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanish uchun mehnat resurslari va ishchi kuchining yangilanib borishidan jamiyat ham, odamlar ham manfaatdordir.

Bundan tashqari, har bir jamiyatning betakror qadriyatlari, oʻlmas merosi, avloddan avlodga oʻtib boradigan anʼanalari boʻladi. Fuqarolik holatlari, madaniy oʻsish, maʼnaviy yuksalishga xizmat qiluvchi qadriyatlarning saqlanib kelayotganligi ham oila tufaylidir. Masalan, shunday oilalar sulolasi borki, ular asrlar osha u yoki bu muqaddas qadriyatlarni kasb-kori, turmush tarzi orqali saqlab keladi (rassomchilik, sanʼatshunoslik, hunarmandchilik, gulchilik, kulolchilik, ilmiy meroslar, agrar sohada va h-zo).

Umuman odamlar jamiyatining saqlanib qolishida ham oila ayrim alohida olingan shaxs bilan yaxlit jamiyat oʻrtasida oʻziga xos “bufer” – koʻprik rolini oʻynab kelmoqda. Zero, madaniy va maʼnaviy qadriyatlarni saqlab, avloddan-avlodga etkazishda davlat va jamiyatdagi taʼlim muassasalari, madaniyat oʻchoqlarining ham muayyan roli bor, lekin ularda oʻzgarishlar tez-tez roʻy bergani sababli, ularning avlodlararo muqaddas sanalib kelinayotgan qadriyatlarni asrab-avaylashdagi roli oilachalik yuqori

bo'lmaydi. Shuning uchun davlat oilaning mustahkam va farovonligi, odamlarning unda tinchlik, xotirjamlikda yashashlaridan hamisha manfaatdor ekanligi sababli ham muayyan qonunlar va yuridik tizimni ushlab turadiki, ular orqali nafaqat nikohning o'zi, balki ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni ham muvofiqlashtirib boradi. O'zbekistonda yosh oilalarga ko'rsatilayotgan muruvvatlar, bola tug'ilishi va katta bo'lishi uchun suyunchi puli, nafaqalarning belgilanishi, onalik va bolalikning ijtimoiy muhofaza qilinayotganligi, ota yoki ona farzand oldida o'z burchini bajarmagan taqdirda moddiy, ma'naviy, hatto, jinoiy sanksiyalar orqali jazolanishi ushbu noyob maskanni mustahkamlash, u orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni keyingi avlodlar uchun saqlash vazifasini bardavom etishdan iboratdir. Tahlil etiladigan bo'lsa, odamlar o'rtasida ro'y beradigan ko'plab munosabatlar orasida faqat oilaviy munosabatlarga davlat tomonidan shunchalik ardoqlanadi, masalan, sevgi-muhabbat, do'st-yoronlik, odamlar urtasidagi oldi-sotti, tadbirkorlik, mehnat munosabatlariga davlat deyarli aralashmaydi.

Demak, oilaning jamiyat oldidagi vazifalari deganda, uning avvalo oila a'zolarining muayyan ehtiyojlarini qondirish hamda shu orqali davlat va jamiyatning ehtiyoj va manfaatlariga xizmat qilish qobiliyati tushuniladi. Masalan, ota ishlab chikarish korxonasida ertadan kechgacha mehnat qilar ekan, bu bilan u nafaqat o'zining eb-ichish, dam olish, turli xaridlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan ehtiyojini qondiradi, balki oila a'zolarini, birinchi navbatda farzandlari, uy bekasi bo'lsa, turmush o'rtog'ining ehtiyojlarini, qolaversa, u yoki bu korxonadagi rentabellikning oshishi, iqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori bo'lishiga, shu orqali o'z Vatanida ushbu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Oilaning ijtimoiy funktsiyalari

Oila psixologiyasiga oid ilmiy adabiyotlarda oilaning quyidagi funktsiyalari – jamiyat oldidagi vazifalari farqlanadi:

Oilaning hissiy-emotsional funktsiyasi – bu uning o'z a'zolari o'rtasida muayyan iliq munosabatlarni saqlash, ular o'rtasida mehr-oqibat, o'zaro g'amxo'rlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, sevishtirish, sevilish kabi qobiliyatini namoyon etishidir. Bu oila uchun juda muhim bo'lib, insonning ruhiy salomatligi aynan shu vazifani qanday bajarayotganligiga bog'liqdir. Oilaning ma'naviy-psixologik muhiti sog'lom deganda, aslida ana shu a'zolar o'rtasidagi ilqlik, samimiyat, o'zaro bag'rikenglikning mavjudligi, mehr-oqibat kabi insoniy hissiyotlarning ijobiyliги tushuniladi.

Jismoniy quvvatni ta'minlash funktsiyasi – oila a'zolarining jismonan sog', tetik va o'zini yaxshi his qilishlarini ta'minlashga bog'liq bo'lgan sharoitlarni nazarda tutadi, masalan, har birimiz oilada boshpanamizga egamiz, bundan tashqari, mana shu o'z hududimizda, ya'ni, xonadonimizda dam olish, yaxshi sifatli, to'yimli taomlardan bahramand bo'lish, ijod qilish va o'qishimiz uchun zarur, qulay imkoniyatlarga ega bo'lishimiz shart. Zero, agar shulardan birortasi ta'minlanmagan bo'lsa, bunday oila o'zini baxtli deb hisoblay olmaydi va qator noqulayliklarni his qiladi. Masalan, uysiz, boshpanasiz qolgan odamlarning nafaqat ruhiy, balki jismoniy azoblarga duchor bo'lganliklarini tasdiqlovchi psixologik tadqiqotlar mavjud.

Ma'naviy muloqotni ta'minlash funktsiyasi – odamning o'z nasl-nasabi, ma'naviy-madaniy an'analari bo'lishiga intilishidan kelib chiqadi, har bir shaxs o'zini kimning avlodi, qanday an'analarning vorisi ekanligidan cheksiz faxrlanadi, u qanday oila bo'lishidan qat'iy nazar, albatta, o'z a'zolarini muayyan yaxshi urf-odatlar, muomala maromlari doirasida birlashtirishga qodir bo'lgandagina mustahkam va baxtiyor bo'ladi. Yangi tug'ilgan farzand teta-poya qilib yura boshlagan onlardan oq oilaning kattalari uni erkalatishlar orqali shirin muomalaga o'rgatadi, kattalarga xurmat, kichiklarka g'amxo'rlik, izzat tushunchalari xam oilada tarbiyalanadi. Shu funktsiyani ado eta olmagan oilada hamisha ko'ngilxiraliklar, janjal, ziddiyatlar bo'lishi ehtimoli kattadir.

Jinsiy-hirsiy muloqot funktsiyasi – er va xotin o'rtasidagi ikkalasigagina taalluqli bo'lgan seksual ehtiyojlarni qondirish, shu orqali avlodlar bardavomligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu funktsiyaning bajarilishi er-xotin munosabatlariga bevosita ta'sir qiladi, ularning bir-birlariga vafo-sadoqatda bo'lishlarini, salomatliklari va to'g'ri turmush tarzini barqaror etishlariga xizmat qiladi.

Baxt va tinchlik-xotirjamlikni barqarorlashtirish funktsiyasi ham o'ta muhim bo'lib, aynan oila har bir a'zosining muammolarini echish, uni tashqi turli ta'sirotlardan himoyalash, kerak bo'lsa, unda himoya immunitetini shakllantirishga yordam beradi. O'zbeklarda "O'z uyim – o'lan to'shagim" degan ibora bor, har kim o'z uyida chinakam xotirjam bo'lishi mumkin. Uzoq safarlarda, yuksak servis mavjud mehmonxonalarda dam olib kelgach, o'z uyida, oyog'ini uzatib, "shukur" deyishi uning eng katta baxtidir. Shu nuqtai nazardan farzandlarning ham sog'-omon katta bo'lishi, ular ongini turli tashqi ta'sirotlardan, yot go'yalardan himoya qilishda ham oilaning roli benazirdir. Oila tinch va xavfsiz bo'lsa, demak, jamiyat ham, davlat ham tinch va undagi osoyishtalik barqaror bo'ladi.

Reproduktiv funktsiya – bu oilaning nafaqat avlodlar, vorislarni yaratishga aloqador vazifasi, balki,

shu orqali ota va ona bo'lishdek baxtga muyassar bo'lish, davlatning esa tub aholi sonini muayyan miqdorda ushlab turishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, o'zbeklarda nikohning dastlabki onlaridanoq, "uvali-juvali bo'linglar, qo'sha qaringlar" deb duo qilinadi va kelinchakning homilador bo'lishi intiqlik bilan kutiladi. Chunki aynan shu omil yosh oilaning mustahkamligida katta ahamiyatga molik bo'ladi. "Farzandli oila" tushunchasi oila psixologiyasida ham, oila sotsiologiyasida ham muhim bo'lib, u oilada turmush tarzining deyarli barcha jabhalaridagi ko'rsatkichlarning mezonidir. Chunonchi, o'zbeklarda "Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor" degan naklning ma'nosi ham farzand tug'ilgan uyga farishtalar yog'iladi, yaxshilik va xursandchiliklar, to'ylar uchun yo'l ochiladi, demakdir.

Oila sotsiologiyasi va demografiyasida oiladagi farzandlar soniga ko'ra guruhlariga bo'linadi. Masalan, ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan "kam sonli oila" – bu 1-2 nafar bola bor oiladir. Bu raqam umuman demografik jihatdan baholansa, aholining o'sishi va tabiiy yo'qotishlarning urnini qoplash uchun kamdir. Sotsiolog A.Antonovning fikricha (2005), jamiyatda aholi balansini saqlash uchun o'rtacha farzandlar soni 2,5 nafardan kam bo'lmasligi lozim. Yoki jami oilalarning to'rtidan biri ikkita, uchdan biri uchta, 14 % – befarzand yoki yolg'iz, 7 %i ko'p bolali, ya'ni beshtagacha bolasi bor oilalardan iborat bo'lsa, avlodlar vorisligi ta'minlanadi. Lekin Rossiya misolida bu masalaga e'tibor beriladigan bo'lsa, aholining reproduktiv o'sishida jiddiy pastlashish kuzatilmoqda. U erda jami oilalar nisbatida kam bolalilar, ya'ni, 1ta yoki 2ta bolaga ega bo'lgan oilalar soni keskin oshib, bugun ularning ulushi 95 %ni tashkil etmoqda. Xalqaro YuNISEF tashkilotining 2004 yili e'lon qilgan monitoringi natijalariga ko'ra, Evropa mamlakatlarida ham Markaziy Osiyo davlatlarida ham tug'ilishning kamayishi holatlari kuzatilmoqda (1.1-jadval).

1.1-jadval.

Ayrim mamlakatlarda tug'ilish koeffitsientlarining o'zgarishi
(1000 nafar aholi soniga nisbatan tirik tug'ilgan bolalar soni)

№	Mamlakatlar nomi	1989 yil ko'rsatkichi	2002 yil ko'rsatkichi
1	Rossiya	14,7	9,7
2	Qozog'iston	23,4	15,3
3	Qirg'iziston	30,5	20,3
4	Tojikiston	38,8	27,2
5	Turkmaniston	34,8	22,0
6	O'zbekiston	33,3	21,1 ¹

Rossiyada ko'p farzandli oilalar ulushi 1%ni ham tashkil etmagani holda, o'rtacha miqdorda bolalarga ega oilalar soni 5% gachani tashkil etadi. Shuni ta'kidlash joizki, bizda ham ko'p farzandli oilalar soni yil sayin kamayib bormoqda.

Tarbiya va nazorat funktsiyasi – ota-onalarni zurriyodlarini qobil va aqlli, imon-e'tiqodli, sog'-salomat voyaga etishini ta'minlashlariga bog'liq. Chunki, oila – nafaqat er va xotinni, ularning maqomlaridan kelib chiqib tarbiyalaydi, balki yosh avlodni ham oilasi, ota-onasiga munosib insonlar bo'lib etishishlari, jamiyatga foydasi tegishi uchun qayg'uradi. O'zbek oilasida avlodlardan meros bo'lib qolgan tarbiya mezonlari va an'analari mavjudki, ularning hayotiyliigi va bardavomligi bois jamiyatda qadr topgan barchasida yosh avlod tarbiyasi masalasi etakchi hisoblangan udumlar va urf-odatlar hamon saqlanmoqda.

Xususiy mulkka ega bo'lish va avlodga meros qilib qoldirish vazifasi ham muhim bo'lib, u har bir oilaning o'z jamg'armasi bo'lishini taqazo etadi, shuning uchun ham "Er-xotin – qo'sh ho'kiz" bo'lib, tinmay mehnat qiladi, orttirganiga to'y va oilaviy tadbirlar o'tkazadi, uy-joy, tomorqalarni farzandlariga meros sifatida qoldiradi. Bu ham oila mustahkamligiga, ota-onalarning obro'-martabasiga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi hamda hukumatimizning qo'llab-quvvatlashi bilan oilaviy biznes, xotin-qizlar kichik va o'rta biznesini rivojlantirish, ayollar tadbirkorligi uchun banklardan imtiyozli kreditlar berish siyosati izchil amalga oshirilishi tufayli ayollarning oila byudjetiga qo'shayotgan hissasi ham ortib bormoqda. Buning natijasida farzandlarda ham tadbirkorlik xislatlari o'sishiga real imkoniyatlar yaratilmoqda. O'tkazilgan tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, onasi tadbirkor bo'lgan qizlarda ilk yoshlikdanoq boshqaruv va liderlik sifatleri, tadbirkorlik ko'nikmalari shakllanib borar ekan (V.M.Karimova, 2003).

Yuqorida ta'kidlangan vazifalar ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning xarakteriga ko'ra o'zgarishi, biri dolzarb, biri esa kamroq ahamiyatli bo'lib qolishi mumkin. Lekin har bir oila a'zosining shu vazifalarga

psixologik jihatdan tayyorligi – ularning inson sifatida o'zini baxtli his qilishini, oilasining mustahkam bo'lishi, farzandlarining komil bo'lib etishishlarini ta'minlaydi.

Oilaning hayotiy tarzi va ziddiyatlari

Oilaning hayotiy tarzi uning hayotiy sikli, tutimi bilan bog'liq. Ayrim olimlar, masalan, V.Satir zamonaviy oilaning bola tarbiyasi va uning manfaatlariga bog'liq ekanligidan kelib chiqib, bu maskandagi hayot maromi va tutimini bola rivojlanishining bosqichlari bilan bog'laydi. Shunga ko'ra, quyidagi bosqichlar farqlanadi:

1-bosqich. Aksariyat olimlar oiladagi hayot sikli ikki yoshning uzoq muddatga ahdu-paymon qilib nikohga kirishga qaror qilgan onlaridanoq boshlanishini ta'kidlaydilar. Boshqa mualliflarning fikricha, oilaning boshlang'ich nuqtasi ikki shaxs rasman nikohga kirgan vaqt, ko'pchilikning guvohligida o'tkazilgan tantanalalar bilan izohlanadi.

2-bosqich. Ikki yoshning intim qovushishi oqibatida zurriyodning paydo bo'lishi. Satirning fikricha, zurriyodning paydo bo'lishi, tug'ilishi er va xotinning asl munosabatlarini sinovdan o'tkazadi va ular o'ziga xos yangicha munosabatlar davrini boshdan kechira boshlaydilar. Bu davrga asosiy mazmun va ma'no beruvchi voqea – bu er va xotinga yangi rollarning berilishi, anchagina katta ijtimoiy mas'uliyatni o'ziga qamrab olgan ota-onalik rollarining boshlanishidir. Ko'plab xalqlarda, ayniqsa, o'zbeklarda bolaning dunyoga kelishi juda katta quvonchli marosimlar bilan boshlanib, ular qadriyat sifatida asrlar osha saqlab kelinmoqda. Masalan, bola tug'ilishi bilan bog'liq suyunchi marosimlari, aqiqa, beshik soldi, sunnat va beshik to'ylari kabilar shular jumlasidandir. Shunga qaramay, ayrim xalqlarda, masalan, evropa xalqlarida oilada farzandning tug'ilishi muayyan tashvishlar, ruhiy tarangliklar, ayniqsa, ona boshidan kechiradigan emotsional hayajonlar, yaqinlariga ijtimoiy va moliyaviy tashvishlarni keltirib chiqaradiki, bu ham ba'zan oilaviy munosabatlardagi tarangliklarda aks etadi. Oila va farzand oldidagi bunday mas'uliyatlar ayrim hollarda er-xotin munosabatlarining darz ketishiga, ba'zan ajrimlarga, bizning sharoitimizda quda-andachilik munosabatlaridagi kelishmovchiliklarga ham sabab bo'ladi.

3-bosqich. Bola oiladan tashqaridagi ijtimoiy institutlar – maktabgacha ta'lim muassasalari, ayniqsa, uzluksiz ta'limning boshlang'ich o'chog'i hisoblangan maktabga bora boshlaydi. Maktab shunday maskanki, u erda har bir bolaning qay darajada va qanday ijtimoiylashgani sinovdan o'tadi. Chunki u endi nafaqat o'zi tengqur bolalar bilan, balki kattalar, begonalar, ko'chadagi turli toifali insonlar bilan muomalaga kirisha boshlaydi. Bu muomala jarayonida uning qanchalik hayotga tayyorligi, oilasida qanday ahloqiy va ma'naviy o'gitlarni olganligi, kimning bolasi ekanligi, oilaviy muhiti qandayligi bilina boshlaydi. Eng muhimi – maktabga kelgach, bolaning aqliy va intellektual salohiyati, intizomi tekshiruvdan o'tadi. Ya'ni, bolasini maktabga berar ekanlar, ota-onalar ham jamoatchilik oldida o'ziga xos sinov va tekshiruvdan o'tayotganday his qiladilar o'zlarini. Yaxshi yoki yomon ota-onalik rollari maktab yillarining dastlabki oy va yillarida bilingani sababli, ko'pgina ota-onalar ayni shu davrlarda kuchli stressni boshidan kechiradilar.

4-bosqich. Bola o'smirlik davriga qadam bosganda, u ota-onasidan mustaqillikni, hadeb ta'qib qilavermaslikni da'vo qila boshlaydi. Ota-onaning farzand oldidagi obro'si, kerakligi darajasi pastlay boshlaydi. Bu davrga kelib ota ham, ona ham o'zining farzandiga nisbatan munosabatlarini o'zgartirishga majbur bo'ladi, chunki bolada yangicha talab va istaklar, yangicha fikrlash, urf-odatlar, musiqaga havas, turli xil guruhlar bilan muloqotda bo'lishga intilishlar paydo bo'ladi. Bu davr ota-onaning bolasida paydo bo'layotgan o'zgarishlarga, yoshga oid yangiliklarga qanchalik fahm va farosat bilan, sabr-qanoat bilan turib berishlarini sinovdan o'tkazadi. Sinovdan yaxshi o'tgan ota-onaning bolasi keyingi bosqichga eson-omon yaxshilik bilan, ochiq ziddiyatlarsiz o'tib oladi, aks holda o'smirlik davrining o'ziga xos ziddiyatlari girdobida ota-ona – bola munosabatlari jiddiy yomonlashadi, ayrim bolalar uydan ketib qolish holatlarigacha boradi.

5-bosqich. Bolalar katta bo'lib, balog'at yoshiga etadilar, o'qishlarni tugatib, mustaqil kasb-hunar egallash bosqichiga qadam bosganda, ayrim yoshlar mustaqil oilaviy hayot qurishga ham ulguradilar. Shu davrga kelib, "Bola – ota-ona" munosabatlari deyarli tugaydi. Ayniqsa, bu holat evropa xalqlariga mos, balog'at yoshiga etgach, deyarli barcha hayotiy masalalarni yoshlar o'zlaricha, o'z bilganlaricha xal qila boshlaydilar. Ota-onalar ularning xato qilib qo'yishlaridan xavotir olmay qo'yadi. Bizda, Sharq xalqlarida bu holat biroz boshqacha: ota-ona farzandi kasb-hunarli bo'lib, mustaqil professional yo'ldan ketayotgan bo'lsa ham, ularning kelajagi, oilasi, moliyaviy ahvoli borasida xavotirga tushaveradi, o'g'il uyulanishi, qizlarning turmush chiqishlarida ota-ona va ularning ota-onalari – momolar va buvalar bosh-qosh bo'ladilar. Turmush o'rtog'i tanlash masalasi ham bizda juda kam holatlarda bo'yiga etgan qiz yoki yigit ixtiyoriga havola etiladi. Ya'ni, ko'chadan birdan notanish qizni "Tanishing, bu mening bo'lg'usi qallig'im, turmush o'rtog'im" deyishlar bizda deyarli uchramaydi, chunki bunga bizning asriy urf-odatlarimiz, oilaviy tarbiya mezonlarimiz yo'l qo'ymaydi.

Ayrim bo'linmagan oilalarda o'g'il uylangandan keyin ham, qiz farzandli bo'lganda ham ota-onalar ularning g'amini eb, hayotda qoqilmasliklari uchun harakat qilaveradi. Hattoki, mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida shunday odatlar borki, ona ko'zi yorigan qizining oziq-ovqati, emishi uchun to'la o'zini javobgar, deb hisoblaydi. Chunki bunga ikki sabab bor: birinchisi – yangi ko'zi yorigan ayol organizmida shunday yangilanish ro'y beradiki, uni o'ziga keltirish uchun aynan yillar mobaynida o'z oilasida egan-ichganlari adaptatsiya jarayonlarini tezlashtiradi; ikkinchidan – o'z onasining mehribonlik ko'rsatayotganligi yosh onaning yaqinda boshidan kechirgan –iyinchiliklarini unutish, o'zini chinakam ona sifatida onasiday his qilishini ta'minlaydi. Ushbu psixologik holat o'ta muhim bo'lib, aynan o'zbeklarda bu oila mustahkamligining omillaridan hisoblanadi. Qaynona ham ona, u ham keliniga achinadi, tug'ruqning azoblarini unutishi uchun qo'ldan kelganini qiladi, lekin o'z tuqqan onasining xabar olishi, yonida bo'lishi ko'plab kuzatishlarda yosh onaning onalik rolga tezroq kirib ketishiga, ko'krak suti bilan bolasini emizib katta qilishida katta rol o'ynaydi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ayrim hollarda ota-onaning yoshlar hayotiga aralashuvi shu qadar bevosita xarakterli bo'ladiki, bu yoshlar bilan ota-onalar o'rtasidagi nizolarga ham sabab bo'ladi, qaynona va kelin, qaynota va kuyov o'rtasida nizolar ham ana shunday aralashuvning ko'pligidan kelib chiqadi. Ya'ni, ota-onaning farzandi balog'at yoshiga etib, mustaqil hayotga qadam qo'ygandagi aralashuvlari, g'amxo'rliklari ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarini olib kelishi mumkin.

Farzandlarning mustaqil iqtisodiy maqomga ega bo'lishlari, o'z oilasiga ega bo'lishi ota va onaga boshqa yana qo'shimcha rollarni bajarishni taqozo etadi – kelin, kuyov, qaynona, qaynota va boshqalar Bundan tashqari, yangi paydo bo'lgan yosh oilaning qarindosh-urug'lari o'rtasidagi munosabatlar, masalan, quda-andachilik munosabatlari ham yosh oila va uning ota-onalari maqomlarining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, “endi qudalikmiz”, “kuyovim bor”, “buvi yoki buva bo'ldim” kabi e'tiroflar shaxs ongida va xulqida jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ayrim ayollar ayni shu daqiqalardan boshlab, tashqi ko'rinishidan tortib, hayot tarzida ham jiddiy o'zgarishlarni boshlaydi, masalan, tez-tez ichadigan ota bu salbiy qilg'ini tashlaydi, chunki kelindan uyaladi; namoz o'qimaydigan ona quda-andalar oldida uyalaman deb, namoz o'qishga kirishadi, mahalla-kuyga ko'proq aralashadigan bo'lib qoladi.

6-bosqich. Keksalikning dastlabki belgilari – tanada keksalik alomatlari, klimakterik holatlarning kelib chiqishi bosqichida inson qalbi qarimasada, ayrim jismoniy kuvvatsizliklar paydo bo'ladi. Odam nafaqaga chiqadi, suygan kasbi, mashg'ulotidan uzoqlashadi, do'stlari davrasi torayadi va h-zo. Lekin keksalikni tan olish va unga ruhan tayyor bo'lish, etnik madaniyat va uning qadriyatlariga bog'liq. Xalq ma'naviyati va madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, keksalikka munosabat ham shunchalik yuqori bo'ladi. Masalan, bizning etnik-madaniy muhitimizda keksalik va qariyalik hamisha e'zozlanib kelingan, masalan, Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan 2002 yil “Qariyalarni qadrlash yili” deb e'lon qilindi, barcha keksalar bizda qarilik gashtini surish uchun belgilangan tartibda nafaqalar oladi, bayram, to'y-hashamlar va tadbirlarda keksalarni davralarning to'riga o'tqazish, ularga izzat-ehtirom qilish xalqimizning odatiy an'analaridandir. Shu bois bo'lsa kerak, o'zbekistonliklar keksalikni ham hayotning o'ziga xos davri sifatida mamnuniyat bilan kutib oladigan xalqdir. Ruslardagi “Starost ne radost” iborasining tagida ham o'ziga xos ma'no borki, ayrim evropa xalqlarida keksalar nafaqaga chiqqanlaridan keyin o'zlarini hech kimga kerak emasday his eta boshlaydigan, ular uchun umrning oxirgi davrlari keskin salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, farzandlari esa o'z hayot tashvishlari bilan ba'zan ota-onalarni ham unutib qo'yadilar. Qariyalar uylarining paydo bo'lishi ham ko'p holatlarda aynan shunday o'zaro munosabatlarning oqibatidir.

7-bosqich. Oilaviy siklning tugashi odatda turmush o'rtoqlardan birining o'limi bilan boshlanadi. Er-xotinlarning tirik qolgani beva bo'lib qolishi munosabati bilan u ham yangicha rollar tizimiga kiradi. Musulmonchilikda chol yoki kampir beva qolsa, uni ikkinchi nikohga da'vat qilish, taklif etish an'ana, farzandlar uchun farz hisoblanadi. Ayniqsa, erkak kishi beva bo'lib qolganda, farzandlarning biror kampirga yoki o'rta yoshli juvonga uylanishini taklif etishi farz sanaladi. Bu Islom dini qadriyatlariga ham mos keladi.

Yuqorida sanab o'tilgan hayotiy tutimlar oila a'zolari har birining xulq-atvorida, dunyoqarashi va odatlarida muayyan o'zgarishlarning kuzatilishiga, yangicha rollar o'zlashtirilishiga olib keladi. Har bir yangi bosqich shaxs ongida muayyan krizislar, ziddiyatlar bilan kechadiki, ularni engish, qiyinchiliklardan yaxshilik bilan o'tish insondagi yaxshi fazilatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, sabr-qanoatiga bog'liqdir. Har bir bosqichda ota, ona va farzandlar, kuyov-kelinlar bilan o'zgacha munosabatlar tizimi shakllanadi. Masalan, bo'linmagan katta oilada oila boshlig'i – otaning qazo qilishi to'ng'ich farzandlar elkasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Uning oilaviy o'zaro munosabatlar tizimida o'rni keskin ravishda o'zgaradi.

Agar turli hayot bosqichlarida oilaviy turmush tarzining o'zgarishini inobatga olsak, oilaviy

nizolar yoki ziddiyatlar shu muayyan ma'noda tabiiy bo'lib, uni har bir normal oila boshdan kechiradi. Shu bois ham o'zbekchilikda "ro'zg'or", "turmush" deyilib, momolarimiz "g'or tub qo'yibdi", "mush deb qo'yibdi", deya oilaviy hayotning o'ziga xos murakkabliklari borgigiga ishora qiladilar. Bunday ziddiyatlar oilaviy rollar ko'payganda, farzand tug'ilganda, qudalar bilan munosabatlar boshlanganda, ayriliq ro'y bergan bosqichlarda ayniqsa sezilarli bo'ladi. Lekin ahil va mustahkam oilada bu ziddiyatlar deyarli asoratsiz, engillik bilan o'tib ketadi. Muammoli oilalarda esa oilaning kattalari ularni engish malakasi va tajribasiga ega bo'lmay, boshqalarga sezdirib qo'yadi, ba'zan oilaning ichidagi gap-so'zlar mahallaga, uzoq va yaqin qarindoshlargacha etib boradi. Tashqaridan bo'lgan aralashuvlar ba'zan oilaning maromini tiklasa, ba'zan, aksincha, uning xalovatini buzadi, muammolar chalkashib ketadi. Bu vertikal ziddiyatlar, ya'ni, oilaviy nizolarga tashqaridan ota-ona va boshqa qarindoshlarning aralashuvi tarzida kechadi. Ba'zan, kattalarning orzu-havaslari deb, yoshlar o'zlariga ma'qul bo'lmagan hayot tarzini boshdan kechirishga majbur qilinadilar ham. Masalan, yosh oila alohida uyda mustaqil yashashni xohlaydi, lekin qaynona ularni yonida, uning tazyiqi ostida yashashga majbur qiladi, yoki er-xotin farzandlari bilan birga alohida yashashni istaydi, kattalar esa ularning farzandlaridan birini shaharning boshqa bir chetida yoki boshqa shaharda yashashini talab qiladi. Momolar tarbiya tarzidan norozi bo'lmagan kelin-kuyov va ularning ota-onalari o'rtasida nizo kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, ota-onalardan biri nogiron yoki uzoq muddatli xastalikka chalingan paytlarda ham yosh oiladagilarning ayrimlarida surunkali taranglik tufayli ichki va ochiq nizolar paydo bo'lishi mumkin. Bu kabi maydachuyda muammolar har bir oilada bo'ladi, bu tabiiy, ularni engishga ruhan tayyorlik va oila a'zolarining bir-birlariga muruvvatliliklari oilaning baxtli bo'lishini ta'minlaydi.

R.Kappenberg degan olimning ta'kidlashicha, ba'zan oilaviy munosabatlarda favqulotda paydo bo'ladigan hodisalar ta'sirida shok-ziddiyatlar paydo bo'ladi. Bu odatda kutilmaganda ro'y beradigan holatlarning oqibati bo'lib, oila a'zolari buni kutmaydilar. Masalan, er-xotinlarlardan birining xiyonati va uning oshkor bo'lib qolishi, o'g'ilning noqobil bo'lib giyohvand moddalar iste'mol qilishini kattalar bilib qolishlari, oila a'zolaridan birining boshqa jinoyat yo'lga kirib qolishi, falokatlar va shunga o'xshashlar oilaviy munosabatlarning to'satdan o'zgarishi, munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bunda ham oiladagi kattalarning oqilligi, mahallaning hamjihatligi ijobiy rol o'ynashi mumkin.

Oilaning turmush tarzi olimlar talqinida

Oilaviy hayotni tizimli tarzda tasavvur etib, uning psixologik xususiyatlarini o'rganishga jazm etgan olimlardan biri amerikalik tadqiqotchi Virjiniya Satir (1992, 2000) hisoblanadi. U oilaviy hayotni tavsiflash uchun quyidagi tushunchalarni ishlatadi: oila energetikasi, oila tizimi, chegarasi va funktsional xususiyatlari. Bu bilan u kelib chiqishi nuqtai nazaridan biologik hisoblangan ijtimoiy institutga texnologik metodologiyani tadbiiq etishga urinadi. Bunday yondoshuv XX asr o'rtalariga xos bo'lib, u tufayli olim oilani tushunish borasida nafaqat yangi yo'nalishga asos soldi, balki uni davolash, bu boradagi tibbiy muammolarni ham o'rganishni boshlab berdi.

Oilal energetikasi tushunchasi o'z ichiga ko'plab jabhalarni xususan, oilaning tibbiy-biologik xususiyatlaridan tortib, uning psixologik mavjudligini belgilovchi omillar, ekologik shart-sharoitlardan boshlab, tiriklikning mezonlari bo'lmish ovqatlanish hamda har bir oila a'zosining xatti-harakatlarining namoyon bo'lishigacha qamrab oldi. Oilaviy hayotning psixologik energetikasini tavsiflash uchun Satir "oilaning emotsional qozoni" tushunchasini ishlatadi, ya'ni, oila a'zolarining kundalik muloqot, muomala jarayonlarini u go'yoki "bir qozonda qaynovchilarning birgalikda yashashida namoyon bo'ladigan hissiyotlar ko'zgusiday" tasavvur etadi. Bu "qozonda"gi his-kechinmalar hayotning muayyan davrlarida o'ta jo'shqin va boy bo'lsa, boshqa bir davrda mazmunan tor yoki tarang ham bo'lishi mumkin. Oila a'zolarining bir birlariga mehr-muhabbati, yaqinligi, hamkorligi ma'lum davrlarda kuchli ijobiy bo'lsa, boshqa davrda kimnidir kimdandir tobeligi bois yoki kimningdir qattiqqo'lligi bois torroq, mazmunsizroq bo'lishi ham ko'zatiladi.

Oilaviy munosabatlar tizimi – Satir ta'rifida oila a'zolarining muayyan rollar doirasida u yoki bu holatlarda o'zligini namoyon etishi yoki ijrosi emas, balki, bu har bir oilaga xos bo'lgan o'zaro munosabatlar "xaritasi"dir. Masalan, biror oilaga yordam bermoqchi bo'lgan terapevtga ayni shu xarita kerak, chunki u real a'zolarining real o'zaro munosabatlarini boshqachasiga tasavvur etishi mushkul. Bu xaritaga ayni shu oila a'zolaridan tashqari, ularning yaqinlarining ta'siri ham kiradi. Masalan, agar erkak kishi oilada qandaydir ajrab qolgan bo'lib, xotini va farzandlari bilan yashagan taqdirda ham uning xotiniga bo'lgan real munosabatlariga boshqa uyda yashaydigan onasining ta'siri bo'lsa, demak, oilaviy munosabatlar xaritasida qaynonaning ta'siri ham albatta nazarda tutilishi shart. Yoki birinchi nikohidan ajralgan ayol sobiq erining farzandi bilan birga yashayotganligi bois, hamisha uni eslab turishi, bolasining istagiga ko'ra, sobiq eri bilan ko'rishib turishi, hattoki, moliyaviy jihatdan unga tobe ham bo'lishi mumkin. Bu, tabiiy, ayni paytda real oilaviy munosabatlarga ta'sir etmay qolmaydi.

Oilaning funktsional xususiyatlari – bu oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning sifatiy taraflarini tavsiflaydi. Masalan,

muloqot uslublari;

har bir oilaga xos bo'lgan tartib-qoidalar;

o'zaro muloqot jarayonida kommunikativ to'siqlarning mavjudlari (yo'qligi).

Satir o'zining psixoterapevtik tajribasidan kelib chiqqan holda oilaviy munosabatlar jarayonida ko'zga tashlanadigan muloqotning 5 xil uslubini ajratadiki, ulardan to'rttasini u samarasiz deb ataydi, bittasi etarli darajada tajriba va bilimga ega bo'lgan etuk muloqot uslubiga kiradi. Dastlabki to'rttasi odatda muomala jarayonida biror muammo yoki to'siqni engishga, o'zini ataylab yaxshi ko'rsatishga, kimgadir yoqishga yoki aksincha, kimnidir nimagadir ayblashga, tanqid qilishga xizmat qiluvchi uslublardir. Masalan,

Xushomadgo'ylik uslubi kimlargadir ataylab yoqish maqsadida barcha oila a'zolarining xatti-harakatlaridan andoza olish, o'zini erga urib bo'lsa-da, o'zgalar bilan kelishib yashash, bu bilan o'zini hamisha erga urishni nazarda tutadi.

Ayblovchi uslub doimo kimnidir nimagadir o'rgataverish, tanqid va nazorat qilish, faqat o'zidan kuchli odam oldidagina biroq o'zini tortish bilan bog'liq kommunikativ harakatlarni o'z ichiga oladi. Birinchi va ikkinchi uslublar go'yoki bir birini to'ldiradi.

Hisob-kitobli muomala uslubi shundayki, unga ko'ra odam hamisha va har qanday vaziyatda aniq, bexato harakatlar qilishga intiladi, chunki bunday odam adashmay, doimo "to'g'ri, benuqson" bo'lishga intiladi, shuning uchun bunday insonning harakatlari doimo sun'iyday, his-tuyg'ulari esa mazmunsiz, doimo tazyiq ostiga olinganday bo'ladi.

Chetlashtirilgan muomala uslubi o'zini nima qilib bo'lsa-da o'zgalaridan uzoqda, muayyan masofada tutishga qaratilgan, odamoviday boshqalarning nazaridan ham, ularning ta'siridan ham o'zini tortadi (masalan, bizda odatda yangi kelinchak o'zini ana shunday tutadi).

Etuk, adaptiv muomala uslubida esa inson hamisha o'z oiladoshlari bilan to'g'ri, samimiy, ochiq munosabatlarga tayyor bo'ladi. Bunday odam o'zining barcha fazilatlarini bilgani va saqlagani holda boshqalarning ham shaxs ekanligini, individualligini unutmagan tarzda muloqotga kirishadi. U gapirishni ham maromida eplaydi, o'zgalarni tinglashni ham biladi, shu sababli, unga qandaydir kommunikativ to'siqlar xatarli emas.

Psixoterapevtik amaliyotda Satir ham Karl Rojers kabi barcha muomala uslublarini tahlil qilar ekan, bir insonning boshqa bir insonni tinglay olishiga alohida e'tibor qaratadi. Asosiy maqsad shundan iboratki, har bir oila a'zosini o'z tartib-qoidalarini buzmagani holda muomala madaniyatiga o'rgatishdir. Masalan, oilaning muayyan tartib qoidalariga quyidagilar kirishi mumkin: "Yakshanba kunlari hamma to'planib, birga tushlik qilishadi", "Otamiz uxlagan paytda unga hech kim xalaqit bermaydi", "Maktab xarajatlari uchun bolalarga muayyan miqdorda pul beriladi" va hokazo.

Ochiq tartib-qoidalaridan tashqari, har bir oilaning yashirin qoidalari ham mavjudki, ular ham oilaviy munosabatlarning yaxshi bo'lishida katta rol o'ynaydi. Odatda bunday qoidalar muayyan mavzularning oila davrasida ko'tarilmasligi yoki ma'lum tarzda his-kechinmalarning namoyon etimasligida ko'rinadi. Masalan, otasining oldingi nikohdan farzandlari borligi mavzusi, oilada nogiron borligi, bolaning qandaydir falokat tufayli ruhan yoki jismonan dardman bo'lib qolgani, kimnidir qamalib ketganligi, ota va onaning birga yotmayotganligi, otaning spirtli ichimliklarga ruju qo'yganligi kabilar odatda oila a'zolari to'plangan paytda ochiq muhokama qilinmaydi. Chunki rasman taomil bo'yicha bunday holatlarga bevosita bolalarning aloqasi ham, aybi ham bo'lmaydi, shuning uchun ularda shu kabi salbiy tajriba paydo bo'lishidan saqlagan tarzda bu kabi holatlar muhokama qilinmaydi.

Oilaning chegarasi va hududi deyilganda, odatda oilaning boshqa sotsiomadaniy muhit vakillari bilan aloqasi, ularga bog'liqligi darajasi nazarda tutiladi. Satirning fikricha, shunday oilalar ham bo'ladiki, ular boshqalar bilan deyarli muloqotga kirmaydi, bu oilaga darvozadan ham, devoridan oshib ham kirib bo'lmaydi, u go'yoki o'z qobig'iga o'ralib olganday, o'z navbatida u boshqa oilalarga ham qiziqmaydi, oilaviy tantanalarga yaqin qo'shnilarni ham chaqirmaydi, o'qishi yoki ishxonasini hisobga olmaganda, boshqa ijtimoiy muassasalarga, masalan, teatr, kino, klublarga ham bormaydi. Odatda bunday "yopiq" turdagi oilalar unchalik inoq-ittifoq ham yashamaydi. Bizning sharoitimizda mahalla-kuyning tadbirlari ham ularsiz o'tadi. Shuning uchun ochiq turdagi, keng muloqotlarga asoslangan oila baxtli va mustahkam hisoblanadi. Bu oilalarning dahlsizligiga ham zarar etkazmaydi.

Taniqli amerikalik oilaviy psixoterapevt Salvador Minuxin ham o'ziga xos kontseptsianing asoschisidir. (Minuxin S., Fishman Ch., 1998). Uning fikricha, oila – murakkab tuzilishga ega bo'lib, tarkibiga ayrim alohida individlarni, bir qator tizimlarni qamrab oladi. Ichki tuzilmalar koalitsiyalarga birlashib, oila doirasida turli hodisa va jarayonlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, har qanday oila

boshqa o'ziga o'xshash tuzilmalar bilan murakkab munosabatlarni o'rnatadiki, bu tashqi tizimlar ba'zan oilani qo'llab-quvvatlash vazifasini ham bajaradi.

Oila – eng avvalo rivojlanuvchi tuzilma bo'lib, unga yoshga oid qonuniyatlar xosdir. Chunki oila a'zolari yillar o'tgani sari rivojlanadi, etuklikka erishadi, qariydi, shu bois ham oila doimiy o'zgarish va rivojlanishlarni boshidan kechiradi.

Oilaning tarkibiy tuzilmasi ham ilmiy jihatdan muhim bo'lib, uni eng avvalo alohida individlar tashkil etadi. Alohida individ o'z xohish-istaklari, ehtiyojlari, motivatsiyasi, hayotiy maqsad-muddaolariga ega dastlabki avtonom birlikdir. Oila a'zolari esa oilaga kirishib, qo'shilib ketganligi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Oilaning ayrim a'zolari butun vujudi, borlig'i bilan oilaviy hayotga uyg'unlashga ketgan bo'lsa, boshqalari uning tarkibiga boshqa tashqi tuzilmalar hisobidan qo'shiladi. Masalan, uy bekasi oilaning birinchisi bo'lsa, yangi tushgan kelinchak ikkinchi xil oila a'zosini tashkil etadi. Lekin barcha oila a'zolari uning psixologik muhitini, undagi samimiyatni barqaror etishga o'z hissasini qo'shadi, faqat birinchisi oila manfaatlarini ichkaridan turib, faqat yaxshilikni, barqarorlikni o'ylab ish tutsa, boshqalari tashqaridan turli ma'lumotlar, "o'ziga xos havo" olib kirish yo'li bilan oila muhitini muvofiqlashtiradi.

Er-xotin tizimi oiladagi er va xotindan iborat bo'ladi. Erkak va ayol qovishuvidan boshlanadigan bu tuzilma aslida butunlay bir-biridan farq qiluvchi qadriyatlar, qarashlar, kutishlar va e'tiqodlardan tarkib topadiki, agar ularning har biri o'zaro muloqot jarayonida bir-birlarini bilgani sari o'z qarashlari, xatti-harakat me'yorlari, odat va qiliqlaridan qisman bo'lsa-da, voz kechmas ekan, oilaviy birlik ro'y bermaydi. Bu juda katta psixologik jarayon hisoblanib, uning natijasi o'laroq oilada er-xotinning bir-biriga adaptatsiyasi, moslashuvi ro'y berishi mumkin. Yangicha "qovishuv", bir-birini identifikatsiya qilish, o'xshashliklar jarayoni adaptatsiyaning muhim natijasi o'laroq, bunday bir-biriga yaqinlashish, "o'xshashlik va uyg'unlikning" paydo bo'lishi yillar davomida sayqal topib boradi. Lazarev va Rage degan olimlarning qayd etishlaricha, odam boshidan kechirishi mumkin bo'lgan stressor g'amlardan eng kuchlisi turmush o'rtog'idan judo bo'lish hisoblanadi, chunki ular yillar mobaynida bir-birlariga juda ko'nikib, kirishib ketgan bo'ladi. Ayni shu tuzilmadagi har qanday evrilishlar, nizolar va qiyinchiliklar yaxlit oilaning barcha a'zolariga birday ta'sir etadi.

Ota-onalar tuzilmasi har doim ham er-xotinlikni nazarda tutmaydi, zero, uni yolg'iz momo, xola yoki to'ng'ich farzand ham tashkil etishi mumkin. Shuning uchun terapevtik muolajalarda yoki maslahatlarda ota-onalar tuzilmasini aynan kim tashkil etishini bilish ahamiyatlidir. Ota-onalar eng avvalo oilaning xavfsizligi, unda samimiyat muhitining bo'lishi, tarbiya jarayonlarining qanday kechishiga javobgardir. Ular shu oiladagi barcha farzandlarning kelajagini, kerak bo'lsa, juda yaxshi kamol topishi uchun o'z bilim va tajribasini safarbar etadigan insonlardir.

Aka-opa-ukalar tuzilmasi – oilada farzandlarning hayotni o'rganishlari, bir-birlarini tushunishlari ba'zan tortishib, ba'zan do'stona muomalani yo'lga qo'yishlari juda muhimdir. Odatda oilada shakllangan va sayqal topgan aka-uka, opa-singilchilik munosabatlari keyinchalik do'stlar, hamkasblar, raqiblar bilan bo'ladigan murakkab o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun zarur bo'ladi.

Muammoli oilalar deb, Minuxin oila ichidagi mavjud tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarning buzilishini tushunadi. Masalan, "pa-de-de" tipidagi oila (frantsuzcha pas de deux – ikki kishi raqsi ma'nosini bildiradi) odatda faqat ikki kishidan iborat bo'lib, bunday oilada farzand bo'lmaydi. Yoki farzandlari allaqachon "uchirma" qilingan bo'lib, ota-ona xonadonini tark etgan bo'ladi. Bu kabi oilalardagi o'zaro munosabatlar anchagina tarang bo'lib, aksariyat holatlarda bunday kechinmalar vaqtincha xarakterga egadir. Unda naslning davom ettirish, bola tarbiyasi kabi muammolarning mavjudligi er-xotin munosabatlariga rahna soladi.

Ko'p farzandli oila ("choriq" tipli oila) munosabatlar tizimi serqirra bo'lgan oiladir, unda ba'zan, farzandlarning to'ng'ichi ota-onalarday yuqori pog'onaga ham ko'tarilib qoladi. Bunday oiladagi munosabatlarning yaxshi bo'lishi uchun ota-ona har bir oila a'zosining vazifalari va oiladagi maqomlarini aniq tasavvur qilib, bo'lib berishi, to'ng'ich bola bilan kichiklar o'rtasidagi muomala qoidalarini bolalikdan bir maromda yo'lga qo'yilgan bo'lishi talab etiladi. Bu erda ota-ona tuzilmasi, ya'ni, ota-onaning mavqei, obro'si kuchli va etakchi bo'lishi shart.

Distant oila yoki "akkordeon" tipidagi oilada a'zolaridan kimdir, bu ko'p hollarda ota – u yoki bu sababga ko'ra oila a'zolari bilan kam ko'rishadi (uzoq muddatli safardagi dengizchi, harbiy xizmatchi, geolog, neft qazuvchi kabi). Ota bunday holatlarda o'zaro muomala jarayonlarida yo jismonan mavjud shaxs sifatida yoki ramziy tarzda ota sifatida ishtirok etadi. Oilada er-xotinlik aloqalari ham, ota va bola munosabatlari ham bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ham aziyat chekib turadi. Gohida oilada go'yoki yashirin qolipda ajrim turganday bo'ladi. Lekin ayni shu holat ko'pincha distant oilaning ajrim bo'lgan oiladan afzal ekanligini ko'rsatadi.

Beqaror oila tarkiban ham, turar-joy, yashash joyi masalasida ham o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, ayrim ayollar birinchi nikohidan ajralganidan so'ng tez-tez erkaklarni almashtiradi, toki ko'ngliga ma'qul bo'lgan insonni topmagunicha turlicha munosabatlar tizimida bo'ladi. Bu farzandlar tomonidan yaxshi qabul qilinmaydi, ona bilan bolalar munosabatlari hamisha taran turadi. Shunga o'xshash holatlar tez-tez turar joyini almashtirishga moyil oilaga ham xosdir. Munosabatlar tarangligi nafaqat shu oilaning ichida, balki yangi turar joyga kelib yangi tengdosh o'rtoqlar va sinfdoshlar orttiradigan bolalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiydir.

Noto'liq oila – ba'zan turmush o'rtog'idan birining o'limi tufayli judolikka mahkum etiganlar oilasida ham o'ziga xos munosabatlar shakllangan bo'lib, ularda go'yoki "arvoh" oilaviy jarayonlarning barchasida ishtirok etayotganga o'xshaydi. Ayniqsa, sharq xalqlarida marhumning ruhini hurmat qilib, barcha oilaviy tadbir va marosimlarda ularning ruhlarini shod etuvchi duolar o'qiladi, ular yaxshi gaplar bilan eslanadi, duolar mavjud bo'ladi. Bu farzandlar tarbiyasida ham ijobiy, ham salbiy rol o'ynaydi.

Shunday qilib, Minuxin chizmasida oilaviy o'zaro aloqalar turlicha munosabatlar tizimi shaklida tasavvur etiladi.

Amerikalik tadqiqotchi Myurrey Bouen (1913-1990) – AQShda XX asrning boshlarida boshlangan oilani himoya qilish harakatining asoschilaridan bo'lgan, ushbu harakatdan ko'zlangan maqsad – oilani alohida tadqiqotlar ob'ektiga aylantirish, shu orqali uning inson salomatligidagi benazir roldan foydalanish, hattoki, ruhan bemor bo'lganlarni davolashda oilaning imkoniyatlaridan foydalanish g'oyasini targ'ib etishdan iboratdir. Bouen fikricha, inson o'z umrini o'tkazadigan ijtimoiy guruhlardan eng muhimi – bu oiladir. Shu bois ham har bir shaxsni o'rganish uning oilasini o'rganishdan boshlanmog'i lozim. Ammo, ta'kidlaydi, muallif, inson qanchalik biologik tuzilmali, hissiyotlarga boy emotsional tizimga ega bo'lmasin, u sekin-asta o'z oilasi qobig'idan ajralib, shaxsiy xususiyatlarda boshqalardan o'zgacha, ajralib, differentsiallashib boravedi. Ana shunday tafovutlanish, ya'ni, hayoti mobaynida o'ziga xos xislatlar egasi bo'lish, ota-onasi va yaqinlaridan farqlanuvchi sifatlariga ega bo'lib borish darajasi har bir insonda turlicha sodir bo'ladi. Har bir shaxsning hayotdagi insoniy burchlaridan biri ham ayni shu "alohidalikka, boshqachalikka" intilish va o'zgalar bilan hamjihatlikda yashash ko'nikmalarini orttirib borishdir. Bouen turli odamlarda testlar o'tkazib, ana shu farqlilikning shkalasini yaratdi. Unga ko'ra, shkalaning pastida joylashganlar (0 dan 25 ballgacha olganlar) odatda xavotirli hayot kechiradi va ko'pincha o'zgalarga tobe bo'lmaslikka intiladi, turli vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini yaxshi bilmaydi, nisbatan sokin va turg'un turmush tarzini boshdan kechiradi, biror xavf yoki mushkulotni sezib qolsa, yolg'izlikni, hech kimga ko'rinmaslikni afzal ko'radi. Bunday mijozlar bilan ishlash texnikasi shunga bog'liqki, ularni eng avvalo turli vaziyatlarda turlicha harakat qilish modellariga, ongi va aqli bilan bo'lib o'tgan voqea va hodisalarni tahlil qilishga o'rgatishdan iboratdir.

Uning aksi bo'lgan, farqlar shkalasida yuqori ballarga ega bo'lganlar hamisha ko'pchilik ichida yuradi, ular bilan hamkorlik darajasi yuqori bo'lib, har qanday mushkul vaziyatlarda ham o'zini qo'lga olib, muammoni echishning yo'llarini muvaffaqiyat bilan topadi. Uning munosabatlardagi egiluvchanligi shu qadar samaraliki, u kerak bo'lsa, odamlar bilan til topishish uchun o'z individualligidan ham voz kechib, odamlarga kirishib keta oladi, turli stress holatlarda iroda kuchini ishga solib, vaziyatni engib chiqa oladi.

Bouen oiladagi o'zaro munosabatlar tizimini tasavvur qilish uchun fanga "emotsional uchburchaklik" tushunchasini kiritdi. Unga ko'ra, oila tizimini, uning poydevorini tashkil etuvchi asosan uch inson yoki sub'ekt bo'ladiki, boshqa munosabatlar ularning vaziyatni nazorat qilishlari, u yoki bu vaziyatlarda o'zlarini qanday tutishlariga bevosita bog'liqdir. Agar oila faqat diada tipli o'zaro munosabatlargagina tayangan bo'lsa, xavfli, tarang vaziyatlarda ular o'rtasidagi munosabatlarning salbiy tomonga o'tib ketish ehtimoli yuqori bo'ladi, ya'ni, masalan, eri bilan urushib qolgan xotin uchinchi himoyachini izlaydi. Mobodo oilada yana uchinchi shaxs, masalan, farzand bo'lsa, bu taranglikning kuchi u qadar sezilmaydi. Agar oilada bitta emas, bir necha farzand bo'lsa, ulardan biri ota-onaga qo'shilib, o'sha emotsional uchburchakni tashkil etadi, ayniqsa, o'smirlik davri qiyinchiliklarini boshidan kechirayotgan boshqa oila a'zosini tarbiyalashda ular uch kishi bo'lib, unga yordam qo'lini cho'zishlari mumkin bo'ladi.

Bouen turli toifali muammoli oilalarni tahlil etib, ulardagi ziddiyatlarning asl sababi – ana shu kabi emotsional uchburchaklikning hosil bo'la olmaganligida, deb xulosa qiladi va shu nuqtai nazardan oilalar tipini quyidagilarga ajratadi:

Er va xotin uzoq vaqt mobaynida ham bir-biriga ko'nika olmayotgan, munosabatlarini oydinlashtira olmagan oila turi. Ular emotsional uchburchak doirasida o'zaro munosabatlarda bir-birlarini ayblash, kamchiliklarini topish bilan ovora bo'ladi, lekin munosabatlariga sira bolalarni aralashtirmaydi. Bouennning fikricha, agar shunday tarang munosabatlariga farzand aralashsa, uchalasi o'rtasida yaxshi,

iliq munosabatlar vujudga kelsa, bunday oila mustahkam bo'lishi mumkin. Aks holda, ota-onadan ayri ravishda bola yashashi, rivojlanishi mumkin, hattoki, uning psixikasiga bunday kemtiklik unchalik zarar etmasligi ham mumkin, lekin oila oiladay bo'lmaydi.

Ikkinchi toifa oilada a'zolaridan biri to'raligicha boshqasiga tobe bo'lib oladi, o'zidagi avtonomiyadan ataylab voz kechadi. Natijada bunday oilada ikkita "yolg'on, yashirin "Men"lar paydo bo'ladi, bir shaxs ikkinchisi ustidan to'la hukmronlik qila boshlaydi. Bunday nikohlar odatda mustahkam bo'lishiga qaramay, uni tashkil etuvchilardan biri – tobe "Men" turli psixosomatik va ruhiy kasalliklarga chalilib boradi, farzandlar ham shu munosabatlarga ko'nikib boraveradi. Aytish joizki, o'zbek oilalari orasida ayni mana shu toifa oilalar ko'p.

Uchinchi toifali oilada o'zaro munosabatlar bir maromda kechaveradi, lekin oilaning mut'e, tobe a'zosi tobora bolalarga bog'lanib, o'zidagi kamchiliklarni, xavotir va qo'rquvni bora-bora bolalarga yuklaydigan, ularni kerak bo'lsa, ayblashga o'rganib qoladi. Bu ba'zan oilaviy nizolarga sabab bo'lishim mumkin. Masalan, agar bola yo nogiron, yoki yagona, erka farzand bo'lsa, barcha nuqsonlar uning shu maqomiga bog'liq tarzda namoyon etilaveradi, onaning kamchiligi bolaning nochorligi yoki erkalatib yuborganlik niqobi ostida yashiriladi. Boshqa bolalarga xos bo'lgan u yoki bu muammo ham ayni shu bir bola tufayli paydo bo'lganday tasavvur etiladi.

Bouen amalga oshirgan tahlillar Amerika muhitidan olinganday tuyulsa-da, oila universal ijtimoiy institut sifatida barcha hududlarda ham umumiy, ham hududiy qonuniyatlarga bo'ysungani sababli, yuqorida qayd etilgan holatlar va oila tiplari bizda ham mavjud. Shuning uchun ham biz misol tariqasida bir nechta nazariy hamda amaliy yondoshuvlarni ko'rib chiqdik. O'zbekistondagi oilalarning milliy o'ziga xosligi bo'lishiga qaramay, insoniyat taraqqiyoti mobaynida shakllangan ijtimoiy institut sifatida unda ham universal, umummilliy jihatlar va ular bo'ysunadigan qonuniyatlarning mavjudligi hech kimga sir emas.

12-MAVZU: OILA PSIXOLOGIYASI FAN SIFATIDA

Oilaviy hayot psixologiyasining fanlar tizimida tutgan o'rni

Oila psixologiyasi ijtimoiy psixologiyaning bir tarmog'i sifatida XX asrning oxirlariga kelib shakllangan. XXI asrga kelib esa uning inson hayotidagi ahamiyati va jamiyat ma'naviyatini barqarorlashtirishdagi roli yanada sezila boshladi. Zero, dunyoning qator mamlakatlari, jumladan, rivojlangan davlatlarda ham oila va nikoh munosabatlaridagi bo'hron, psixoterapevtlar yordamiga muhtojlik kabi holatlar ushbu maskanning muammolarini o'rganish va shu yo'nalishda maqsadli tadqiqotlar, ilmiy-amaliy tadbirlarni amalga oshirish lozimligini uqtirmoqda.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi va ushbu masalaga qarashlar tarixidan shu narsa ayon bo'ldiki, inson, uning kim bilan va qanday yashashi muammosiga qiziqish qanchalik uzoq o'tmishga borib taqalsa, oila psixologiyasining fan tarmog'i sifatida shakllanishi shunchalik navqiron va yosh bo'lib, uning shakllanishi yangi davrga to'g'ri keladi.

Oila psixologiyasi fan sifatida oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh hamda qarindosh-urug'chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a'zolari ijtimoiy xulqining namoyon bo'lishini o'rganadi. Ijtimoiy psixologiyaning amaliy tarmog'i sifatida u nikohga oid ustanovkalarni, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning – mehribonlik, g'amxo'rlik, hamdardlik, hamjihatlik, tobelik, bo'ysunish, etakchilik kabi o'ziga xos qirralarini, oilaviy rollar taqsiomtiva va o'zaro ta'sirning jinsga oid qonuniyatlarini, ota-ona va farzandlar, yaqin qarindosh urug'lar o'rtasidagi hissiy-emotsional bog'liqlikni, oilaviy ro'zg'or yuritish va turmush tarzini tashkil etishga bog'liq bo'lgan psixologik jarayonlarning kechishini tadqiq etadi, o'rganadi. Oilaviy hayot psixologiyasi, shunday qilib, insonlarning qanday qilib o'zaro qovushishlari, birgalikda yaxshi niyat bilan oila – ro'zg'or yuritishlari, bahamjihatlikda hayot kechirishlarini o'rganuvchi fan tarmog'idir. Har bir oila konkret davr, vaqt, zamon va makonda mavjud bo'lganligi sababli, u avlodlararo bog'liqlik, ma'naviy meros, milliy an'analar, urf-odatlar va rasm-rusmlarni saqlovchi noyob inosniy uyushmadir. Shu institut bo'lgani sababli, har bir millat, elat va xalqlarning noyob udumlari asrlar osha saqlanib kelmoqda. Umuman, nikoh deb atalmish qadriyatning mavjudligi va unga avlodlarning e'tiqod qilishi ham oilaning muhim vazifasidir.

Ijtimoiy psixologiya oila psixologiyasini o'rganganda, unga jamiyatning bir bo'g'ini, kichik ijtimoiy guruh sifatida qaraydi. Shu sababli ham konkret izlanishlarda uning paydo bo'lishi, mavjudligiga asos bo'luvchi omillarni va tugashi bilan bog'liq holatlarga e'tiborni qaratadi. Zero, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar bir qarashda emotsional hissiyotlarga asoslanganga o'xshasa-da, aslida bir insonning ikkinchisiga ko'ngil qo'yishi, tanlashi, birgalikda umr kechirishi jarayoni ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarga to'la bo'ysunadi. Ayrim olimlar, masalan, frantsuz tadqiqotchisi Le Ple o'z vaqtida oilada sof psixologik qonuniyatlardan tashqari, ro'zg'orni boshqarish, farzandlar soni va tarkibiga ko'ra oila

byudjetining o'zgarishlarini inobatga olib, uni ijtimoiy iqtisodiy qonuniyatlar maskani deb atashni ham taklif etgan. Uning fikricha, oilaviy o'zaro munosabatlar nihoyatda o'zgaruvchan bo'lib, ular zamon va davr ta'sirida, oila a'zolarining soni va sifatiga bog'liq tarzda tinimsiz sifat o'zgarishlarini boshdan kechirishini, hattoki, er-xotin o'rtasidagi odatiy munosabatlar yillar tazyiqi, jamiyat normalari, sanoatning rivoji yoki ma'naviyatning tanazzuli ta'siri ostida boshqacha tus olishi mumkinligini, ota-ona – bola munosabatlari tizimi, bunda hattoki, otaning avtoriteti ham o'zgarib borishi, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi psixologik masofa yillar o'tishi munosabati bilan uzoqlashib ketishini ta'kidlaydi.

Xorij mamlakatlarida oilaviy munosabatlarga qiziqish o'tgan asrning boshlarida keskin oshdi. Taniqli tadqiqotchi olimlar U.Jems, Ch.Kuli, U.Tomas, F.Znanetskiy, J.Piaje, Z.Freyd kabilar oilaning davrasida ro'y beradigan shaxslararo munosabatlarning xarakteriga alohida e'tibor berishib, bir shaxsning boshqa bir shaxs ta'sirida qanday qilib, o'z sifatlarini takomillashtirishi, o'zgartirishi, tarbiyalanishi kabi qator masalalarni o'rgandilar. Natijada, bu borada olib borilajak ilmiy izlanishlarning naqadar muhimligi o'z navbatida jamoatchilikning diqqat-e'tiborini tortdi. Olimlar oila borasida o'tkaziladigan tadqiqotlar va unda qo'llaniladigan usullarning noyobligini ta'kidlashib, oila tadqiqotlarida rioya etilishi zarur bo'lgan odob normalari haqida ham fikr yuritganlar. Masalan, amerikalik sotsiolog R.Xill va boshqalar oila va nikoh muammosini o'rganishning sarmashaqqat ish ekanligini ta'kidlab, usullarni tanlash va respondentlar bilan ishlaganda quyidagi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risida yozgan:

tadqiqot uchun shunday metodikalarni, izlanish vositalarini topish lozimki, toki u bilan respondentlarga murojaat qilinganda, oilaviy hayotga ziyon etmasin, tadqiqotchi ketgach, er-xotin munosabatlari buzilmasin;

tadqiqotda oila a'zolari bevosita qatnashishi hisobga olinsa, ushbu jarayon ularning nafaqat o'zaro munosabatlariga, balki psixologik holatlari va kayfiyatlariga ham salbiy ta'sir etmasin;

tadqiqotchi ham tirik inson bo'lgani sababli, uning oilaga kirib kelishi, uyda turmush tarziga, odatlar, o'zaro yaqinlik aloqalariga putur etkazmasin.

Darhaqiqat, barchamiz uchun juda yaqin va tanishdek tuyulgan oila va nikoh masalalari bilan shug'ullanadigan olimlarga, oila psixologi yoki pedagogi bo'lib faoliyat yurituvchilarga tashqaridan kuzatuvchilar ular ishini osonday tasavvur qilishadi. Lekin ming afsuski, unday emas. Chunki maktabda ta'lim olayotgan bolaning xulqu-odobi haqida ota-ona bilan suhbatlashish ham oson emas, zero, ota-ona ishdan charchab kelgach, xonadonida birinchidan, bolasining o'qituvchisini kutmaydi, qolaversa, ming mehmonnavoz, sertakalluf inson bo'lsa ham o'qituvchining kutilmagan tashrifidan cho'chish, norizolik, "nima derkin bolam haqida" degan shubha, hadik bo'lishi tabiiy. Xuddi shunday, oilaviy munosabatlarga taalluqli ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchining har qanday oilaga tashrifi xonadon egalariiga yoqavermaydi. Qolaversa, agar respondentlarga taqdim etilayotgan so'rovnoma yoki test o'zaro munosabatlarga, ayniqsa, O'zbekiston sharoitida qaynona-kelin munosabatlariga yoki er-xotinning yaqin munosabatlariga oid bo'lsa, tadqiqotchi ketgach, oila a'zolari o'rtasida "kim taklif etdi, nima maqsadda?" qabiladagi so'rovlar, "tergovlar"ning bo'lmasligiga kim kafolat beradi. Shu bois ham hamisha bizning sharoitimizda oilaviy munosabatlarga oilada tadqiqotlar o'ta odob normalariga bo'ysundirilishi, muammoning nimada ekanligini aniq, samimiy iboralar vositasida tushuntira olish madaniyati katta ahamiyat kasb etadi. Bunda tadqiqotchining qo'lidagi ilmiy "qurol" – metodikalari ham katta ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy psixologiyaning tadqiqot metodlari

Oila psixologiyasining asosiy metodlariga quyidagilar kiradi:

– Kuzatish metodi. Oilaviy munosabatlarni kuzatish deb oilaviy va turmush vaziyatlarida odamlarning tashqi xulq-atvorini idrok etish va muntazam qayd etib borishga bog'liq faoliyatga aytiladi. Odatda tadqiqot o'tkazayotgan psixologning kuzatayotganligini oila a'zolari bilmasliklari, sezmasliklari kerak. Kuzatuv natijalarini qayd etish aniq ko'rgan-kechirganlarni qanday bo'lsa shundayligicha yozib borish yoki esda saqlab qolib, keyin hech bir sub'ektiv xulosa yoki tahlilsiz daftariga belgilab borish tarzida kechadi.

– Konkret vaziyatlarni tahlil qilish metodi. Oila muhitida yoki hayotiy sharoitlarda ro'y bergan voqea-hodisalarni qayd etish unga kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda o'rganayotgan shaxs testlar o'tkazishi, oila a'zolarining biografik ma'lumotlarini tahlil etishi yoki aniq maqsadli so'rov o'tkazishi mumkin.

– So'rov metodi. Odatda psixolog bir xonadonga kirib, hammada birdan so'rov o'tkaza olmaydi, u kim bilan, qachon va qanday maqsadda so'rov o'tkazishi lozimligini aniq bilishi va oldindan tanlovni belgilab qo'ygan bo'lishi lozim. Odamlar tanlab olingach, so'rovnomaga kiritilgan har bir savolning

ifodalanishiga e'tiborni qaraatish lozim. Chunki bir shaxsga juda oson va aniqday tuyulgan savol boshqa bir shaxs uchun qiyin, noqulay, mavhum bo'lib tuyulishi mumkin. Masalan, savolning mazmunini tushinishda uyda o'tirgan beka bilan oila a'zosi bo'lgan pedagog ayol o'rtasida farq bo'lishi mumkin. So'rov odatda bevosita yuzma-yuz ko'rishib o'tkazilishi, telefon orqali yoki pochta orqali yuborilgan yozma savolnoma tarzida o'tkazilishi mumkin. Oila psixologiyasida so'rovnoma tarqatish orqali odamlarning fikrlari, munosabatlarini aniqlash keng tarqalgan.

– Eksperiment. Ushbu usul yordamida bir omil ta'sirining boshqa bir omil yoki holatning kelib chiqishiga turtki bo'lishini aniqlash mumkin. Odatda oilaviy munosabatlar dinamikasini o'rganishda, u yoki bu hodisalar yoki omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda eksperiment usulidan foydalaniladi. Bunda bir necha xonadon eksperimental, ya'ni sinov o'tkazilayotgan guruh hisoblansa, boshqalari nazorat guruhi sifatida saqlanadi, eksperimentdan so'ng, olingan natijalar ikkala guruh misolida qiyoslanadi. Chunki bunday taqqoslash o'tkazilmasa, eksperiment o'tkazilgan guruhdagi o'zgarishlarning salmog'ini qayd etish mushkul bo'ladi. Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi olimlari 2006 yilda mamlakatimizning ayrim xududlarida tanlab olingan guruhlarda o'ziga xos eksperiment o'tkazishgan: mahallada "Oila universitetlari" yoki "Ota-onalar universitetlari" tashkil etib, eksperiment oldidan universitet tinglovchilarining qator masalalarda oilaviy ustanovkalarini qayd etganlar, so'ngra aniq dastur asosida 6 oy mobaynida mashg'ulotlar, davra suhbatlari, ma'rifiy tadbirlardan so'ng yana o'sha so'rovnoma orqali ular fikrlari o'rganilib, natijalari monitoring qilinganda, targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligi qayd etilgan. Bu ham o'ziga xos eksperiment bo'lib, muayyan maqsad va natijani ko'zlaydi.

– Statistik metodlar. Matematik statistikaning qator usullari empirik izlanishlar davomida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning qay darajada ilmiy jihatdan asoslanganligini isbotlash maqsadida qo'llaniladi. Ayniqsa, bir hodisa yoki holatning boshqa bir holat yoki hodisaning oqibati, sababi ekanligini isbot etish uchun statistik metodlarni qo'llash barcha tadqiqotlarning talablaridan biridir. Masalan, oila a'zolarining biror qadriyatlarga nisbatan munosabatlarida yaqinlik, o'xshashlik borligini isbotlash uchun korelyatsion metodlardan foydalaniladi. Masalan, Spirmenning yoki Kendallning korelyatsiya koeffitsientlarini hisoblash usullari bunday sharoitlarda juda qo'l keladi. Yoki olingan empirik raqamlarning ishonchliligi va matematik jihatdan to'g'riligini isbotlash maqsadida tadqiqotchilar Studentning t – mezonini qo'llaydilar. Bunday yondashuv olimning mehnati asoslangan, ma'lumotlari ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

Oilaviy munosabatlarni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari

Yuqorida ta'kidlanganidek, oila va nikoh masalalarini o'rganish bir tomondan oson, jo'nga o'xshasa, ikkinchi tomondan, o'ta murakkab va nozikdir. Bu holat oila psixologiyasi bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlarning o'ziga xos metodologik jihatlarini ajratishni taqozo etadi. Avvalo, bu o'rinda oila va nikoh tushunchalarining o'ziga ilmiy ta'rif berish lozim. Eski falsafiy lug'atlarda "Oila – bu jamiyatning yacheykasi (kichik ijtimoiy guruh), er-xotinlik hamda ota-onalik munosabatlarini tiklash orqali shaxsiy turmush tarzini tashkil etishning muayyan ko'rinishi, ya'ni, bir erda umumiy ho'jalik yuritadigan er va xotin, ota-onalar va farzandlar, aka-ukalar va opa-singillar hamda boshqa qarindoshlarning birgalikda yashashini ifodalovchi muhim bo'g'in" deb ta'rif berilgan. Bu kabi ta'riflardan oilaning 4 ta muhim tavsifi kelib chiqadi:

- Oila – jamiyatning bo'g'ini (kichik ijtimoiy guruh);
- Oila – shaxsiy yashash tarzini tashkil etish shakli;
- Oila – er-xotinlarning birlashuvi;
- Oila – er-xotinlarning boshqa yaqin qarindosh: ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari, momolar va bobolar, farzandlar va ularning farzandlari bilan ko'pqirrali munosabatlar o'rnatish imkoniyati.

Tadqiqotlarda eng muhim metodologik tamoyil shundan iborat bo'ladiki, oilani o'rganayotgan shaxs uni oddiy oila a'zolari yig'indisi sifatida emas, balki barcha oila a'zolari o'rtasida murakkab va serqirra munosabatlar tizimi mavjudligini, ular har bir a'zoning berajak javoblarida aks etishini unutmaslik kerak. Ya'ni, oila va undagi munosabatlar hamisha tashqi psixologik ta'siri komida bo'ladi. Unga kichik ijtimoiy guruh sifatida qarash esa, kichik guruhga xos bo'lgan deyarli barcha ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarning borligi va ular har bir oila a'zosining maqomini belgilashini inobatga olishni taqozo etadi. Aslida umuman jamiyat miqyosida olib qaralganda, oila, ayrim olimlar (G.M.Andreeva, A.I.Zaxarov, V.S.Toroxtiy, N.Ya.Soloveva va boshqalar) ning haqli e'tirof etishlari bo'yicha, bu – birlamchi guruhdir. Ya'ni, birlamchi guruhga xos bo'lgan emotsionallilik, munosabatlarda rasmiylik va norasmiylikning uyg'unlashuvi, ijtimoiy-psixologik muhitning insoniy munosabatlarga bog'liqligi va h-zolar oilaviy munosabatlarga ham xosdir.

Shu bois ham oila yo`nalishida o`tkaziladigan tadqiqotlarda uning ijtimoiy guruh sifatida o`zigagina xos bo`lgan sifatlari, xususiyatlari borligini unutmaslik lozim. Bular quyidagilar:

bir emas, bir necha umumiy maqsadlarning bo`lishi; ya'ni, agar mehnat jamoasida a'zolari birlashtiruvchi yagona maqsad tan olinsa, oilada bunday maqsadlar bir nechta ham bo`lishi mumkin va ular oilaviy hayot mobaynida o`zgarib ham turadi. Masalan, yaxshi niyat bilan birgalikda yashash maqsadiga keyinchalik sog`lom farzand ko`rish, o`g`il bola bo`lsa, sunnat to`yi qilish, farzandni maktab ta'limiga tayyorlash, to`y qilish, uylantirish kabi qator yirik maqsadlar va orzu-havaslar paydo bo`laveradi, oilaviy hayotning mazmuni va uning jozibasi ham ana shu kabi maqsadlar va ularni amalga oshirishda er-xotin inoqligi, hamfikrligi bilan belgilanadi;

oila a'zolari manfaatlari, qiziqishlari va intilishlari muayyan tafovutlar va kelishmovchiliklarning tabiiy holat ekanligi; ayniqsa, bu oilada katta avlod vakillari ustanovkalari bilan ularning farzandlari o`rtasidagi ziddiyatlarda ham ifoda etadi (avlodlararo ziddiyat), ko`p holatlarda bu kabi tafovut yoki ziddiyatlar konstruktiv xarakter ham kasb etadi;

alohida yashaydigan oilada er-xotin munosabatlarining boshqa munosabatlarga sezilarli ta'siri, masalan, farzandlarning tarbiyalanganlik darajasiga;

oilaviy murosa yoki hamjihatlikka boshqa qarindoshlar, masalan, keksalarning ta'siri;

oila a'zolari o`rtasida hamkorlik faoliyati va uning samrasi unchalik sezilmasligi, masalan, oilada erting o`z o`rni va mashg`ulotlari, ayolning o`z o`rni va vazifalarining bo`lishi va har doim ham birga bir ishni qo`shilib ketmaslik. Oilaviy xasharlar yoki boshqa tadbirlar bundan iste'sno;

muomala va o`zaro hurmat normalarining katta ahamiyatga ega ekanligi, hamisha bir-birining ko`ngliga qarashning oila mutahkamligi omili ekanligi;

oilada o`zaro sir, yashirin, xufyona ishlarning oilaviy munosabatlarga salbiy ta'siri.

Yuqorida ta'kidlangan holatlar oila tadqiqotlarini o`tkazuvchilarni sof ijtimoiy guruhlarda o`tkaziladigan izlanishlarga qo`llaniladigan tamoyillardan biroz chekinishlarini talab qiladi. Ya'ni, oila o`ziga xos insoniy munosabatlar mujassam bo`lgan noyob maskandir.

Nikoh esa er-xotin va boshqa yaqin qarindoshlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni tartibga soladigan ijtimoiy institut bo`lib, O`zbekistonda nikoh munosabatlari 1998 yilda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Oila Kodeksi" bilan reglamentatsiya qilinadi. Bevosita nikoh borasida tadqiqot olib boruvchilar va ushbu sohada o`zgarishlar qilishni niyat qilganlar. Avvalo, ushbu qonun hujjatini yaxshi bilishlari va uning milliy qonunchiligimiz normalari doirasida amal qilinishini tahlil eta olishi zarur. Qonuniy nikoh FXDYo bo`limlariorqali rasman qayd qilingan taqdirdagina er va xotin va ularning farzandlari o`rtasida serqirra o`zaro munosabatlar tartibga solingan, xotinning va u tuqqan farzandning barcha huquqlari, jumladan, mol-mulk va moddiy ne'matlarga nisbatan munosabatlarlari qonuniylashtirilgan hisoblanadi. Ayna shu ma'noda oila a'zolarining hayotiy maqomlari va munosabatlarini quyidagi sxemada tasavvur etish va tahlil etish mumkin:

- Ichki nazorat – tashqi nazorat;
- Egoizm – sotsiotsentrizm (xudbin yoki sahovatlilik);
- Ijtimoiy normalarga bo`ysunuvchan – faqat o`zini o`ylaydigan;
- Ziddiyat va qarama qarshiliklarga nisbatan murosasozlik – ularni rad etish;
- O`ziga ishonch – ishonchning yo`qligi.
- Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, oila-nikoh munosabatlarini o`rganganda ushbu tamoyillarni nazariy-metodologik asos sifatida qabul qilish mumkin.

Jinsiy farqlar psixologiyasi: gender tadqiqotlarning xususiyatlari

Prezidentimiz I.A. Karimov rahnamoligida hukumatimiz tomonidan oila, davlat va jamiyat qurilishlarida ayollarning rolini kuchaytirish, ularning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish maqsadida 2004 yil 25 mayda imzolagan "O`zbekiston xotin-qizlar qo`mitasi faoliyatini qo`llab-quvvatlashning qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risidagi" Farmoni va xukumatning bu borada 299-sonli qarori qabul qilinib, ularda ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan, psixologiya fani oldiga dolzarb muammo sifatida gender muammolarini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq qilishni yo`lga qo`yish vazifasi belgilandi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O`zbekiston o`z mustaqil siyosatiga ega bo`lgan mamlakat sifatida jahon hamjamiyati bilan har tomonlama manfaatli hamkorlikni yo`lga qo`ygan, xususan, oila va xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikda yurtimizda gender tenglikni kafolatlagan davlatlar sirasiga kiradi. Jumladan, O`zbekiston 1995 yildayoq "Xotin-qizlar kamsitilishining barcha ko`rinishlari oldini olish bo'yicha CEDAW Konventsiya"sini ratifikatsiya qilgan va bu boradagi xalqaro talablarni, ushbu yo`nalishda Milliy Harakat dasturini

bosqichma-bosqich bajarib kelayotgan mamlakatdir. Albatta, fuqarolik jamiyatini birdan, bir kunda qurib bo'lmaganidek, yurtimizda gender tenglik qonunlar to'liq kafolatlanganligiga qaramay, amalda erkaklar va ayollar tengligini ta'minlashda muayyan qiyinchiliklar yo'q emas. Bu, bir tomondan, milliy an'analarimiz, urf-odatlar va jamiyatimizda jinslararo tenglik masalasiga qarashlardagi o'ziga xoslik bilan tushuntirilsa, ikkinchi tomondan, qonunlar, jumladan, Xalqaro normalarning butun Er yuzida birdan va so'zsiz ijrosini ta'minlashning imkoni yo'qligi bilan izohlanadi. O'zbekiston barcha rivojlangan mamlakatlar singari jamiyatda gender tengligini ta'minlashda taraqqiyotdagi tadrijiylik va rivojlanishning bosqichma-bosqich ro'y berishini inobatga olgan holda odil siyosat yuritadi. Bu kabi masalalarni echishda avvalo, kelajagimiz vorislari bo'lmish yoshlarda to'g'ri tasavvurlar va bilimlarni shakllantirish, shu orqali jinslararo muloqotga va oilaviy hayotga tayyorlash davrimizning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Davr talabidan kelib chiqayotgan bu vazifa o'zbek psixologlari oldiga qator muammolarni qo'yish bilan birgalikda ulardan gender muammolari, jinsiy tafovutlar masalasiga ilmiy jihatdan yondashishni taqozo etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'g'il va qizlarning ijtimoiy tasavvurlarida jinsiy tafovutlarga oid tushuncha, bilim va ko'nikmalar, stereotiplar eng avvalo oilada shakllanadi. Shuning uchun ham oila psixologiyasi doirasida aynan jinsiy tafovutlar va gender muammolari o'rganilishi va amaliyotda qanday ekanligi tadqiq etilishi kerak.

Gender psixologiyasi – psixologiya fanining bir sohasidir. Boshqa sohalar singari u ham o'z tarixiga ega. Ammo bu tarixni XX asrning 70-yillaridan boshlab o'rganish noo'rin deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, uni fenemizme mevasi deyish ham noto'g'ri. Biroq fanning asosiy xizmati zamonaviy psixologik muammolarga jamoatchilik fikrining jalb qilinishi hisoblanadi.

“Gender” atamasi (ijtimoiy jins, madaniyat mahsuli) paydo bo'lganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da (1975 yil), fanda ilgari ham bir qator g'oya va izlanishlar mavjud bo'lib, biz ularni hech ikkilanmay psixologiyaning ushbu sohasiga aloqador deb bilishimiz mumkin. Fan tarixida 5 bosqichni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1) tegishli g'oyalarning falsafiy nuqtai nazardan ishlab chiqilishi (qadimgi davrlardan XIX asr oxirigacha);

2) gender psixologiyasining predmeti va bo'limlarining shakllanishi (XIX asr oxiri XX asr boshi);

3) psixoanaliz Z.Freyd nomi bilan bog'liq “Freyd davri” (XX asr boshi – 1930 yil);

4) yirik eksperimental tadqiqotlarning boshlanishi va ilk nazariyalarning paydo bo'lishi (1950–1980 yillar);

5) gender psixologiyasining jadal sur'atda rivojlanishi: eksperimental tadqiqotlar, empirik faktlarning nazariy tahlil qilinishi, ma'lum metod va etodikalarning adaptatsiyasi va maxsus gender metodikalarning yaratilishi (1990 yildan shu davrgacha).

Ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlar va turli yo'nalish vakillarining feminizm va jinslararo tafovutlar to'g'risidagi fikrlarini umumlashtirib, shuni e'tirof etish mumkinki, ikkita asosiy shart aniqlanganda, jinsiy tafovutlar borligi tasdiqlanadi:

jinsiy tafovutlarning realligini erkak va ayoldagi u yoki bu psixik xususiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi farq kamida 10 % va undan yuqorini tashkil etgandagina tan olish;

hech bo'lmaganda, bir jins 20 % dan kam bo'lmagan ko'rsatkichni namoyish etgan natijalarnigina o'rganib chiqish, ya'ni, bu – erkak yoki ayolda qayd etilgan shaxsiy xususiyatlar yoki xulqqa to'g'ri tavsifnoma berilganini kamida 5-6 nafar tekshirilayotgan insonlar yoki ekspertlar bir ovozdan ma'qullashganda. Ya'ni, metodologik nuqtai nazardan, jinsiy tafovut bor ekanligi ushbu statistik qoidalar rioya etilgandagina tan olinadi.

Mishel Paludining yozishicha, bunugi kunda gender psixologiyasi sohasida asosan androtsentrik qarashlar ustivorligi kuzatilmoqda. Ya'ni, ikkala jins vakilida ham bir-biridan tomoman farq qilmaydigan, ikkalasida ham kuzatish mumkin bo'lgan psixologik xususiyatlar kuzatilmoqdaki, bu ularning eng avvalo oila va nikoh masalalaridagi qarashlar uyg'unligidan kelib chiqadi. Lekin metodologik jihatdan olimning ta'kidlashicha, baribir, aynan ayolga xos sifatlar normasi haqida gap ketganda, baribir ular erkak sifatlarining standarti asosida tahlil etiladi. Aslida dunyo miqyosida ahloq, muvaffaqiyatlarga intilish motivatsiyasi kabilar o'rganilganda, asosan bu masalalar erkaklar va o'g'il bolalar misolidagina o'rganiladi. Agressiya bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning 50 foizida faqat erkaklar, 10 foizida ayollar, qolgan 40 foizida ham ayol, ham erkaklar birgalikda ishtirok etgan. Umuman, xorijda o'tkaziladigan psixologik tadqiqotlarda ko'proq erkaklar sinalluvchilar sifatida ishtirok etishi ham o'ziga xos holatdir. Bizda esa psixologik hamda sotsiologik tadqiqotlarda ikkala jins vakillari teng, yoki aksariyat oila tadqiqotlarida qizlar va katta yoshli ayollar qatnashadilar.

Amerikalik tadqiqotchi Devid Mayers jins, genlar va madaniyat masalalarini o'rganar ekan, genderni – erkaklik va ayollik xususiyatlarini tavsiflovchi tushuncha sifatida, Paludidan farqli, jinsiy

tafovutlarni o'rganish xotin-qizlarning erkaklarga nisbatan anchagina masalalarda ustunlikka ham ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, ayollardagi tajovuzkorlik, agressiyaning kamligi, o'zgalarga g'amxo'rlik va o'zgalar tashvishlariga nisbatan befarq bo'lolmaslik, hamdarliklari aynan ularning jamiyatda tutgan foydali mavqelarini belgilashi mumkin. Aynan ayollar, boshqav tadqiqotchilarning fikricha, insonlar bilan bo'ladigan munosabatlarda iliqlik, yaqinlik tarafdorlaridir (Nancy Chodorow, Jean Baker Miller, Corol Gilligan va boshqalar).

Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, jinsiy tafovutlar aynan yoshlik chog'idanoq namoyon bo'la boshlaydi. O'g'il bolalar, masalan, yoshlikdanoq mustaqillikka intilsa, qiz bolalar o'zaro bog'liqlikka, kimlar bilandir birga bo'lishga intiladi. Agar o'g'il bola ko'proq ko'pchilik ishtirok etadigan o'yinlarni afzal ko'rib, ko'chaga chopsa, qizlar kichikroq tengqurlar guruhida jipslikda o'ynashni, o'yin chog'ida ham bir-birlariga hamdardlik ko'rsatish, tushunishga intiladi, agressiya ular muloqotida kam bo'ladi (Lever, 1978).

Inson ulg'aygan sari jinsiy tafovutlarning namoyon bo'lish ko'lami ham kengayib boradi. Buni ta'kidlovchi tadqiqotlar xorijda, Rossiyada va MHD mamlakatlarida ko'plab o'tkazilgan. Ularda xotin-qizlarning erlaridan farqli juda ko'p jihatlari ajratilib, ularning tashqi ijtimoiy muhitga munosabatlari – hamdarliklari, o'zgalar bilan muloqotga intiqliklari, muomalada o'ziga xos taktikaga ega ekanliklari kabi o'nlab yo'nalishlar eksperimentlarda isbotlandi. Masalan, Eagly va Johnson (1990) izlanishlarida odamlar bilan muomalada erkaklar ko'proq avtoritarlikni, xotin-qizlar esa demokratizmni namoyon qilishi isbotlangan. Boshqaruvda erkaklarga do'q qilib, direktiv ohangda boshqarish, qarorlar qabul qilish ma'qulroq bo'lsa, ayollarga – “komanda, jamoa ruhi” bilan jamoatchi lider bo'lish osonroqdir.

Rossi va Rossi (1990) tadqiqotlari oilaga nisbatan gender ustanovkalarga bag'ishlangan bo'lib, ayollar – onalar, opalar, qizlar va buvilar tasavvurida oila bu muayyan yaxlitlik, birlik ramzi ekanligi va shuning uchun ham asosan vaqtlarini farzandlariga, ayniqsa, ular maktabgacha yoshda bo'lgan vaqtlarida hamda keksaygan insonlarga bag'ishlashi mumkinligi o'rganilgan. Tug'ilgan kunlarga ham ayollar erlaridan farqli ko'proq sovg'a-salom, otkritkalar xarid qilishi, bu ishlarga bemalol pul sarflayverishi mumkin. Fotosuratlariga qarab, o'zini o'zi baholash vazifasi berilganda, aynan ayollar o'zlarini oila a'zolari davrasida aks etgan fotosuratlarda alohida mehr va jiddiylik bilan tavsiflay olganlar. Ya'ni, oilaga nisbatan ustanovka xotin-qizlarda hamisha ijobiy obrazga ega.

O'zbekistonda ham gender masalasi ko'pincha oila muammolari doirasida o'rganilishi an'anaga aylangan. Qator tadqiqotlarda (E.G'oziev, G'.Shoumarov, V.Karimova, I.Yokubov, B.Qodirov, S.Mirhosilov, E.Usmonov, N.Sog'inov, F.Akramova, L.Karimova, N.Salaeva, O.Shamieva, O.Abdusattorova va b-q.) oilaviy hamda shaxslararo o'zaro munosabatlar doirasida alohida ahamiyat kasb etgan gender tafovutlar o'rganilgan.

Muallifningning oila va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik omillari va oqibatlariga bag'ishlangan asarlarida oilada yoshlarni gender munosabatlarga tayyorlash muammolariga□, gender tasavvurlarning shaxs tarbiyasidagi o'rni (2006) kabi masalalarda e'tibor qaratilgan. Bizning oxirgi tadqiqotlarimizda er-xotin va oiladagi sibling munosabatlarning bola shaxsiga ta'siri, jumladan, erkaklik va ayollik fazilatlarini shakllanishidagi o'rni o'rganilgan, ilmiy xulosalar chiqargan.

Bu kabi ota-ona munosabatlarining farzandlarga gender ta'siri muammosi M.Salaeva (2005) tadqiqotlarining ham predmetiga aylangan. Jumladan, u qo'lga kiritgan xulosalardan biri, “o'zbek oilalarida onalarning otalarga nisbatan farzandlarga o'ta g'amxo'rliqi, ya'ni ularni qiyinchiliklardan saqlash, ziyon etkazib qo'yishdan qo'rqish, farzandning o'ziga bog'langanligi va tobeligini rag'batlantirish, ularda shahvoniylik va tajovujkorlikni bosish kabi xususiyatlarning kuchligi, onalarda otalarga nisbatan demokratiklikning kuchliligi isbotlangan”□.

Gender tafovutlarga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlar reklamadagi ayollar va erkaklar obrazi (A.Dudareva, 2003), o'g'il va qiz bolalarning obrazidan foydalanish samarasi (V.Karimova, 2006, S.Abidov, 2006), er va xotinlarning reklama qilingan mahsulotlarga jinsga oid o'ziga xos munosabatlari (L.Karimova, 2003, 2004) kabi masalalarga bag'ishlangan. O'tkazilgan tadqiqotlar va olingan empirik ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, reklama sohasida kattalar va bolalar obrazidan keng foydalaniladi, lekin ularni idrok qilish va xaridorlik ustanovkalarida aniq ravshan jinsiy tafovutlar mavjud (V.Karimova, S.Abidov, 2005, 2006). Ayniqsa, bola obrazi aks ettirilgan reklamani qizlar va o'g'il bolalardagi jinsiy identifikatsiyaga bevosita ta'siri alohida o'rganilsa, bizning fikrimizcha, ma'lumotlarning tabiiy ahamiyati yanada kuchli bo'lar edi.

L.Karimovanning O'zbekistonda o'tkazgan tadqiqotida oilaning daromadiga ko'ra kimning reklama mahsulotlarining iste'molchisi ekanligidagi jinsiy o'ziga xosliklar aniqlangan. Masalan, u o'z tadqiqoti mobaynida 50 ta er-xotinlar juftligi o'rtasida so'rov o'tkazib, zamonaviy oilada ko'pchigina masalalarda xotin-qizlarning fikri etakchi ekanligini aniqlagan (L.Karimova, 2004). Masalan, “Oilangizda kim pul

mablag'larini taqsimlaydi?" deb berilgan savolga erkaklarning 73%i va ayollarning 51% "men zim" degan javobni berishgan. Lekin "Kuniga uy uchun biror narsa xarid qilishga taxminan qancha vaqt sarflaysiz?" degan savolga esa, erkaklarning 69%i "bilmayman" javobini bergan bo'lsa, ayollarning 71% "bir soatgacha", 7%i 2 soatdan ortiq vaqt ajratishlarini qayd etishgan. "Reklama qilingan xo'jalik mollarning sotib olasizmi?" deb berilgan savolga 14 foiz erkaklar va 32 foiz ayollar ijobiy javob bergani holda, 58% erkaklar "yo'q" javobini berganlar. Shundan tadqiqotchi ularning reklama qilinayotgan mahsulotlarga ishonchini aniqlaganda, erkaklarning 45 foizi va ayollarning 48 foizi ishonishini qayd etganlar. Demak, reklama qilinayotgan mahsulotlar dunyosida xotin-qizlarning faolligi bugungi kunda erkaklarnikidan ancha yuqori. Demak, zamonaviy oila bekalari oilaviy daromadning taqsimoti va uni nimaga ishlatish masalalarida ham etakchilikka da'vo qiladilar. Chunki uy bekalari uy yumushlarini bajarishda ko'proq xo'jalik mollardan foydalanadi, farzandlarini yuvib-tarash va ularni bog'cha yoki maktabiga zarur bo'lgan narsalarni ham yaxshiroq bilgani sababli, reklama qilinayotgan tovarlarning eng yaxshisini va arzonini xarid qilish tarafdori ham bo'lib boradi. Bu holatni milliy reklama kompaniyalari inobatga olishlari kerak.

Shu kabi ishlarida O'zbekistonda muayyan ijtimoiy-psixologik muammo tadqiq etilganda, gender tafovutlarga e'tibor berish tobora an'anaga aylanib bormoqda. Lekin alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda psixologlardan tashqari, faylasuflar, sotsiologlar, tarixchilar, siyosatshunoslar, huquqshunoslar ham bu muammoni chetlab o'tmaganlar. Jamiyat va oila ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni va roliga bag'ishlangan qator anjumanlar, monografik tadqiqotlar, dissertatsiyalar aynan shu muammoga bag'ishlangandir. Masalan, yosh tadqiqotchi O.Abduvattorova (2007)ning dissertatsion izlanishi bu borada alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda o'smir yoshli o'g'il va qiz bolalardagi gender tasavvurlarga bog'liq jinsiy identifikatsiyani aniqlash va bunda oila muhitining rolini asoslash uchun ijtimoiy psixologiyada qo'llanilgan qator ishonchli metodikalardan foydalanilgan va empirik izlanish ham ota-onalar, hamda ularning o'smir yoshli farzandlari o'rtasida o'tkazgan. Alohida ta'kidlash joizki, ota-onalar o'rtasidagi o'tkazilgan test va so'rovlar ularning gender ustanovkalarini va liderlik maqomlarini aniqlashga imkon bergan bo'lsa, farzandlari o'rtasida olib borilgan empirik tadqiqot otalik va onalik gender maqomlarining qizlar va o'g'il bolalarda o'ziga xos ustanovka shaklida identifikatsion jarayonlar yo'nalishini belgilashini isbot qildi. Zamonaviy o'zbek oilasidagi erkaklar va ayollarning o'zaro munosabatlarida ayollar mavkeining mustahkamlanib borayotganligi, ularning liderlik pozitsiyalarida hamda turmush o'rtoqlarini hamkor va sherikchilik munosabatlari tizimida ko'rishni afzal ko'rishlarida namoyon bo'ldi. Shu sababli ham bu holat ularning o'z jinslarini va turmush o'rtog'idagi qarama-qarshi jinsga nisbatan ustanovkalarini belgilaydi. Tadqiqot zamonaviy erkaklar va xotin-qizlarning ayollik va erkaklik obrazlarida femininlik hamda sof maskulinlik sifatleri ko'proq androgenlik sifatlariga o'rin berayotganligini, qizlarda maskulinlik sifatleri ham tobora sezilarliroq namoyon bo'layotganligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, yurtimizda gender tadqiqotlari uchun keng yo'l ochilgan va ularda oila va oilaga nisbatan ijtimoiy ustanovka ustivor masala sifatida qaraladi.

13-MAVZU: OILAVIY SOTSIALIZATSIYA

Oila va tashqi ijtimoiy muhit

Ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya tushunchasi sof ijtimoiy-psixologik va sotsiologik kategoriya bo'lib, bu shaxsning uni o'rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, uning norma va qoidalarini o'zlashtirishga moyilligi, o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Bu tushunchaning umumiy ma'nosida insonning tug'ilib, o'zini bevosita o'rab turgan tashqi muhit ta'sirida ulg'ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi yotadi. Oila muhiti har bir shaxs uchun ana shunday birlamchi, dastlabki ijtimoiylashuv o'chog'i, maskani hisoblanadi. Ijtimoiylashuvning ikkilamchi maskanlari ham mavjudki, unga Mehribonlik uylari, maxsus internatlar hamda harbiy bilim yurtlari kiradi. Chunki u erda nisbatan uzoq vaqt mobaynida bola tarbiyalandi, o'sha erning normalari, qadriyatlari va talablari ta'sirida dunyoqarashi shakllanadi, shaxs bo'lib etiladi. Agar dastlabki yoki ikkilamchi sotsializatsiyadan chekinish, undan mahrum bo'lish yoki xulqning tashqi salbiy ta'sirotlar natijasida deviant shaklga kelishi qayd etilsa, unda ilmiy tilda aytganda, resotsializatsiya deb nomlangan jarayon nazarda tutiladi.

Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta'sirida birinchidan, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o'ziga yarasha sifat va fazilatlarini shakllantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama etuk, barkamol, aqlli, soh va salomat shaxs bo'lib etishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga,

o'ziga o'xshash shaxslar bilan muros qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo'lish, muomalada ahloq-odob normalariga bo'ysunishga o'rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Rus sotsiolog olimi A.Antonovning ta'kidlashicha, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta'sirlarini ko'rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, xulq andozalarini egallaydi. Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo'lsa, uning normativ ta'siri ham shunchalik samarali bo'ladi. Bunday oilada o'zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va normalar hurmat qilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o'rgatilgan bo'ladi. Uning ahamiyati shundaki, farzand maktabgacha tarbiya muassasasida ham, keyinchalik maktab, kollej yoki litseyda o'qiganda ham tartibli, intizomli, aytilgan vazifa, berilgan topshiriqlarni mas'uliyat bilan vijdonan bajaradigan bo'lib, bolalar jamiyatida hamisha o'zining o'rniga ega bo'la oladi. Bunday farzandga turli bid'atlar, bemaza chaqiriqlar, da'vatlar ta'sir etmaydi, mustqil fikrli, pok vijdonli inson bo'lib etishadi. Chunki, oila bu kichik jamiyat, jamiyatning kichiklashgan andozasi, oila mustahkam bo'lsa, jamiyat ham mustahkam bo'lishini o'zbek xalqi juda yaxshi biladi, shuning uchun ham ayniqsa, mustaqillik yillarida oila bizning Vatanimizda qadrlanadi, nikoh muqaddas rishta sifatida e'zozlanadi.

Albatta, bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi boshqa ijtimoiy omillar ham mavjud. Masalan, jamiyat miqyosida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatning yoshlar siyosati, ta'lim muassasalari va u erlardagi ta'lim va tarbiya standartlari, diniy muassasalar (machitlar), bozor munosabatlari kabi qator jarayonlar ushbu masalaning mazmun va mohiyatini belgilaydi. Yuqorida aytilgan resotsializatsiya jarayonidan tashqari, oila muhitining o'zi ham ayrim holatlarda salbiy ma'nodagi ijtimoiylashuvga aloqador bo'lib qolishi mumkin. Olimlar o'tkazilgan qator tadqiqotlar asosida ana shunday omillarning to'rt guruhini ajratganlar:

- ota-onalar o'rtasida murosning yo'qligi, oilaviy o'zaro munosabatlarni mustahkamlash borasida aniq belgilangan ahloqiy tamoyillarning mavjud emasligi;
- ota-onalarning ruhiy nosog'lomligi va qonunbuzarligi;
- yashash sharoitlarining yaxshi emasligi, bolaning to'laqonli o'sishi, dars tayyorlashi, jismonan chiniqishi uchun sharoitlarning etarli emasligi;
- maktab sharoitining talab darajasida emasligi;
- mahalla xududida oila obro'sining yaxshi emasligi, notinch, noqobil oila maqomiga egalik;
- global axborotlashuv sharoitida turli axborot manbalari, jumladan, Internet tarmog'i orqali bola ongiga etib kelayotgan turli ma'lumot, ig'vo, uydirma, mish-mish, oila qadriyatlariga zid axloq namunalari va boshqalar oxirgi yillarda bola ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy omillar jumlasidandir.

Yuqoridagi holatlar ayniqsa, globallashuv davrida oila institutining bola sotsializatsiyasi va ijtimoiy tarbiyasidagi o'zni nechog'li sezilarli ekanligini isbotlamoqda.

Oilada ijtimoiy tarbiyaning bosqich va vositalari

Ijtimoiy tarbiyaning asl ma'nosi ham, vazifasi ham boladagi ijtimoiy faollikni oshirish orqali, undagi ijobiy fazilatlarini kamol toptirishdir. Odatda oilada ijtimoiy faollikni oshirish bola irodasini chiniqtirish orqali amalga oshiriladi. Chunki ko'pincha ota-onalar bolalarining aqlli, farosatli bo'lib etishlariga e'tibor berib, uning ruhiyatini hamda jismoniy quvaatini oshirishga, irodasini mustahkamlashga bee'tibor qoladilar. Buning oqibatida bola turmush suqmoqlarida tez qoqiladigan, turli ijtimoiy vaziyatlarda qiyinchiliklarni engay olmaydigan, ruhiyati mo'rt bo'lib katta bo'ladi. Shuning uchun ham oilaviy ijtimoiylashuvda bolaning ijtimoiy bilimdonligi, ijtimoiy ko'nikmalar va ularni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarga alohida urg'u beriladi.

Mutaxassislar oilaviy sotsializatsiyaning bosqichlari, funktsiyalarini tafovutlash bilan birgalikda uning har birida o'ziga xos ijtimoiylashuv usullari ustivor bo'lishini ham ta'kidlaydilar. Masalan, rus sotsiologi N.Andreenkova ijtimoiylashuv jarayonini ikki katta bosqichda tasavvur qiladi. Uning birinchi bosqichi – individning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishini ta'minlovchi hayot bo'lagini o'z ichiga olib, u inson hayotining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi. Bu davrda asosan bolaning:

- *dastlabki ilk sotsializatsiyasi (bolalik davri);*
- *normativ xulqning marginal jihatlarini o'zlashtirish davri (o'smirlik davriga to'g'ri keladi);*
- *o'spirinlikdan balog'at yoshiga o'tish davrini o'z ichiga olgan ijtimoiylashuv oqibatlari yaxlit namoyon bo'ladigan bosqich.*

Ikkinchi bosqich – shakllanib bo'lgan shaxsning jamiyatda faoliyat yuritishi davrlarini o'z ichiga olgan hayot bosqichi. Bunda shaxs dastlab mehnatga yaroqli jamiyat a'zosi sifatida, so'ngra naqaqa yoshiga etgan inson sifaidagi o'z o'rniga ega bo'ladi.

Ijtimoiylashuvning dastlabki yillarida uning samaradorligi ko'proq yuqorida ta'kidlaganimizdek, oila, undagi ijtimoiy-psixologik muhit va ota-onaning tarbiyachilik burchini qanday ado etganligiga bog'liq bo'lsa, uning keyingi bosqichlarida ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarining roli ortib boradi. Shunga mos ravishda ijtimoiylashuv usullari ham turlicha bo'ladi.

Ko'plab olimlar va oila masalalari bo'yicha mutaxassislarni xavotirga solgan jihat shuki, zamonaviy oila o'zining bola shaxsini ijtimoiylashtiruvchi vazifasini yaxshi va to'liq ado etmayapti. A. Antonovning ta'kidlashicha, zamonaviy oila oilaviy turmush tarzini shakllantira olmayotganligi sababli ham o'zining bola tarbiyasi borasidagi ijtimoiy bilimdonligini namoyon eta olmayapti. Bundan tashqari, G'arb mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlarda aksariyat ayollarda onalik ustanovkalarining yo'qligi, bola tarbiyalash xohishining yo'qligi, qo'ydi-chiqdining bimalol amalga oshirilishi, rasman FXDYo bo'limlarini nikohni qayd etmay yashash (fuqarolik nikohi), ajrimlardan keyingi erkak va ayolning o'zaro yomon munosabatlari bolalarning ijtimoiylashuviga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday er-xotinlarning farzandlari bir tomondan umuman oila institutiga va nikohga nisbatan salbiy qarashlarga ega bo'lib, voyaga etsalar, ikkinchi tomondan, ularning xarakterida asosan xudbinlik, egoizm, agressivlik kabi salbiy sifatlar egasi sifatida shakllanmoqda. Demak, jamiyatda o'z davriga munosib, sog'lom fikrlovchi yoshlarni tarbiyalab, voyaga etkazishning muo'im omili bu rasmiy nikohda bo'lgan er-xotinlar oilasining bahamjihatlikda yashashlaridir.

Ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllari

Shunday qilib, ijtimoiy tarbiyaning dastlabki o'chog'i oila bo'lib, aynan ota va ona dastlabki ijtimoiy ko'nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charhlovchi insonlardir. Oilaviy munosabatlar bolani naqaqat shaxs sifatida o'zligini anglash, balki o'zini u yoeki bu jins vakili sifatida idrok etish va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishga ham yordam beradi. Bizning kuzatishlarimiz shuni isbotladiki, oilaning to'liq bo'lishi, ya'ni, unda ham ota, ham onaning tinchlik-totuvlikda yashashlari va unda normal insoniy munosabatlar, sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi, sog'lom, aqlli, kuchli iroda sohibi bo'lib etishiga imkon beradi. Bolaga ham otaning ham onaning bo'lishining zarurati shu bilan izohlanadiki, masalan, qiz bola onasi va uning oilada o'zini tutishiga qarab, o'zini ayollar jinsiga taalluqli ekanligini anglashdan tashqari, kelajakda qanday ona bo'lishini tasavvur qilsa, otasiga, uning onasiga bo'lgan munosabatiga qarab, o'zini kelajakda oila qurganda qanday oila sohibasi bo'lishi lozimligini anglab boradi. Xuddi shunday, o'g'il bola onasining fazilatlarini, oiladagi tutimi va otasiga munosabatini idrok qilib borar ekan, kelajakda qanday qiz bilan turmush qurish mumkinligi, tanlaydigan qizi qanday sifatlar sohibasi bo'lishi lozimligini bilib borsa, otasi va uning oilada mavqeiga qarab, o'zini erkak sifatida kelajakda tasavvur qilish bilan birgalikda turmush o'rtog'iga qanday munosabatda bo'lish lozimligi to'g'risida bilim va tasavvurlarini orttirib boradi. Bu psixologik qonuniyat bo'lib, shaxsning oiladagi shaxsiy va jinsiy sotsializatsiyasining etakchi tamoyili hisoblanadi. Shu bois ham bolaning tom ma'noda yaxshi tarbiya olib, jamiyatda va oilaviy munosabatlarda munosib mavqega ega bo'lishi uchun oila muhiti sog'lom, barqaror, er va xotin bir-birlariga g'amxo'r, mehrli va asadoqatli bo'lishlari o'ta muhimdir.

Demak, oila bolaning ijtimoiy munosabatlarga tayyor bo'lishida muhim ahamiyat kasb etgan pedagogik muhitdir. Shu bois ham olimlar oilaning eng muhim va dastlabki vazifalaridan ham birini tarbiyalovchi funktsiya ekanligini doimo e'tirof etadilar.

Oilaviy sotsializatsiya jarayonini bir tomonlama, ya'ni, farzandlar tarbiyasidagi roli bilan cheklash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki ayniqsa, yosh oilada nikohdan so'ng er va xotin boshqa oila a'zolari jamiyatida xohlasa-xohlamasa o'z-o'zidan tarbiyalanib, xarakter xislatlarini o'zgartirib boradilar. Masalan, ilgari tortinchoq, uyatchan, ikkilanuvchan yigit, uylangach, turmush o'rtog'i nigohida obro'si mehr-muhabbat tufayli oshgan sari, o'zida kuch-qudratni, irodani sezib, dadil, faol, o'ziga nisbatan ijobiy fikrli, aqlli, bosiq bo'lib borishi tabiiy. Kelinchak ham yangi xonadon sharoitiga ko'nikib borgan sari, uning an'analarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtirib borgan sari, turmush o'rtog'ining mehrli muhabbati, qaynnona va qaynotaning g'amxo'rliqi, e'tiborliliqi oqibatida yanada iffatli, sermulohazali, ziyrak va farosatli bo'lib, o'zidagi ilgari mavjud ayrim salbiy xarakter sifatlaridan qutulishi ham mumkin. Bu – er va xotin uchun oila muhitining yangi bosqichdagi ijtimoiylashuv maskani sifatidagi o'rnini isbotlaydi.

Lekin ayrim oilalarda er va xotin o'rtasida samimiy, iliq munosabatlarning yo'qligi, tashqi tomondan nomiga oila qurganliklari, ma'nan esa bir-birlariga nisbatan beganoday qolganliklari bois bu erda o'zaro munosabatlar hamisha tarang, yuzaki bo'lib boradi. Tabiiy, bunday munosabatlar nafat ularning o'ziga balki ularni o'rab turgan boshqa qarindoshlar, ayniqsa, farzandlarga faqat salbiy ta'sir etadi, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga to'g'anoq bo'lishi ham mumkin. "Ko'cha bolalari", "tarbiyasi og'ir bolalar", voyaga etmay turib jinoyatga qo'l urgan o'smirlar aksariyat holatlarda aynan

shunday oilaviy muhitning qurbonlari hisoblaandi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bolaning ijtimoiylashuvi jarayonida maktabgacha tarbiya maskanlari, maktabning roli va ahamiyati ham bor. Lekin ulardagi ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi eng avvalo, oilaviy tarbiyaga bog'liq ekanligini, "Qush uyasida ko'rganini qiladi" maqolining mohiyatini hamma biladi. Maxsus tarbiya maskanlari oldida oiladagi ijtimoiylashuvning afzalligi shundaki, oiladagi barcha o'zaro munosabatlar tabiiy muhitda, inosniy munosabatlar tamoyiliga asoslanib amalga oshiriladi. Qolaversa, o'rtacha O'zbekistondagi oilalarda 3-4 nafardan farzand bo'lsa, ikki ota va ona uchun ularga etarli e'tibor berish uchun imkoniyat kengroq, maktab yoki bog'chada esa guruhlardagi bolalar soni ko'p va ta'lim-tarbiya jarayoni maxsus dasturlar va aniq rejim asosida amalga oshirilgani uchun bolalarning bir tekisda rivojlanishi va kamol topishi uchun etarli bo'lmaydi. Demak, oilaviy sotsializatsiyaning samaradorligi oila bilan boshqa tarbiya maskanlari o'rtasida o'rnatilgan hamkorlikdagi uyg'unlikka bevosita bog'liq.

Oila, maktab, pedagog hamkorligi

O'sib kelayotgan avlodning jamiyat normalarini to'la qonli qabul qilishi, o'z davrining yaxshi va kerakli kishisi bo'lib etishishi oilaning boshqa rasmiy tarbiya maskanlari bilan o'rnatadigan to'g'ri munosabatlari bevosita bog'liq. Ijtimoiylashuv jarayonida maktabgacha ta'lim muaasasalarining o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabgacha ta'lim muaasasalarining xodimlari bolaning ota-onasi bilan bevosita, har kuni muloqotda bo'ladi va ular maktab ma'muriyatidan fraqli ikki xil funktsiyani bajaradi: rasmiy va norasmiy. Undan tashqari, tarbiyachining o'zi ota-onaga nisbatan ikki xil holatda bo'ladi – rasmiy tarbiyachi va samimiy, e'tiborli suhbatdosh tarzida. Lekin oila a'zolari bilan maktabgacha ta'lim muaasasalarining xodimlarining bitta bola tarbiyasidagi ishlarini uyg'unlashtirish, yaxshi samaraga erishish unchalik oson ish emas. Chunki ikkala tomon bir-biriga ishongan taqdirdagi ular o'rtasida samimiy muloqot bo'lishi va tarbiyada ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Bunday muvaffaqiyatli munosabatlarning bir qator psixologik tamoyillarini ajaratish mumkin:

- avvalo, tarbiyachi ota-onaga farzandini faqat yaxshi tomondan ko'rsata bilishi lozim. Ya'ni, boqchadagi bolaning obrazi ota-ona uchun ijobiy bo'lsagina, ular farzandini xonadonidan yaxshi kayyait bilan olib keladi va uyga qaytayotganda ham tarbiyachi bilan iliq xayrlashib, bolaning ham uni hurmat qilishi va mashg'ulotlarga aytganlariga quloq tutishi lozimligiga o'rgata oladi. Aks holda ota-ona og'rinib bolasini boqchaga olib keladi va uni maktabgacha ta'lim muaasasasining tartiblarini menismalikka o'rgatib qo'yishi mumkin. Demak, birinchi tamoyil – ota-onaga maktabgacha ta'lim muaasasasidagi bola to'g'risida ijobiy obraz yarata olish;
- maktabgacha ta'lim muaasasalarining tarbiyachilari ota-ona bilan kundalik muloqotda bolaning erishgan yutuqlari, qanday bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lganini ko'rsata olishlari lozim. Masalan, tengqurlari bilan muloqotda o'zini qanday tutgani, do'stlari mavjudligi, berilgan she'r yoki boshqa topshiriqni bugun aynan qay tarzda o'zlashtira olganligi, kimga qanday yordam bera olgani, sotsiometrik maqomi qanday ekanligi hamqida norasmiy tarzda ma'lumot bera olishi kerak. Demak, bolaning yutuqlaridan ota-onani xabardor qilib borish tamoyili ota-ona bilan tarbiyachining hamkorligini mustahkamlaydi.
- tarbiyachi bolaning uydagi xulqi va yutuqlari yoki kamchiliklarini bilib turishi shart. Bu ota-ona bilan ishonchga asoslangan dialog jarayonida aniqlanadi. Chunki tarbiyachi bolaning uyda qanday o'zini tutishi, odat va qiliqlarini bilmasa, unga to'g'ri pedagogik yondashuvni tashkil etolmaydi. Ya'ni, uchinchi tamoyil – bolaning oiladagi, uydagi maqomini bilish.

Yuqoridagilarning bola ijtimoiylashuvida inobatga olinishi maktabgacha ta'lim muaasasalarining oila bilan yagona shior ostida "Keling birgalikda o'rganaylik!" ishlashga va yutuqlarga erishiga imkon beradi. Bunda asosiy manfaatdor tomon va faollik ko'rsatuvchi birinchi navbatda ota-ona bo'lishi lozimligini unutmaslik kerak.

Oxirgi yillarda oilaviy ta'limning ahamiyati ortib bormoqda. Ko'plab mamlakatlarda qator qonun hujjatlari va normativ aktlar qabul qilinganki, ularga ko'ra, ota-onaning xohishiga ko'ra oila muhitida, xonadonda bolaning ta'lim va tarbiyasini tashkil etish mumkin. Bunday tarbiyachilarning qonuniy xaq-huquqlari qonun bilan kafolatlangan. Masalan, "Rossiya Federatsiyasida oilaviy (uy sharoitidagi) ta'lim to'g'risidagi Nizom", "Uyda ta'lim olishning namunaviy Nizomi" kabi hujjatlar mamlakatning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni bilan kafolatlangan bo'lib, unga ko'ra agar ota-ona xohlasa, xonadon pedagogi uyga kelib bola (lar)ga ta'lim beradi. Bu kabi gubernatklar xizmatidan foydalanish, uy enagalarini yollash kabi tajriba ko'plab rivojlangan mamlakatlarda keng quloch yoygan. Yurtimiz O'zbekistonda ham ushbu harakatning dastlabki ayrim ko'rinishlari paydo bo'lgan. Lekin bizda oilaviy ta'lim alohida ko'makka muhtoj, etim, nogiron bolalar uchun tashkil etilgan. Chunki o'zbekistonlik bolalar avvalo

qonunan berilgan imkoniyatlar bois 2-3 yilgacha bevosita onaning ardog'ida bo'lishi mumkin, bu davrda ikki yoshgacha farzandi bo'lgan onaga davlat tomonidan nafaqa ham tayinlanadi. Agar oilada imkoniyat bo'lsa, keyingi davrlarda bola yana onasi yoki buvilari yordamida katta bo'ladi, maktabgacha ta'lim muaasalariga jalb etiladi.

Tug'ilishdan nogironli bo'lgan, maktabga borish o'qish imkoniyati cheklangan bolalarga esa "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, uy sharoitida o'qitish tashkil etilgan. Bunday pedagoglarga qo'shimcha imtiyozlar ham beriladi, ular 6 soatlik dastur asosida nogiron bolaga eng zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni uyda beradilar. Bu ham O'zbekistonning ijtimoiy sohani isloh qilish borasida siyosati bo'lib, yurtimizda birorta bola maktab yoshida ta'limdan chetda qolmaydi.

Normal taraqqiyotli bolalar maktabgacha ta'lim muaasalaridan so'ng maktabga jalb etiladilarki, bu erda ham ta'limning hamda tarbiyaning samaradorligi oila bilan hamkorlikka tayanishi barchaga ma'lum. Shuning uchun ham har bir o'rta maktabda "Ota-onalar Kengashlari" tashkil etilgan, ularga kattagina huquq va vakolatlar berilganki, bu "Maktab – oila – mahalla" kontseptsiyasining amalda ishlashining isbotidir. Lekin bu borada muammrlar yo'q emas, chunki maktab ma'muriyati, pelagolar har doim ham barcha o'quvchilarning oilasi, undagi sharoitlar, ota-onaning bola o'qishiga qanchalik qiziqishi va manfaatdorligini yaxshi bilmaydi, natijada ba'zan aynan maktab yillarida bola psixologiyasi keskin o'zgarib, u deviant xulqlilar toifasiga ham tushib qolishi mumkin.

Ya'ni, mamlakatimizda Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi hamda Ta'lim to'g'risidagi Qonun asosida uzluksiz ta'limning barcha bosqichida yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayoni kechishini unutmaslik, har bir bosqichda uning samarasi ijtimoiylashuv usul va vositalarining to'g'ri va aniq tanlanishi bog'liqligi bilish katta ijtimoiy ahamiyatga molik ishdir. Zero, bola tarbiyasi va to'g'ri ta'limi bo'yicha aniq va asosli bilimlar sohibi bo'lmish o'qituvchining oila bilan aloqasi qanchalik yaxshi va maqsadli bo'lsa, bola tarbiyasi ko'ngildagidek bo'ladi, bu borada aniq tasavvurga ega bo'lmagan yayrim ota-onalar uchun hayot maktabi bo'lib xizmat qiladi

14-MAVZU: OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI


Er-xotin munosabatlarining shakllanishi

Oilaviy munosabatlar attraktsiyasi. Oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladigan murakkab va serqirrali o'zaro munosabatlar ko'plab olimlar, shu jumladan, o'zbekistonlik olimlar (M.Davletshin, G'.Shoumarov, E.G'oziev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog'inov, F.Akramova, G.Yadgarova, M.Salaeva, D.Xoliqov va boshqalar) tomonidan o'rganilgan. Ularda ko'proq o'zbek oilasiga xos urf-odatlar, udumlar, an'analar nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan. Lekin oila institutini ijtimoiy voqelik sifatida uning qonuniyatlarini tahlil etar ekanmiz, bu o'rinda biz oilaviy o'zaro munosabatlarga xos bo'lgan munosabatlarning psixologik tabiatiga, kelib chiqishi va dinamikasiga e'tiborni qaratgan ko'plab tadqiqotlarda ilgari surilgan ma'lumotlarni keltirishni joiz deb bildik. Shu nuqtai nazardan oilaviy munosabatlar fenomenologiyasi ijtimoiy-psixologik izlanishlar ob'ekti sifatida o'rganilgan bir qator tadqiqotlar natijalariga murojaat qilamiz.

Oiladagi ijtimoiy munosabatlar va ularning kelib chiqish qonuniyatlarini batafsil monografik tarzda o'rganganlardan biri rus olimi L.Ya. Gozman (1987) hisoblanadi. U bu qonuniyatlarni ilmiy jihatdan tahlil etish uchun attraktsiya tushunchasini ishlatgan. Attraktsiya inglizcha attraction – tortilish, intilish so'zlaridan olingan bo'lib, u bir insonning ikkinchi bir insonga nisbatan his qiladigan ijobiy munosabatini anglatadi. Har qanday ana shu zayldagi diadik, ya'ni, diada – ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning boshlanishi simpatiya, yoqtirish yoki attraktsiya bilan bog'liqdir.

Gozmanning ta'kidlashicha, juftlik munosabatlarida attraktsiyaga turtki bo'luvchi omillarning eng muhimi – bu sherikning tashqi, jismoniy jihatdan yoqimtoyligi va uning ijtimoiy-demografik xususiyatlaridir. Ya'ni, bir ko'rishda yoqtirib qolish, uning xusniga rom bo'lish kabilar attraktsiyaning dastlabki bosqichi bo'lib, bu aslida odamlar ongidagi bir bid'atga, ya'ni chiroyli odam aqlli va ahloqli bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlarga bog'liqdir. Ayniqsa, bunday tasavvur xotin-qizlarga nisbatan qo'llanilishi isbotlangan. Buni muallif grafik shaklida U – simon egrilik tarzida tasavvur etadi (4.1-rasm).

4.1 – rasm. Yoqtirib qolishning tashqi yoqimtoylikka bog'liqligi




Yoqtirib qolishga turtki bo'luvchi ijtimoiy-demografik xususiyatlarga eng avvalo insonning jamiyatda tutgan o'rnini, ijtimoiy maqomi, ma'lumoti darajasi, kasb-kori, moddiy ta'minlanganligi, millati va diniy e'tiqodi, qayerda, kimlar bilan yashashi kabilar kiradi. Ko'pincha ayni shu belgilar yoki xususiyatlar bilan yaqin bo'lgan insonlar o'zaro bir-birlarini tezroq yoqib qoladilar, chunki o'xshash belgilar yoki ko'ngildagi sifatlarning sherikda, tanishda mavjudligi unga nisbatan ijobiy fikr-mulohazalarning shakllanishiga, stereotiplarning yaxshi ma'noda uyg'unlashishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, yoqtirib qolishga shaxsning qadriyatlari tizimi, hayotdagi maqsadlarining mushtarakligi, bajarayotgan ijtimoiy rollarining yaqinligi, omadlilik kabi qator jiddiy sifatlari ham turtki bo'ladi. Shuning uchun talabaning talabani yoqtirib qolishi, tibbiyot xodimining aynan shu sohada ishlaydigan odamni bir ko'rishda "sevib qolishi", safarda birga bo'lganlarning yoki dam olish maskanlarida tanishib qolganlar o'rtasida romantik munosabatlarning uyg'unishi ehtimoli ko'proqdir.

Bir ko'rishda yoqtirib qolish jarayonining jiddiyroq munosabat-larga aylanishini tushuntirish uchun olimlar "uch filtr nazariyasi"ni ilgari suradilar (4.2 – rasm).

4.2 – rasm. Sheriklik munosabatlarining dinamikasini ifodalovchi "uch filtr" nazariyasi



1-filtr bir insonning boshqa bir insonni bevosita o'ziga qaratishi bilan bog'liq jarayon bo'lib, bunda yangi tanishning tashqi jozibasi, bir qarashda ko'zga tashlanadigan sifatlari (masalan, qiz bolaning sochi uzun, ko'zi moviy, yigitning bo'yi uzun, alp qomat kabi) asosiy rol o'ynaydi. Bunday munosabatlar ko'pchilikka xos, ya'ni aksariyat odamlar turli vaziyatlarda boshqa bir odamni yoqtirib qolaveradi. Agar bir-birini o'zaro yoki bir tomonlama yoqtirish mobaynida sherikning ijtimoiy-demografik xususiyatlari ham kutishlarga mos, ma'qul kelib qolsa, munosabatlar 2-filtrga o'tadi. Agar yangi tanishlarning ijtimoiy-psixologik, shaxsiy xususiyatlari va hayotiy maqsadlari ham bir-birlariga ma'qul kelsa, uyg'un munosabatlar 3-filtrga ham o'tadi. Har bir filtrdan o'tishda sheriklar bir-birlari uchun o'zlarining yangidan yangi qirralarini ochaveradilar. Ya'ni, yangidan topishgan, bir-birini yoqtirib qolgan odamlar

uchun muhim bo'lgan asosiy narsa o'xshashlikni qidirish va ularni inobatga olgan holda o'z munosabatini bildirishga intilishdir. Boshqa bir yo'nalish – bu sherigida o'zida etishmayotgan, o'zida mavjud bo'lmagan sifatni topish va uni o'zidagi sifat bilan uyg'unlantirishga intilish. Masalan, o'zi o'ta tortinchoq bo'lgan qizga dadil, gapga chechan yigitning yoqib qolishi ko'p kuzatilgan.

Uchinchi yo'nalish ikkinchiga yaqin, ya'ni, yangi tanishda o'zidagi mavjud sifatlarning qarama-qarshisini izlash, masalan, yigit kamgap bo'lsa, shaddot, sergap qizni yoqtirib qoladi. Bu kabi kemtiklarni sherigi orqali to'ldirishga intilish, ularga kelajakdagi munosabatlarda anchagina egiluvchan bo'lish va har biridagi yaxshi sifatlarni qadrlashni o'rgatadi.

Romantik sevgida munosabatlarning rivojlanishi

Romantik sevgi – ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi. Olimlarning fikricha, romantik sevgi – eng kam anglanadigan, odamning biologik ehtiyojlari bilan bog'liq munosabatlardir. Bunday munosabatlarning eng muhim jihati shundaki, ikkala tomon ham bir-birlaridan o'zlari ko'rishni xohlagan sifatlarni qidiradi va ko'radi. Shu bois ham ko'pincha romantik his-tuyg'ularga asoslangan munosabatlarning umri qisqa bo'ladi, chunki real xulq-atvor bilan ideal tasavvurlar o'rtasida ziddiyat, nomutanosiblik paydo bo'lishi mumkin. Ayni shu munosabatlarning salbiy oqibatlarini odamni qiynaydi, hayotdan umidsizlikni, boshdan kechirgan hissiyotlari yolg'onligini anglash unda juda qattiq aziyatlarni keltirib chiqaradi. Lekin bir yomonning bir yaxshisi bo'ladi, deganlariday, boshdan kechirilgan azoblar odamni shaxs sifatida takomillashuviga, ichki hissiyotlarning ko'p qirrali bo'lishiga olib keladi. Masalan, tashqi ko'rinishiga bee'tibor bo'lgan qiz bir yigit bilan romantik hissiyotlarga berilib qolib, toshoyna oldidan ketmaydigan, toza, orasta yurishga odatlanadigan, kiyimlarni ham hamisha bejirim kiyishga o'rganib boradi. Sevgilisiga yoqishni astoydil xohlagan yigit esa ayrim zararli odatlaridan, masalan, dangasalik, ko'p uxlash, tamaki chekish kabilardan voz kechib, yangidan turmush tarzini boshlashga azmu-qaror qilishi tabiiy. Yoki institutda o'qishni o'ziga ep ko'rmagan yigit talaba qizni sevib qolib, u o'qiydigan oliygohga ne-ne mashaqqatlar bilan kirib o'qigani bilan bog'liq misollar ham hayotda talaygina uchraydi.

L. Kameron-Benjler (1993) ning fikricha, romantik sevgi hissi rivojlanishining 7 bosqichi bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

1. O'ziga jalb etish – yangi tanishlarning bir-birlariga noverbal belgilar orqali qiziqishi borligini bildirish. Bu davrda sheriklar dilidagi istak va xohishlarini yangi tanishgan odamida mavjudligini tahlil etadi. Bunga odatda asosan odamdagi aql-zakovat, samimiyat, qo'li ochiqlik, yumor hissi, ishonchlik, dadillik, qizlardagi ibo kabi sifatlar sababchi bo'ladi. Bu sifatlar hammaga yoqadigan sifatlar bo'lgani uchun ham yangi tanishlar o'zlarida aynan sherigiga yoqadigan shu sifatlarni namoyon etishga intiladilar.

2. Mashg'ullik yoki rom bo'lib qolish. Bu bosqichda tanishib ulgurgan yoshlar davomli uchrashuvlar natijasida bir-birlaridagi ijobiy sifatlarni anglab, bir-birlariga ko'nika boshlaydi. Faqat e'tibor ijobiy, yaxshi sifatlarga qaratilgani bois sheriklar adashishlari ham mumkin, qolaversa, yangi tanishlar o'zlarini biroz sun'iy tutib, asl qiyofalarini ataylab niqoblashga ham uringanliklari uchun mabodo salbiy sifatlar ham namoyon bo'lib qolgan taqdirda ayrimlar ajrashib ketadilar, ayrimlar esa uchrashuvlarni davom ettiraveradilar.

3. Ko'nikish – munosabatlardagi o'ziga xos yangilikning kamayib borishidir. Endi boshida o'zgacha joziba kasb etgan tashqi ko'rinish, xusn, qaddi-qomat kabilor odatiydek idrok etilib, hissiyotlar tobora kamayib boradi.

4. Kutish – munosabatlarning muayyan bosqichida xayol-fantaziyadagi ideal obraz bilan real, kundalik hayotda tobora namoyon bo'lib borayotgan asl nusxa o'rtasida ayrim ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar ko'zga tashlanishi bilan boshlanadi. Endi tobora kutishlar tizimida ko'ngil qolish, afsuslanish kabi holatlar ham paydo bo'lib, ong sherikdagi ayrim salbiy, yoqimsiz sifatlarni ham idrok qila boshlaydi. Bunga ayni shu davr ichida boshqalar bilan tanishish tajribasi ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, talaba yigitning boshqa bir shaharga olimpiadaga yoki xizmat safariga borishi, u erda o'zgacha nafosatli bir qiz bilan tanishib qolishi unda solishtirish imkoniyatini yaratadi, va qaytib kelgach, uchrashib yurgan qizidan ayni o'sha sifatlarni kutadi, lekin topolmasa, undan ranjli boshlaydi.

5. Ko'ngil qolish – bu shunday bosqichki, unda xayajonli ishq-muhabbat hislari o'rnini alam, g'azab, aldanganlikni anglash egallay boshlaydi, sherik to'g'risidagi ijobiy obraz salbiy obraz bilan almashib boradi. Ko'pchilik yoshlar ayni shu bosqichda bir-birlaridan ajralib qoladilar.

6. Haddan oshish yoki munosabatlar chegarasining darz ketishi – bosqichda sheriklardan biri (ba'zan ikkalasi bir vaqtda) munosabatlarga chek-chegara qo'yish vaqti kelganligini anglab qoladi. Shu fikr paydo bo'lgan ondan boshlab, ular yana bir karra qabul qilingan qarorning nechog'li to'g'ri ekanligini o'ylab ko'rishadi. Odatda bu noo'rin talablarni bir-biriga qo'yish orqali hissiyotlarni tekshirish

orqali ro'y beradi. Masalan, "bu va yana bu takliflarimga ko'nsang, senga uylanaman, bo'lmasa, oramiz ochiq" qabilida.

7. Munosabatlarning tugashi – bir-birlari bilan boshqa sira yuz ko'rishmaslik bilan bog'liq qaror chiqarishdan boshlanadi. Ayrimlar sherigining aybdor emasligini bilib tursa-da, munosabatlarni tugatgisi kelaveradi, ayrimlar esa bir-biridan ko'ngilsiz bo'lib qolgan bo'lsalarda, birgada yashayveradi. Bundaylar o'zaro muomalani keskin kamaytirib, deyarli gaplashmay ham yashayveradi, bunday arazlashlar ko'pincha u yoki bu tomonning depressiv holatini, asabbuzarlikni keltirib chiqaradi. Chunki odatda bunday holatda qolgan shaxs boshqa sevgilisi yo'qligidan yoki yangi tanishlar ham shunday aldab ketishidan, bolasi taqdirini ijobiy xal qila olmasligidan juda qayg'uradi va hatto kasalga ham chalinib qoladi.

Er va xotin o'rtasidagi romantik munosabatlar yoki ishq-muhabbat aslida bir insonning boshqasi ustidan doimiy hukmronligi, bu hislardan o'z manfaati nuqtai nazaridan foydalanishi demakdir. Bunday harakatlarning tipik misoli adabiyotda o'z aksini topgan bo'lib, bu – Don Juan obrazidir. U o'z jinsiy mayllarini qondirish maqsadida yangidan-yangi qurbonlarni topadi va o'z xohishi yo'lida ularning his-tuyg'ularini toptab ketaveradi. Yoki go'zal va kelishgan ayol o'z maftunkorligi bilan erkaklarni rom etish yo'li bilan ularning xislarini jilovlab olishi mumkin. Ya'ni, Shostrom degan olimning fikricha, har qanday ishq-muhabbatda ana shunday manipulyativ holatlar mavjud bo'ladi.

Romantik munosabatlarga asoslangan munosabatlarning turlari

Nikoh modeli va er-xotin munosabatlari

Er bilan xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligi shundaki, u:

- uzoq muddatga mo'ljallangan doimiy muloqot sirasiga kiradi;
- bu munosabatlarning aksariyati diada shaklida ro'y beradi;
- muomala va muloqotdan qoniqish bevosita nikohdan qoniqish uchun omil hisoblanadi.

Rus olimi A.I. Antonovning ta'kidlashicha, eng mustahkam nikohga sabab bo'lgan munosabatlarda ikkala tomon ham shaxs sifatida tobora takomillashib, sayqal topib, ularda o'zaro mehrga, bir-biriga yordam berishga ishtiyoq ortib boraveradi. Ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha olimlarning ta'kidlashlaricha, er-xotinlik aloqalari etuk inson uchun eng ahamiyatli va hayotiy zarur bo'lgan munosabatlardir.

Olimlarni qiziqtirgan muhim masala – mustahkam, baxtli nikohni tashkil etuvchi vosita nima ekanligini aniqlashdir. Shunisi xarakterliki, har bir inson o'z oldiga oila qurish, nikohga kirishni maqsad qilib qo'yar ekan, u avvalo, oila va nikoh borasida xalq orasida shakllangan tasavvurlarga tayanadi. Nikohga kirgan juftlik doimo nikoh tushunchasiga aloqador bo'lgan qat'iy doiralar va normalar dunyosida yashaydi, lekin har bir juftlikning hayoti o'zlarigagina aloqador bo'lgan o'ziga xos xufiyona, sirli olamdir. Zero, ikki individuallikning birlashuviga sabab bo'lgan his-tuyg'ular bir qarashda o'sha "xufiyonalik" sababli zarar ko'rayotganga o'hshaydi, ba'zan er va xotin bir-biriga nafaqat xarakter nuqtai nazaridan, balki tashqi ko'rinish bo'yicha ham o'xshab ketadi, deyishadi. Ikkinchidan, ayni shu birlik, o'xshashlik, "kirib ketishlik" erni ham ayolni ham jamiyatda o'ziga xos bir avtonomiyaga, jozibadorlikka erishib borayotganligining namoyon bo'lishiga turtki bo'ladi. Shu bois bo'lsa kerak, ijobiy hislar tufayli tashkil bo'lgan oilada sevilishning nafrat-agressiyaga almashinib ketishi ham oson kechadi. Arzimagan narsalar ham ba'zan ikkalasini urishtir qo'yishi mumkin. Bunday polyar, bir-biriga zid hissiyotlarning namoyon bo'lishi ayrim davrlarda unisi yoki bunisining kuchayib ketishiga ham sabab bo'ladi. Masalan, ayol farzand ko'rgan vaqtida, ko'proq chaqaloq bilan ovora bo'lib, eriga befarq qoladi, o'z navbatida unda ham ayoliga nisbatan befarqlik (hattoki, rashk, nafrat) hissi uyg'onishi, aksincha, muayyan davrlarda esa ikkalasi Layli-Majnun bo'lishib, faqat bir-birining ishqida yonib yashashi ham kuzatilgan.

E.Shostrom (1994) er bilan xotin o'rtasidagi "ishqiy" pozitiv munosabatlarning quyidagi ko'rinishlarini bayon etadi:

- bir-biriga bog'lanib qolish yoki o'zaro g'amxo'rlik qilish hissi. Bu shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, er-xotin boshqa bir insonga shunga o'xshash yaqin munosabatni his etmay qoladi. Natijada ba'zan o'g'lini qizg'angan qaynona kelini bilan turli narsalarni bahona qilib, nizo chiqaraveradi.
- do'stlik – er va xotinning bir-birlarida eng nodir sifatlarni, jumladan, o'ziga xoslik va individuallikni tan olishni nazarda tutadigan hissiyot;
- eros – sevgining romantik ko'rinishi bo'lib, er-xotinning bir-biriga nisbatan xissiy-jinsiy mayllarining kuchini belgilaydi;

- empatiya esa, erning yoki xotinning o'z turmush o'rtog'iga doimiy g'amxo'rlik, uni tushunishi va kerak bo'lsa, altruistik fidoiyligini baholovchi hisdir;
- o'zligini sevish, qadrlash – bir tomondan er-xotinning har qanday sharoitda o'zida eng afzal jihatlarni anglay olish va boshqa tomondan, kerak bo'lsa, yori tufayli o'z xohish-istaklarini jilovlay olish, fidoiylilikni namoyon qilishga imkon beruvchi hissiyot.

E.Shostromning fikricha, “er va xotin vaqti-vaqti bilan bir-birlariga zug'um qilish, xafa qilishga ma'nan haqlidirlar”, lekin bunday munosabatlarning yakuni yaxshilik bilan tugashi, shu bahona bir-birlarini yanada yaxshi va yaqindan bilishlariga turtki bo'lishi kerak.

Er va xotin o'rtasidagi salbiy munosabatlarga asos bo'luvchi hissiyotlarga olimlar quyidagilarni kiritadilar:

- achchiqlanish – oilaviy hayotda ko'p uchraydi, chunki u o'zaro g'amxo'rlik va bog'liqlik kamaygan sharoitlarda o'z-o'zidan paydo bo'ladi; F. Perlzning yozishicha, “Vaqti-vaqti bilan bir-biridan achchiqlanib turish – demak, bir-birini sevish va o'zaro muomalaga bo'lgan intiqlikdir”.
- aybdorlik – o'zining qilmishi uchun o'ch olishday gap, ko'pincha bu hissiyot ataylab namoyon etiladi;
- arazlash – turmush o'rtog'idan o'ch olish maqsadida namoyon etiladigan his-tuyg'u;
- nafrat – turmush o'rtog'iga go'yoki dushmaniga qaraganday muomala qilish va bu yo'lda ba'zan uzoq vaqt gaplashmay qo'yish yoki ataylab o'zini yomonday ko'rsatishdir. Afsuski, bu hissiyot oilaviy hayotda tez-tez bo'lib turadi. Lekin u odamni ichidan zil ketishiga, ich-etini eb qo'yishiga olib keladi;
- tanqid qilish – qo'rqqolikka o'xshaydi, aniq munosabatlarning xarakterini namoyon etishga imkon bermaydi, Shostromning fikricha, bu hissiyot achchiqlanishga o'tgani ma'qul;
- turmush o'rtog'idan yiroqlashish, ketib qolish – bu ham ma'lum ma'noda bir-birini nazoratda ushlashning bir ko'rinishi, lekin vaziyatni aniq oydinlashtirib olishga xalaqit beradi;
- befarqlik – umuman munosabatlarni yashiruvchi xis bo'lgani uchun u aloqalarning yomonlashib ketishini tezlashtiradi, hattoki, bunda psixoterapevtik yordam berish ham mushkul bo'lib qoladi. Shu kabi munosabatlar mohiyatan shaxslararo munosabatlarning ko'rinishlarini ifoda etadi.

Er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirish-ga oid qonuniyatlar

Ya.Gozman, K.Xorni va boshqalarning yozishlaricha, faqat emotsional hissiyotlarga tayangan er va xotin munosabatlari tobora vaqt o'tishi bilan oqilona hamkorlik va do'stlik, qon-qarindoshlik munosabatlariga aylanib boradi. Yu.Dubrovinning (2004) ta'kidlashicha, “Ko'pchilik nikohlarni baxtli ham baxtsiz ham deb atash mushkul, chunki ularda er-xotinlarning bir-birlarini sekin-asta tarbiyalab borishlari va taqdir taqozosi bilan bora-bora munosabatlar chuqurlashib, tushunish hissi va do'stona munosabatlar sayqal topib, u hattoki, romantik muhabbat darajasiga ko'tariladi”.

Nikoh modeli. Oila va nikoh bo'yicha ko'plab mutaxassislar Z.Freyd va A.Adlerning g'oyalarini ma'qullagan holda shuni ta'kidlaydilarki, oila qurayotgan yosh kelin-kuyovlar o'zlari anglamagan ravishda o'zlari tarbiya topgan oilalarining modelini yangi oilaga tadbiq eta boshlaydilar.

Ota-ona oilasi Z.Freydning psixoanalitik nazariyasi mos keladi. Unga muvofiq, bola o'zi katta bo'lgan oilasidagi o'z jinsiga mos ota yoki ona obraziga o'zini identifikatsiya qilib, hayoti mobaynida ko'rgan-kechirganlarini xatti-harakatlarida takrorlaydi, qarama-qarshi jins vakili bo'lmish ota-onaning obrazi esa turmush o'rtog'ini tanlashni belgilaydi. Agar ushbu obraz ijobiy bo'lgan bo'lsa, masalan, qiz bola uchun otasi ideal, namunali tuyulsa, kelajakda shu qiz o'z turmush o'rtog'i bilan kelishib yashashga moyil bo'ladi. Mobodo obraz salbiy bo'lsa (ota ichuvchi yoki bevafoqlik qilib tashlab ketgan), unga o'xshamagan insonni qidiradiyu, aslida topgan taqdirda ham u bilan kelishib yashashga o'zi ham ishonmaydi, ruhiy iztirobda bo'ladi, ko'p ikkilanadi. Agar o'zi o'sib ulg'aygan oila kichik bo'lsa, istiqbolida u ham aynan detotsentrik, kichik oila qurishga intiladi.

Opa-singil, aka-inilik munosabatlariga asoslangan oila modeli A.Adler g'oyalari ta'sirida ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, er-xotin aloqalari mustahkam va barqaror bo'lishi uchun ikkasi o'z munosabatlari jarayonida akalari yoki opa-singillari bilan bo'ladigan hamkorlik, liderlik, hukmronlik, mas'uliyat, g'amxo'rlik, tobelik kabi qator munosabatlarini ro'yobga chiqarishlari lozim (sibling yondashuv). Bu aloqalarning bir ko'rinishi shundayki, unda er va xotin bir-biriga akaday, singilday u yoki bu munosabatlardagi kemptikliklarni to'ldirib borishlari mumkin (komplementar nikoh). Bu bizdagi munosabatlarga ham xos bo'lib, ko'pgina o'zbek oilalarida xotin erini “aka” deb atasa, er birinchi farzand tug'ilgach, xotiniga to'ng'ich farzandning ismini aytib murojaat qiladi. Bu holat ayniqsa, er o'z oilasida singillarining akasi bo'lgan bo'lsa, yoki xotin ham o'z navbatida ota-onasining uyida akalarning singlisi bo'lgan bo'lsa komplementar tarzda uyg'unlik kashf etadi, ular oilaviy munosabatlarda kim ustun, kim

tobe kabi muammolarga duch kelmaydilar. Agar xotin o'z oilasida biriga singil, biriga opa bo'lib katta bo'lgan bo'lsa, u yoki bu tajriba eri bo'lgan munosabatlarda qisman komplementar vazifani bajaradi. Nihoyat, agar er o'z oilasida to'ng'ich farzand va xotin ham o'z oilasida to'ng'ich bo'lgan bo'lsa, unda er-xotin munosabatlari nokomplementar nikohga to'g'ri keladi, ya'ni, ular teng mavqeli bo'lgani uchun odatda o'zaro munosabatlarida liderlik va o'zaro adaptatsiya holatlari muayyan qiyinchiliklar va muammolar bilan kechadi, tez-tez bir-biriga nimalarnidir da'vo qiladigan, o'z fikrini uqtirish va amalga oshirishga moyillik kuzatiladi. Odatda bunday nikoh ikki ziyoli inson o'rtasida tuzilgan bo'lsa, ular baxtli bo'lishlari mumkin, ayniqsa, hozirgi davrda, lekin o'zaro til topishib, ko'nikib ketishlariga anchagina vaqt, sabr-toqat kerak bo'ladi.

Ota-onasining oilasida ko'rgan-kechirganlari bolaning bo'lg'usi oilasi, undagi er-xotin munosabatlari, farzandlar tarbiyasi, qarindosh-urug'lar bilan bo'ladigan murakkab o'zaro aloqalarning qanday kechishini belgilovchi muhim omildir. Ushbu omilning ta'sirini batafsil o'rgangan olimlardan biri N. Pezeshkian (1993) bo'lib, u bunday ta'sirchanlikning 3 jihatini alohida ajratadi:

turli stresslarga nisbatan munosabat;

hissiyotlarga beriluvchanlik va uning oqibatlari – ijtimoiy xatti-harakat me'yorlari;

oilaviy munosabatlar.

Pezeshkian ota-ona oilasida ko'rgan-kechirganlari ta'sirida turlicha stresslarga hozirjavoblikning to'rt xil tipik usullarini, yo'llarini ajratadi: Avvalo, bu – tana reaksiyalari yoki vujud bilan javob berish bo'lib, u turli psixosomatik kasalliklar yoki holatlarga nisbatan inson vujudining javobi (masalan, uyqu, kayf bo'lish, ochlik yoki to'qlik kabi) sifatida namoyon bo'ladi. Bunda masalan, ota-ona oilasida urf bo'lgan xazil-xuzul, aytishuvlar orqali u yoki bu zarar etkazuvchi tangliklarning oldini olish tajribasi nazarda tutiladi.

Faoliyat ham stressning oldini olish vositasi sifatida muallif tomonidan ikki yo'nalishda bo'lishi mumkinligi qayd etiladi. Masalan, birinchisi – ishga muvaffaqiyatli ketish orqali stressni echish bo'lsa, ikkinchisi – u yoki bu sohadagi yutuqlar va qo'lga kiritilgan natijalar orqali o'zini-o'zi tinchlantirish, tangliklardan “qochish”ni anglatadi.

Muloqot yoki bevosita muomala shaklida odam ko'proq turli suhbatdoshlarni topib, ular bilan kirishib ketish orqali yoki aksincha, o'zini yolg'izlikka mahkum etish orqali stressni engillatish usuli bo'lsa, oxirgi yo'l – xayolga berilish, ya'ni, real harakatlarni ramziy taassurotdagi obrazlar bilan almashtirish hisobiga tangliklardan uzoqlashishdir.

Hissiyotlarga berilish hamda uni ijtimoiy xatti-harakat normalariga muvofiqlashtirish – bu ko'rgan-kechirgan hissiyotlar va xulq namunalari to'g'risidagi tasavvurlar. Pezeshkian bevosita hissiy-emotsional normalarga sevgi-muhabbatni, ishonch, umid, sabr-qanoat, o'zgalariga e'tiborli bo'lish, o'zgalar bilan yaqin samimiy munosabatlarga kirisha olish, e'tiqodlilik, diniy hissiyotlarni kiritadi. Bunday hissiyotlar odatda ota-onasi, yaqinlari, aka, opalar, uka-singillar bilan o'zini identifikatsiya qilish, o'zini ular bilan solishtirish, o'xshashlikka intilish jarayonida shakllanadi. Aynan shu sababli inson kimgadir ishonishga, samimiy muruvvat ko'rsatishga o'rganadi. Oila muhitida boshdan kechirgan hissiyotlar oqibati bo'lmish xatti-harakatlar normalariga esa bir so'zlilik, saranjom-sarishtalik, ozodalik, samimiyat, adolatlilik, intiluvchanlik, tejamkorlik, sadoqat, ishonch, xalollik kabilar kiradi. Pezeshkian, ayni emotsional sohalarda er-xotin o'zaro munosabatlarining o'xshamasligini er-xotin nizolarida asosiy nizo keltirib chiqaruvchi sabab, deb hisoblaydi. Xatti-harakat normalaridagi kelishmovchiliklar ham muhim, lekin ular psixoterapevtik amaliyotda biroz yumshoqroq hisoblanadi.

Ijtimoiy va oilaviy munosabatlar. Bola tajribasining asoslaridan biri undagi ota-ona oilasi ta'sirida shakllanadigan ijtimoiy fe'l-atvordir. Ya'ni, o'zaro ishonch, o'zini-o'zi baholash, Men-kontseptsiyasi ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari ta'sirida bola ongida shakllanadigan hislatlardir. Bola ota-onasining o'zaro muloqotlariga qarab, umri mobaynida kuzatib, bilib-bilmay ularga taqlid qilib, tinchlik – xotirjamlikda, o'zaro hamjihatlikda yashashga o'rgansa, aka-uka, opa-singillariga qarab, jamiyatdagi murakkab o'zaro muomala holatlarida o'zini qanday tutishga o'rganadi, hayotning ma'nosini tushunib boradi, dunyoqarashi, dunyoviy hamda diniy e'tiqodlarining shakllanishi ham ayni shu munosabatlar ta'sirida ro'y beradi.

Er-xotin munosabatlari avvalo adaptatsiya, ya'ni bir-biriga asta-sekin ko'nikib, moslashib borish jarayonidan boshlanadi, zero, ularning har biri yangi muhitga, yangi ro'zg'orga o'z oilasida o'rttirgan shaxsiy tajribasi, oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlari bilan kirib keladi. Natijada ota-onasi oilasida olgan tajribaning bir qismidan voz kechgani holda, yangi munosabatlar uchun yangi fazilatlarini o'zida tarbiyalay boshlaydi.

15-MAVZU: YOSH OILALARNING IJTIMOY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Yosh oila: munosabatlar modeli va xususiyatlari

Yo oila deb, avvalo, er va xotinning ikkalasi ham 30 yoshdan oshmagan yoki oilaviy turmush qurish tajribasi 10 yildan oshmagan yoshlar oilasi nazarda tutiladi. Birinchi yondashuv, ya'ni, er va xotinning pasport yoshini inobatga olib, oilaga maqom berish to'g'riroq bo'lib, qachon turmush qurganligidan qat'iy nazar, albatta, shu muddat orasida xali yigit ham qiz ham tom ma'noda katta mehnat stajiga ega bo'lmaydi, va ko'p hollarda ayol-ona aynan shu davrda farzandli bo'lib, uy bekasi bo'lib o'tirib qolishi ehtimoli katta. Agar ikkinchi yondashuv bo'yicha yosh oilani oilada yashash muddatiga ko'ra tabaqalashtirilsa, unda u yoki bu jamiyatda nikoh yoshining o'rtacha ko'rsatgichi ortib yoki kamayib borishini nazarda tutish lozim. Chunki ayrim davlatda va ayrim milliy-madaniy muhitda yoshlarni juda erta turmush qurishi rag'batlantirilsa, boshqalarida, ayniqsa, oxirgi yillarda aksincha, yigit va qizlarning kasb-hunar o'rtirish bo'yicha professional malakaga erishish asosiy qadriyat hisoblangan sharoitlarda 30 yoshdan oshgan odam endi oila qurgan yoki xali ham turmush qurmagan bo'lishi ham mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya kabi rivojlangan Evropa va Amerika davlatlarida, Sharqiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida (Yaponiya, Koreya kabi) nikoh yoshi yil sayin ortib, ayrim mamlakatlarda bu raqam 30 yoshdan ham o'tib ketmoqda. Juda erta turmush qurish qanchalik oila va uning barqarorligi bilan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lsa, kech turmush qurish ham qator salbiy asoratlar va moddiy-ma'naviy qiyinchiliklar bilan, eng muhim er va xotinning salomatligi holati, tug'ilajak zurriyodning sog'lom tug'ilishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Umuman, fanda yosh oilani tavsiflaganda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

juda yosh oila – nikohga kirgan vaqtdan toki 4 yilgacha;

yosh oila – 5 yildan 9 yilgacha;

o'rta oilaviy hayot muddati – 10 yildan 19 yilgacha;

katta oilaviy hayot muddati – 20 yil va undan ortiq muddat turmush kechirganlar oilasi.

Ko'plab olimlarning ta'kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o'zi mustaqil xal qilishi uchun zarur bo'lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg'un qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida ko'rgan-kechirganlarini uchun o'z oilasida qo'llay bilish mahoratiga bevosita bog'liqdir. Lekin baribir har bir oila aynan yoshlik davrida muaytsyan qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolar quyidagi holatlarga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi:

oilaviy hayotni bir maromda kechishini ta'minlash, ishlash, o'qish yoki boshqa masalalarni xal qilish uchun vaqtning etishmasligi;

vaqtni yaxshi o'tkazish, ko'ngilxushliklarning cheklanganligi;

yangi sharoitda erkakning ham ayolning jismonan toliqishi, asablarning charchashi;

iqtisodiy qiyinchiliklar.

Oxirgi holat bir tomondan, ayni paytda yoshlardagi orzu-havasning ko'payib ketishi bilan izohlansa, boshqa tomondan, ota-onalarning orzu-qavaslarini, bordi-keldi bilan bog'liq sarf-xarajatlarning ortib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda kundan-kunga hayot va yashash sharoitimiz yaxshilanib, oila farovonligi uchun etarli shart-sharoitlarning bo'lishiga qaramay, tashqaridan barcha maishiy muammolari xal bo'lgan yosh oilada ham nimalardir etishmayotganday tuyulaveradi. Bu – o'sha orzu-havaslar, ijtimoiy ehtiyojlarning tobora ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Shu bois ham yurtimizda yosh oila manfaatlarini ijtimoiy jihatdan muxofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Buning yorqin isboti 2007 yilning "Ijtimoiy himoya yili" deb e'lon qilinganligi, ushbu yilda qabul qilingan davlat dasturida yosh oila manfaatini himoya qilish alohida bandda aks etganligi va nihoyat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 18 may kuni imzolagan "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashna doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonidir. Farmonning ijtimoiy hamda tarixiy ahamiyati shundaki, unda yosh oila mustahkam va unda tarbiyalanayotgan farzandlarning sog'-salomat uylag'ishlariga oid barcha eng muhim vazifalar belgilab berilgan. Xususan, ko'p bo'g'inli va ko'p farzandli oilalar soni nisbatan ko'p bo'lgan bizning sharoitimizda Prezident Farmoni bo'yicha yosh oilalarning maishiy turmush sharoitini yaxshilash, kam ta'minlangan oila farzandlarining nikohdan o'tishi va to'y marosimlarini o'tkazishda qo'shimcha moddiy yordam ko'rsatish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishni xohlaganlar uchun, uy-joy qurilishi, ta'mirlash va sotib olish uchun, uy ho'jaligini yo'lga qo'yish, mebel va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan hayotiy zarur tovarlar uchun ipoteka, iste'mol kreditlarining imtiyozli tarzda berilishi kabi tadbirlar oila mustahkam va baxtli hayot kechirishini kafolatlovchi muo'im masalalardir. Oxiri statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda yiliga o'rtacha 175-180 mingdan ortiq nikohlar qayd

etiladi. Umumiy oilalar miqdoriga nisbatan qaralganda yosh oilalar salkam 40 foizni tashkil etadi. Demak, oila sonining ko'pligi ular orasida moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga muhtojlari ham bo'lishi tabiiy ekanligini ko'ratadi va xukumatimiz va shaxsan Prezidentimizning bu boradagi siyosati aynan yosh oilaning manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi say'i-harakatlardan biridir.

Albatta, yosh oila borasidagi eng muhim masalalardan biri – yoshlarning o'zaro munosabatlari va ularning yangicha munosabatlar tizimiga ko'nikishi masalasidir. Chunki romantik sevgi, bir-birini yoqtirish bosqichidan o'tgan yoshlarning endi yangi oilaviy hayot tamoyillari asosida kundalik hayotni boshdan kechirishiga muayyan qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy. Yigit-ku o'z uyida, ota-onasi yaratib bergan sharoitda yashaydi. Moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklarning eng og'iri kelinchakning bo'yniga tushadi. U boshdan kechiradigan muammolardan biri esa – yangi oila a'zolari bilan muomala maromlarini to'g'ri o'rnatishdir. To'g'ri, to'ydan keyin turkona, o'zbekoana urf-odatga ko'ra qizning onasi va uning yaqin qarindoshlari kelinchakni “yo'qlaydi”, ya'ni, pishir-kuydir qilib, qiz o'z xonadonida suyg'an taomini pishirib, yangi kelin tushgan xonadonda dasturxon yuboriladi. Albatta, bu kabi azaliy urf-odatni asosida yotgan muhim sabablar bo'lib, birinchisi, yangi muhitga tushib qolgan qiz bu erdagi issiq-sovuqqa tez ko'nikib ketolmasligi, taom tanavvul qilishda keskin o'zgarish bo'lmasligi uchun to' ko'nikuncha, bir necha kun o'z xonadonidan ovqat yuborish va shu orqali uni “yupatish” bo'lsa, ikkinchi ma'nosi – ota-ona qizini unutmaganligi, hanuz unga mehrli munosabatda ekanliklarini izhor qilishdir. Bu kabi munosabatlarning saqlanishi qisman bizning hozirgi sharoitimizda ham o'zini oqlaydi, lekin yo'qlov bahonasida tog'oralarda ovqat-oziqning xadeb kuyov uyiga jo'natilishi, ortiqcha dabdabalarga yo'l qo'yilishida umuman mantiq yo'q. Chunki hozir ko'pchilik onalar oila yumushidan tashqari davlat va jamoat muassasalarida xizmat qiladilar. Ular uchun bunday tashvishlar ortiqcha, ikkinchidan, qizlar ilgarigiday juda erta turmush qurmaydigan va o'qish, ish bahonasida turli taomlarni eyishga yoshlikdan o'rgangan sharoitda ularning oshqozonlari yangi xonadonda ham birday ishlayveradi. Ya'ni, yosh oilaning mustahkam bo'lishiga rahna soluvchi omillardan biri hisoblanmish ortiqcha ovoragarchiliklar, dabdabali tushliklarning ikkinchi xonadonga yuborilishi bugshungi taraqqiyot bosqichida biroz erish tuyulishi tabiiy.

O'tkazilgan tadqiqotlardan yana shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, yosh oilaning tinchlik-totuvchilikda yashashiga halaqit berayotgan sabablardan biri – qaynonalar bilan yangi kelinchakning tez kirishib, til topishib keta olmayotganligi. Bu ham oilaviy munosabatlar borasidagi muammolardir. Chunki ayniqsa, shahar sharoitida bitta yoki ikkitagina o'g'il o'stirgan ona ko'pincha yangicha munosabatlar tizimiga o'zi ko'nika olmaydi va kelinchakni ham tezroq ko'nikib ketishiga yordam berish choralari bilmaydi. Ya'ni, qaynona bilan kelin o'rtasida o'ziga xos rashkka o'xshash munosabatlar paydo bo'ladi, bu holat qaynonaning kelinga nisbatan adolatli, bag'rikeng inson sifatida ish tutishiga halaqit beradi. Toshkent shahrida sodir bo'layotgan nikoh ajrimlarining sabablari orasida aynan qaynona bilan kelin o'rtasidagi nizolarning qayd etilishi yuqoridagi fikrlarning dalilidir. Shuning uchun bunday holatlarning oldini olishning yo'llaridan birinchisi – bu yoshlarni (yigit va qizlarni) oilaviy munosabatlarga psixologik jihatdan tayyorlash bo'lsa, ikkinchi yo'li – jamoatchilikni keng jalb qilgan holda mahallalarda “Oila saboqlari”, “Ota-onalar universiteti” kabi ma'rifiy institutlarni joriy etish orqali ota-onalarni ham kelin va kuyov bilan munosabatga, muloqotga o'rgatishdir. Bunda OAV va ommabop nashr etilgan risolalarning ham ahamiyati katta.

Yosh oila va sog'lom turmush tarzini barqarorlashtirish

Yo' oilaning mustahkamligi, undagi ma'naviy muhitning barqarorligi yoshlarning salomatligiga, sog'lom turmush tarzi malakalariga ega ekanligiga ham bog'liq. Bunda ota-onaning, yaqin qarindosh-urug'larning umuman sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlari qanchalik aniq va ularning kundalik turmushda salomatlikni asrash ko'rikmalariga ega ekanliklari katta ahamiyat kasb etadi.

Gap eng katta boyligimiz – salomatlik haqida borar ekan, qulog'imizga tez-tez chalinayotgan “sog'lom turmush tarzi” tushunchasining o'zi xususida olimlar fikrlarini tahlil etish lozim. Olimlar hamda mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, sog'lom turmush tarzining beshta asosiy sharti bo'lib, bular eng avvalo to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan saqlanish, mehnat qilish va faol dam olishni to'g'ri tashkillashtirish hamda gigienik ko'nikmalarga amal qilishdir.

Mana shu shartlarga rioya qilgan kishining salomatligi shubhasiz o'z qo'lida bo'ladi. Lekin ko'pincha bu shartlarga amal qilish yoshlarga ko'pincha erish tuyuladi. Hozirgi kunda ko'pchilik o'rtasida uchrayotgan kasalliklar va bevaqt o'limning asosiy sabablaridan biri oila a'zolarining sog'lom bo'lish uchun o'zlari harakat qilmayotganliklari, hali ham biron bir mo'jizaviy hayot baxsh etuvchi dori yoki shifokor bo'lishiga ishonib, yashayotganliklaridir. Albatta, zamonaviy tibbiyot fani O'zbekistonda ham rivojlanish ketdi, tibbiyot xodimlari orasida o'z kasbining ustasi bo'lgan oliyjanob insonlar ham

ko'p. Lekin agar inson o'z turmush tarzini ongli tashkil etib, kasal bo'lib qolganda ham unga qarshi o'sha shifokor bilan tengma-teng ongli ravishda turmasa, dardni engish mushukul bo'lishini bugun ko'pchilik yaxshi biladi.

Lekin yoshlar o'rtasida shu oddiy haqiqatni bilmaganlar ham ko'p. Salomatlikni o'z vaqtida o'z uyimiz, o'zimiz o'rganib qolgan muhitda saqlay olmaganligimizning, farzandlarimizni ilk yoshligidan sog'lom turmush tarzi ko'nikmalariga o'rgatmaganligimizning sabablari ham bor. Buning ob'ektiv sabablaridan biri sobiq sovet davrida tibbiy xizmatning bepulligi, tibbiyot xodimlari malakasiga nisbatan talabchanlikning past bo'lganligidir. Bu siyosat eski tuzumning boshlang'ich davrlarida aholi o'rtasida uchragan ko'pgina kasalliklarni kamaytirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, shu bilan birga, bunday siyosat kishilarda o'z sog'liqlariga befarqlik, boqimandalik kayfiyatini ham shakllantirdi. Yana bitta sabablaridan biri kasallikni sababi bilan emas, uning oqibati bilan kurashib kelindi. Natijada kasalxonalar qurish, ularda koykalar soni oshirishga ko'proq e'tibor berilib, targ'ibot sohasiga ikkinchi darajali sifatida qaraldi. Oqibatda aholi orasida tibbiy madaniyatning pastligi tufayli kasallanishning ko'payib borishi davom etdi. Bu o'z – o'zidan ma'lumki, har bir oilaning byudjetiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Oqibatda bu nafaqat byudjetga, balki oilaning mustahkamligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi va hozir ham shunday.

Shuni alohida mas'uliyat bilan ta'kidlash joizki, davlatimiz asosini tashkil etgan yosh oilalar ravnaqi kelajagimiz poydevorini sog'lomlashtirish uchun targ'ibotni eng avvallo oiladan, qolaversa, barchamiz uchun “vatan ichra vatan bo'lgan” mahalladan boshlash kerak. Chunki, sog'lom turmushi tarzini oilada to'g'ri yo'lga qo'ysak, shu oila azosi salomatlik eng birinchi darajali ekanligini tushunib etadi. Bir oila tushunib etgan narsani shu oilaning boshqa yaqinlari – qarindosh-urug'lar, keyinchalik yoru-birodarlar, nihoyat qo'ni-qo'shnilar tushunib etadi.

Olimlarning fikricha, inson salomatligining 51,6% sog'lom turmush tarziga, 20,5 % irsiyatga, 19,3 % tashqi ekologik muhitga, 8,6% sog'liqni saqlash tizimiga bog'liq ekan. Ko'rinib turibdiki, salomatlik har bir insonning qanday hayot kechirishi, nima eyishi, kimlar bilan muomala qilishi, o'zi uchun munosib, qulay hayot tarzini ishda ham, dam olishda ham tashkil eta olishiga bevosita aloqador ekan.

Salomatlik – bu nafaqat sog'-salomat yurish degani, balki uzoq umr ko'rish garovi hamdir. Tug'ilish, o'sib ulg'ayish, voyaga etib shaxsiy va umuminsoniy manfaatlar yo'lida faoliyat ko'rsatish, qarish-qartayish va o'lim – bular inson hayot yo'lining qonuniy bekatlaridir. Bu hayot uchun kurash – salomatlik uchun kurash ekanligini anglashni taqozo etadi.

Demak, sog'lom turmush tarzi bu – har bir insonning ma'naviy, aqliy, ruhiy va jismoniy xususiyatlarga ega bo'lishga harakat qilishidir. Agar inson o'z hayotini faol harakatlanish rejimiga sola olsa, kun tartibini ongli belgilay olsa, ovqatlanish, mehnat qilish yoki dam olish tartiblarini to'g'ri tashkil eta olsa, gigiena qoidalariga rioya qilgan holda zararli odatlardan o'zini tiya bilsa, atrof-muhitga ehtiyotlik va sarishtalik bilan qarab, oilada va yonidagi qo'ni-qo'shni, yaqin qarindoshlar bilan tinch-totuv yashashga imkon beruvchi muomala madaniyatiga ega bo'lsa va sog'lom farzandning tug'ilishiga eng avvalo o'zi mas'ul ekanligini tushunsa, unda sog'lom turmush tarzi haqida tasavvurlar mavjud, deyish mumkin.

Bugungi kunda butun dunyoda salomatlik va sog'lom turmush tarziga katta e'tibor berilmoqda. Masalan, amerikalik olimlar bu narsaga panja ortida qarash nimaga olib keladi, degan savolga ko'proq ularni agressiv xulq-atvor bilan bog'lamoqdalar. Ya'ni, odam urushqoq, salga tajang bo'ladigan, sabrsiz bo'lib qoladi. Bu narsa oxir oqibat giyohvandikka berilish, ichkilikka ruju qo'yish, oilada er-xotin o'rtasida nosog'lom munosabatlarning kelib chiqishi, ayolga nisbatan zug'umning ortishi, sportga nisbatan befarqlik, shaxslararo ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi olimlari 2000 yillarning boshida O'zbekiston xududidagi qishloq oilalari a'zolarining sog'lom turmush tarzi borasidagi savodxonligini maxsus tadqiqot doirasida o'rgandi. Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 600 dan ziyod xotin-qizlar bilan suhbat va so'rovlar o'tkazildi. So'raluvchilarning aksariyati tug'ish yoshidagi ayollar bo'lib, ularning fikrlarini umumlashtirib tahlil qilinganda, oilali ayollarning 21%i va erkaklarning 9,9% surunkali kasalliklarga chalingan ekan. So'raluvchilardan 53,3%i faqat kasal bo'lgandagina vrachga murojaat qiladi, qolganlari vaqti-vaqti bilan murojaat qiluvchilardir. Demak, ko'pchilik betob bo'lib qolganlagina vrachga murojaat qiladi, hattoki, kasal o'tib ketgandan keyin vaqt topadiganlar ham kam emas. Demak, sog'lom turmush tarziga aloqador tibbiy madaniyatimiz borasida o'ylashga arziydigan muammo bor.

Shu bois ham, sog'lom turmush tarzi kategoriyasi ko'proq ijtimoiy kategoriya bo'lgani Markaz olimlari so'raluvchilarning tibbiy-gigienik ma'lumoti darajasini o'rgandilar. Masalan, “O'z farzandlaringiz bilan tibbiy-gigienik mavzuda suhbatlashib turasizmi?” degan savolga barcha so'rluvchilarning 62,6% ijobiy javob bergan bo'lsalar, umuman gaplashmaydiganlar 19,8%ni tashkil etdi.

Bu o'ylantiradigan holat, albatta. Lekin tibbiy bilimning zaruratini anglaydiganlar qishloq aholisi o'rtasida ortib bormoqda. Masalan, so'rganlarimizning 82% "Har bir kishi tibbiy bilimga ega bo'lishi kerak" deb hisoblaydi. Shunisi e'tiborga molikki, o'rganilgan guruhdagilarning 87,7 foizida birinchi farzandlari qolgan keyingilariga nisbatan ko'proq xastalangan. Demak, yosh ona bolasini parvarish etish malakasiga, tajribasiga ega bo'lmaganidan tez-tez kasal qilib qo'yadi. Aynan o'shalar tibbiy savodxonlikka muhtojdir.

Albatta, sog'lom turmush tarzi tushunchasi har insonda o'ziga xos tarzda shakllanar ekan. Respondentlarga "Sog'lom turmush tarzini qanday tushunasiz?" deb savol bilan murojaat qilinganda, ko'pchilik, ya'ni so'ralganlarning salkam 41%i uni "atrof-muhit tozaligi" bilan, 37,3% i "to'g'ri, ratsion bo'yicha ovqatlanish" bilan, qolganlar – "o'z vaqtida uxlash", "sport bilan shug'ullanish" (28,4%), "chekmaslik, ichmaslik" kabilar bilan bog'lashdi.

Albatta, bu kabi sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq tasavvurlar shakllanadi, kerak bo'lsa, tarbiyalanadi. Sog'lom turmush tarzi haqidagi tushunchalarni qaerdan olish mumkinligini o'rganilganda, tabiiy, OAVning o'zni va roli katta ekanligi ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, xotin-qizlarning fikricha, televideniening roli katta (72,6%), gazetalar – ikkinchi o'rinda – 57,5%, jurnallar – 46,3% va radio – 31,2%. Demak, bu manbalardagi axborot va ma'lumotlarning xalqboq, ommabop bo'lishiga alohida e'tibor berish, mahalla guzarlarda radio eshittirishlari va davriy gazeta, jurnallarning vaqtida berilishiga alohida e'tibor berish lozim. Demak, sog'lom turmush tarzi to'g'risida har bir yosh avlodda shakllanadigan bilimlar, tasavvurlar va ularning amaliy turmush tarkibida ongli xatti-harakatga aylanishi ko'plab ijtimoiy muammolarni echishga imkon beradi. Shuning uchun ham bugun xalq o'rtasida amalga oshiriladigan targ'ibot va tashviqot ishlarining samaradorligini oshirish, buni mafkuraviy va ma'naviy ishlarining tarkibiy qismiga aylantirish lozim.

Mustaqil yurtimizda keng quloch yozayotgan bolalar sportini rivojlantirish, oilaviy sportni milliy mentalitetimiz xususiyatlariga mos tarzda hayotga joriy etish, mustahkam oilada sog'lom turmush tarzini barqarorlashtirishga qaratilgan barcha sa'y-harakatlarimiz islohotlarimiz strategiyasiga mos bo'lib, yurtimizda tinchlik, totuvlik hamda rivojlanishga, yosh oilalarning mustahkamligiga xissa bo'ladi. Bunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator hayrli tadbirlar, jumladan nikoholdi tibbiy ko'rikdan kelin va kuyovlarni o'tkazish amaliyoti o'zining juda katta ijobiy samarasini berishi tabiiy.

Yoshlarni nikoholdi tibbiy ko'rikdan o'tkazish va nikohning mustahkamligi

Oila Kodeksining 17-moddasida yosh kelin-kuyovlar nikohgacha ixtiyoriy tarzda tibbiy ko'rikdan o'tishlari maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlangan. Bu modda kiritilishining mohiyati shundaki, imonli, insofli va yaxshi niyatli inson uchun oila qurish, uning mustahkam poydevorda bo'lishiga qayg'urish qanchalik muhim va majburiy bo'lsa, yoki ota-ona bo'lish mas'uliyati kuchli bo'lsa, o'zidan sog'lom zurriyot qoldirish, uni sog'-salomat katta qilib voyaga etkazish, to'g'ri tarbiya berish shunchalik mas'uliyatli va majburiy ishdir. Shuning uchun ham har bir yigit va qiz, yoki ularning ota-onalari yangi oila qurish ishini savob va mas'uliyatli deb anglasalar, nikohga kiruvchilarning pushti va nasli nuqtai nazaridan sog'-salomatligiga ishonch hosil qilish shunchalik zururdir. Tibbiy ko'rikdan o'tgan har ikki yosh eng avvalo o'z vijdoni oldida toza bo'lishi masalaning bir tomoni bo'lsa, hali oilani qurmay turib, uning salomatligi haqida qayg'urayotganligi ulardagi ana shu nikohday muqaddas narsaga bo'lgan jiddiy va mas'uliyatli munosabatining namoyon bo'lishidir. Ayniqsa, bugungi bozor munosabatlari sharoitida oila har bir a'zosining sog'lom bo'lishi, yangi tug'ilgan farzandning sog' va salomat katta bo'lishi qanchalik muhim iqtisodiy hamda ma'naviy masala ekanligini bugun hamma tushunib qoldi.

Jamiyatda sog'lom oilalar sonini oshirish maqsadida qabul qilingan qarorlardan biri bu – "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi Nizomdir. Bu hujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 avgustda qabul qilgan 365 sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu Nizomga ko'ra, barcha barcha fuqarolar nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tishlari zarur. Bunda bo'lajak kelin-kuyovlar beshta asosiy xastalik – sil, teri-tanosil, giyohvandlik, OITS, ruhiy kasalliklar bo'yicha tekshiriladi. Sababi, bu beshta kasallik bevosita naslga ta'sir qiladi.

Kuzatishlar va amaliyot shuni tasdiqlamoqdaki, nikoholdi tibbiy ko'rikdan ongli ravishda o'tish, salomatlikni asrashning aynan o'zimizga, oilamizga bog'liq jihatlarini bilish, bolalar sporti, oilaviy, ommaviy sportni rivojlantirish, oilada sog'lom yashash tarzi ko'nikmalarini shakllantirish millatni jisplashtiruvchi, naslni poklovchi, davlatni kuchli qiluvchi omil sifatida baholanmoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar yurtdoshlarimizda "salomatlik" qadriyatiga munosabatlari ijobiy tomonga o'zgarayotganligini isbotlamoqda. Xususan, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy hamda jamoatchilik fikrini o'rganish "Ijtimoiy fikr" Markazlarining tadqiqot natijalariga e'tibor beradigan bo'lsak, agar 2003 yilda aholining faqat 42,7 foizigina nikoholdi tibbiy ko'rikdan o'tishga ongli munosabatni ifoda etgan bo'lsa, 2005 yilda bunday

ijobiy ko'rsatgich 84,4 foizni tashkil etdi. Oxirgi yillarda bu borada yanada sezilarli ijobiy o'zgarishlarning sababi ham eng avvalo yosh onaning, kelinchakning salomatligini muhofaza qilish istagi etakchi omil bo'layotganligidir.

Olimlarning kuzatishlari va tadqiqotlar yurtdoshlarimizda, ayniqsa, yosh kelin-kuyovlarda xastaliklarni oldini olish yoki bemor bo'lib qolganda dori-darmonlarni iste'mol qilishga munosabati keskin o'zgarib borayotganligini ko'rsatmoqda. Yurtdoshlarimiz bunda eng avvalo profilaktik tibbiyot, ya'ni xastalikni oldini olish uchun sog'lom turmush tarzi qonun-qoidalariga rioya etish, bunda sog'lom fikr va ruhiy quvvatdan foydalanish, bo'lgan-bo'lmagan dorilarni iste'mol qilavermaslik ko'nikmalarini egallab borayotganligi tasdiqladi. Bu ham ma'lum ma'noda mamlakatimizda "Sog'lom ona – sog'lom bola" ijtimoiy harakatining, samarali targ'ibot-tashviqot ishlarining natijasidir. Qishloq xududlarida aholining toza ichimlik suvi, zarur sanitariya-gigiena shart-sharoitlarini yaratish, xususan, otabobolarimizdan qolgan har bir mahallada sharqona yuvinish maskanlari bo'lmish hammomlar qurilishiga e'tiborning ortayotganligi ham yurtdoshlarimiz psixologiyasining muhim o'zgarishlaridandir.

Oxirgi yillarda ommaviy sportga, oilaviy hamda bolalar, ayollar sportiga e'tibor yanada kuchaydi. "Barkamol avlod" sport o'yinlari, "Universiada", "Umid nihollari" musobaqalari, Respublika ayollar spartakiadasi, badiiy gimnastika bo'yicha xalqaro bellashuvlar va boshqalar o'z ko'lamini va xalqchilligi bilan xalq e'tirofini qozondi. Ushbu sa'yi harakatlar davlatimizning bu boradagi strategik rejalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda xalq bilan hamjihat ekanligini isbotlamoqda. Yurtimiz ayollari va bolalar sport bilan faqat o'zining jismoniy quvvatini tiklash va bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish uchun emas, balki u orqali sog'lom turmush tarzi keng targ'ibot qilish, ma'naviy va jismoniy kamolga intilish, turli salbiy ta'sirlar va zararli odatlardan halos bo'lish, kuchli xarakterni shakllantirish uchun shug'ullanayotganliklari har qanday taxsinga loyiqdir.

Bularning barchasi strategik maqsadimiz – milliy genofondni yaxshilash, barkamol va sog'lom avlod tarbiyasi borasida amalga oshirayotgan ishlarni yanada takomillashtirish orqali yosh oilalarning barqarorligiga erishishdan iboratdir

16-MAVZU: OILAVIY MUNOSABATLARNING BUZILISHI: NIKOH AJRIMLARI

Oiladagi inqirozlar va ularning oqibatlari

Afsuski, barcha oila ham ota-ona va ular dunyoga keltirgan farzandlar bilan to'liq bo'lavermaydi. Taqdir taqozosi bilan ayrim oilalarda nizolar kelib chiqadi va uning oqibati sifatida nikoh barbod bo'ladi. Olimlar nikohning barbod bo'lishini o'rganib, uning sabablari turlicha bo'lishi mumkinligi to'g'risida o'z nazariy qarashlarini bayon etganlar. Masalan, ayrim psixologlar ajrimlarni "turtki" kontseptsiyasi orqali tushuntirishga urinadilar. Ya'ni, yaxshi tinch-totuv yashayotgan oilada birdan shunday holat yuz beradiki, masalan, xiyonat, o'lim, xastalik, rashk va shunga o'xshash voqealar turki bo'ldiyu, oila ustuni qulaydi. Aslida hayotda qo'qqisdan shunday bir silkinish yoki turtki bilan oila birdan buzilib ketishi kam uchraydi.

Yana bir holat olimlar fikricha, "orqaga ketish" deb nomlanadi. Bu shunday holatki, unga ko'ra, er va xotinni yaxshi, iliq munosabatlar bog'lab turgan, lekin aynan muhabbat birdan sovib, er-xotin bir-birini ko'rsa g'ashi keladigan, gaplari yoqmaydigan, nizokash bo'lib qoladi. Bunday voqealar hayotda tez-tez uchraydi. Sababi – birdan yongan olov, ya'ni, muhabbat, ma'lum vaqt o'tgach o'chishi, so'nib qolishi mumkin.

Shu kabi holatlar va undan boshqa sabablar tufayli oila ajrimlarining sodir bo'lishi barcha zamonlar va davrlarda ham kuzatilgan. Faqat nikohning barbod bo'lishi shakllari va sabablarida har bir davrda o'ziga xos asoslar bo'lgan deyish mumkin. Masalan, Sharq mamlakatlarida qadimdan nikohning barbod bo'lishi eng kam uchraydi, deb hisoblab kelingan. Chunki oila institutining poydevori mustahkam bo'lishiga ajdodlarimiz qayg'urganlar. Etti pushtini surishtirish, sovcilik instituti orqali bir-biriga mos keladigan yoshlarning taqdirini bog'lash, hattoki, uzoq qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar, ya'ni, oldindan bir-birlarini bilgan odamlarning o'zaro kelishuvi, mehr va muhabbat rishtalari orqali oila qurish o'zbekchilikka xos odatlar sifatida qadrlangan va ta'kidlab o'tilgan nikoh motivlarining barchasida oqilona fikr yuritish, yoshlar va ular ota-onalarining "etti o'lchab bir kesishi" oilaning mustahkam bo'lishi uchun zamin hisoblangan.

Nikoh ajrimlariga kelsak, bunday holat Sharq xalqlarida ham, bizda ham sodir bo'lgan. Eski manbalarda nikoh ajrimiga sabab bo'lgan omillar sifatida avvalo, er yoki xotinda to'ydan keyin aniqlangan nasliy xastaliklar, ko'p holatlarda erkak kishining, ayrim holatlarda ayolning boshqa inson bilan "til" topishib ketishi, boobro' va mansabdor shaxsning kelinchakni yoqtirib qolishi va zo'rlik bilan eski oilani buzishga majbur qilishlar, farzandsizlik, ayolning bepushtligi sabab erkakning xotinni taloq qilishi, iqtisodiy nochor yosh oilaning o'z ro'zg'orini yurita olmaganligidan ayolning boshqa odamga turmushga chiqishga majbur bo'lib qolishi kabi sabablar qayd etilgan. Muhimi shunki, nikohning barbod

bo'lishidagi tashabbus asosan erkak kishining qo'lida bo'lgan. Agar u xohlasagina nikoh barbod bo'lgan. Agar mabodo ayol tashabbus ko'rsatsa, u qattiq jazolangan, jamoatchilik uni qoralagan, hattoki, tosh bo'ron qilinganligi to'g'risida qadimgi tarixdan, eski kinofilmlardan ma'lum.

Boshqa xalqlarda ham o'ziga xos an'analar mavjud bo'lgan. Masalan, qadimgi Xitoyda nikoh ajrimiga olib keladigan sabablarga erning ota-onasi ra'yiga qaramaslik, ularga kelinning gap qaytarishi, betga choparlik, bepustlik, mahmadonalik, bedavo xastalik, rashk kabilar kirgan. Lekin yuqoridagi holatlar bo'lsa-yu, ayol erining ota-onasiga aza tutayotgan bo'lsa yoki u chin etim bo'lsa, eri uni baribir uydan xaydab yubora olmagan.

Qadimgi Gretsiyada esa nikoh ajrimini sodir etish ancha engil bo'lgan. Er guvohlar oldida xotiniga u bilan ortiq yashay olmasligini, nikohi buzilganligini aytgan, ayol barcha sep-suriqlarini yig'ishtirib, o'z ota-onasining oilasiga qaytib ketavergan. Sarpo suriqlar, ayolga tegishli barcha narsalarning unga berilishi majbur hisoblangan, hattoki, ajrimning sababi ayolning xiyonati bo'lgan taqdirda ham mol-mulk, ziynatlar ayolga berilavergan. Lekin ayol eri bilan yashashni xohlamay qolgan holatlarda uning ajrim olishi mushkulroq bo'lgan, bunday paytlarda xotin shahar xokimiga yozma ravishda rasmiy murojaat qilishi, va ular qaror qabul qilishi lozim bo'lgan. Bunday hollarda kim aybdor deb topilishidan qat'iy nazar, bolalar otasi bilan qoldirilgan.

Rimliklarda ham ajrimlar ilgaridan odatiy holday qaralgan. Tarixdan ma'lumki, shoir Ovidiy va tarixchi Pliniy uch marta uylanganlar, Yuliy Sezar va Antoniy esa to'rttadan xotinga ega bo'lganlar. Bu kabi tarixiy hodisalar manbalarda, tarixiy filmlarda yaxshi aks ettirilgan.

Qadimgi Hindistonda esa nikoh oddiygina fuqarolar ittifoqi emas, ilohiy ittifoq sifatida qaralib, nikoh rishtalarining buzilishi nihoyatda g'ayritabiiy holat deb baholangan. Nikohning buzilishi faqat er tashabbusi va ayolning katta gunohi tufayli ro'y berishi mumkin bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan ikki mingliklardan qolgan manbalarda ko'rsatilishicha, "sakkiz yil mobaynida bola tug'magan ayol boshqasiga almashtirilishi mumkin, o'lik bola tuqqan – o'ninchi yili, faqat qiz bolalarni tug'adigani – o'n birinchi yili, urushqoq, beadabi esa o'sha zahoti er tomonidan qo'yib yuborilishi mumkin" bo'lgan. Keyinchalik hindlar ham ajrimlar siyosatini qayta ko'rib chiqib, endi nikoh quyidagi holatlarda ham barbod bo'lishi qayd etilgan: agar ayol erining barcha boyliklarini isrof qilish, noo'rin ishlatgan bo'lsa, abort yo'li bilan farzandini yo'qotgan bo'lsa va erining hayotiga suiqaqd qilgan bo'lsa. Ayol esa faqat ikki holatda eridan ajrim talab qilish huquqiga ega bo'lgan: eri bepust bo'lib, o'z erlik vazifasini bajara olmay qolgan bo'lsa va sodir etgan gunohi uchun uni qavmdan chiqarib yuborilgan bo'lsa.

Shunga o'xshash nikohning barbod bo'lishi shakllari ham, uning motivlari ham turfa xil. Ko'pgina xalqlarda ajrimlarning motivi sifatida er-xotin xiyonati qayd etiladi. Shunisi xarakterliki, erkaklarning xiyonatidan ko'ra ayolning xiyonati barcha madaniyatlarda ham qattiqroq qoralanadi, chunki buning asosiy sababi – xiyonatkor ayol boshqa erkak bilan uchrashib yurib, undan homilador bo'lib qolishi va nikohsiz begona bolaning tug'ilishiga sababchi bo'lib qolishi mumkin. Ya'ni, bunda nafaqat oilaning balki yangi tug'ilgan bolaning manfaati jiddiy zarar ko'radi, chunki bu bolada kimning haqi borligi, kimning mol-mulkiga u voris bo'la olishi masalasi o'ylantiradi.

Lekin er-xotinning xiyonatiga befarq qaraydigan xalqlar ham Er yuzida topiladi. Masalan, Afrikadagi dinka qabilasida er agar xotini uning nazarida nodonroq bo'lsa ham, bemazaroq ovqat pishirsa ham u bilan ajrashib ketaveradi. Erkakning begona ayol bilan "don olishib yurishi" hech kimni qiziqitirmaydi, hattoki, qonuniy xotini ham bunga unchalik ahamiyat bermaydi. Shu kabi Assama orolida yashaydigan qabila ham ajrashishda bir-birining quyi yoki yuqori tabaqadan ekanligiga qarab qaror chiqaradi. Masalan, agar ayol yuqori tabaqa oila vakilasi bo'lsa, u nikohni bekor qilish va boshqa erkak bilan yashab ketaverish huquqiga ega bo'ladi.

Albatta, musulmon xalqlarida oila qanchalik qadrlansa, taloq yoki ajralish holatlari shunchalik tahqirlangan. Shu nuqtai nazardan musulmon olamida o'ziga xos shariat qonunlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular asrlar osha oila-nikoh munosabatlarini tartibga solishda muhim omil bo'lgan. Qur'oni-Karimning qator suralarida, jumladan, uning "Baqara" surasida er va xotinning o'zaro insoniy va mulkiy munosabatlari, farzandni dunyoga keltirish va uni voyaga etkazishda ota-onalik mas'uliyati va burchlari bayon etilgan. Unda "taloq"ning Alloh tomonidan buyurilgan, lekin uning o'ziga eng noma'qul bo'lgan amaldan ekanligi ta'kidlangan. Demak, musulmonchilikda oilaning buzilishi "qush inining buzilishi" kabi yomon, noxush oqibatlarni keltirib chiqaruvchi omil sifatida qaraladi. Musulmon qoidalariga ko'ra ayolning nikoh ajrimining tashabbuskori bo'lishlik qoralanadi, lekin vaziyat talab qilganda ayol o'z haq-huquqlarini talab chilmagan holad erining uyidan ketishi mumkin. Erkak esa agar bilmay "Taloq" so'zini ishlatib qo'ygan bo'lsa, o'z ayoliga qayta uchinchi martagacha uylanishi mumkin, lekin uch martadan keyin uning yana uylanishi qat'iyat man etiladi. Tabiiy, hozirgi sharoitda huquqiy davlat qurish sharoitida bunday shar'iy qoidalariga emas, amaldagi qonunlarga ko'ra ajrim holatlarini muvofiqlashtiriladi. Uning

qoidolari O'zbekiston Respublikasining "Oila Kodeksi"ning "Nikohning tugatilishi" deb nomlangan 7 bobning 37-48 moddalari hamda "Nikohdan ajralishni qayd etish" deb nomlangan 26 bobning 218-222 moddalari bilan tartibga solingan.

Rossiyada o'tkazilgan oxirgi tadqiqotlarda nikoh ajrimlarining asosiy sabalari sifatida quyidagilar qayd etilmoqda (turli yoshli so'raluvchilarning jami soniga nisbatan foiz hisobida):

- *moddiy, maishiy muammolar* – 55;
- *er yoki xotinning ichkilikka ruju qo'yishi* – 39;
- *yoshlar uchun oilaviy qadriyatlarning pastlab ketishi* – 27;
- *er-xotin xiyonati* – 19;
- *psixologik mos kelmaslik* – 17;
- *oilaviy hayotning mazmunsizligi* – 12;
- *boshqa birovni sevish qolish* – 11;
- *farzandlarning yo'qligi* – 7;
- *boshqa sabablar* – 2;
- *javob berishga qiyналganlar* – 6.

Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tomonidan nikoh ajrimlarining sabablari o'rganilganda, aksariyat holatlarda bu birinchi o'rinda er-xotinlarning o'zaro kelishmovchiliklari, fe'l-atvorning bir-biriga mos kelmasliklari, rashk, xiyonat, kelin bilan qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning chiqishmasliklari, erkakning zararli odatlarga berilib ketishi (ichkilikka, giyohvand moddalarga va shu kabi), moddiy qiyinchiliklar (asosan erning ishlamasligi, mustaqil oilani boshqara olmasligi), qudalarning to'ydan keyin o'zaro kelishmay qolishlari, erning daraksiz ketib qolishi kabilar qayd etiladi. Poytaxt bo'yicha ajrimlar sabablari o'rganilganda, iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli oilaning buzilishi eng oxirgi o'rinda qayd etiladi, chunki aksariyat o'ziga to'q, boy-badavlat oilalarda yoshlar asosan uch sabab tufayli ajrishib ketmoqda: rashk va xiyonat, kelin-qaynona munosabatlaridagi kelishmovchilik va turmush sharoitidagi noqulayliklar. Umuman olganda, nikoh ajrimlarining bosh omili yoshlarni ma'naviy jihatdan turmush qurishga tayyor emasliklaridir.

Oilaviy ziddiyatlarning er-xotin va farzandlar taqdiriga ta'siri

Amalda er va xotin ajralishga axd qilganda, ular o'rtasida farzand bo'lmasa, FXDYo idoralariga murojaat qiladilar va ularning nikohi bekor qilinadi. Agar o'rtada farzand bo'lsa, bu ishni sudlar xal qiladi, lekin aksariyat holatlarda o'z-o'zini boshqarish organi bo'lmish mahalla va undagi yarashtirish komissiyasining a'zolari bo'lmish faollar bunga aralashadilar, arzimagan sabab bilan ajrimgacha borayotgan yoshlarga jamoatchilik monelik ko'rsatadi. Chunki milliy mentalitetda farzandni tirik etim qilib qo'yish katta gunoh hisoblanadi, shuning uchun azaldan urf bo'lgan tamoyil borki, yosh oilaning keyingi taqdiriga kattalar aralashadi va oilaviy nizoning sabablari o'rganilgach, bir qarorga kelinadi. Agar oilaviy nizo yoshlarning, birinchi navbatda ayolning va farzandlarning salomatligi, tinchligi va birgalikda yashashlariga jiddiy xavf solgan hollarda (xiyosat tufayli bir-birini kechirolmasslik, erning tinimsiz alkogol iste'mol qilishi tufayli ayolni muntazam qiynashi, maishiy zo'ravonlik, oila byudjetiga erkak ulushining qo'shilmasligi kabi) jamoatchilik ayolning xaq-huquqlarini himoya qiladi va mahallaning o'zi ayol, uning farzandlari taqdirini belgilash, ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida bu ishga aralashadi. Joylardagi xotin-qizlar faollari oxirgi yillarda aynan shu masalalarda o'z-o'zini boshqaruv organlarining odilona faolligini oshirishga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Mahalladagi yarashtirish komissiyalarining a'zolari bilan o'tkazilgan suhbatlardan ma'lum bo'ldiki, ular aksariyat holatlarda aynan ayollarning manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi, lekin ayolning aybi va uning oilaviy yumushlarga tayyor emasligi, eri va qarindoshlar bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnatishga no'noqligi tufayli oila ajrim arafasida bo'lgan sharoitda mahalla maslahatchilari kelin bilan ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Masalan, Samarqand viloyati bo'yicha ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2006 yilning 10 oyi mobaynida jami 20711 ta nikoh qayd qilingan, sudlar orqali 59 ta va FXDYo idoralari bo'yicha 148 ta nikoh ajrimlari qayd etilgan. Jami yarashtirilgan oilalar soni 23 ta tashkil etgan bo'lsa, 2005 yil mobaynida Samarqand shahri bo'yicha sudga ajralish haqida da'vo arizasi berganlar soni 885 ni tashkil etgan, kattalarning va mahallaning aralashuvi bilan 162 ta oila saqlab qolinga, barchasida ayollar va bolalarning manfaatlarini himoya qilingan.

FXDYo organlaridan olingan raqamlardan ma'lum bo'lmoqdaki, oxirgi yillarda FXDYo organlari orqali sodir bo'layotgan ajrimlar soni ortmoqda, buning asosiy sababi – er yoki xotinning, yoki ikkalasining bepushtligidir. Milliy mentalitet nuqtai nazardan qaralganda, 1-2 yil ichida o'rtada

farzandning bo'lmashligi, ming afsuski, yosh oilaning buzilishiga sabab bo'lmoqda, bunda oilaning kattalari ko'proq salbiy rol o'ynaydi, ya'ni, bu borada sabrli munosabat xali shakllanmagan.

O'zbekistonda nikoh ajrimlarining imkon darajasida kam bo'lishi yo'lida olib borilayotgan ishlar o'zining natijalarini bermoqda. Yil sayin sudlar orqali nikoh ajrimlari sonining kamayib borayotganligi fikrimiz dalilidir. Quyidagi jadvalda oxirgi yillarda nikoh va ajrimlar koeffitsientlari keltirilgan.

Raqamlardan ko'rinib turibdiki, 1000ta qayd etilgan nikohga nisbatan olinganda, 1989 yilga nisbatan (14,6) 2006 yilda ajralishlarning miqdori kamaygan va 10,8 ni, 1000 nafar aholi soniga nisbatan hisoblaganda ham 2006 yilda salkam 0,6 promillini tashkil etdi. Bu MHD orasidagi eng ijobiy ko'rsatkichdir. Lekin absolyut miqdorda hisoblaganda, rasmiy nikohlar sonining oxirgi 5 yil mobaynida o'sib borayotganligini, nikohdan ajralganlikning absolyut miqdori esa, aksincha, kamayib borayotganligini (2004 yilda 17393 tani, 2005 yilda 16392 nafarni, 2006 yilda – salkam 15000) ta'kidlash mumkin.

6.1-jadval

O'zbekistonda rasman qayd etilayotgan nikoh va ajrim holatlari

Yillar	Nikoh		Ajrim koeffitsienti	
	<i>umumiy soni</i>	<i>koeffitsienti</i>	<i>1000 kishiga nisbatan</i>	<i>1000 ta nikoh soniga nisbatan</i>
1989	15000	8,2	1,5	14,6
2002	165385	6,8	0,6	9,2
2004	155936	6,0	0,7	10,1
2005	183991	7,0	0,6	11,0
2006	208423	8,1	0,58	10,8

Oilalar miqdorining ortib borishi oxirgi yillarda asosan yosh oilalar va nuklear tipli, ya'ni, er-xotin va ularning farzandlari alohida yashaydigan oilalar hisobiga sodir bo'lmoqda. Mavjud oilalarning salkam 50 foizi – bu nuklear oilalar, bir xonadonda bir necha alohida oilalar istiqomat qiladigan patriarxal oilalar jami oilalarning salkam 23,5 foizini tashkil etadi. Nuklear, yosh oilalarning aksariyati 9 yildan kam bo'lgan turmush tajribasiga ega bo'lganlar bo'lib, sodir bo'layotgan nikohning barbod bo'lishi holatlari aynan shu kabi oilalarga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni, ilmiy izlanishlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 70 foizdan ortiq nikoh ajrimlari yosh oilaga to'g'ri keladi.

Noto'liq oila – yolg'iz onaxon yoki otaxonlar, er yoki xotinning o'limi tufayli noto'liq bo'lgan oilalar, yoki ajrim tufayli paydo bo'ladigan oila tipidir. Afsuski, oxirgi sabab bo'yicha noto'liq bo'lgan oilalar boshqa toifaga nisbatan ko'p. Ajrim bo'lgan oilalarning salkam 1% dagina bolalar otaning qo'lida qoladi. Qolgan holatlarda voyaga etmagan bolalar onalari bilan qoladi. Bu onalarning o'rtacha yoshi 23-24 yoshni tashkil etadi, ularning qo'lida qolgan bolalarning o'rtacha soni 2,5 nafardir. Yolg'iz farzand tarbiyalayotgan yosh ayollarning ma'lumotliliigi o'rganilganda, ularning aksariyati o'rta va to'liqsiz o'rta ma'lumotli ekanligi e'tirof etilgan (20,5%). Yosh turmush qurayotgan qizlarimizning 12,3%i 15-19 yosh oralig'ida ona bo'lishadi. 15-16 yoshda ona bo'lish holatlari ham xanuz mavjud bo'lib, 2006 yilda ular soni 95 nafarni, yoki jami tuqqanlarning 0,01%ini tashkil etdi (2005 yilda 117 nafar edi, yoki 0,02%), 17-19 yoshda ona bo'lgan ayollar soni 19419 nafar bo'lib, bu jami tuqqanlarning 3,6 foizini (2005 yilda mos ravishda 19147 yoki 3,7%) tashkil etdi. Ularning har 10 tasidan bittasi (10,6%) talaba qizlardir.

Psixologik adabiyotlarda ajrimlarning tabiati, bu jarayonga oid qonuniyatlar ilmiy nuotai nazardan beriladi. Masalan, S.Kraxotvil ajrim jarayonining quyidagi bosqichlarini ajratadi:

Bosh ko'tarish bosqichi: xo'rlangan va norozi ayol o'z faolligini oshirib, ajrim sodir bo'lmashligining oldini olib uchun muayyan say'i-harakatlarga kirishadi. Lekin barcha ishlarni xavotirlik va hayajon bilan amalga oshirgani sababli, ko'p xatolarga yo'l qo'yadi va noma'qul ishlar ham qilib qo'yishi mumkin;

Tushkunlikka tushish bosqichi: ajralishni xohlamagan tomon vaziyatni boshqara olmaganligini tan olib, tushkunlik, depressiya holatiga tushadi, va endi o'zini ham ayblay boshlaydi;

Bo'yinga olish bosqichi: ajralishni xohlamagan tomon endi mavjud holat bilan kelishib, bunday nikohning bo'lganidan bo'lmagani ma'qulligi fikriga keladi.

Albatta, shuni ta'kidlash joizki, ayrim hollarda ikkala tomon ongli ravishda, o'zaro kelishib, bir-birlariga tana-dashnom bermaydilar va bunday ajrimlar yuqorida ko'rsatilgan bosqichsiz sodir bo'ladi. Demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilayotgan davlatlarda ajrimlar masalasiga ham demokratik tarzda qaraladi, ya'ni, bu ikki tomonning yoki birining manfaatiga mos kelishi inobatga olinib, ajrim sodir etiladi, lekin bunday holatlarda, ayniqsa, yosh bolasi bilan qolgan ona ijtimoiy-psixologik

yordamga, jamiyat tomondan ko'rsatiladigan madadga muhtoj bo'ladi.

Inqirozli oilani ijtimoiy-psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash va unga yordam ko'rsatish

Inqirozli oila yoki mushkul ahvolda tushib qolgan onalar, ularning farzandlari bilan psixologik-pedagogik yordam ishlarini tashkil etish asosan quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi:

- *diagnostik;*
- *korreksion;*
- *profilaktik;*
- *ma'rifiy.*

Inqirozli oila bilan ishlash avvalo shunday holatga tushib qolgan oilalarning talab-takliflari asosida, yoki u yoki bu xududdagi oilalarning ahvolini o'rganish natijalariga ko'ra amalga oshiriladi. Masalan, O'zbekiston sharoitida jami oilalarning salmoqli qismi yosh oilalar toifasiga kirishi, ularda muayyan muammolarning, ijtimoiy hamda psixologik muhofazaga ehtiyojni sezitishi tabiiy bo'lgani uchun ham bunday xizmat shahobchalari bir tomondan, talab va taklif asosida tashkil etiladi, ikkinchi tomondan, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan oilani muhofaza qilish, ularning muammolarini o'rganish va yordam berish o'z-o'zini boshqarish organlari, "Oila" markazlari, yoshlarning "Kamolot" ijtimoiy harakatiga yuklanganligi uchun tavsiya va ko'rsatmalar asosida ham tashkil etiladi. Qanday shaklda bo'lmasin, bunday markazlar yoki xizmat turlariga turli inqirozli sharoitni boshdan kechirgan oilaga yordam ko'rsatish ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Jamoatchilik tashabbuvi bilan tashkil etilgan shunday xizmat turlaridan biri mamlakatimizning turli tuman va shaharlari markazlarida tashkil etilgan Yoshlar ijtimoiy ko'mak markazlari bo'lib, uning qoshida tashkil etilgan "Yosh oilaga ijtimoiy va psixologik xizmat ko'rsatish" bo'limlari, undagi "Ishonch telefonlari" oila a'zolariga ma'rifiy, ma'naviy, axborot, psixologik xizmatlarni amalga oshiradi.

Oilaga ijtimoiy-psixologik xizmat markazlari kimning buyurtmasi bilan faoliyat boshlagani, uning faoliyati samarasini kim monitoring qilishidan qat'iy nazar, u quyidagi toifa insonlarga xizmat ko'rsatadi:

- *bolalar;*
- *ota-onalar;*
- *yaxlit oila.*

Oilada tarbiyalanayotgan bolalar muammolari bilan shug'ullanadigan ijtimoiy-psixologik xizmat markazlari asosan ular bilan diagnostik va psixokorreksion yo'nalishlarda ish olib boradi.

Diagnostik yo'nalishdagi ishlar o'z ichiga quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

- Bola psixik taraqqiyotida sodir bo'layotgan muammolar, chekinishlar va ularning asl sabablarini diagnostika usullari yordamida aniqlash;
- Bola normal taraqqiyoti jarayonida aniqlangan muammolari jihatlar va ularni bartaraf etish bilan bog'liq ishlar;
- Bola psixik taraqqiyotidagi patologiyalar va ularni qisman bo'lsa-da bartaraf etish, kelib chiqish sabablarini ota-onaga bildirish hamda hamkorlikda bolaga yordam berish choralarini belgilash.

Bola salomatligi va uning xastaliklarini psixik hayotga aloqadorligi bevosita ekanligini aniqlagan psixolog – maslahatchi ota-ona bilan birgalikda muammoning echimini izlaydi va bu bilan oila muhitini yaxshilashga hissa qo'shadi.

Bolalar o'rtasida olib boriladigan profilaktik ishlar asosan avvaldan belgilangan reja bo'yicha amalga oshiriladi. Profilaktikaning maqsadi – bolada anomal holatlarning oldini olishdir. Albatta bunda ham psixolog mutaxassis psixodiagnostik vositalardan foydalandi, lekin uning vazifasi eng avvalo bolada ro'y berishi mumkin bo'lgan patologik jarayonlarning oldini olishdir. Chunki oilaviy nizolar, oilaviy munosabatlarning izdan chiqishi shu oila muhitida tarbiyalanayotgan bolaning asab tizimiga, psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oilasida muammo bo'lgan bolalar o'rtasida olib boriladigan korreksion-tuzatish bilan bog'liq chora-tadbirlar ham diagnostik amaliyot bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bunda diagnostika orqali aniqlangan xulqdan chekinish holatlari bolaning yoshi, oilaviy sharoiti, qiziqish va iqtidori inobatga olingan holad malakali amaliyotchi psixolog tomonidan amalga oshiriladi. Bunda bevosita bola ongi va fikrlash tarziga ta'sir ko'rsatiladi, shuning uchun bunday tadbirlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'rtasida o'tkaziladi.

Ota-onalar bilan psixologik-pedagogik profilaktika ishlari oilada er yoki xotin tomonidan birlariga nisbatan noo'rin, beshavqat munosabatlar sodir etilganda amalga oshiriladi. Shuning uchun amaliyotchi psixolog eng avvalo er-xotinlarning qay biri ko'proq aybdor va qaysi birining insoniy sha'ni

va huquqlari paymol etilganini aniqlashi darkor. S.Kovalevning fikricha, nizokash er-xotinlarning dastlabki muloqotda psixologga bergan ma'lumotlari har doim ham haqqoniy, ob'ektiv bo'lavermaydi. Psixolog xizmatidan foydalanishni istagan shaxsning o'zi muammoni aniq nimada ekanligini bayon etolmaydi. Masalan, eridan noligan xotin erning qay darajada nohaqligi yoki nima sababdan undan ko'ngli qolganligini aniq aytib berolmaydi. Ayniqsa, bunday holatlarda nizoli vaziyatni keltirib chiqargan "aybdor" bola bo'lib chiqsa, ikkala tomon ham o'zicha haq va ularning ikkisini janjallashishga turtki bo'lgan omil ularning farzandini sevishi bo'lib chiqadi.

Rus olimi V.V.Stolin psixologik xizmat markazlariga norozilik bilan murojaat qilgan ota-onalarning shikoyatlari mazmunini o'rgangan va ularni toifalarga bo'lgan:

1. Bolasidan tashvishlangan ota-onaning murojaati. Aslida ba'zi murojaatlar o'rinsiz bo'lib, ota-onaning ortiqcha jonsarakligi, xavotirchanligi tufayli kelib chiqadi, ular har ehtimolga qarshi bolsini parvarishlash, tarbiyalashga adashib ketmaslikdan qo'rqib psixolog qabuliga keladi.

2. Shikoyatli murojaat ota-onaning bolaga munosabatining o'zidan kelib chiqadi. Chunki aslida bola ota-ona ishora qilayotgan tashvishlardan, nuqsonlardan xoli bo'ldai. Masalan, onaning fikricha, bolasi uni yoqtirmaydi, uning aytganlarini qilmayapti, aslida uning o'zi bolaga etarli va o'rinli mehr berolmaydi.

3. Shikoyat qisman yoki mutloq asosli, chunki bolada haqiqatan ham ota-onaga, yaqinlariga, yaxshi ko'rgan narsalariga nisbatan noto'g'ri munosabat shakllana boshlagan yoki anchadan buyon namoyon bo'lmoqda. Bu nuqsonlar asosan ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarga aloqadorligi psixolog aniqlaydi.

4. Bola xulqidagi og'ishlar va ularga bohliq xatti-harakatlar ota-onani jiddiy tashvishga soladi. Lekin bunday holat umuman oilaviy o'zaro munosayuatlarning darz ketganligini oqibati bo'lishi mumkin. Bu odatda bolaning ota-onasi bilan normal munosabatda ekanligini ko'rsatadi, lekin xulqdagi nomuvofiqliklar bolaning o'qishi, intizomi, maktabdagi burchlarini to'la bajarmayotganligi bilan bog'lanadi.

5. Bolaning ota-onasi bilan munosabati yomonligining sababi – asosan kattalarning bolaga nisbatan adolatsizligi oqibati hisoblanadi. Bunday holatlarda haqiqatan ham bolaning psixologiyasida jiddiy o'zgarishlar va muammolar bo'ladi va ota-onaning shikoyati jiddiy psixologik tuzatish ishlarini taqozo etadi.

Yuqoridagi kabi shikoyatlar ortib borgan sari oxirgi yillarda ota-onalarning o'z farzandlarini to'g'ri tarbiyalashlari, o'zaro munosabatlarini to'g'ri maromda tashkil etishlari borasida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Shunday loyihalardan biri "Ota-onalikning samaradorligi treningi" bo'lib, u rus olimi A. Aladin tomonidan taklif etilgan. Bu trening ota-onalarda oilaviy munosabatlarda o'zini qanday tutish, farzandlar bilan munosabatda qo'llaniladigan eng samarali usullar borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga yo'lantirilgan.

O'zbekiston sharoitida ham endi keng ko'lam yozayotgan xususiy va davlat muassasalari taklif etayotgan "Oila saboqlari", "Ijtimoiy psixologik treninglar" aynan er-xotinlarni ota-onalikka va o'zaro munosabatlarining turli jihatlariga qaratilgandir. Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tomonidan mahallalarda tashkil etilayotgan "Ota-onalar universitetlari"ning asosiy maqsadi va yo'nalishi ham aynan shu kabi muammolarni joyida, oila muhitida echishga kattalarni va yoshlarni o'rgatish, ularda sohlom munosabatlar psixologiyasini shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir

17-MAVZU:. OTA-ONA – BOLA MUNOSABATLARI PSIXOLOGIYASI

"Ota-ona – bola" munosabatlari tizimi

Oila va nikohning paydo bo'lishiga sababchi omillardan biri, ayniqsa, bizning sharoitimizda, farzand tug'ilishidir. Farzandsiz er-xotin aloqalarini, umuman oilaviy munosabatlarini tasavvur qilish mushkul. Ilmiy manbalar tarixan insoniyat ota-ona va farzandlar munosabatlari o'ziga xos bosqichlar va rivojlanish qonuniyatlarini boshidan kechirganligidan guvohlik beradi. Bashariy tarixi shundan dalolat beradiki, zamonlar osha ota-onaning bolaga nisbatan xususiy mulkday qarab, uning ustidan hukmronlik qilishi borgan sari farzand ehtiyojlari bilan hisoblashish, uning barcha istaklarini bajo keltirib, unga cheksiz g'amxo'rlik ko'rsatishgacha bo'lgan munosabatlarga aylangan. Ota-ona – bola munosabatlarini agar tarixiy davrlarga bo'ladigan bo'lsak, ota-onaning bolaga yondoshuv usullari bo'yicha qator bosqichlarni boshidan kechirganligini ko'rish mumkin.

Olimlarning tavsiflashicha, antik davrlarda erkak va ayol aloqalari oqibatida farzand tug'lsa, unga deyarli befarq qarash, ya'ni, infantitsid munosabat kuzatilgan, bunday munosabat mohiyatan shafqatsizlikka asoslangan bo'lib, bolani dunyoga keltirganlar uchun uning nasl-nasabi, taqdiri unchalik

ahamiyatli bo'lmagan. Yangi asrga kelib, bu munosabatlar tubdan o'zgargan, odam zotida egoizm, o'ziga tegishli narsaga nisbatan egalik hissining takomillashib borishi o'zidan bo'lgan zurriyodga nisbatan munosabatlarda ham o'z aksini topgan.

Mulkchilik shakllarining o'zgarishi, turmush tarzi qadriyatlariga monand kattalarning bolaga nisbatan his-kechinmalari ham o'zgarib borgan. Masalan, XIX asrning boshlari XX asrlarning o'rtalariga kelib, ota-onalar farzandlarining jamiyatda tutajak o'rinlari, ularning ijtimoiylashuviga alohida e'tibor bera boshlaganlar. Keyingi davrlar esa kattalarning kichiklar taqdiriga befarq emasligi, ularni qo'llab-quvvatlash, rivojlanishiga ko'maklashishning ahamiyatini anglash davri bo'lgan. Bu an'ana deyarli bizning davrimizda ham davom etib kelmoqdaki, endilikda tug'ilgan bolaga e'tibor oilaning barcha qadriyatlaridan ustun ham keladi. Lekin bunday g'amxo'rlik psixologiyasi ham madaniy-tarixiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, ayrim xalqlar (aksariyat Evropa xalqlari) bolaga u kichikligida juda katta mehr va g'amxo'rlik ko'rsatadi, taxminan o'smirlik davridan boshlab, uning erkinligi tan olinadi va ota-ona tomonidan beriladigan tarbiya uslublari o'zgartirilib, unga kattalarcha munosabatlar barqarorlashadi. Boshqa bir madaniy-etnik hududlarda, aksincha, farzand balog'atga etgani sari ota-onaning unga e'tibori kuchayadi. Masalan, Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarda ham oila kattaligi va serfarzandligi bois, bolalarning kichik yoshdagi rivojlanish xususiyatlariga tabiiy holatday qarab, juda katta qayg'urish bilan uning ma'naviy, ruhiy rivojlanishiga e'tibor qaratilmaydi. Lekin qiz bola balog'atga etib, ko'rkamlashib borgani sari, o'g'il bolaning qo'lidan ish kelib, qatorga qo'shilgani sari, ota-onada ulardan g'ururlanish, taqdiriga kuyunish, g'amxo'rlik ko'rsatish ham ortib boradi. Bunday g'amxo'rlik shu qadarki, uylangan o'g'ilning qadam bosishlarini ham hamon ota-ona nazorat qilaveradi, bu ba'zan, qaynona-kelin munosabatlarida, yoki ota-o'g'il munosabatlarida tarangliklarni, nizolarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida qayd etilgan davrlarda tabiiy, ota-ona farzandlarini tug'ish, tarbiya qilish va jamiyatga tayyorlashda o'ziga xos metodlarni qo'llagan. Boshida o'zidan ajratishni, hayotga tayyorlashni ham bilmagan ota-ona bora-bora bolani jamiyatda ijtimoiylashuviga ahamiyat beradigan, shu jarayonga yordam beradigan bo'lib borgan, ota-onadagi egoizm bolalardagiga aylanib borganki, hozirgi davrda ko'pgina ota-onalar farzandlarining faqat o'zini o'ylashi, ota-onani tushunmasligidan noliydigan ham bo'lib qolgan. Lekin aslida tarixiy rivojlanish tendentsiyalariga e'tibor berilsa, bunga faqat ota-onalarning o'zlari aybdordirlar.

Reproduktiv xulq psixologiyasi

Oilada farzand tug'ilishi, uning soni va tarbiya berish imkoniyatlari masalasi har doim ham dolzarb bo'lgan. Lekin ayrim G'arb davlatlarida, jumladan, Rossiyada oilada bola sonining keskin kamayib ketishi munosabati bilan er-xotinning reproduktiv huquqi, madaniyati va xulqi masalasi ayni davrda o'ta dolzarb masaladir. Rus olimi S.P.Kapitsaning (1999) pessimistik bashoratiga ko'ra, Rossiyada 1995–2025 yillar oralig'ida tug'ilishning kamayishi 2 mln.dan (optimistik bashorat) 32 mln.gacha tushib (pessimistik bashorat) ketadi, bu raqamga 1995 yilgi 147,9 mln. aholi soni asos qilib olingan. Shuning uchun jahon olimlari, Xalqaro aholishunoslik jamg'armalari (jumladan, YuNFPA, YuNISEF) oilada sog'lom bola tug'ilishi siyosati orqali Er yuzining turli mintaqalarida reproduktiv xulqni muvofiqlashtirish masalasiga alohida e'tibor berib, konkret tadqiqotlar o'tkazmoqda. Bunday asosiy muammo – onaning reproduktiv xulqini boshqarish va muvofiqlashtirish, uning salomatligini muhofaza qilish, sog'lom zurriyod tug'ilishini kafolatlashdir.

Reproduktiv xulq – bu oilada farzand tug'ilishi bilan bog'liq xulqdir. U oila a'zolarini o'z davrining fuqarosi sifatida ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, salomatligi darajasi, madaniyatiga bevosita bog'liq bo'lgan xatti-harakatidir. Bu harakatlarning asl motivi avvalo insondagi o'zidan nasl qoldirish, oilada er-xotinlik burchini ado etishga bo'lgan ishtiyoq va layoqatga borib taqaladi. Rossiyalik ayollar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, ular xohlagan bola soni (2,8) real bolalar sonidan ancha ortiq. Shundan A.Antonov, ayni davrda odamlar o'z reproduktiv vazifalarini ado etmayaptilar, deb xulosa qiladi. Ko'pincha, reproduktiv xulqning motivlari odamning boshqa turdagi faoliyat motivlari ta'sirida so'nib bormoqda, avvalo bu harakat oilada sodir bo'lsa-da, u ayol kishining shaxsiy ishida tasavvur etiladi va ayolning bola tug'ib berish orqali o'zini namoyon etishi, erining munosabatlarini keskin o'zgartirish, unga ta'sir (tazyiq) ko'rsatish, ustidan hukmron bo'lish, kimnidir sevisish va unga g'amxo'rlik qilish ehtiyojini qondirishga borib taqaladi. Quyidagi 7.1-jadvalda A.Antonov o'tkazgan tadqiqotlar asosida reproduktiv ota-onalik ko'rsatkichlari keltirilgan.

7.1-jadval

*Oilada er-xotinning reproduktiv ko'rsatkichlari haqida ma'lumot
(A.I. Antonov tadqiqotlari bo'yicha)*

Reproduktiv ota-onalik ko'rsatkichlari	1935-1940 y.y.	1975-1979 y.y.	1995 yil
Reproduktiv davrning davomiyligi	18,8	7,2	2,5
Nikohga kirgan ayollarning o'rtacha yoshi	24,0	22,9	22,5
Nikohga kirgandan to bola tug'ilguncha bo'lgan davr	1,9	1,3	1,1
Birinchi farzand tug'ilgan paytda onaning o'rtacha yoshi	25,9	24,2	23,6
Farzandlar tug'ilishi orasidagi davr	5,5	4,2	2,6
Oxirgi farzandini tugqanda onaning o'rtacha yoshi	44,7	31,4	26,1
Reproduktiv davrning davomiyligi	20,7	6,7	3,6

Raqaamlardan so'nggi 60 yildan ziyod vaqt oralig'ida ayollarning ertaroq turmush qurishi, reproduktiv funktsiyalarning yomon bajarilishi, ya'ni ushbu davrning qisqarib borayotganligi, onalik davrining ham kamligi, erta yoki o'ta kech ona bo'lish holatlarining kuzatilayotganligi ayon bo'lib turibdi. Demak, reproduktiv xulqning asosiy parametrlarida jiddiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Bu kabi muammolar O'zbekiston uchun ham xosdir. Lekin bizda xotin-qizlarning reproduktiv madaniyati va ustanovkalari Evropa mamlakatlaridagidan farq qiladi.

Mamlakatimiz aholisining reproduktiv ustanovkalarini o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ayni paytdagi farzandlar soni – real bola soni so'raluvchilarda shahar bilan qishloqda o'ziga xoslikka ega (7.2-jadval). Masalan, 2002 yilda shaharlik respondentlarning 34,9 foizi 2 ta farzandga, salkam 30 foizi 3 ta farzandga ega bo'lsa, bu raqamlar 2004 yilda mos ravishda 33,6 va 25,2 ni tashkil etdi.

Qishloq oilasidagi real reproduktiv ustanovka 2002 yilda 37,7 foizi 2 ta, 24,0 foizi 3 ta, 19,2 foizi 1 ta bolali bo'lgan bo'lsa, 2004 yilda 2 va 3 nafar farzandlilar kamaygan, negadir ko'pbolalilar oshgan, bu raqamlarni yana bir takror tekshirish kerak. Chunki 2003 yilda Farg'ona vodiysi, Samarqandda o'tkazilgan tadqiqotlarida ko'p bolali oilalar soni keskin kamaygan.

7.2-jadval

“Nechta farzandingiz bor?” savoliga berilgan javoblar

Farzandlar soni	“Ijtimoiy fikr”		“Оила”	
	shahar	qishloq	shahar	qishloq
1 ta	16,4	9,8	17,4	19,2
2 ta	33,6	20,6	34,9	37,7
3 ta	25,2	21,2	29,4	24,0
4 ta	12,7	27,9	10,2	16,2
5 va undan ko'p	12,1	27,9	0	1,5

Ideal ustanovkalar (7.3-jadval) 2002 yilga nisbatan 2004 yilda 2 ta farzandli oila hisobiga o'zgargan: masalan, “Ijtimoiy fikr” ma'lumotlarida ham 2002 yilgi 31,6 foiz, 2004 yilda 35,6%ga ko'tarilgan. “Oila” markazining ma'lumotlarida ham 15,6 foiz 26,5 foizga o'zgargan. 4 nafar va undan ortiq bolali oilalar “Oila” markazi hisobotlarida kamaygan: 42,4 dan 30,8 ga, lekin “Ijtimoiy fikr”da biroz o'sish bor: 28,8 dan 30,8 gacha oshgan.

7.3-жадвал

“Sizningcha oilada nechta farzand bo'lishi kerak?” savoliga olingan javoblar (“Ijtimoiy fikr” va “Oila” markazi ma'lumotlari)

Yillar	Tashkilotlar	1 ta	2 ta	3 ta	4 va undan ortiq	Бошқа жавоблар
2004	“Ijtimoiy fikr”	2,7	35,6	27,5	24,4	4,9
	“Oila”	3,4	26,5	33,8	30,8	5,5
2002	“Ijtimoiy fikr”	2,2	31,6	29,0	28,8	4,1
	“Oila”	0,7	15,6	33,2	42,4	8,1

Ko'rib turganimizdek, reproduktiv madaniyat oshgani sari real va ideal ustanovkalarda ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Muhimi – yurtodoshlarimiz bugungi kunga kelib, oilada farzandning borligi uning mustahkamligi omili ekanligini chuqur anglagan holda, sog'lom onadan tug'ilgan sog'lom bola uning baxt-saodati ekanligini to'la anglaydilar. Shu bois ham olib borilayotgan

targ'ibot-tashviqot ishlari, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faollashib borayotgan o'rni ularning reproduktiv xulqlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Perinatal psixologiya

Psixologiya fanida ishlatiladigan "perinatal" tushunchasi bilan tibbiyotda ishlatiladigan tushuncha o'rtasida muayyan farq bor. Tibbiyotda perinatal davr o'z ichiga homilaning ona qornidagi 28 haftalik taraqqiyot davri bilan bola tug'ilgandan keyingi 7-10 kunlik davr oralig'ini nazarda tutadi. Perinatal psixologiyada esa homila paydo bo'lgan davrdan toki chaqaloqning ona bilan birgalikda, emotsional bog'liqlikda kechadigan yaxlit davrigacha bo'lgan vaqt nazarda tutiladi. Psixologiya uchun bolaning er va xotin qo'shilishi natijasida qanday konstruktiv yoki destruktiv motivlar asosida paydo bo'lishi ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, ayolning homiladorlik davridagi his-kechinmalari, bolaning qanchalik kutishi kabi psixologik omillar keyinchalik u bilan amalga oshiriladigan psixoterapevtik ishlarda amaliy ahamiyat kasb etadi. I.V. Dobryakov (2003) homilador ayollarning shu davr mobaynidagi psixologik kechinmalarining shakllarini shunday tafovutlaydi:

- *optimal tip;*
- *gipogestagnozik tip, ya'ni, turli sabablarga ko'ra, homilador ayol va uni o'rab turganlarning uning holatiga e'tibori kamligi ko'rinishida (masalan, talaba bo'lgan homilador ayol o'qishi tashvishlari bilan homilasiga etarli vaqt ajratib e'tibor berolmaydi);*
- *eyforik tip, ya'ni homilador ayolning yangi holatidan o'ta lazzatlanishi, butun vujudi bilan "maza" qilishi holati;*
- *xavotirli tip;*
- *depressiv tip.*

Ayolning homiladorlik davrini qanday boshidan kechirishi uning ona bo'lganidan keyingi xulq-atvorini belgilaydi. Tug'ish bilan bog'liq tashvishlar psixoanalitik yo'l bilan O.Rank va S.Grofflar tomonidan batafsil o'rganilgan. Tug'ruqdan keyingi davr esa yana psixologik jihatdan alohida davr bo'lib, u ikkala tomonning farzand tug'ilishiga bo'lgan hissiy munosabati xarakteridan kelib chiqadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi va qadrlanadi. Lekin masalaning muhim jihati shundaki, nikohga kirishning eng dolzarb motivi farzand ko'rish bo'lgani sababli, aksariyat oilalarda ayolning petenatal davrida unga alohida mehr ko'rsatish, g'amxo'rlik qilish ham milliy an'analarimizga aylangan.

Onalik va otalik psixologiyasi

Oilaviy munosabatlarning eng ta'sirli, jozibali va muhim bo'lagi – bu ona-bola munosabatlaridir. Ularning muhimligi shundaki, ayni dastlabki muloqot va mehrli munosabatlar bolaning keyingi psixik va aqliy taraqqiyotini hamda onaning xulq-atvorini shakllantiradi.

Bola tug'ilishining dastlabki onlarida ona va bola o'zaro hissan va psixologik jihatdan bog'langan bo'lib, ikkalasi bir tan, bir vujud hisoblanadi. Shu bois ularning munosabatlarida simbiotiklik (bir xillik, qo'shilib ketganlik, yaxlitlik) bo'ladi. Bola ulg'ayib, katta bo'lgani sari ular o'rtasidagi masofa, psixologik distantiya ortib boraveradi, simbioz munosabatlar aqliy-kognitiv munosabatlar shaklidagi psixologik aloqalarga aylanib ketaveradi.

Chaqaloqning jismoniy o'sishi va rivojlanishi tabiiyki, onaning g'amxo'rlikiga bevosita bog'liq. Shuni muhimki, bola uchun har qanday g'amxo'r va mehribon inson unga ona o'rnini bosishi mumkin (buvisi, otasi, enagasi). Lekin kimningdir doimiy g'amxo'rlik, ya'ni, mehribon insonning – "ob'ekt"ning doimiylik bola rivojlanishi uchun o'ta muhim hisoblanadi. Bola bir yoshga to'lguncha bo'lgan davri noverbal muloqot davri hisoblanib, undagi barcha o'zgarishlar onasi yoki yaqinlari bilan bo'ladigan emotsional, bevosita munosabatlarning natijasi bo'ladi va bora-bora muomalaga til va tovushlar bilan bog'liq belgilar kirib kela boshlaydi. Onaning barcha say'i-harakatlari bu davrda bola psixik rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi.

Agar ota va ona tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik doimiy va samimiylik kasb etsa, bu E.Erikson ta'biri bilan aytganda, "mutloq ishonch" (bazalnoe doverie)ga asos bo'ladi. Ya'ni, haqiqiy, g'amxo'r ona bolasining ayni paytdagi barcha ehtiyojlarini qalban his etib, o'sha zahoti qondirishga harakat qiladi, masalan, chanqasa suv, och qolsa – ko'krak suti, peshob qistaganda, to'sish kabi ishlarni o'z vaqtida bajarib boradi. Onaning bola ehtiyojlarini shu kabi aniq bilib, o'z vaqtida mehr ko'rsatishi ba'zan intuitiv tarzda kechsa, ba'zan ona o'zini bola bilan identifikatsiya qiladi, ya'ni, o'zini uning o'rniga qo'yish orqali, uning talab-istaklarini sezganday bo'ladi, "vujudi bilan his etadi". Bunday his qilishlar odatda ona tomonidan aniq anglanmaydi, lekin, tabiiyki, onaning kechinmalari va sezishlari to'g'ri

chiqadi. Lekin ba'zan pediater yoki boshqa mutaxassis bilan bolaning holati haqida fikrlashganda ayrim hollarda o'zining intuitiv qarorlari to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini anglab qoladi.

Tan-vujud bilan ona va bolaning yaxlitligi o'ziga xos hissiyot bo'lib, u ko'pincha "xolding" (inglizcha "tutish", "ushlash" so'zidan olingan) tajribasidan kelib chiqadi. Ya'ni, ona o'z bolasini qo'lida ushlab, badani badaniga tekkanda his qiladigan kechinmalari orqali boladagi o'zgarishlarni tuyadi, his qiladi. Vinnikott degan olimning fikricha, "xolding" tajribasi yaxshi bo'lmagan onalarning shaxsiy muammolari ko'p bo'lib, ular bolani qo'lida ushlaganda ham deyarli hech nimani his etmaydilar. Ana shunday chaqaloqlarda keyinchalik ixtiyoriy psixik funktsiyalar rivojida muayyan muammolar bo'lishi mumkin, masalan, ixtiyoriy ravishda diqqatni bir narsaga to'plash, ixtiyor holda u yoki bu narsani eslab qolish, gapirish, mantiqiy fikrlash va shunga o'xshash.

Gapirish, nutq faoliyati bilan bog'liq psixik funktsiyalar ko'pincha sinxronizatsiya jarayonida shakllanadi. Bolasini suyib, uning his-kechinmalarini bilish qobiliyatiga ega bo'lgan ona odatda farzandining psixik rivojlanishida barcha qiliqlarini, ulardan qanday foydalanish malakalarini orttirib boradi. Masalan, bolada ba'zan shunday holat bo'ladiki, unda onaga bola bilan faol kommunikativ faoliyatni amalga oshirish noqulay bo'ladi, go'dak injiqlik qilib, hech narsaga ko'nmay qoladi, buni sezgan ona bolaga gapiravermay, jimgina toza havoda sayr qildiraversa, ma'lum vaqt o'tgach, farzandidagi charchoq yoki boshqa sababli paydo bo'lgan holat o'tib ketadi, u yana jonlanib, onaga talpinadi, u bilan muloqotni davom ettiradi. Shuni inobatga olmagan holatlarda kommunikativ omadsizlik (Vinnikott) sodir bo'ladi, buning oqibatlari psixologiyada yaxshi o'rganilgan.

Boladagi kognitiv rivojlanish, ya'ni fikrlar tarbiyasi, dunyoqarashlarning shakllanishiga ham onaning xulq-atvori katta ta'sir etadi. Ingliz olimlarining kuzatishlarida (U.R. Bion) onaning har bir harakati, mimikalari bolaning tepasida turib, unga qiladigan muomalasi, erkalashlari bora-bora bola o'zlashtiradigan alohida iboralar, so'zlarda namoyon bo'ladi. Video tasmlarda shu narsa namoyon bo'lganki, onaning qiliqlari tobora bolaning nutqli-nutqsiz, mantiqiy-mantiqsiz harakatlariga, ishoralariga aylanib boradi, keyinchalik bola alohida so'zlarni talaffuz qila boshlaganda ham beixtiyor onaning mimikalari, talaffuz uslublarini qaytaradi. Shu tariqa onaning bevosita ishtiroki va yordamida bola dunyoni taniydi, o'rganadi.

Olamni ona orqali bilishga imkon beruvchi psixologik holatlardan yana biri – bu hissiy-emotsional bog'langanlikdir. Ingliz psixiatri Jon Boulbi tomonidan ishlab chiqilgan, turli hayotiy vaziyatlarda ona-bola munosabatlarida M.Eynsvort degan olim tomonidan tekshirilgan emotsional bog'langanlik nazariyasi odatda etti oylikdan keyingi bolaning onaga juda bog'lanib qolishi va shu orqali bola uchun muhim psixologik rivojlanishlar ro'y berishini isbotlagan. Masalan, 12 oylikdan 18 oylikkagacha bo'lgan bolaning onasidan 3 minutga ayirib turib qayd etilgan xulqiga qarab, olimlar hissiy bog'langanlikning 4 xil shaklini ajratishgan:

- *Ishonchli bog'liqlik.* Bola bunday sharoitda onasini ishonch bilan qidiradi, atrofni o'rganadi; ketib qolganini seza boshlagach, tushkunlikka tushadi, xafa bo'ladi, onasi qaytgach, uni zo'r xursandchilik bilan kulib kutib oladi, onasiga talpinadi;
- *Chetlashuvchi bog'liqlik.* Onasi ketib qolganligini bilgach, atrofqa qaraydi, qidiradi, lekin ona qaytgach, unga talpinishi minimal bo'lib, hattoki, teskari qarab ham oladi, o'yinchoqlarini o'ynashda davom etaveradi;
- *Avbivalent bog'liqlik.* Onasi ketgach, go'yoki qotib qolganday depressiyaga tushadi, o'ynamaydi ham atrofqa qaramaydi ham; onasi qaytgach, onasiga talpinmaydi ham, undan qochmaydi ham. Uning xafaligini ham, xursand ekanligini ham anglash qiyin bo'ladi;
- *Tartibsiz bog'liqlik.* Bolada onaga nisbatan bog'liqlikni kuzatish qiyin, go'yoki bolaga barcha narsa befarqday, qiliqlarda mantiqni kuzatish mushkul.

R.J. Muxamedraximov (1998) o'z tadqiqotlarida "xavfsiz bog'liqlik" atamasini ishlatadi. Bunda ona-bola munosabatlari juda tekis, ravon, bir-biriga monand, samimiy kechadi. Oila muhitida, yaxshi ijobiy munosabatlar doirasida kechgan bog'liqlik bilan ota-onasiz o'sgan etimxonadagi bolalardagi bog'liqlik o'rganilganda, ayni xavfsiz bog'liqlik borasida ular o'rtasida katta tafovut borligi isbotlangan.

Shunday qilib, onaning bolani normal psixik taraqqiyotida roli ulkan. Bu ta'sir bolaning chaqaloqlikdan keyingi davrlarida ham o'z kuchini saqlab qoladi.

Onalik xulq-atvori-ning shakllanishi

Olimlar ontogenetik taraqqiyot davrida yaxshi ona bo'lishga sabab bo'luvchi qator omillar qatorida qiz bolaning o'z onasi bilan yoshligidan boshidan kechirgan muloqot tajribasini, oilasida onaga va onalikka munosabat xususiyatlarini, o'z oilasida kichkina bolalar bilan muloqot tajribasi borligini inobatga oladilar (Filippova G.G., 1999).

Bu jarayonda qizchani ona tomonidan qanday tarbiyalanganligidan tashqari, muayyan madaniy manbalar bilan tanishligi ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, onasidan qanday ertaklar eshitgani yoki qanday o'yinchoqlar o'ynagani bevosita uning kelajakda qanday ona bo'lishiga ta'sir etadi. Masalan, yoshligidan mehribon ona haqida eshitganlarini, ertak holida bo'lsa ham yovuz kampirlar, yalmog'iz ayollar, o'gay onalar haqida eshitganlari bilan to'g'ri solishtirish tajribasi bor qiz o'zining istiqboldagi harakatining yo'nalishini belgilab olishi mumkin. Yoki qo'g'irchoqlarni erkalatishi, onasiday g'amxo'rlik qilishi ham ijobiy tajriba, lekin ming afsuski, hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan "barbi" kabi qo'g'irchoqlar qizchalarda onalikni emas, ko'proq ayollik fazilatlarini, oliftachilikni tarbiyalaydi. Zamonaviy ertaklarning ayrimlarida ham tarbiyaga zid keladigan syujetlar ko'p. O'zbeklar suyb ko'radigan multfilmlar, masalan, "Zumrad va Qimmat" ertaklarini ham agar ona to'g'ri sharhlamasa, bola ongida noto'g'ri tasavvurlar shakllanib qolishi, o'gay onaning albatta johil, otaning hamisha bo'ysunuvchanligi to'g'risidagi chalkash tushunchalar paydo bo'lishi mumkin.

Onadagi tug'ruqdan keyingi depressiya – chaqaloq tug'ilgandan keyinroq ayrim onalarda paydo bo'ladigan ruhiy holat. Bu o'ziga xos xastalik bo'lib, uning oldini olish uchun ko'p harakatlar qilinmoqda, chunki bunda ham psixologik omillarning roli katta. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, agar oilada er-xotin munosabatlari yaxshi bo'lmasa, otaning bolaga e'tibori etarli bo'lmagan vaziyatlarda, onaga amaliy hamda moliyaviy ko'mak berish yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, shu kabi qiyinchiliklar onada depressiyani hosil qiladi (Rodrigues va boshqalar, 2003).

Onalik deprivatsiyasi. Onalik deprivatsiyasi ochiq (agar ona o'z onalik burchini bajarmay, boladan ayrilgan bo'lsa) va yashirin (boladan yashirin voz kechish, uni yoqtirmaslik yoki biror sabab tufayli bolaga yaqin kela olmaslik holatlarida) bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham bola taraqqiyoti uchun nihoyatda salbiy, xavfli vaziyat yuzaga keladiki, ayrim hollarda bola hattoki, nobud ham bo'ladi. Masalan, chaqaloq tug'ilgach, xasta bo'lgani uchun uning uzoq vaqt mobaynida kasalxonada qolishi ham onalik deprivatsiyasiga sabab bo'ladi. Bu orada unda onalik mehri uyg'onmaydi, u yangi chaqaloqqa befarq bo'lib qoladi. Buning oqibatlari qanchalik og'ir bo'lishi onaning yoshiga va ayriliqning muddatiga bog'liq. Agar shunga o'xshash holatni boshidan kechigan ona juda yosh bo'lsa, unda bolaning psixik taraqqiyotida jiddiy asoratlar qoladi, u o'z xulq-atvorini nazorat qila olmaydigan, jizzaki, odamovi, jinoyatga, hattoki, o'z joniga qasd qilishga ham moyilligi yuqori bo'lib voyaga etadi.

Ona bolaning yonida bo'la turib, undan yashirin tarzda voz kechgan holatda ham bolada nevroitik xususiyatlar rivojlanadi, ayniqsa, bola shaxslararo munosabatlarda no'noq, urushqoq bo'lib, qarorlar qabul qilishda qiynaladi, ijtimoiylashuv jarayoni nihoyatda murakkab kechadi. Ko'rib turganimizdek, onaning bolaga psixologik yaqinligi uning istiqbolini, shakllanajak ijobiy fazilatlarini, jamiyatdagi o'rni va nufuzini belgilovchi muhim omildir.

Otalik psixologiyasi onalik psixologiyasiga nisbatan kam o'rganilgan soha. Otalar xulqini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ular ham g'amxo'rlik va samimiylik jihatidan ayollardan kam emas, kerak bo'lsa, ulardan ham mehribon bo'lishlari mumkin. Dastlab ota ham, ona ham bolaga nisbatan bir xil mehribonlik timsolida namoyon bo'lgani uchun, ular o'rtasidagi farqni chaqaloq deyarli his etmaydi. Bir yoshga to'lgach, bola otasini alohida mustaqil shaxs sifatida idrok eta boshlaydi, o'zaro munosabatlar triada shakliga o'tadi. Otasi va onasining o'zaro munosabatlarini kuzatib, bola tobora ayrim alohida olingan mustaqil, distantsion munosabatlarning ma'nosini tushuna boradi.

Godfruning olgan natijalariga ko'ra, bir yoshlik bola otasi bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni qadrlaydigan, xohlaydigan bo'lib boradi. Onaning munosabatlaridan farqli, ota bolasining jinsiga qarab o'ziga xos munosabatni o'rnatadi; o'g'il bolaga erkaklarcha, qiz bolaga boshqacha. Shu tariqa bolaning o'z jinsini anglashi, gender tafovutlar to'g'risida tasavvurlar shakllanadi. Umuman, oilada otaning bo'lishi bolaning ijtimoiy ko'nikmalari shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Buni bizning kuzatishlarimiz ham tasdiqlagan. Otaning mehri qiz bola uchun ham shu qadar muhimki, u ota-ona munosabatlarini hayoti mobaynida kuzatib borib, kelajakda o'z turmush o'trog'iga qanday munosabatda bo'lish lozim, degan savolga javob topadi. Ona xulqiga qarab esa, turmush o'rtog'i bilan baxtiyor yashash uchun ayol qanday bo'lishi kerak, degan savolning mag'zini chaqadi. Shuning uchun ham qiz bola uchun ham, o'g'il bola uchun ham oilaning butligi, ota-ona munosabatlarining iliq, samimiy, gumanistik bo'lishi katta hayotiy ahamiyat kasb etadi.

Ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllari

Oila, undagi shaxslararo munosabatlar, er-xotin va ota-ona hamda bolalar munosabatlari ko'plab tadqiqotlarning ob'ekti va predmeti bo'lgan. Bu borada O'zbekiston olimlarining ishlari ham diqqatga molik. Lekin bu haqda mahalliy matbuotda, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tomonidan chop etilgan qator risola va qo'llanmalarda batafsil bayon etilganligi sababli, bu borada jahon adabiyotida

keltirilgan ilmiy izlanishlarning qonuniyatlarini bayon etishga qaror qildik.

Xususan, ota-onalik ustanovkalari va ularning farzand tarbiyalash uslublari muammosi rossiyalik qator izlanuvchilarning asarlarida qayd etilgan (A.E. Lichko, 1979; A.A. Bodalev, A.A. Stolin, 1989; E.G. Eydemiller, V.V. Yustitskiy, 1999). Ota-onalikning eng muhim sifatlariga avvalo – protektsiya yoki farzandlarini tarbiyalash uchun sarflanadigan kuch, vaqt va e'tiborning mezonlari, bolaning turli ehtiyojlarini qondirish darajasi, intizomga chaqirish bilan bog'liq talablar darajasi, ta'qiqlovlar yoki bolaning xulqini jilovlash uchun ishlatiladigan sanksiyalar tizimi kiradi.

7.4-jadval

Ota-onalik xulq-atvoriga ko'ra oilada bola tarbiyasining uslublari

Tarbiya uslubi	Protek-tsiya	Ehtiyojlarni qondirish	Talabchan-lik	Ta'qiqlash	Sanksiya
<i>Haddan ziyod g'am-xo'rlik ko'rsatish giperproteksiya</i>	+	+	-	-	-
<i>G'amxo'rlikdan ustun keluvchi giperproteksiya</i>	+	±	±	+	+
<i>Ortiqcha axloqiy mas'uliyat</i>	+	-	+	±	±
<i>Emotsional raddiya</i>	-	-	±	±	±
<i>O'ta qattiqqo'l-lik</i>	-	-	±	±	+
<i>Gipoproteksiya</i>	-	-	-	-	±

Ushbu mezonlar asosida turli oilalarda ota-onalarning o'z farzandlarini tarbiyalash uslublarini farqlash mumkin. (7.4-jadval).

Giperproteksiya – ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e'tibori bo'lib, bu ularning bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e'tiborni ayamasliklarida namoyon bo'ladi. Ota-ona bu ishni hayot tarziga aylantiradi, ya'ni ona uchun ham, ota uchun ham bola tarbiyasi hayotining mazmun-muddaosiga aylanadi.

Giperproteksiya – ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko'r-ko'rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va to'siqlardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslikka qaratilgan harakatlar. Bolasi uchun “jonini jabborga beruvchilar” odatda o'zlari bilmagan holda farzandlariga yomonlik qilayotganliklarini sezmaydilar, natijada bola kelajakda ishga toqati yo'q, ko'pchilikning ichida o'zini tuta olmaydigan, hayotning past-balandliklarida o'zini nochor his etadigan, tantiq, erka bo'lib qoladi. Ayniqsa, bola o'smirlik yoshiga etganda, erka, tantiq bo'lgani uchun do'stlari va tengqurlari davrasida ham hamma aytganlari bo'lishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladi, lekin ikkinchi tomondan, aslida unda bunday sifatlar bo'lmaydi. Gap shundaki, bunday holatlarda ota-ona zurriyodi timsolida ilgari o'z hayot tajribasida erisholmagan armonlarini ro'yobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo'ladi, lekin bola ko'p jihatdan nochor ekanligini keyinchalik ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi.

G'amxo'rlikdan ustun keladigan giperproteksiya – bunda erkalatishdan ko'ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi. Shuning uchun bu tarbiya uslubida turli xil ta'qiqlovlar, chegaralashlar (“u mumkin emas”, “bu mumkin emas” qabilida) bisyor bo'ladi. Bunday sharoitda katta bo'lgan bola odatda mustaqil fikrli, mustaqil qarorlar chiqaruvchi bo'lolmaydi, lekin salga jahli chiqadigan, ko'p narsalardan norozi holda katta bo'ladi, chunki u doimiy nazoratga, birovlarining hamma yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib, aytib berishlariga o'rganib qoladi: onasisiz dars tayorlay olmaydigan, otasisiz ko'chaga chiqmaydigan bo'ladi, barcha ishlarida kattalarning aralashuviga ko'nikib ketadi.

O'ta kuchli axloqiy mas'uliyat – bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo'ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi. Ota-ona bolasining kelajagini puxta qilishni o'ylab, uning yurish-turishi uchun o'zlarini mas'ul deb his qilgan holda, shaxsiy tasavvuridagi insonni yaratishga, shaxsni shakllantirishga urinadilar, ba'zan nazorat ostida bolaning yoshi, aqliy yoki jismoniy imkoniyatlariga zid talablar, topshiriqlar ham berilaveradi. Masalan, “sen to'ng'ichimizsan, ukalaringga sen qarashing kerak”, degan ma'noda unga oiladagi kichik a'zolarga yoki kasallikka chalingan oila a'zosini parvarish qilish kabi mas'uliyatli va og'ir ishlar ham yuklanadi.

Emotsional raddiya – bunda ota-ona bolasini shunday tarbiyalaydiki, uning ota-ona hayotida u o'ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo'lmaganida ota-onaning hayoti boshqachi bo'lishi

muntazam ravishda eslatib turiladi. Agar bu farzand oilada yagona bo'lmasa, boshqa arzandaroq, suyuqliroq inson bo'lsa, vaziyat yanada og'irlashadi, "sen bo'lmaganingda..." yoki qiz bolaga qarab: "Sening o'ringda o'g'il bo'lganda edi" qabilidagi kesatqlar tez-tez aytilib turiladi.

Ayrim ota-onalar bu kabi emotsional jihatdan bolasini rad etayotganligini yashirishga urinadi, "nega bolani yoqtirmaysan?" kabi savollarga aslida uni sevishi, kerakligini ta'kidlagan bilan baribir bola ota-onasi uchun ortiqcha tashvish ekanligini his qilib yashaydi va tezroq mustaqil bo'lib olib, ularni tashlab ketishni, alohida yashashni ixtiyor qilib qoladi. Ona qanchalik o'z mehribonligini sun'iy ravishda namoyon etishga urinmasin, bola baribir ularning samimiy emasligini qalbi bilan his etadi. Ayniqsa, otasi bilan ajralishgan yoki ota tashlab ketgan holatlarda onaning bunday munosabati bolaga juda og'ir botadi.

Qattiqqo'llik – bir qarashda emotsional rad etishga o'xshaydi, lekin undan ochiqroq va og'irroqdir. Qattiqqo'llik to'g'ridan-to'g'ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to'la befarqlik, uning bor-yoqligini go'yoki sezmaslik kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham bola yoshligidan nima qilib bo'lsa-da, tezroq katta bo'lish, o'zi amallab tirikchiligini qilish, ota-ona tazyiqidan qutulishni o'ylab yashaydi. Bunday oilada bolani u yoki bu xulqi uchun jazolash odat tusiga kirib qoladi, bola qo'rqqanidan ota-ona hukmiga itoat etayotganligi, buning istiqbolida yomon asoratlari borligini kattalar bilmaydilar, bilsalar ham bu usul ular uchun samarali tuyuladi. Aybdorlik, aybga yarasha jazo kabi usullar bola xulq-atvorini boshqaruvchi psixologik omilga aylanadi, u ham kelajakda doimo aybdorlarni qidirishga o'rganib boradi.

A. Freyd nazariyasiga ko'ra, ana shunday jazoga hukm etilgan bola tobora agressiv bo'lib borib, o'zida alamni qaysidir bir ob'ektdan (o'zidan kichiklardan, begonalardan, hayvonlardan) olishga qasd qiladigan, qasoskor bo'lib o'sadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Amerikada ko'cha bolalarining kamida 1%i oilada ayni shunday tarbiyaning qurbonidirlar. Amerikalik olim S.D.Sherrits (2003) oiladagi ana shu kabi qattiqqo'lliklarning bola va ota-ona xulq-atvoriga salbiy ta'sirini o'rganib, ularning xarakterida ro'y beradigan o'zgarishlarga to'xtalib o'tgan. Jismoniy jihatdan bolaga zug'um qilib, uni kaltaklash holatlari deyarli barcha ijtimoiy qatlam vakillariga xosdir. Hayotda, ish-faoliyatida omadi kelmagan yoki baxtsiz muhabbat qurboni bo'lgan, lekin farzand ko'rgan ayollarning aksariyati achchig'ini bolasidan olishga moyillik tarkib topadi, bu tobora hayotiy ko'nikmaga aylanib boradi. Ayniqsa, stress omillar ta'sirida ota-ona (masalan, ishsizlar, uyi yo'qlar, ish qidirib boshqa erlarga ketib qolgan migrantlar, etnik yoki moliyaviy ziddiyatlarning qurbonlari, kambag'allar) o'z ijtimoiy muammolarini hal qila olmay, tug'ilgan bolasidan o'ch ola boshlaydi.

Turmushdagi muammolar qanchalik ota yoki ona uchun murakkab tuyulsa, ularning bolasini kaltaklashi, undan o'ch olish ehtimoli shuncha yuqori bo'lishini olimlar o'rganishgan. Shuni xarakterliki, bolasini tez-tez do'pposlaydigan ota-ona ayrim holatlarga unga qattiqqo'lliklarining sababini aytilib, bu kabi harakatlarni nima uchun, nima sababdan amalga oshirayotganligini tushuntirishga ham jazm qiladi, bolani ularni tushunishga, hattoki, ko'mak berishga chaqiradi. Masalan, topganini o'zi ko'chada eb, alkogolga almashtirib kelib, achchig'ini yana boladan oladi-da, puli asli kam ekanligini, ichmasa turolmasligini bolaga tushuntiradi. Bunda bolaning yoshi unchalik ahamiyatli ham emas, 2 yoshdan o'tgan bolaga nisbatan jazo choralari ko'rilganligini ayrim holatlarda OAVda aks ettiriladi.

Gipoproteksiya – shunday holatki, unda ota-onaning bola bilan shug'ullanishga yo vaqti etishmaydi, yoki bu ishni boshqalarga yuklab qo'yadi. Ayrim ota-onalar shu tarzda hayot kechirib, farzandlarini umuman nazorat ham qilmaydi, uning taqdiriga befarq bo'ladi, g'amxo'rlik ko'rsatmaydi, bolasining kelajagiga qayg'urmaydi. Gipoproteksiyaning yashirin shaklida ota-ona bola ustidan nomiga nimalardir qilganday bo'ladi. Lekin aslida ularni faqat o'zlarining kundalik muammolari qiziqtiradi. Bola bu holatlarni tahlil etib, o'zining kerak emasligini, oilada ortiqcha ekanligini anglab boradi.

Tashlab qo'yilgan bolalar yoki tashlandiq bolalar – odatda yoshligidan na moddiy, na ma'naviy ehtiyojlari qondirilmagan bolalardir. Ular masalan, qorni to'ymaganidan jismoniy taraqqiyotdan orqada qolsa, nazorat va e'tiborning yo'qligidan turli jinoyat yo'llariga kirib qoladi, yaxshi, samimiy e'tibor va mehrning yo'qligidan jamiyatda, odamlar orasida o'z o'rnini topishga qiynaladigan, odamovi, savodsiz bo'lib o'sadi. Bularning barchasi ularning kelajakda jinoyat yo'llariga kirib qolishiga yoki zararli odatlarga o'rganishi (giyohvand moddalar iste'mol qilish)ga sabab bo'ladi. "Mehr tayanchi" markazi Toshkent shahrida aynan shunday bolalar toifasini to'g'ri hayotga qaytaradigan, gipoproteksiyaning qurbonlarini oilaviy muhiti sharoitini o'rganganidan so'ng ota-onasini chaqirtirib kelib, ular bilan pedagogik-korreksiya, psixologik uslublarda ishlaydigan muassasa hisoblanadi. Markazdagi bolalarning barchasi oiladagi noto'g'ri tarbiyaning qurbonlaridir.

Gipoproteksiyaning ham haddan ziyod shakli borki, unda bola ota-ona nazoratidan ataylab tashlab qoldirilgani sababli, uning noto'g'ri yo'llarga kirib ketayotganligiga ham kattalar befarq bo'ladilar. A.E. Lichko, A.A. Vdovichenkolarning Rossiyada o'tkazgan tadqiqotlarida yomon yo'lga kirib ketgan, voyaga

etmagan jinoyatchilarning ota-onalarida jiddiy xatoliklar aniqlangan. Ular bolasining noto'g'ri xatti-harakatini oqlamoqchi ham bo'ladi, yoki aybni boshqalarga, masalan, ko'cha bolalariga, maktabdagi intizomsizlikka, o'qituvchilarning befarqligiga to'nkamoqchi bo'ladi, faqat o'zlarining aybini sezmaydi yoki tan olmaydi.

Oilaviy tarbiyaning yana bir shakli – ziddiyatli tarbiya. Bunda oila a'zolarining har biri bitta bolaga nisbatan turlicha tarbiya uslublarini qo'llaydi, masalan, otasi o'ta qattiqqo'l, ona o'ta mehribon, yoki ota-ona bolaning xulqini juda nazorat qilib, mas'uliyat bilan uning axloqiy tarbiyasi bilan shug'ullalanadi, buvilari esa aksincha, uni erkalatib, izdan chiqib ketishini – “hali yosh, katta bo'lganda o'zi yaxshi bo'lib ketadi”, qabilida ma'qullayveradi. Bunday beqaror tarbiya uslublarini E.Eydemiller, V.Yustitskiy, N.Lengardlar o'rganib, uning oqibatida bolada salbiy xarakter xususiyatlari, masalan, qaysarlik, obro'li shaxslarning tazyiqini noto'g'ri baholash kabilar shakllanishini isbotlaganlar. Ota-ona tarbiyadagi beqarorlikning oqibatlarini tasavvur qilsalarda, uning oldini olishni bilmaydi. Ko'pincha bu – bolalikka xos sifatlar ekanligi fikri ularni tinchlantiradi. Aksariyat ota-onalar bolasini yo'qotib qo'yish yoki uning ko'ngli qolishidan qo'rqib ham noto'g'ri tarbiya yo'llarini tutadi. Shuning uchun oilaviy tarbiya o'ta murakkab jarayon bo'lib, unda ota-onalar oldindan psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Yolg'iz ota-onalar. Ota yoki onadan biri mavjud bo'lgan oilalarning paydo bo'lishiga turli sabablar bor: ajrim tufayli bittasi qoladi, nikohsiz paydo bo'lgan oila sharoiti, bunda onaning yoshi katta bo'lishi ham (yoshi o'tib borayotganligidan nikohsiz bo'lsa ham bitta farzand tug'ib, uni yolg'iz o'zi katta qiladi), juda yosh bo'lishi (tasodifan yoshlik qilib qiz maktab yoshidayoq ona bo'lib qolgan holatlar) ham mumkin.

Odatda turli sabablarga ko'ra yolg'izlanib qolgan noto'liq oila a'zolari jamiyatdan ancha ayri yashashga, yolg'izlikka mahkum bo'ladi, bunday oilalar moliyaviy inqirozlarga ham uchraydi. Ayrim shunday oila farzandlari juda yoshlikdan ota qilishi lozim bo'lgan yumushlarning bir qismini o'z elkasiga olishga majbur bo'ladi. Tengqurlari orasida odamovi, gapga ham, ayrim ishlarga ham no'noq bo'lgani uchun uning do'stlari kam bo'ladi. Asosiy muloqot ob'ekti ona bo'lib, u ham ko'pincha turmush tashvishlari bilan bolasiga etarli e'tibor berolmaydi. Ayniqsa, o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshidagi bolalar ota-onaning ayrilg'ini juda ko'ngillariga yaqin oladi, asabiylashadigan, salga janjal ko'taradigan, onasi bilan ham, boshqa yaqinlari bilan ham kelisholmaydigan, agressiv bo'lib qoladi.

Injiq bolani yolg'iz o'zi tarbiyalashga majbur bo'lgan onalarda odatda depressiya holati kuzatiladi. Ko'pincha bunday ona o'zini omadsiz, turmush vaziyatlarining qurboniday his qiladi, ko'pincha xafa bo'lib yuradi va ich-ichidan o'zini bolalari oldida gunohkor his etadi, istiqbolda uni va farzandlarini nima kutayotganligini bilmay tashvishlanadi. M. Nistal (2003)ning yozishicha, yolg'iz ota-onalarning shaxsiga qo'yilgan talablar ularning real imkoniyatlaridan ortiq bo'lib, undan katta emotsional yukni va nihoyatda ishchanlikni talab etadi. Bunga afsuski, hamma ham chidayvermaydi.

Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi

Bolaning kelajagi, uning shaxs bo'lib kamol topishi ko'p jihatdan ota-ona oilasi, u to'g'rida farzandda shakllangan tasavvurlarga bog'liq ekanligi psixologlar tomonidan ancha batafsil o'rganilgan. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, bolaning o'z oilasi to'g'risidagi tasavvurlari ko'pincha ota-onaning tasavvurlari va asl holat bilan qisman mos keladi. Odatda ota-ona o'z farzandi uchun qo'lidan kelgan barcha choralarni ko'rayotganday, buni bola anglashini va undan hamisha minnatdor bo'lishi kerakligini kutadi, lekin bolalar bu xususda turlicha tasavvurga ega bo'ladilar. Mehribon ota-ona og'ushida ayrim bolalar o'zlarini baribir yolg'iz, kemptik, kamsitilgan his etadi. G.T. Xomentauskas (1989) oilada ota-ona xulq-atvori va bolaning bu xatti-harakatlarni idrok qilishi va ota-onaga munosabatining 5 ta asosiy ko'rinishlarini tahlil qilgan:

Ota-ona va bola munosabatlari demokratik tamoyillarda amalga oshadigan oilada bolada o'zi va ota-onasi to'g'risida quyidagicha tasavvur shakllaandi: “Meni sevishadi va men kerakman, shuning uchun men ham ularni juda sevaman”. Bunday bola psixologiyasi va xarakterida ustuvor fazilatlar sifatida adekvat o'z-o'zini baholash va insonlarga ishonch, har qanday yaxshi narsalardan, jumladan, ota-ona bilan yaqin, samimiy munosabatlar quvonish, o'ziga ishonch, xatoliklardan cho'chimaslik, ayb ish qilib qo'yganda ham unchalik qayg'urmaslik, zaruratga qarab iltimoslar qilish va bunda real ko'mak olishga umidvorlik, ota-onaning hayotdagi o'rni va ishonchlarini, umid va istaklari bilan hisoblashish kabilarni sanash mumkin.

Bolaga nisbatan haddan ziyod mehribonlik (giperproteksiya), e'tibor ko'rsatilgan oilada bola “Meni sevishadi va men kerakman, ular meni deb yashashadi”, degan tasavvur mavjud bo'ladi. Bunday oilada bolalar o'zining borligidan, tug'ilganligidan mag'rurlanib yashaydi va shuning uchun har qanday tilak va xohish amalga oshishiga ishonadi. Odatda bunday bolaning tug'ilishini ota-ona uzoq vaqt kutgan

bo'ladi va buni ular hadeb bolaga eslataveradi, shuning uchun ham bola juda egoist bo'lib ulg'ayadi, ota-onasining nochorligi to'g'risidagi tasavvur o'zining ko'p narsalarga qodirligi bilan uyg'unlashadi. Tantiq bolada o'zi to'g'risida go'yoki o'ta iqtidorli ekanligi fikri ustuvor bo'ladi, chunki ota-ona uning ayrim, ahamiyatsiz yutuqlarini ham osmonga ko'taradi.

Yuqoridagi holatning aksi, ya'ni, bolaga nisbatan e'tiborsizlik, mehrsizlik bo'lgan oilada bolaning tasavvuri quyidagicha bo'ladi: "Meni yoqtirishmaydi, lekin men o'zim harakat qilib, ularga yaqinlashishim kerak". "Men yaxshi bola emasman", degan tasavvur odatda bolada qator jiddiy salbiy sifatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, o'ziga bo'lgan bahoning pastligi, o'zini aybdor deb hisoblashning yuqoriligi, ko'p narsalardan hadiksirash, ayb ish qilib qo'yishdan cho'chish, kayfiyatning beqarorligi va shunga o'xshash. Bunday oilada ma'naviy muhit yaxshi bo'lmaganligi sababli bola salga yig'laydigan, "qo'rqan oldin musht ko'taradi", deganlariday, har bir yaxshi yoki yomon ishni qilib qo'yib, o'zini oqlashga intilish psixologiyasi paydo bo'ladi. Aslida bola o'zining kutilmagan ekanligini, ota-onalari uni vaziyat taqozosi, tasodif tufayli dunyoga keltirishganligini yaxshi biladi. Chunki bu haqda ota-onalar uning oldida gapiraveradilar.

Ota-ona mehriga to'ymagan, unga erisholmagan bola salbiy hissiy kechinmalarning keyingi bosqichiga o'tadi: "Sizlar meni xafa qilyapsizlar, men ham shunga munosib javob beraman". Bunday sharoitda bola ataylab, ota-onasiga yoqmaydigan qiliqlar qiladi, aytganlarining teskarisini bajaradi, tobora ota-ona uchun ham u bilan bo'ladigan muloqotlar og'ir botadigan bo'lib boradi. Qasoskor bola ko'pincha ota-ona talablarining teskarini qilib, ularning asabiga tegadigan, boshqarib bo'lmaydigan qaysar va ko'pincha jinoyat yo'liga ham kirib ketadigan insonga aylanadi.

Ba'zan ota-ona mehrsizligidan aziyat chekkan bola kurashib charchaydi: "Meni sevishmaydi, kerak emasman, meni tinch qo'yinglar", degan ma'noda bola o'z nochorligini ifodalay boshlaydi. Bunday oiladagi vaziyat juda og'ir bo'lib, bola o'zini yolg'izlikka mahkum etadi, hammadan qochadi, o'smirlar o'rtasida sodir bo'ladigan suitsid holatlarining aksariyati ana shu psixologik vaziyatdan kelib chiqadi.

Bolani asrab olish. Ayrim holatlarda bola begona shaxslar tomonidan asrab olinadi va qonuniy ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunday holatlarda ota-ona – bola munosabatlarida sun'iylik elementlari ko'p bo'ladi, chunki agar bolani chaqaloqligidan asrab olgan bo'lsa, bola ularni tabiiy idrok etaveradi. Lekin ota-ona uchun unga ko'nikish muammosi yuzaga keladi. Shu sababli ham bunday oilalardagi shaxslararo munosabatlar ko'p hollarda yashirin yoki ochiq ravishda tarang bo'ladi.

Bolani saqlab olgan er-xotindagi ota-onalik motivatsiyasi aslida boshqa toifalardan qolishmaydi. Ba'zan hattoki, kuchli ham bo'ladi. Chunki asrab olishga majbur qilgan motivlar bepustlik, kech turmush qurish yoki o'z farzandining nobud bo'lganligi bo'lishi mumkin. Shuning uchun bunday oilalardagi ota-onaning tarbiya uslubi giperproteksiyaga, hattoki, haddan ziyod giperproteksiyaga o'xshaydi va shunga yarasha salbiy oqibatlariga ega.

Yana bir sabab – odatda bola asrab olishga axd qilgan er-xotinlar bolani kutadilar, kutishlar motivatsiyasi qanchalik kuchli bo'lsa, bolani erkalatib yuborish yoki unga nisbatan talabalar qo'yish shunchalik katta bo'ladi.

Uchinchidan, bola boshqa insonlardan dunyoga kelgani uchun uning genlarida o'sha haqiqiy, tabiiy ota-onaning sifatlari bo'lib, u ba'zan asrab olgan ota-onaga o'xshamaydi. Texas shtatida 10 yil mobaynida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasini tahlil qilgan rus olimasi Ravich-Sherbo I.V. (2002) bunday bolalardagi shaxsiy va intellektual ko'rsatkichlar tabiiy ota-onalar sifatlariga asrab olgan ijtimoiy ota-onalarnikiga nisbatan ancha yaqin bo'lishini isbotladi. Ya'ni, qanchalik urinmasin, asrandi bolada o'sha tuqqan onasi va otaning sifatlari ko'rinaradi. Ayrim ko'nikmalar, odatlar, xarakter xususiyatlari asrab olganlarga yaqin bo'lishi mumkin. Shu bois ham ba'zi asrab oluvchi ota-onalar muayyan muddatdan keyin asrandini etimxonalarga qaytaradilar, bu bilan ular bolaning kelgusi taqdiriga yanada murakkab chizgilarni belgilaydi, dilini og'ritadilar.

Asrandi bolalar muammosi O'zbekistonda ham mavjud. Bizda hozirgi paytda 7 mingdan ziyod bola yaqin qarindoshlar yoki mahalladagi oliyjanob insonlar tarbiyasidir. Ular soni Mehribonlik uylaridagi chin etimlar sonidan ortiqligi xalqimizning asl tabiatidagi odamiylik, oliyjanoblik xislatlari bilan bog'liq. Lekin nima bo'lganda ham bizda bolani o'z ota-onasi tarbiyasiga berish an'anaga aylangan. Oilaviy etimxonalarda ham yaqinlarning etim bolalari va turli sabablarga ko'ra ota-onadan judo bo'lgan qo'shni bolalar tarbiyalanadilar.

18-MAVZU: AKA-UKALIK VA OPA-SINGILLIK MUNOSABATLARI PSIXOLOGIYASI

Sibling maqomining bola va kattalar munosabatiga ta'siri

A.Adler oilashunoslik fanida ilk marotaba bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi uning

oilasidagi aka-ukalar va opa-singillarning borligiga bog'liqligi g'oyasini ilgari surgan. Afsuski, bu omil Sharq xalqlari, xususan, O'zbekiston uchun o'ta muhim bo'lishiga qaramay, bizda ham, kichik oilalar xos bo'lgan G'arbda ham juda kam o'rganilgan.

Psixologik adabiyotda sibling maqomi aslida (inglizcha sibling, sibs – bir oiladagi akalar va opalar ma'nosini bildiradi) – muayyan insonning muayyan oilada tug'ilishi, jinsi va tug'ruqlar orasidagi rasmiy farqni ifodalovchi tushunchani bildiradi. Bolaning sibling maqomi va uning shaxsiy ko'rsatkichlar bilan bog'liqligi masalasiga xali aniqlik kiritilmagan, ya'ni aniq ilmiy dalillar etarli emas. Shunga qaramay, ko'pgina tadqiqotchilar (Richardson R., 1994; Driskoll R., Iksteyn D., 2003; Brazington R., 2003 va boshqalar) shaxsning sibling maqomi uning shaxsiga, er-xotinlik va ota-onalik maqomlariga, do'stlar bilan muomalasiga, ishda rahbariyat va hamkasblar bilan o'rnatadigan muloqotlarining xarakteriga ta'sir etishini o'rganishgan. Empirik ma'lumotlar bunday bog'liqliklarning to'rt turi mavjudligini ta'kidlaydi.

To'ng'ich bola, oiladagi farzandlarning kattasi, odatda ota-onasining umidi bo'lib, ota-onalar undan ko'p narsalarni kutadi va odatda u bu umidlarni oqlaydi ham. Undagi muvaffaqiyatlarga bo'lgan intilish, o'qish va kasb-hunar egallash yo'nalishidagi yutuqlari va unga erishish imkoniyatlari ham odatda yuqori bo'ladi. Uning muvaffaqiyatlari nafaqat ota-onaning kutishlariga bog'liq, balki ma'lum vaqt erkalatilgan bolaning, keyinchalik "taxtdan tushishi", mavqening birdan o'zgarishi va kutishlar tizimining ham shunga yarasha boshqacha bo'lib qolishi bilan bog'liqdir. Buni Adler iborasi bilan aytganda, "detronizatsiya", ya'ni taxtdan ayrilishi deb atash mumkin. Chunki ukasi yoki singlisi paydo bo'lgandan so'ng, ota-onasining e'tibori birdan boshqa bolaga qaratilib, unga munosabat o'zgarib qolganligini bola o'ziga xos qayg'urish bilan his qiladi. Lekin ota-onaning e'tibori va mehriga qaytadan erishish maqsadida u harakat qila boshlaydi.

Agar to'ng'ich farzandning uka ko'rgandan so'ng paydo bo'ladigan deprivatsiyasi kuchli bo'lsa-da, o'zini ko'rsatish uchun ichki imkoniyatlari, layoqati etarli bo'lmasa (ba'zan to'ng'ich farzand nimjonroq bo'ladi), unda bolaning xulqida keskin salbiy o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi, masalan, ukasini yomon ko'rib, unga ziyon etkazishga harakat qiladi, injiqligi bilan ota-onasini xafa qiladi, ovqat emaydigan, o'zi mustaqil ravishda uxlamaydigan, hatto, hojatga chiqmaydigan, aytilganlarni bajarmaydigan o'jar bo'lib boradi. Hayotda shunday voqealar ham kuzatilganki, endi tetapoya bo'lib, mustaqil harakatlar qila boshlagan to'ng'ich farzand ukasini itarib yuborishi, og'ziga yomon narsalarni solib qo'yishi, beshikda uxlab yotgan bolani yiqitish holatlari bo'lgan. Ya'ni, ota-onaning domimiy mehri etishmayotganligini his qilgan bolada rashk hissi uyg'onadi, uning sababchisi esa yangi dunyoga kelgan ukasidir.

Shunga qaramay, aksariyat to'ng'ich farzandlar ota-onasining ziyrakligi, o'zida paydo bo'lgan ko'nikma tufayli yangi sharoitga moslashadi, sekin-asta ukasiga mehr qo'yadi, unga g'amxo'rlik qilishdan rohatlanadigan ham bo'lib qoladi. Bu unga foyda keltiradi ham: kelajakda u turli toifa insonlar, jumladan, kattalar, obro'li insonlar bilan kelishib ishlashga harakat qiladigan, ularning ko'ngliga qaraydigan, uyida ko'rganlari ko'chada qaytarilmasligiga harakat qiladigan, moslashuvchan bo'lib o'sadi. Odatda bunday bolaning tengqurlari orasida o'ziga xos mavqei bo'ladi. Yoshligidan ota-onaning yuzi-ko'ziga qarab, ularning munosabatini his qilishga o'rgangan bola kelajakda o'qituvchisi yoki rahbarining ham yuzi-ko'ziga qarab, muomala qilishga o'rganadi. Ota-onalik maqomiga aloqador munosabatlarni tashqarida boshqalarga ham qo'llashga ko'nikib boradi. Shuning uchun to'ng'ichlarda kirishimlilik, kichiklarga g'amxo'rlik, mustaqil qarorlar qabul qilishga, mas'uliyatni bo'yniga olish va liderlikka moyillik rivojlanib boradi. Shuning uchun ham jamiyatda rahbar lavozimlarda ishlayotgan, siyosiy va jamoatchilik idoralarini boshqarayotganlarning aksariyati oilada to'ng'ich farzand ekanligi o'rganilgan. Masalan, Amerika Prezidentlarining yarmi, 20 nafardan ortiq avstronavtlar oilada to'ng'ich farzandlar bo'lishgan. Odatda oilada o'sayotgan og'il bolalarning to'ng'ichi erkaklar jamoasini (masalan, harbiy, xalqaro, siyosiy tashkilotlar), singillari bo'lgan akalar xotin-qizlar jamoasini (maktab, shifoxona), va shunga o'xshash opalar ham mantiqan mos ravishda jamoalarni muvaffaqiyatli boshqaradigan rahbarlar bo'lib etishadi. Nikoh borasida esa o'rtancha farzand ancha kelishib, baxtli yashashga moyil bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ayrim holatlarda aynan to'ng'ich farzandlar ba'zan jamiyatda muammoli, tarbiyasi og'irlar kategoriyasiga tushib qoladi. Bunga yo ota-onaning katta farzandidan umidlarining haddan ziyod og'irligi yoki "detronizatsiya" jarayonining bola tomonidan salbiy idrok etilishi sabab bo'ladi.

Ikkinchi farzand (yoki o'rtancha) odatda kattalarga tobe, o'zgalar ko'magiga muhtoj, adolatsizlik, xaqsizliklar va qattqlikka chidamsiz, boshqalarning munosabatlarini injiqlik bilan qabul qiladigan bo'lib o'sadi. U akasi yoki opasiga qarab, uning soyasida ayyorroq, epsizroq bo'lib ko'rinadi, chunki tug'ilganidan yonida undan kattalar borligiga u ko'nikib boradi. O'rtancha farzandlardan yaxshi san'atkorlar, sportchilar, diplomatlar, odamlar bilan ishlashga ustasi farang rahbarlar etishib chiqishi ham mumkin.

Kichik farzand umrining oxirigacha o'zini kichikman, deb his qilishga moyil bo'ladi, uni hech kim hafa qilishi mumkin emas. Hamisha g'amxo'rlik og'ushida bo'lgan kichiktoy, kelajakda ham hamma erda o'zini muhofazada, xavfsizlikda his etishga moyil bo'ladi va buni o'zgalardan talab ham qiladi. Ularning kayfiyati ko'pincha yaxshi bo'lib, yon-atrofidagilar bilan yaxshi muomalaga kirisha oladi. Odatda kichik farzandda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi kuchli, raqobatbardoshlik talab etilgan sharoitda u chidamliroq bo'ladi. Afsuski, ularning nikoh borasida omadlari kamroq bo'lishi kuzatilgan, oilada kichik farzand bo'lganlar salga ajralishni o'ylaydi, chunki ulardan yaxshi vafodor, chidamli er yoki xotin chiqmaydi. Shu bois, turmush qurishga ham unchalik shoshmaydi, chunki o'ziga mas'uliyatni olishni yoqtirmaydi.

Yagona farzandning sibling maqomi to'ng'ichlikiga yaqin. Ota-onaning umidlari va orzu-havaslarini bilib katta bo'lgan bola ko'p sohada, ayniqsa, intellektual sohada katta muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin, lekin odatda juda o'zini yaxshi ko'radigan, egoist bo'lib qolishadi. Ular jamiyatda ham xato qilib qo'yishdan qo'rqmaydi, muvaffaqiyat sari dalil yuradi, lekin har doim ham unga erisholmaydi, chunki odamlar bilan kirishimli emas. Shuning uchun o'zbeklarda "yagona farzand – farzand emas", degan gaplar bor, ular ota-onaning kuyib-pishib, unga barcha imkoniyatlarni yaratib, yaxshi ko'rayotganligining qadriga etmaydi. Bu kelgusida ham boshqa insonlarga nisbatan munosabatda o'z aksini topadi, keksayib qolgan ota-onaga to'ng'ich farzand qanchalik mehribon bo'lsa, yagona farzand buning aksi bo'lib, otasi va onasi vafotidan keyin ham ulardan xafa bo'lib yuradi, "nega meni tashlab ketishdi?", deb. Shuning uchun yaxshi oila uchun kamida ikkita farzandning bo'lishi va ular o'rtasida yaxshi o'zaro munosabatlarning qaror topishi shaxs uchun ham, oila va jamiyat uchun ham foydalidir.

Siblinglar raqobati hodisasi G.T. Xomentauskas tomonidan fanga kiritilgan va o'rganilgan. Bunda bolalarning o'zaro munosabatlari, qachon bir-biriga raqib, qachon birlashishlari o'rganilgan. Masalan, oilaviy inqirozlar paytida, ota-ona qazo qilganda yoki xastalanib qolganda ular albatta bir-biriga muruvvat qiladi, jipslashadi. Aksariyat hollarda esa, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda ko'pincha bitta ota-onaning farzandlari o'rtasida o'ziga xos tarang munosabatlar kuzatilgan. Bu narsa o'sha jamiyatlardagi shaxsiy avtonomiya fenomeni bilan bog'liq bo'lib, har bir inson ilk yoshlikdan faqat o'z manfaati uchun yashaydi va kurashadi. Bunday sharoitda sibling munosabatlarining faqat ijobiy bo'lishiga erishish ancha mushkul.

O'ziga xos demokratiya muhiti oilalarda barqaror bo'lgan o'zbekistonliklar millati, irqi, kelib chiqishi va iqtisodiy maqomidan qat'iy nazar, albatta, oilada ikki va undan ortiq farzand bo'lishiga intiladi va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni ijobiy tarzda yo'lga qo'yish, oilaviy rollar taqsimoti borasidagi ishlarga alohida mas'uliyat bilan qaraydi. Bunda er-xotin momolar va bobolar o'gitlaridan, asriy an'analar samarasidan o'rinni foydalanishga intiladi. Hukumatning bu boradagi demografik siyosati ham oilalar manfaatiga hamohang, yagona farzand mamlakat iqtisodi va uning istiqboli uchun etarli emas ekanligini bizda hamma tushunadi.

Davlatimiz rahbari va hukumatning oilada sog'lom turmush tarzini barqarorlashtirish, milliy genofondni yaxshilash siyosatining tub ma'nosi mamlakatimizda dunyoga kelgan va kelayotgan farzandlar, avvalo, to'rt muchchasi sog' tug'ilsin, sog'-salomat katta bo'lsin va ularni dunyoga keltirgan ona onalik baxtidan to'la baxramand bo'lib, turmush o'rtog'i bilan birgalikda baxtiyor sog'lom turmush tarzini oilasida barqaror etsin. Yurtimizning barcha yirik shaharlarida tashkil etilgan skrining markazlari, petenatal shifo maskanlarining asosiy vazifasi sog'lom farzandlar tug'ilishini oldindan aniqlash va nogironlikning oldini olishdir. Zero, "Sog'lom ona – sog'lom nasl" shiori har bir o'zbekistonlikning qalbiga singib ketgan naqldir.

Ko'p bolali oilada shaxslararo munosabatlar va ularning bola psixik taraqqiyotiga ta'siri

Odatda ko'p bolali deb, 5 va undan ortiq bolaga ega bo'lgan oilani tushunish an'anaga aylangan. Lekin hozirda bu holat juda kam uchraydi, ayniqsa, G'arbiy Evropa mamlakatlari, jumladan, Rossiyada deyarli sanoqlidir. Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazining 90-chi yillar oxirida o'tkazgan tadqiqotlarida qishloq aholisining har uchtasidan bittasi ko'p bolali, ya'ni, 5 va undan ortiq bola bo'lishiga tarafdor bo'lib, ma'lumot bergan bo'lsa, bugungi kunga kelib, atigi 0,6-0,7 % aholigina oilada bolalar soni ko'p bo'lishiga qarshi emas, lekin real turmushda ham 5 va undan ziyod farzand ko'rayotgan oilalar soni keskin qisqargan.

Ilgari, ya'ni sobiq sho'rolar davrigacha bo'lgan paytlarda ayollarning bola tug'ishi soni haqiqatan ham ko'p bo'lgan, lekin u bolalarning aksariyati perenatal davrdayoq nobud bo'lgan, buni hech bir rasmiy organlar qayd etmagan. Muallifning shaxsiy izlanishlariga ko'ra, arxivlarda bunday statistika yuritilmaganligi ham aniqlangan. Chunki sharoitning og'irligi, onalarning tibbiy savodsizligi tufayli onalar o'limi ham, chaqaloqlar va kichik yoshli bolalar o'limi ko'rsatkichlari ham aslida juda yuqori

bo'lgan.

Sho'rolar davrida bu masalaga yondoshuv o'zgargan. Mustamlaka mamlakatlarning serfarzandligi va bolajonligidan foydalanib, qo'shimcha ishchi kuchi va resurslarni ko'paytirish maqsadida ko'p bolali oila hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bo'lib qoldi. Hattoki, 6 tadan ortiq farzand ko'rgan onaga "Qahramon ona" nishoni ham berilar edi. Lekin onalikni va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha deyarli hech qanday choralar ko'rilmaganligi oqibatida, baribir, onalar o'limi ko'rsatkichi ham, bolalar o'limi ko'rsatkichi ham yuqori bo'lgan. Faqat bu haqda rasman gapirilmay, statistika o'ta maxfiy edi. YuNISEF tashkiloti monitoringi natijalariga e'tibor bersak, 1989 yildan 2002 yilgacha bo'lgan muddat oralig'ida mamlakatimizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy himoya siyosati tufayli chaqaloqlar o'limi 2,5 barobarga (1000 ta tirik tug'ilgan chaqaloq hisobidan 1989 yilda 38,1 va 2002 yilga kelib, 16,7 miqdorga kamaydi, 2005 yilda bu ko'rsatkich yanada pastladi), onalar o'limi ham qariyb ikki barobardan ziyodga kamaydi (mos ravishda 100000 tirik tug'ilgan bolaga nisbatan 42,8 – 1989 y.; 26,9 – 2002 y.) .

Shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy oila a'zolari hech nimaga qaramay, oilada kam sonli (bizda o'rtacha 2-3 ta) bolani tarbiyalashga bog'liq ustanovkalariga ega. Psixologik tadqiqotlar ko'p bolali oila a'zolarining psixodiagnostik testlardagi ko'rsatkichlari boshqalarnikiga nisbatan past ekanligini ko'rsatdi. Bu ularning intellektual va ijobiy rivojlanishi ko'rsatkichlariga, ijtimoiy adaptatsiyasi va salomatligiga ko'proq taalluqlidir. Amerikalik tadqiqotchilar (R.Zayonts, X.Markus va boshqalar) ko'p farzandli oilaning salbiy oqibatlariga ko'proq e'tiborni qaratadi, lekin ularning ko'pgina xulosalari bizning muhitimiz, bola tarbiyalash an'alarimizga mos emas. Bizda nekluar oilada ko'p farzandni tarbiyalash mushkulligi to'g'risidagi tasavvur bor, lekin katta bo'lmagan oila sharoitida 3-4 ta va undan ortiq bolani tarbiyalashdagi qator ijobiy tajriba va xulosalar ham yo'q emas.

Nima bo'lganla ham shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy o'zbek oilalarida ham reproduktiv ustanovkalar o'zgargan va yoshlar, hattoki, ota-onalar ham katta oilaning tashvishlarini yaxshi tasavvur etadilar. Oila tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish oilaning barcha a'zolari tarbiyalanganlik darajasini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Oilaparvarlik falilatlar: milliy va umuminsoniy qadriyatlar

Mustaqillik urf-odat va an'alarimizning jamiyatni birlashtiruvchi imkoniyatlaridan to'liqroq foydalanish uchun yo'l ochdi. Jamiyat hayotidagi ulkan o'zgarishlar, televidiniya, radio va matbuotning mavqe'i kun sayin ortib borayotgani, bir qarashda urf-odat va an'alaning o'rganish masalalari zamonaviylashish jarayonlari komida qolayotgandan tuyulsa-da, ularning jamiyat hayotidagi, shaxs ma'naviyati va mafkurasining shakllanishidagi ahamiyati kamayayotgani yo'q. Albatta, urf-odat va an'alar hamda ma'rosimlar o'z vazifasini to'g'ri o'tashi uchun ular bevosita xalq tomonidan to'la e'tirof etilishi, kundalik turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan bo'lishi kerak. Shu sababli har bir jamiyat urf-odatlarining xalq orasiga yaxshi singib ketishidan manfaatdordir.

An'ana va urf-odatlar tarixiy mazmunga ega, ya'ni moddiy turmush sharoiti ta'sirida yuzaga keladi, vaqt o'tgan sari ular barqarorlasha borib, ajdodlardan avlodlarga me'ros bo'lib qoladi. Buning uchun ular insoniyat hayotida qadriyatga aylanishi kerak.

Zero, urf-odat, an'alar va marosimlar inson uchun qadriyatga aylanganda, uning hayotini boyitadi. Shu bois har qanday jamiyat, har qanday ijtimoiy tuzum ularga ehtiyoj sezadi, ular yordamida odamlar orasida o'zaro munosabatlar keng tus oladi, ahloqning muayyan qoida va mezonlari vujudga keladi.

Kishilarni an'ana, marosim va urf-odatlarga jalb etishda eng avvalo oilaning, mahalla, qishloq oqsoqollari va ulug'larining o'rni kattadir. O'zbekistonda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon xalqning ma'naviyatiga ta'sir etib, bu juda ko'p urf-odat va rasm-rusmlarda o'zgarishlarga sabab bo'lib, yangi udum va marosimlar shakllanishida o'z ifodasini topmoqda.

Mustaqillik yillari davomida davlat va mamlakat miqyosida 9 ta rasmiy umumxalq bayramlari qaror topdi. Ular xalq va mamlakat tarixi, milliy mentalitet va ma'naviyat, shuningdek, umumjahon tajribasini hisobga olib, puxta o'ylab joriy etilgan. Ushbu bayramlarni nishonlash yosh avlod tarbiyasida ona Vatanga bo'lgan mehrni mustahkamlaydi. Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan urf-odat, marosim va bayramlar milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini singdirishda muhim omil bo'ladi. Xususan, Mustaqillik, Navro'z, O'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kuni kabi yangi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish zarur.

Kattalarga hurmat, o'zaro hamkorlik, farzandlarning taqdiri va kelajagi uchun qayg'u urish, ularga g'amxo'rlik qilish hamisha oilaviy qadriyatlarning va udumlarning asosiy qoidalari bo'lib kelgan. Afsuski, o'tgan totalitar tuzum davrida bu qadriyatlarga jiddiy putur etdi. Shajaralar unut bo'ldi, oilaviy

hunarmandchilik va kasb-korni avlodddan-avlodga uzatish, oilaviy kasbiy ko'nikmalar unut bo'lishi uchun barcha choralar ko'rildi. Qarindosh-urug'ning bir xil kasbga ixlos qo'yishi "qarindosh-urug'chilik" tamg'asi ostida qoralandi. Shu tarzda jamiyatda oilalar va urug'larning an'anaviy kasbiy va iqtisodiy "o'rnini" batamom yo'qolib ketishiga sal qoldi. Uning o'rniga urug'-aymoqchilik va oshnagog'aynigarchilikning ijtimoiy buzuvchi shakllari yuzaga kela boshladi. Shu bilan birga, qarindoshlarning o'zaro yordami ba'zi hollarda jamiyat taraqqiyotini sekinlashtirib qo'yadigan tayyorga ayyorlikka va tanish-bilishchilikka aylanib ketdi.

Istiqlol yillarida oila qadriyatlari va qon-qarindoshlik munosabatlarining qayta tiklanishi har bir oilaning iqtisodiy, madaniy va kasb jihatidan erkin bo'lish imkoniyatini yaratdi. Ya'ni, istiqlolning har bir oilaning mustaqil mamlakat ichidagi mustaqil "jamiyat, davlat" sifatida erkin faoliyati, oilaviy biznesni rivojlantirish, o'z a'zolarining barcha fazilatlarini yaqqolroq namoyon bo'lishiga ochgan cheksiz imkoniyatlari tufayli o'zbek xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste'dodi o'sdi, uning tadbirkorlik va kirishimlilik, bir necha chet tillarni tez o'rganib olish kabi noyob fazilatlarini to'la-to'kis ro'yobga chiqara boshladi. Buni yurtimizga mehmon bo'lib kelayotgan xorijlik turistlar, rasmiy arboblarning e'tirofi etishlari bois milliy mehmonnavozlik va sahovat an'analari yanada rivojlandi. O'zbekning qaddi rosmiyan tiklandi, milliy g'urur o'sdi.

Endi biz G'arbning yoki dunyoning boshqa burchidagi xalqlarning u yoki bu an'analari, rasm-rusmlariga ko'r-ko'rona taqlid qilishdan ko'ra, o'zining noyob udumlarini ko'z-ko'z qilishga hozir bo'lgan xalqqa aylandik. Vaholangki, oila va nikoh, farzand tarbiyasi, jamiyatning katta va kichigi o'rtasidagi samimiy, insoniy munosabatlarga rivojlangan mamlakatlardan kelgan minglab xorijliklar havas qilayotganlari ham ayni haqiqatdir. O'z asriy qadriyatlarining egasi bo'lgan xalqimiz mustaqillik yillarida sharqona demokratiyaning o'z mentalitetiga mos shaklini qaror toptirishda tashabbusni tobora o'z qo'liga olmoqdaki, bunda aholining bilimdonligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini va aksincha, bilimi kam, omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma'qul ko'rishini hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamog'ida, bu haqiqatga xalq o'z zakovati va fahm-farosati bilan etib bormog'ida.

Milliy an'analarni o'rganish, targ'ib etish bilan bir qatorda to'y-ma'rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor. Bunda oila hamda mahalla institutlarining keng imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zarur. Bu borada amalga oshirayotgan ishlarimiz oxir oqibat naqfahat mamlakat manfaatiga, balki har bir oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatiga xizmat qilishi muqarrar.

19-MAVZU: O'ZBEKISTONDA OILA SIYOSATINING SHAKLLANISHI

Davlatning oilani mustahkamlash siyosati va uni asosiy tamoyillari

Mustaqillik yillarida jonajon yurtimiz O'zbekistonda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy himoya qilish masalalari davlat siyosatining ustivor yo'nalishi sifatida e'tibor etildi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 65-moddasida e'tirof etilganidek, bizda "Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza etiladi". Shuningdek, Bosh qomusimizning 64-moddasida "davlat va jamiyat etim bolalarni va otalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi".

Demak, O'zbekistonda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, ularning har tomonlama kamol topishi va farovonligi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat tomonidan kafolatlanadi. Shu o'rinda oila borasida davlat siyosatining shu tarzda qonun bilan kafolatlangan, maqsadga yo'naltirilgan tarzda olib borilishi zarurati nimalarga asoslanadi, degan o'rinli savol paydo bo'ladi.

Davlat tomonidan oila siyosati, uning bazasini mustahkamlash siyosatining olib borilmasligi ushbu noyob ijtimoiy institutning boshqa ijtimoiy institutlar qatoridan munosib o'rin ololmasligiga olib kelishi va buning oqibat sifatida oila va nikoh munosabatlari bo'hronga uchrashi, insonlar o'rtasidagi munosabatlarga zarba berilish, turli muammolar ko'payib, yosh avlod tarbiyasining dastlabki o'chog'ida ma'naviy inqirozlar kuzatilishi mumkin. Shuning uchun muttasil taraqqiyot va xalq farovonligiga erishish yo'lidan sobit qadamlik bilan boradaigan jamiyat va undagi davlat tizimlari oilaning mustahkam va barqaror bo'lishidan, avlodlararo vorislik yo'qolib ketmasligidan manfaatdordir.

Shunday qilib, Oila siyosati – bu davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, NNTlarining shaxs va jamiyat manfaatiga mos keladigan oila deb atalmish er-xotin va ularning ikki va undan ortiq farzandlaridan iborat ijtimoiy tuzilmani har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan faoliyatidir. Bu oilaviy turmush tarzini barqarorlashtirish, har bir insonning o'z oilasi va shajarasi bo'lishi istagini ro'yobga chiqarish uchun aholini qo'llab-quvvatlash siyosatidir. Uning tomi ma'nosi shundaki, davlat va jamiyat to'liq oilalarning imkon darajasida ko'p bo'lishidan, unda avlodlararo

vorislik, shajaralarning bardavomligi, yoshlarning oila va nikohni qadriyat sifatida e'tirof etishidan yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi ta'minlanishiga ishonchini bildiradi.

E'tirof etish joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda oila institutini amalda mustahkamlash borasida talay ijobiy ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo oila va nikoh munosabatlarini takomillashtirishning qonuniy bazasi yaratildi. 1998 yilda qabul qilingan "Oila Kodeksi"da ushbu munosabatlarning barcha jabhalari reglamentatsiya qilingan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan boshqa qator Kodeks va qonunlarda ham bevosita oila a'zolarining, jumladan, xotin-qizlar va bolalarning manfaatlarini himoya qilingan. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida oila a'zolarining mulkiy munosabatlari, ularning ulushlari, merosxo'rlik, vorislik huquqlari;
- O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida farzandi bor ayollarga tadbiq etiladigan imtiyozlar, fuqaro sifatida barcha oila a'zolarining mehnat qilish huquqlari;
- O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksida mulk sifatida uy-joyga ega bo'lish huquqlari;
- "Fuqarolarning davlat nafaqa ta'minoti to'g'risida"gi qonunda oilaning kattalari hamda mehnat yoki salomatligi tufayli nafaqaxo'r bo'lganlarning ijtimoiy himoyasi;
- "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonun (1998) da ko'p bolali, nogiron bolasi bor bo'lgan oilalarga beriladigan imtiyozlar, kvotalarni taqdim etish tartiblari va h-zo;
- "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunda (1995 y.) oilada xotin-qizlarning salomatligi, jumladan, reproduktiv salomatlikning davlat tomonidan muhofaza etilishi tartiblari;
- "Xotin-qizlarga beriladigan qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi Qonunda farzandi bor hamda og'ir mehnat sharoitida ishlaydigan ayollarga beriladigan imtiyoz va qo'shimcha imkoniyatlar borasidagi qoidalar o'z ifodasini topgan.

Qonunlarning amaldagi ijrosi mustaqillik yillarida qabul qilingan va amaliyotga joriy etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o'nlab qarorlari asosida ta'minlanadi, ularda aynan oilaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, kam ta'minlangan oilalar sonining oila a'zolari bandligini ta'minlash, mehnat huquqlarining kafolatlanishi orqali kamaytirish choralari belgilangan. 1994 yildan buyon qabul qilinayotgan va amalda muvaffaqiyat bilan ijrosi ta'minlanayotgan Davlat dasturlarida ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, onalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza etilishi o'z aksini topmoqda. Bularning eng muhimlari:

- Prezidentimizning "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni (25 may 2004 y.) va Vazirlar Mahkamasining Farmon ijrosini ta'minlash bo'yicha 299-chi sonli qarori;
- "Fuqarolarga xizmat ko'rsatish uchun birvaqtlik yordam pullari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori(2002 yil);
- "Oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun umumta'lim kreditlarini taqdim etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori (2001 yil);
- "Bolalik oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori (1996 yil);
- "Ishlayotgan nafaqaxo'rlarga nafaqalarni to'lash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (1995);
- "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni tashkil qilish masalalari haqida" Vazirlar Mahkamasining qarori (1994 yil);
- "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublika Prezidentining 2007 yil 18 maydagi Farmoni va boshqa o'nlab Farmon, normativ hujjatlar va qarorlarni keltirish mumkin.

Yurtimizda oilani mustahkamlash borasidagi davlat siyosatining afzalligi shundaki, davlat oilaning o'ziga xos suveren tuzilma sifatida qadrlaydi, uning ichki ishlariga aralashmaydi, lekin u yoki bu sabablarga ko'ra, oilada ba'zi qiyinchiliklar paydo bo'lgan bo'lsa, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, mahalla qo'mitalari, unda faoliyat yuritayotgan jamoatchilik komissiyalariga murojaat qilib orqali fuqarolar o'z manfaatlarini himoya qilishlari va davlatning madadiga erishishlari mumkin.

Ikkinchi tomondan, oila ikki oilaning, unda tarbiyalanayotgan ikki yoshning ixtiyoriy kelishuvi, tanlovidan hosil bo'lgan ittifoq bo'lgani uchun ham ushbu jarayonlarga ham aralashmaydi, chunki bu shaxsiy muammo. Lekin davlat fuqarolarning "erkin nikohlari"ga, xohlagan paytda xohlagan inson bilan o'zi bilganicha nikohga kirib yoki kirmay yashashiga befarq bo'la olmaydi. Chunki bu jamiyatning

ahloqiy tomirlarini kesishi mumkin. Shuning uchun turli xil oilani qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalar borki, ular oila-nikoh borasidagi nohaqliklar bo'lgan sharoitda, oilada bir yoki bir necha a'zoning insoniy manfaatlarini tahqirlangan sharoitda, farzandlar ota-onasining nojo'ya harakatlari tufayli ko'chada qolib xavfi paydo bo'lganda o'zining jamoatchilik tashkilotlar, jumladan, xotin-qizlar komissiyalari, yarashtirish komissiyalari, "Oila" markazlari, oqsoqollar orqali bu kabi salbiy holatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'radi, kerak bo'lsa, ularni xukumat dasturlari yoki qarorlari asosida mustahkamlaydi.

Oilaning musathkam va barqaror bo'lishi uning a'zolari salomatligiga, ota-onalikka psixologik jihatdan tayyorligiga bevosita bog'liq bo'lgani uchun ham mamlakatimizda bu borada aniq mexanizmlar ishga solingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi 365-sonli qarorining amalda joriy etilishi, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'qitilayotgan "Oila psixologiyasi" kurslarining uzluksiz ta'lim tizimiga kiritilganligi kabilarning davlat tomonidan moliyalashtirilayotganligi ham fikrimizning dalilidir.

O'zbekistonda oilalarning mustahkamligiga qaratilgan ijtimoiy-demografik tadqiqotlar

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-demografik ahvolning yana bir muhim xususiyati – jamiyatning asosi bo'lgan kuchli oila tizimidir. O'zbekistonda nikohdan o'tish darajasi yuqori va eng muhimi, oilalarning buzilishi dunyo bo'yicha eng past darajada. Oila bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlilik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir. Respublikada mavjud oilalar soni bugungi kunda 5 milliondan ziyod bo'lib, ularning aksariyati bo'linmagan, ko'p avlodli, turli avlod vakillari birga yashaydigan va birga xo'jalik yuritadigan xonadonlardir. Oilaning bunday o'zimizga xos bo'lgan shakli bolalarni tarbiyalash, ularni umuminsoniy ma'naviy qadriyatlardan, an'analardan bahramand qilish, shu bilan birga milliy an'analarimizning saqlanishi, bilim darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratdi. Xuddi ana shunday oilalarda odamlar bolalik chog'laridanoq mehnatsevarlikni, kattalarga hurmatni, bilim egallashga intilishni, tug'ilib o'sgan yurti, qishlog'i, shahri, yaxlit Vatanini sevishni o'rganadilar.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy istiqboliga bevosita aloqador ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad – O'zbekiston Respublikasida huquqiy-demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarida jamiyatning negizi hisoblangan oilalar borasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi, yo'nalishlari va tamoyillarini belgilash orqali oilaga yo'naltirilgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy, iqtisodiy faoliyatning dasturini va oila institutini milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvofiqligida mustaqamlashning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Respublikamizda 90-chi yillardayoq oilalarning ko'p bolalik shaklidan o'rta bolalik shakliga o'tish ro'y berayotganligi bashorat qilingan edi. Chunki 1998-1999 yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarda shahar oilalarining 75-76, qishloq oilalarining 53-54 foizi oilada farzand tug'ilishini rejalashtirayotganligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lingan edi. Lekin muhtaram Prezidentimizning "Sog'lom avlod yili" davlat dasturi asosida "Sog'lom ona – sog'lom bola" ijtimoiy harakatini takmomillashtirishga qaratilgan Davlat dasturidagi chora-tadbirlarning belgilanganligi tufayli, ayni paytda oila va salomatlik sifatleri sog'lom tug'ilgan bola va uni dunyoga keltirgan onaning holatiga bog'liq ekanligini aholi tobora teranroq tushunib bormoqda va bu tushuncha aholining farzand ko'rishga nisbatan reproduktiv ustanovkalarida aks etmoqda.

Oilalar miqdorining ortib borishi oxirgi yillarda asosan yosh oilalar va nuklear tipli, ya'ni, er-xotin va ularning farzandlari alohida yashaydigan oilalar hisobiga sodir bo'lmoqda. Mavjud oilalarning salkam 50 foizi – bu nuklear oilalar, bir xonadonda bir necha alohida oilalar istiqomat qiladigan patriarxal oilalar jami oilalarning salkam 23,5 foizini tashkil etadi. Nuklear, yosh oilalarning aksariyati 9 yildan kam bo'lgan turmush tajribasiga ega bo'lganlar bo'lib, sodir bo'layotgan nikohning barbod bo'lishi holatlari aynan shu kabi oilalarga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni, ilmiy izlanishlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 70 foizdan ortiq nikoh ajrimlari yosh oilaga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari, oila borasidagi yangi holat shuki, agar 90-chi yillarda migrantlar orasida ayollar ko'pchilikni tashkil etgan bo'lib, ular asosan turmushga chiqish oqibatida turar manzolini o'zgartirgan bo'lsa (jami migrantlarning 53%), oxirgi yillarda aksincha erkaklarning mehnat migratsiyasi ko'lamini ortib bormoqda va bu ham oilaning holati va sifatiga kuchli ta'sir etmoqda. Ushbu holat ham jiddiy tadqiqotlarni talab etadi.

Ya'ni, O'zbekiston aholisi katta demografik salohiyatga va qulay tarkibga ega. O'tgan o'n yilliklarda tug'ilish darajasi nisbatan kamaydi, ammo mavjud ko'rsatkichlar ham bu salohiyat va tarkib muayyan davr oralig'idagina saqlanib qolishini ko'rsatadi. O'zbekiston aholisining 37 foizini 16 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etadi, aholining umumiy tarkibida mehnatga yaroqli aholi ulushining

nisbatan pastligi va O'zbekistondagi demografik vaziyatning boshqa xususiyatlari bozor munosabatlariga o'tish davrida aholini faol ijtimoiy muhofaza qilishni taqozo etadi. Shu bois, aholining ijtimoiy muhofazasi O'zbekiston siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biridir va bu tizim izchil takomillashtirib borilmoqda.

Bugungi kunda davlat ijtimoiy siyosatining muhim jabhalaridan biri aholi nufuzi, sifati masalasidir. Aholi sifati deganda, asosan aholi salomatligi darajasi, bolalar va onalar salomatligi darajasi, o'rtacha umr ko'rish darajasi, reproduktiv ustanovkalari, aholi ma'lumoti va ish bilan bandligi darajasi, milliy qadriyatlar va an'analar saqlanganligi kabi qator tavsiflar tushuniladi. Ya'ni, ta'kidlash joizki. mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishshini jadallashtirishning muhim sharti aholi sifatini oshirishdir. Bunga erishish uchun davlatimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, lekin ularning samaradorligini oshirish ilmiy asoslangan milliy siyosat asosidagina ta'minlanishi mumkin. Bunda aniq ilmiy ma'lumotlar, jumladan, aholining tarkibi, stratifikatsion xususiyatlari, milliy tarkib albatta inobatga olinishi lozim.

O'zbekiston aholisining milliy tarkibi aholi o'rtasida amalga oshiriladigan siyosatning tarkibiy qismi bo'lib, davlatimizdagi demografik vaziyatni ilmiy – asosli baholash va uning monitoringini olib borishga asoslanadi.

Shunday qilib, mamlakat mustaqilligining 16 yili mobaynida amalga oshirilgan ishlar ana shu xalqning yaratuvchanlik yo'lida yagona g'oya atrofida birlashayotganligining isboti bo'lib, bu ishlarning ko'lamini O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi e'tirofiga sabab bo'ldi. Oliy Majlisning 9 sessiyasida yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: “..yurtimizdagi o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonining ko'lamini kengayib, samaradorligi oshib borgan sari jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va demokratlashtirish zarurati tobora ko'proq sezilmoqda”. □ Demokratik ko'nikma va fuqarolik fazilatlarini tarbiyalanadigan muhim maskanlardan biri – oiladir.

Oilaga doir bunday muammolarni o'rganish, ilmiy tadqiq qilish o'ta dolzarb xisoblanadi. Ayniqsa, muammolar echimini topishda yurtimizdagi demografik vaziyat bilan bog'liq holda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki mustaqillik yillaridagi mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlarida oila taraqqiyotining barcha jabhalarida o'zgarishlar kuzatilmoqda va o'z-o'zidan yangicha demografik vaziyat yuzaga kelmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek “Respublikadagi alohida demografik vaziyat o'z ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot yo'lini tanlab olish zarurligini belgilab beruvchi g'oyat muhim xususiyatlardan biridir”.

Oila siyosatining uzoqni ko'zlagan, istiqbolli yo'nalishi jamiyatda oila institutini mustahkamlashga qaratilgandir. Bunday siyosatning fuqarolar tomonidan anglanishi ularda oila-nikoh munosabatlariga nisbatan cheksiz mas'uliyat hissini, o'zi qurgan oilaga nisbatan g'urur va uni qadrlash psixologiyasini shakllantiradi, albatta.

20-MAVZU: OILAGA YO'NALTIRILGAN SIYOSAT DASTURI: XXI ASR OILASI KONTSEPTSIYASI

XXI asr kontseptsiyasini yaratish va uni hayotga joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – milliy an'analar, urf-odatlar, umuminsoniy kadriyatlar va jamiyat taraqqiyoti istiqbollarini hisobga olgan oila va uning ijtimoiy muhofazasiga aloqador tashkilot va jamoatchilik muassasalari uchun, oila borasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi olimlar va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga mas'ul bo'lgan ta'lim va tarbiya masakanlari, ota-onalar uchun o'zbek mentaliteti, xalqimizning o'lmas madaniy meroslari, milliy qadriyatlarni inobatga olgan va uning ertasini belgilovchi metodologik hamda nazariy-amaliy qarashlar majmuini yaratishdan iboratdir. Bu ish Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazida “Ona va bola yili” davlat dasturi doirasida ishlab chiqildi.

XXI asr oilasi kontseptsiyasini yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad – O'zbekiston Respublikasining asriy an'analari, oilaviy urf-odatlari, milliy qadriyatlarini tarixiy-etnografik asosda o'rgangan holda O'zbekiston oilalarining istiqbolini belgilovchii ustivor vazifalarni va faoliyat strategiyalarini belgilashdan iboratdir.

O'zbekiston oilalariga xos bo'lgan ustivor xususiyatlar, milliy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy udumlar, rasm-rusmlar va an'analarning shaxsga tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatuvchi jihatlari ilmiy jihatlarni ochishga yo'naltirilgan ushbu hujjat Respublikamizda istiqbolli yillarida oilani ijtimoiy jihatdan himoya qilish, ota-onalarga berilgan imtiyozlar va bola tarbiyasi uchun yaratilgan shart-sharoitlar va ularning komil inson tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarini inbatga olgan holda mavjud bo'lgan muammolar doirasida oilaning istiqboli, rivojlanish tendentsiyalarini belgilaydi. «XXI asr oilasi» kontseptsiyasi asosida oilani kompleks o'rganish dasturi taklif etilgan.

Mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan oila siyosatining tom ma'nosi XXI asr oilasining istiqboldagi rivojlanishi va taraqqiyotining ustivor yo'nalishlari jamiyat taraqqiyotining kafolatlari to'g'risidagi ezgu g'oyalarimizga hamohangdir. Shunga tayangan holda XXI asrda oilalar rivojlanishiga asos bo'luvchi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy omillar va tamoyillar quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- XXI asr oilasi jamiyatda ustivor bo'lgan demokratik tamoyillarga asoslangan, hech qanday siyosiy kuchlarning sub'ektiv xohish-irodasiga qaram bo'lmaydigan, jamiyatni olg'a rivojlanishiga to'siq bo'luvchi illat va asoratlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan maskan rolini o'ynaydi;
- Yangi asr oilasi milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlar, an'analar va udumlarning jamiyat rivoji va oila barqarorligiga xizmat qiluvchi jihatlarni ilg'or, insoniyat taraqqiyotiga aloqador an'analar bilan uyg'unlashtiruvchi tabiiy makondir;
- XXI asr oilasi insonparvarlik va demokratiya tamoyillarining tom ma'noda jamiyatda ustivor bo'lishi va har bir jamiyat a'zosi bo'lgan fuqaro tomonidan ongli tarzda idrok qilinishi uchun ma'rifat maktabini o'ynaydi;
- XXI asr oilasi umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mamlakatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlanishi uchun ma'naviy qo'rg'on rolini o'ynaydigan ijtimoiy institutdir;
- XXI asr oilasi "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat", "Inson va uning manfaatlari har narsadan ulug'" degan tamoyillarni o'z a'zolari ongiga singdirish uchun qulay bo'lgan mafkuraviy muhitdir;
- XXI asr oilasi xalqimizning ma'naviy boyliklarini, jahon sivilizatsiyasining eng ilg'or yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradigan va shu asnoda har tomonlama barkamol sog'lom avlodni tarbiyalovchi maskandir;
- XXI asr oilasi har bir fuqaroning kuch va iqtidorini o'z halol va safarbar mehnati orqali ro'zg'orning iqtisodiy takomilini ta'minlash, shu orqali jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining samaradorligi va qudratini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar makonidir. Oila iqtisodini barqarorlashtirishda oilaviy tadbirkorlik, ijara, oilaviy ishlab chiqarish, kasanachilik shakllaridan oqilona foydalanadi va oila byudjetini yaxshilash, turmush tarzini farovonlashtirish uchun zamonaviy texnika va texnologiyalardan, maishiy xizmat shahobchalari xizmatidan unumli va o'rindi foydalanadi;
- XXI asr oilasi o'z fuqarolarida yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali insonlarga berilgan huquq va erkinliklarga ongli munosabatini ta'minlovchi, bunda milliy, umuminsoniy va demokratik tamoyillar ma'no-mohiyatini etkazuvchi ijtimoiy institutdir;
- XXI asr oilasi o'zining intellektual salohiyati, aql-zakovati va iqtidori bilan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanish orqali innovatsion kashfiyotlar va yuksak texnologiyalarni oila barqarorligiga yo'naltiruvchi, sog'lom ijodiy muhitni ta'minlovchi makondir.

Milliy g'oya va shaxs tarbiyasida oilaning roli

Milliy g'oyani omma ongiga singdirishni eng avvalo oiladan boshlash, oilaning etnopsixologik xususiyatlarini, oila a'zolari ongiga sog'lom fikrlarni singdirishning pedagogik tamoyillarini, psixologik mexanizmlarini, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ma'naviy-madaniy jihatlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Bugun barchamizga istiqloq mafkurasi va milliy g'oya mamlakatimiz erishayotgan va erishajak yutuqlarning asoslaridan birini tashkil qilishi, millatni millat, xalqni xalq qilib birlashtiruvchi, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining zaruriy mezonini ekanligi tarixiy haqiqatdir. "Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor".

Ma'lumki, iymonlilik, insonparvarlik, diyonat, e'tiqodlilik kabi shaxs mafkuraviy tasavvurlarining asosida yotgan fazilatlar o'smirning eng avvalo oilaviy munosabatlar tizimida tutgan o'rnidan, ota va ona, oiladagi boshqa katta avlod vakillarining ijtimoiy mavqelari va roli mazmunidan kelib chiqadi. Zero, mafkuraviy tasavvurlar hamda ular asosida shakllanuvchi insoniy fazilatlar shaxsning yaxlit strukturasidagi muhim omillardan hisoblanadi.

Milliy g'oyani oila muhitida bolaning ongi, qalbiga singdirishning muhim vositasi – bu oilaviy qadriyatlarni saqlash va ilg'or oilaviy an'nalarni kundalik tarbiya tizimiga joriy etish, turmush tarzining bir bo'lagiga aylantirishdir. Bunda ota-onaning o'rni va roli bevosita xarakterga ega bo'lib, faqat sog'lom muomala va samimiyat muhitigina o'smirning dunyoqarashi shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga

bog'liq ekanligini anglab etishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir.

Shu nuqtai nazardan, oilaviy an'analar, rasm-rusmlar va odatlar orqali bolalarimiz ongiga milliy g'oyani va istiqbol mafkurasini singdirishni ta'minlovchi psixologik omillar va shart-sharoitlarni aniqlash o'ta dolzarb va muhim vazifadir.

Xalq psixologiyasida mafkuraviy ta'sirchan omillar mohiyatini bilish, yangicha rasm-rusmlar marosimlarning ahamiyatli tomonlarini kundalik turmush tarziga aylantirish yoshlar e'tiqodiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik texnologiyalarga kiradi.

Ta'kidlash joizki, oila ijtimoiy institut sifatida o'zining barcha vazifalarini bajargan taqdirdagina, mafkuraviy tarbiyaning kafolatli o'chog'iga aylanadi. Zero, har bir oilaning muqaddas vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan etuk qilib, otanasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ya'ni, ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan sog'lom, barkamol inson faqat sog'lom oilada shakllanishi mumkin. Oiladagi sog'lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma'naviy takomilining aslosidir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda ayrim G'arb mamlakatlarida bir yilda o'nta nikohdan ettitasi buzilar ekan. Shuning o'ziyiq ma'naviy hayot, ahloq-odob masalasiga beparvolik va loqaydlik, erkinlikni o'zboshimchalik deb tushunish qanday og'ir va ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkinligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, asrlar davomida o'zbek oilasi mustahkam va baxtli bo'lishi uchun o'zida yaxshi ma'nodagi paternalizm tamoyilini asrab kelmoqda. Paternalizm (lot. Pater – ota, paternus – otalarcha,) – kishilar ongiga “otalarcha g'amxo'rlik” va “ijtimoiy sheriklik” g'oyasini singdirishga qaratilgan qarash va faoliyat majmui. Oila muhitidagi paternalizm – otaning obro'-e'tiborliligi, farzandlar tarbiyasi va oila farovonligidagi o'z o'rnini va mas'uliyatini anglashi va buning oila a'zolari tomonidan ongli e'tirof etilishidir. Bundan tashqari, ushbu tushuncha oiladagi keksalar, qariyalar, yoshlar, yordamga muhtojlar yoki iqtidorlilarga hamisha ko'maklashish, ular uchun etarli hayot sharoitini yaratishni ham nazarda tutadi. Paternalizm g'oyasi o'zida insonparvarlik, hamkorlik g'oyalarini ifodalab, xalqning umumiy qiziqish va intilishlarini aks ettirgani uchun ko'p hollarda jamiyatni birlashtirib, uning ravnaqi uchun xizmat qiladigan omil hisoblanadi, bu tom ma'noda mohiyatan o'zbek oilalarida o'z ifodasini saqlab qolgan. Bu qadriyat “oilaviy burch”, “hamjihatlik ruhi”, “fidoyilik”, “vatanparvarlik”, “oilaviy qadriyatlarga sadoqat”, “kattalarga hurmat”, “kichikka g'amxo'rlik” kabi tushunchalarga asoslanadi.